

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI**

“SERVIS” KAFEDRASI

J.A.QAHHAROV, Z.E.MAMARASULOV, СУВОНОВ З.И.

**UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI
DIZAYNI VA REKLAMASI**

MA’RUZALAR MATNI

**5610100-Xizmatlar sohasi (restoran ishi) ta’lim yo‘nalishidagi talabalar va
mutaxassislar uchun mo‘ljallangan**

J.A.Qahharov, Z.E.Mamarasulov. Umumiyl ovqatlanish korxonalari dizayni va reklamasi. Ma’ruzalar matni. Samarqand, SamISI, 2021 yil. 214 bet.

Taqrizchilar:

Fayziyev J.S. – SamISI “Servis” kafedrasi dotsenti, t.f.n.
Ravshanov Z. – Samarqand shahar «SEMRUG` NUR» M.CH.J direktori

Ushbu ma’ruzalar matni “Servis” kafedrasida yig‘ilishida ko‘rib chiqilgan va nashr etish uchun tavsiya etilgan. (Bayonnomma №7, 2021 yil 28 fevral).

Ma’ruzalar matni Samarqand iqtisodiyot va servis institutining o’quv-uslubiy Kengashida muhokama etilgan va o’quv jarayoniga tadbiq etish hamda nashr uchun tavsiya etilgan. Bayonnomma № 8, 2021 yil “18” mart

Ma’ruzalar matni hozirgi paytdagi umumiyl ovqatlanish korxonalarida qo‘llanilib kelinayotgan amaliy san’at asarlarning muhimligini hisobga olib, dizayn san’ati rivojlanishining asosiy bosqichlari, umumiyl ovqatlanish korxonalari dizayni, me’morchilik stillari va zamonaviy dizayn, xizmat ko‘rsatish korxonalarining intereri va ekstereri tavsifi, reklama va reklama faoliyatining mohiyati, ahamiyati va funksiyalari, unga qo‘yilgan asosiy talablar, reklama turlari, darajalari, reklama vositalari va ulardan foydalanishni rejalashtirish hamda umumiyl ovqatlanish korxonalarining tashqi va ichki reklamalari atroflicha yoritilgan.

Ushbu ma’ruzalar matni xizmatlar sohasidagi ta’lim yo‘nalishlarining bakalavriat talabalari va barcha qiziquvchilar uchun mo‘ljallangan.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgan kundan boshlab demokratik yangilanish va iqtisodiy islohatlarni erkinlashtirish yo‘lida ulkan qadamlar qo‘ydi. Iqtisodiyotimizda erishilgan natijalar negizida avvalo iqtisodiyotda tarkibiy islohatlarni chuqurlashtirish va uni modernizatsiya qilishning puxta o‘ylangan modeli va uzoq muddatga mo‘ljallangan dasturlarini bosqichma-bosqich amalga oshirish bo‘yicha olib borilayotgan tizimli, izchil, qatiy harakatlar turganini kuzatish mumkin.

Keyingi yillarda xizmat ko‘rsatish va servis sohasini rivojlantirish bo‘yicha respublikada qator choralar ko‘rilmoxda. Kelajakda O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatish va servis sohalarining rivojlanishida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 2017-yil 7-fevraldagি PF-4947-sonli Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2016 yil 26 fevralda “Xizmat sohasini 2016-2020 yillarga mo‘ljallangan rivojlantirish dasturi to‘g‘risida”gi 55-sonli qarori katta ahamiyatga ega.

Xizmat va turizm sohasi biznesida mexmonxonalar va restoranlar dizayni hamda reklamasi muhim o‘rin egallaydi. Servis korxonalarining dizaynini yaratish va reklamasini to‘g‘ri tashkil qilish ushbu sohadagi korxonalarning kuchli raqobatda yutib chiqishga imkoniyat yaratib beradi.

Xizmat ko‘rsatish korxonalari, ya’ni umumiy ovqatlanish korxonalari, mehmonxona, savdo korxonalari interyerlari estetik va badiiy ifodaga ega bo‘lishi, binoning funktional ko‘rsatmalariga javob bera olishi kerak. Foydalilanilgan xomashyolarning xususiyatlari, rang-barang va yorug‘ligi jihozlangan binoning ichki muhitini jozibador qilib bezatish vositalari sifatida xizmat qiladi.

Umumiy ovqatlanish korxonalari dizayni va reklamasi, korxonalar mavqeini oshirish, iste’molchilarни jalb qilish, xizmat iste’molchilarining estetik bahra olishini va raqobatda engib chiqishini ta’minlaydi.

Shuningdek, iste’molchilarining bozordagi faoliyatini hisobga olish nihoyatda muhim: xaridlar xususiyati ko‘p jihatdan shaxsiy, madaniy, ijtimoiy va psixologik

omillar bilan belgilanadi. Aynan shuning uchun umumiyligi ovqatlanish korxonalarida dizayn va reklamani asosiy maqsadi – tanlash vaqtida maqsadli iste'molchilar tipik vakilining e'tiborini, aynan reklama qilinayotgan ob'ektga jalb etishdan iborat. SHuning uchun xizmat ko'rsatuvchi mutaxassislar tomonidan iste'molchiga ta'sir o'tkazish, uning diqqatini “tortish”ga harakat qilishda dizayn va reklamaning o'rni katta ahamiyatga ega.

Shu sababli “Umumiyligi ovqatlanish korxonalari dizayni va reklamasi” fani aynan yuqorida keltirilgan tushunchalar bo'yicha etarlicha ma'lumot berishga ko'maklashadi.

I-BO'LIM. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI DIZAYNI

1-mavzu. “Umumiy ovqatlanish korxonalari dizayni va reklamasi” fanining mutaxassislar tayyorlashdagi o‘rni

Mavzu rejasi:

1. Fanning mutaxassislar tayyorlashdagi o‘rni
2. O‘quv fanining maqsadi va vazifalari
3. O‘quv fanining predmeti va boshqa fanlar bilan bog‘liqligi

Tayanch iboralar: dizayn, reklama, ob’yekt, loyiha, shakl ifodalanishi, kompozitsiya, interyer, eksteryer, umumkasbiy, ixtisoslik fanlari, turizm industriyasi.

1. Fanning mutaxassislar tayyorlashdagi o‘rni

Fandan tayyorlangan ushbu o‘quv qo‘llanma xizmat ko‘rsatish korxonalarida, ya’ni umumiy ovqatlanish korxonalarining dizayniga va undagi ko‘rsatilayotgan xizmatlarning sifatini oshirishda hamda servis sohasi mutaxassislarining ushbu fan yuzasidan olgan bilimlari amaliy yordam beradi.

Ushbu ma’ruzalar matni talabalarga quyidagi asosiy tushunchalarni anglab olishga ko‘mak beradi:

- “Umumiy ovqatlanish korxonalari dizayni va reklamasi” fanining mutaxassislar tayyorlashdagi o‘rni;
- dizayn san’ati rivojlanishining asosiy bosqichlari;
- umumiy ovqatlanish korxonalari dizayni;
- me’morchilik stillari va zamonaviy dizayn;
- xizmat ko‘rsatish korxonalarining intereri va ekstereri tavsifi;
- “Reklama va reklama faoliyatining mohiyati, ahamiyati va funksiyalari;

- reklamaga qo'yilgan asosiy talablar, reklama turlari va darajalari;
- reklama vositalari va ulardan foydalanishni rejalashtirish;
- umumiy ovqatlanish korxonalari tashqi va ichki reklamalari.

Mazkur o'quv qo'llanma dizayn va reklakma haqidagi bilimlarni chuqurroq anglashga yordam beradi.

Kelajakda o'z ixtisosliklari bo'yicha muvoffaqiyatli ish yuritishni maqsad qilib qo'ygan soha vakillariga zarur amaliy echim va usullardan xabardor bo'lish imkonini beradi.

2. O'quv fanining maqsadi va vazifalari

Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarda Umumiy ovqatlanish korxonalari dizayni va reklamasi bo'yicha nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalar majmuini shakllantirishdan iborat.

Fanning maqsadidan kelib chiqib bir qancha vazifalar qo'yiladi, ya'ni talabalarni dizayn ishlanmalaridan, reklama mahsulotlaridan samarali foydalanishga, sifatli reklama yaratishga uning maqsadlarini aniqlashga va axborot vositalarini samarali foydalanishga o'rgatish.

Fan bo'yicha talabalar bilim, malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishi uchun quyidagi talablar qo'yiladi:

- O'zbekistonda servis xizmatlarining holati va servis sohalarining rivojlanish istiqboli; dizayn obektlari, maqsadi, vazifasi va ijtimoiy mohiyati; dizayn obektlariga qo'yiladigan talablar; dizayn va uning asosiy tushunchalari; dizayn tarixi; me'morchilik stillari va zamonaviy dizayn; servis sohasi korxonalarining intereri; reklama va reklama faoliyatining mohiyati, ahamiyati va iqtisodiy samaradorligi; reklamaga qo'yiladigan talablar va reklama agentligi haqida tassavurga ega bo'lishi;

- servisda dizayn obektlarini; korxona turlari, kategoriyalari va binolarining intererlarini; servis sohasi dizayni ob'ektlari uchun proporsiya, simmetriya, asimmetriya, ritm, kompozitsiya, shakl kabi tushunchalarning ahamiyatini; milliy

dizayn va ulardan servis korxonalarining intererini shakllantirishda foydalanishni; servis sohasi korxonalari foyelarining intererlarini shakllantirishni; ovqatlanish zallarining intererlarini shakllantirishni; ovqatlanish stollarini dizayn talablariga ko‘ra bezashni bilishi va ulardan foydalana olishi;

- xizmat ko‘rsatish xonalarining intererlarini shakllantirish; savdo korxonalari sotish zallarining intererlarini shakllantirish; mehmonxonalar nomerlari intererlarini shakllantirish; ishlab chiqarish korxonalari sex va xonalarining intererlarini shakllantirish; ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak.

3. O‘quv fanining predmeti va boshqa fanlar bilan bog‘liqligi

Mazkur fanning predmeti bo‘lib servis sohasining umumuyligi ovqatlanish korxonalarini dizaynni shakllantirish, eksteryer va interyerini belgilash, ushbu korxonalarda reklama faoliyatini amalga oshirish bilan bog‘liq jarayonlar hisoblanadi.

“Umumiy ovqatlanish korxonalari dizayni va reklamasi” o‘quv fanini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

– dizayn tushunchasi va uslublari, shakllar ifodalanishi va kompozitsiya tushunchasi, interyer va eksteryer, dizayner va badiiy konstruktsiyalash, rang va chiroqlar (yoritgichlar) bilan binoni bezash, xizmat ko‘rsatish va servis sohalari bo‘yicha; dizayn va reklamaning servis sohasi korxonalari uchun ahamiyati to‘g‘risida; reklama turlari, shakllari bo‘yicha; reklama agentliklari to‘g‘risida ma’lumotlarni *bilishi kerak*;

– tayyor dizayn ishlanmalarini ratsional tanlay olish tajribasiga; servis sohasi korhonalarini turlarini hisobga olgan holda dizayn takliflarini shakllantirish va loyihibalarini tuzish, reklama takliflarni shakllantirish va reklama mahsulotini yaratish buyicha *ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak*.

– zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish hamda turistik ob‘yektlarning qurish joyini to‘g‘ri tanlashdan to‘ularning kerakli uslubni qo‘llagan holda bezash, shundan kelib chiqib iste’molchilarning talabiga javob bera oladigan darajada interyer va reklama yarata olishga qaratilgan *malakalarga ega bo‘lishi kerak*.

Dasturni amalga oshirish o‘quv rejasida rejalshtirilgan umumkasbiy (servisdagি texnologik jarayonlar, restoran menejmenti, restoran ishida marketing, mehmondorchilik industriyasi) va ixtisoslik fanlari (ovqatlanish korxonalari jihozlari ekspluatatsiyasi, restoran ishini tashkil etish) fanlaridan yetarli bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishni talab qilib, “Kasbiy etika va etiket”, “Sanitariya va gigiena”, “Servis faoliyati” kabi fanlar bilan uzviy bog‘langan.

Nazorat savollari:

1. Fanning maqsadi nimalardan iborat?
2. Fanning vazifalari nimalardan iborat?
3. Fan bo‘yicha talabalar bilishi kerak bo’lgan ma’lumotlar?
4. Fan bo‘yicha hosil bo’ladigan ko‘nikmalar?
5. O’quv fanining boshqa fanlar bilan aloqadorligi?

2-mavzu. Dizaynning vujudga kelishi

Mavzu rejasi:

1. Dizayn va uning asosiy tushunchalari
2. Dizaynning vujudga kelishi, ommaviy sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish va hunarmandchilik sanoati rivojlanishida dizaynning roli
3. Bugungi kundagi dizayn

Tayanch iboralar: dizayn, badiiy konsruksiyalash, texnik-estetik, dizayner, dizayn-shakli, san’at buyumlari, estetik tus berish, arxitektura, xaykaltaroshlik, amaliy sanat, energiya, telegraf, ommaviy sanoat, hunarmandchilik, MODERN, “Verkbund”, “BAUXAUZ”, yangi axborot texnologiya.

1. Dizayn va uning asosiy tushunchalari

Avvalo, dizayn tushunchasiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, u paydo bo’lganiga ko‘p bo‘lgani yo‘q. Inglizchadan tarjima qilinganda «dizayn» - chizma, rasm, loyiha

ma'nolarini anglatadi. Bunga qadar narsalarni loyihalashtirish «badiiy konstruksiyalash», narsalarni yaratish nazariyasi esa «texnik estetika» deb atalib kelinardi. «Dizayn» so'zi yasama tushunchalar: «dizayner» - rassom konstruktor, «dizayn-shakli» — buyumning tashqi shakli tushunchalarini vujudga keltirdi va hokazo.

Hozirga qadar dizaynning mazmuni, uning maqsadlari va imkoniyatlari haqida baxslar yuritib kelinmoqda. CHunonchi, mashxur italyan arxitektori va dizayneri D.Ponti dizaynning maqsadi – shakllar, narsalar dunyosini yaratishdan iborat bo'lib, ular sivilizatsiyamizning chinakam tavsifini ochib berishi lozim, deb hisoblaydi. Dizaynning boshqa bir nazariyotchisi T.Maldonado o'zgacha fikrni qo'llab-quvvatlaydi. Uning ta'kidlashicha, iste'mol predmeti badiiy asar funksiyasini bajarishi mumkin emas, san'at taqdiri esa sanoat buyumlari taqdiri bilan mos kela olmaydi. CHet ellarda dizaynning asosiy vazifasi – sotilishi oson bo'lgan narsalar yaratishdir, degan fikr keng tarqalgan. SHunday qilib, dizayn bozor ehtiyojlari va talablariga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'lib qolmoqda.

Olimlar, mutaxassislar dizaynni rassom-konstruktoring ommaviy sanoat mahsulotlarini loyihalash sohasidagi va shu asosda buyumlar muhitini vujudga keltirish sohasidagi faoliyatidir, deb qaraydilar. Zamon bizning ko'z o'ngimizda mehnatkashlarning sharoitlari va turmushning estetik mazmuniga tobora yuksak talablar qo'ymoqda.

Sanoat-texnika mahsulotlarining badiiy jihatdan maqsadga muvofiqligi, ularga estetik tus berish – olimlar, muxandislar, ishlab chiqarish xodimlarning muhim vazifasidir. CHunki, qulay va chiroyli buyumlar yaratishga qaratilgan badiiy konstruksiyalash (dizayn)ning diqqat markazida har doim odam, uning ijtimoiy va individual ehtiyojlari, iste'mol va ma'naviy talablari turadi.

Dizayn sohasini aniqlash hamisha ham oson bo'lavermaydi. Dizayn arxitekturadan (intererlarni loyihalash haqida gap borganda), haykaltaroshlikdan (aytaylik, bolalar maydonchalari yoki attraksionlar loyihalashtirilayotganda), amaliy san'atdan (idish-tovoqlar yoki mebellarning yangi turlari yaratilayotganda) ajratish qiyin.

Fikrimizcha yaratilayotgan, ishlab chiqarilayotgan har qanday buyum yoki

mahsulotdagi shakl, rang va bezak tushunchalarining uyg‘unligi dizayn maxsuli deb qabul qilinishi to‘g‘ri bo‘ladi. YA’ni, yaratilayotgan buyumlar ishlatish jihatidan qulay, arzon va go‘zal bo‘lishini ta’minlagan holda loyihalashdir.

Har bir predmet (buyum) san’at asaridan farqli o‘laroq qandaydir hayotiy muhim vazifaga, boshqacha so‘z bilan aytganda, funksiyaga egadir. Lekin, deyarli har bir kishida o‘zini go‘zal buyumlar bilan qamrab olish ehtiyoji bor. SHuning uchun ham buyumning qimmati ikki asosni – foyda va go‘zallikni qamrab oladi. Har bir buyumda texnik va estetik asos mavjud bo‘lib, u hamisha muhim bo‘lmaydi.

2. Dizaynning vujudga kelishi, ommaviy sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish va hunarmandchilik sanoati rivojlanishida dizaynning roli

XIX asr haqiqatan ham taraqqiyot asri bo‘lgan edi. Insoniyat yuz yil ichida texnikani taraqqiy ettirishda oldingi yuz asrdagidan kattaroq yo‘lni bosib o‘tdi. Bir texnikaviy mo‘jiza o‘rnini boshqasi egallay boshladi. Energiyaning yangi manbalari paydo bo‘ldi, xatto eng mukammal bo‘lib tuyulgan bug‘ mashinalari ham ichki yonuv dvigateliga, bug‘ turbinalariga, elektr motorlariga o‘rin bo‘satib bera boshladi. Telegrafdan keyin telefon vujudga keldi. Asrning oxirlarida «simsiz telegraf» - radio ishga tushirildi. Odam ovozini yozib olish, fotografiya va kinoni ixtiro qildilar. Asrning texnika taraqqiyoti temir yo‘llarida ham ko‘zga tashlanadi. Mashinalar to‘g‘risidagi ilm-fan ham tobora rivoj topib bordi. O‘sha davr konstrukturлari fikriga ko‘ra yaratilayotgan mashina-mexanizmlar chiroyli bo‘lishi shart emas, uning vazifasi faqat foyda keltirishdan iborat bo‘lgan. Go‘zallikning har qanday ko‘rinishlarini esa faqat rassomlargina san’at asarlari tarzida yaratishlari mumkin degan turli qarama-qarshi fikrlar bo‘lgan.

Turli buyumlarni mashinalar yordamida ommaviy ravishda ishlab chiqarish uzoq vaqt davomida buyumlarning shaklidan nusxa ko‘chirish yo‘li bilan bordi, bu buyumlarni ilgari hunarmandlar yaratgan edi. Biroq, ularni ishlab chiqarish texnologiyasi endi butunlay boshqacha edi: mashinalar yordamida ishlab chiqarilgan buyumlar faqat hunarmandlik buyumlarini eslatsa ham yaxshi didni haqorat qiluvchi yasama narsalarga o‘xshab ketardi.

SHoir, iste'dodli va har tomonlama bilimdon rassom Uilyam Morris (1834-1896) bo'lajak dizaynning eng birinchi nazariyotchilaridan biri edi. Morris ilgari surgan g'oyalarning ko'plari samarali natijalar bergen. Uning buyumlar ishlab chiqarishning sohalariga estetik narsalarning cheklanmagan holda kirib borishi to'g'risidagi g'oyasi ana shunday bo'ldi. So'ngra u material bilan bu materialdan ishlab chiqarilgan buyumning bog'lanishiga e'tibor berdi. Nihoyat, u buyumning shakli, bezatilishi va pardozlari uning mohiyatiga, vazifasiga muvofiq kelishidan iborat muhim prinsipni ko'rsatib o'tdi. Morris nazariyasining bu to'g'ri va ilg'or elementlari keyinchalik e'tirof qilindi va rivojlantirildi.

Mashinalar, stanoklarning shaklini o'zgartirishda "arxitektura" uslubi ustunlik qilardi. Buning asosan ikki sababi bor edi: birinchidan, arxitektura texnika, muxandislik hisob-kitoblari bilan an'anaviy ravishda bog'langan san'at edi, ikkinchidan, hamisha shunday bo'ladiki, yangi konstruksiyalar oldiniga o'z shakllarini eski, odatdagi shakllardan o'zlashtirib olardi. Mashinalarni bezatishning arxitektura uslubi bir necha o'n yillar mobaynida saqlanib qoldi. Eng yaxshi professional arxitektorlar mashinalarning eng ko'zga ko'ringan rassom konstruktorlari bo'lishdi.

XIX asrning oxirlariga kelib mashinasozlikdagi arxitektura uslubi sekin-asta barham topa boshladi. Mashinalarning shaklini o'zgartirishning qandaydir butunlay boshqacha g'oyalari talab qilinar, estetikani va uning texnika taraqqiyotidagi ishtirokini tushunishda yangi fikrlar etilib kelayotgan edi.

Ommaviy sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish, uni estetik jihatdan o'zlashtirish muammolari bilan bir qatorda hunarmandlik buyumlari savdo-sotiq bozorida juda muhim o'rin egallashda davom etdi. Uy-ro'zg'or va xo'jalik jihozlari hunarmandlar tomonidan muayyan an'analarga rioya qilgan holda tayyorlanadi. Har bir hududda o'ziga xos takrorlanmas shakllar, bezaklar va hatto texnologiya bo'lardi.

Ro'zg'ordagi deyarli barcha jihozlar: idishlar, cho'michlar, beshiklar, savatchalar o'yib ishlanardi. Naqshlar o'yib ishlangan narsalar bilan uyg'unlashib ketar, ba'zan g'oyat ajoyib ohangdoshlikni vujudga keltirardi.

Asrning oxiriga borib, ko'pgina hunarmandchilik o'zining ahamiyatini yo'qotadi, arzon sanoat mahsulotlari bilan qattiq raqobatga bardosh bera olmaydi. YOg'ochdan

idishlar ishlab chiqarish qisqara boshlaydi, fabrikada ishlab chiqarilgan chit xonaki gazmolni siqib chiqaradi. Kundalik turmushda ishlatiladigan ko‘pgina buyumlar umuman iste’moldan chiqib ketadi. Maxsus ustaxonalar tashkil etilib, ularda rassomlar buyumlarni loyihalashtirish yoki ilgari bajarilgan narsalarni - uy jihozlari, musiqa-asboblari, mebel va boshqa ko‘pgina narsalarni bezatishga jalb qilinadi.

Hunarmandchilik sanoatini (shu jumladan badiiy hunarmandchilik sanoatini) qo‘llab-quvvatlash uchun badiiy hunarmandchilik mакtablarini tarmoqlari ochildi.

XIX asrning oxirida ishlab chiqarishning (hunarmandchilik va fabrika ishlab chiqarishini) aralash tavsifida bo‘lishi sharoitda, qo‘lda buyum ishlab chiqarish va sanoat ishlab chiqarish tarafdorlari bir-biriga qarshi ko‘rashayotgan bir sharoitda yangi uslub yo‘nalish MODERN (aniq tarjimasi «yangi») vujudga keldi.

Yangi uslubning dastlabki sezilarli alomatlari belgiyalik arxitektor va rassom Van de Veldenning ishlangan inter’erlarida paydo bo‘ldi. Drezdendagi xalqaro ko‘rgazmada (1897 yil) uning ishlari hammaning tahsiniga sazovar bo‘ldi, «Modern» uslubiga asos yaratdi, bu uslub tez orada Evropaning barcha mamlakatlarida hukmron uslub bo‘lib qoldi. Barcha yirik shaharlarda mehmonxonalar, uy-muzeylar va boshqa ko‘pgina yodgorliklar, o’sha davr buyumlari – mebel idishlar, kiyimlar ham modern ruhida ishlangan edi.

Shakllarning odatdan tashqari xilma-xil bo‘lishiga qaramasdan, modern asarlari muayyan uslubiy xususiyatlari bilan ajralib turgan birinchi marta odam bilan tevarak-atrofni qurshab olgan buyumlar olami o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlikni hisobga olish zarurligi tasdiqlandi. Uy-joy va uning jihozlanishi umumiylar bir-biriga ta’sir qiluvchi organizm, odamning moddiy va ma’naviy ehtiyojlarini qondirishi lozim bo‘lgan organizm sifatida qarala boshladi.

Arxitekturaning betakror individual echimlarini, interer kompozitsiyalarni, jihozlar, mebel, naqshlarning shakllarini izlash, barcha yangiliklarning undovchi sababi bo‘lib qoldi. Modern uchun shakllarning manzaraliligi, rasmliligi, plastikligi tavsifli edi. Rassomni turli yuzalarining uyg‘unligi tabiiy omillar, bo‘yalgan daraxt, shisha va sopoldan qilingan har xil inkrustatsiya turlari, yaltiroq yoki chekanka qilingan metall nakladkalar yuzalarini uyg‘unligi ko‘proq qiziqtirardi. Bularning hammasi tanlangan

me'yorga, grafik temaga buysundirilardi. SHakllar va ranglarning uyg'unligiga odatda takrorlash, moslashtirish prinsipi asosida erishiladi.

Modern etakchi badiiy-stistik yo'naliш sifatida tarqalgan davrda yangi mebel yaratish muammolari vujudga keldi.

Toboro yangi-yangi buyumlar: telefon, grammofon va turli xil elektr asboblar inson turmush tarziga faollik bilan singib boradi. Muxandislar tomonidan loyihalashtirilayotgan va yanada kengroq ommalashib borayotgan avtomobillar sekin-asta o'z qiyofasini o'zgartirib, o'zining maxsus shakliga ega bo'lgan mashinaga aylanib bordi.

«Verkbund»ning asoschisi arxitektor German Mutezius 1941 yilga qadar mazkur jamiyatning prezidenti bo'lib qoldi. «Verkbund» o'zi vujudga kelgan dastlabki vaqtandoq bir qancha asosiy vazifalarni: hunarmandlik, ishlab chiqarishni sanoat negizida qayta ko'rish, sanoat ishlab chiqarishi uchun ideal namunalar yaratish, bezatish, naqshlar solishni olib borish vazifalarini qo'ydi. «Verkbund» o'z dasto'rini san'at industriya, hunarmandchilik va savdoda amal qilayotgan barcha eng yaxshi imkoniyatlarni tanlab olishni istaydi. Birlashma san'at mehnatidagi sifatli bajarilgan barcha narsalarni va tendensiyalarni o'ziga qamrab olishga intildi.

Mutezius «estetik funksionalizm» prinsipini aniq va ravshan qilib ifodalab berdi. Bu prinsipga binoan buyumning tashqi shakli uning mohiyati, tuzilishi, texnologiyasi va vazifasidan kelib chiqadi.

Peter Berens arxitektura inshootlarini qurish, mebel, idishlar, to'qimachilik buyumlarini loyihalashtirish sohasida katta tajribaga ega bo'lgan holda firmaning «badiiy direktor» lavozimiga keldi. U yasagan buyumlarini tashqi shakli asosan bir nechta geometrik elementlardan, ya'ni muxandislik va amaliy shakllardan iborat bo'lib, ular uyg'unlashtirilgan va muayyan me'yor va proporsiyalarga keltirilgan edi. P.Berensning amaliy ishlari faoliyatining yangi turi bo'lgan badiiy konstruksiyalash uchun katta ahamiyatga ega bo'ldi. Uni tom ma'nodagi birinchi dizayner deb hisoblashlari bejiz emas edi.

Rossiyadagi oktyabr revolyusiyasi va Evropadagi revolyusion voqealar urushdan keyingi dunyoning ilg'or dono kishilarga juda katta ta'sir ko'rsatdi. Evropa

madaniyatining yangi sahnasi ochildi, u bilan birgalikda esa texnika va san'at nisbati muammosining yangi jihatlari vujudga keldi.

1919 yilda Germaniyaning kichikrok shahri bo'lgan Vemarda «BAUXAUZ» (aynan «Qurilish uyi») tashkil etildi. U sanoatda ishlaydigan rassomlar tayyorlashi lozim bo'lgan dastlabki o'quv yurti edi. Qiska vaqt ichida «Bauxauz» dizayn sohasida chinakam metodik markaz bo'lib qoldi. Uning faoliyati boshlanishi garmonik buyumlar muhitini vujudga keltirish yo'li bilan jamiyatni qayta qurish mumkin, arxitekturaga esa «sotsial hamjihatlik timsoli» deb qaraldi, san'at, hunarmandchilik va texnika birlashtiruvchi asos deb e'tirof qilindi. «Bauxauz» talabalar yagona predmet ustida emas, balki sanoat ishlab chiqarishi uchun kerakli etalon ustida ishlar edi. «Bauxauz» buyumlari 20-yillardagi tasviriy san'at, grafika va haykaltaroshlikning sezilarli ta'sirini o'zida aks ettirardi. Buyumlar shaklida o'sha davr uchun tavsifli bo'lgan kubizmga xos geometrik shakllar ko'zga tashlanib turardi. Misol uchun, choynaklar va shardonlar kesik konussimon va yarim doira shaklida yasalishi, boshqa variantda esa yarim doira, yarim aylana va silindrlardan tuzilishi mumkin edi.

Gropius (Breyer bilan hamkorlikda) loyihalashtirgan kvartirasining ichki jihozlanishi o'zining demokratik negizi bo'yicha kelajakdagi prograssiv uy-joyning modeli bo'lgan edi. U nihoyatda kamtarona qurilganligi, qulayliklari bilan ajralib turar va ko'p jihatdan maishiy bo'shliqni barpo etishning asosiy tendensiyalari orqada qoldirilgan bo'lib, unda kenglik, havoning mo'lligi, hajmdor mebelning yo'qligi ko'zga tashlanib turardi.

«Bauxauz»ning ahamiyati nihoyatda katta bo'ldi. U faqat dizaynerlar tayyorlashni tashkil etishda namuna bo'lib qolmay, shu bilan birga arxitektura va badiiy konstruksiyalashning chinakam ilmiy laboratoriyasi bo'ldi. Badiiy idrok etish, shakllar hosil qilish, rangshunoslik sohasidagi metodik ishlanmalar ko'pgina nazariy asarlarga negiz bo'ldi va hozirga qadar ham o'zining ilmiy qiymatini yo'qotgan emas.

1920 yilning dekabrida Moskva Davlat oliy badiiy texnika ustaxonalari (VXUTEMAS) tashkil etildi. Bu ustaxona maxsus oliy o'quv yurti bo'lib, «sanoat uchun oliy malakali rassom-ustalar» tayyorlashni maqsad qilib qo'yishi lozim edi. VXUTEMAS dastlabki sobiq Stroganov bilim yurti bilan sobiq rassomlik,

haykaltaroshlik va me'morlik bilim yurtini birga qo'shish natijasida vujudga keladi. 1926 yilda VXUTEMAS institutga (VXUTEMAS) aylantirildi, u 1930 yilgacha mavjud bo'lib turdi. YAngi o'quv yurtida badiiy ijodni ham san'at asarlarini o'z ichiga oladigan va ularni yaratadigan ham turmush va texnikadagi badiiy jihatdan qimmatli buyumlarni yaratishni o'z ichiga oladigan keng soha sifatida talqin qilinardi.

Metall va yog'ochga ishlov berish fakultetlari bo'lajak dizaynga asos solib, juda katta ish qildilar. VXUTEMAS va VXUTEIN huzurida ilmiy tadqiqot laboratoriyalari ham ishlardi, ular haqiqatan ham ilmiy jihatdan asoslangan ta'limni yo'lga qo'yish va badiiy fanlar tabiatni tekshirishni o'ziga maqsad qilib qo'ygan edi.

O'sha davrlarda V.Tatlin, A.Radchenko, L.Papova dizaynerlik yo'naliishing eng e'tiborli namoyondalaridan edilar.

Yigirmanchi yillarda esa ilmiy dizayn vujudga kela boshladi.

Mashhur Moskva metropolitenining yaratilishi dizayn rivojlantirilishidagi alohida muhim voqeа bo'ldi. U loyihalashtirish va qurilishning boshidanoq yaxlit arxitektura transport kompleksi sifatida tasavvur qilinardi. Arxitektorlar amalda dizaynerlarga aylandilar, ular faqat stansiyalarni arxitekturasini emas, shu bilan birga vagonlarni arxitekturasini ham, yozuvlarning shriftini ham, eskalatorlarning shaklini ham, loyihalashtirilgan stansiyalarning joylashuvini ham, ularning erdagи transport bilan bog'lanishini ham hal qildilar. Natijada Moskva metrosi va uning qulay vagonlari, stansiyalarning yorug' va chiroyli zallarida hech qanday «er osti sharoiti» sezilmasdi.

O'ttizinchi yillarning oxirida dizayn madaniy-maishiy buyumlar sohasiga ham kirib kela boshladi, natijada rassomlar birinchi diskli telefon apparatini, radiopryomnikni, yoritish operatori, mebellarni loyihalashtirishda qatnashdilar. Bu qiziqarli ishlarni yanada ilgari siljitimiga ikkinchi jahon urushining yaqinlashuvi xalaqit berdi.

Ma'qul bo'lgan yaigiliklarni seriyali, ommaviy sanoatda yaratish bilan bir qatorda badiiy konstruksiyalash sohasida ham ilmiy izlanishlar olib borildi. Ularga engil va yuk mashinalari komponavkasini, ya'ni boshqarish organlarini joylashuvi, o'rindiqning optimal balandligini, uning qiyaligini, old oynasini balandligi kabilarni aniqlashni kiritish mumkin.

Yangi fan hisoblangan ergonomika yo'llari izlab ko'rildi. Kemasozlik va avtomobil kuzovini barpo qilishda dizaynerlik loyihalari sohasida ham nazariy ishlar olib borildi. Masalan, 1943 yilda rassom V.Samoylov ishlab chiqqan «Pobeda» avtomobili yuqoridagi izlanishlar natijasi hisoblanadi.

Badiiy konstruksiyalash faqat ayrim arxitektorlar, rassomlar va muxandislarning tashabbusi tufayli rivojlandi. Biroq, vaqt o'z ta'sirini ko'rsatar, o'ttizinchi yillar yakka-yagona dizayndan ommaviy dizaynga o'tish davri bo'lgan edi.

Urushdan keyingi yillarda dizayn buyumlar muhitini loyihalashtirishda yanada ko'proq joriy qilina boshladi. Maxsus dizaynerlik tashkilotlari paydo bo'ldi. Badiiy konstruksiyalashni foydasi va uning an'anaviy sof muxandislik konstruksiyalashidan afzalligi batamom aniq bo'lib qoldi. Loyihachi rassomning konstruktor ishidan ilgarilab ketishi bilan ishslashning maqsadga muvofiqligi isbotlab berildi.

3. Bugungi kundagi dizayn

Har bir ishlab chiqarish korxonasi ishlab chiqariladigan buyumlarning turiga ko'ra asosiy va ixtisoslashtirilgan konstruktorlik bo'limlaridan iborat bo'ladi. Konstruktorlik tashkilotlari shug'ullanadigan loyihalash ob'ektiga loyiha topshirig'ini tuzishdan amaliy ishlarni bajarish uchun ishchi chizmalarni tayyorlashgacha bo'lgan ishlar majmuidan iborat bo'lib, juda murakkab va uzoq davom etadigan jarayon hisoblanadi. Konstruktorlik hujjalarigra grafika va tushuntirish matni shaklidagi hujjalarni kiradi. Ular alohida yoki birgalikda buyumning tarkibi va tuzilishini belgilaydi. Uni ishlab chiqish yoki tayyorlash, nazorat, qabul, ekspluatatsiya va ta'mirlash uchun zarur ma'lumotlarga ega bo'ladi.

Sanoat-texnik mahsulotlarning badiiy jihatdan maqsadga muvofiqligi, ularga estetik tus berish olimlar, muxandislar, ishlab chiqarish xodimlarining muhim vazifasidir. Qulay va chiroylar buyumlar yaratishga qaratilgan badiiy loyihalash (dizayn)ning diqqat markazida hamisha odam, uning ijtimoiy va individual ehtiyojlari, iste'mol va ma'naviy talablari turadi. Har bir predmet qandaydir hayotiy muhim vazifaga (funksiyaga) egadir. Lekin, deyarli har bir ishda o'zini go'zal buyumlar bilan

o‘rab olish ehtiyoji bor. SHuning uchun ham buyumni qimmati ikki asosni – foyda va go‘zallikni qamrab oladi. Har bir buyumda texnik va estetik asos mavjud bo‘lib, u hamisha muhim bo‘lmaydi va tarixan almashinib turadi.

Bizning asrimiz fan-texnika yutuqlarining mislsiz darajada taraqqiy etishi hamda bu taraqqiyot natijalarining oddiy insonlar hayotiga juda qisqa muddatlarda keng kirib kelayotganligi bilan tavsiflanadi. Mana shunday taraqqiy omillaridan biri bu, shubhasiz yangi axborot texnologiyalaridir. Bugungi kunda hayotimizning hech bir sohasini, jumladan ta’lim tizimini ham yangi axborot texnologiyalari (YAAT) hamda uning asosi bo‘lgan kompyuterlarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi.

Axborotlarni qabul qilish, qayta ishlash va yangi axborotni yaratish bilan shug‘ullanuvchi texnologiyalarni kompyuterlar asosida joriy etish, ya’ni belgilangan faoliyat to‘rini amalga oshiruvchi kompyuter va unda joriy etilgan dasturiy ta’mintoni yuritish majmuasi yangi axborot texnologiyasi deb yuritiladi. Axborotlar davri hisoblangan bugungi kunda tarixda birinchi marotaba insoniyat faoliyatining ko‘plab sohalari moddiy buyumlar bilan emas, balki axborotlarni qayta ishlash bilan bog‘liq bo‘lmoqda. SHu sababli, bugungi kunda yoshlarni axborot davrida yashash va ishlashga o‘rgatish, ularda axborotlarni yig‘ish, tartib va tahlil qilish, uni uzatish ko‘nikmalarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bular o‘z navbatida o‘quvchilarning ko‘plab qobiliyatlarini, shu jumladan, ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishda ham muhim asos vazifasini o‘taydi, chunki har qanday yangi g‘oyani taklif qilishda ilgari qaralayotgan sohani batafsil o‘rganib chiqish, yangi axborotlarni topish va uni tavsiya etilayotgan echim bilan bog‘lashni o‘rganish lozim bo‘ladi. Bu vazifalarni amalga oshirish uchun esa, albatta oddiy inson xotirasida saqlab bo‘lmaydigan darajada katta hajmdagi axborotlarni qayta ishlash talab etiladi. YAAT imkoniyatlari ushbu muammoni avtomatlashgan o‘quv-axborot tizimlari, bilimlar banki va ma’lumotlar banklari vositasida oson va samarali hal qilish imkoniyatlarini yaratadi.

Texnik ijodkorlikni amalga oshirishda kompyuterlarni qo‘llashning shakl va usullarini belgilashda, avvalo ular yordamida o‘quvchilarning ijod qilishini emas, balki yangi texnik echimni yaratishga axborotlarga bo‘lgan ehtiyojini qondirishi va uni

amalga oshirishning samarali yo‘llarini ishlab chiqishda foydalanishini e’tiborga olish lozim.

Respublikamizda ta’lim tizimini isloh qilish barobarida badiiy ijodiyot, dizayn yo‘nalishlariga ham alohida ahamiyat berilyapti. CHunonchi respublikada milliy rassomlik va dizayn institutlari, qator o‘rta maxsus kasb-hunarga o‘rgatish o‘quv yurtlari ochilmoqda. Turli ko‘rgazmalar, tanlovlari, ilmiy-amaliy tadbirlar o‘tkazilib kelinmokda. Bularning hammasi albatta o‘z samarasini kursatmay kolmaydi. Ayniqsa libos, interer va eksterer dizayni bo‘yicha ajoyib loyihalarni va ularning amaldagi tatbig‘ining guvohi bo‘lishimiz mumkin.

Xalqaro miqyosda texnika yo‘nalishidagi g‘oyat turli-tuman mukammal dizaynerlik san’atining namunalarini ko‘rishimiz mumkin. Bu yo‘nalishda ham O‘zbekistonda turli tavsifdagi mavzular, g‘oyalar, yangi loyihalar bo‘yicha dizaynga xos jihatlari rivojlanib bormoqda.

Buyumlearning doimo almashinib turishini rag‘batlantirishda, talabni sun’iy ravishda qiziqtirib turishda dizaynning roli muhim o‘ringa egadir. U hamisha buyumlargacha yangi shinamlik fazilatlarini bag‘ishlaydi yoki ularni ko‘zga tashlanadigan ramziy qiyofasini shunchaki o‘zgartirib yuboradi.

Bizning davrimizda dizaynda shubhasiz mavjud bo‘lgan ayrim umumiyl vazifalar turli mamlakatlardagi bu yangi san’atning ilg‘or, chinakam ijodkor arboblarini yaqinlashtirishga yordam beradi. 1957 yilda tashkil etilgan dizaynerlar xalqaro tashkiloti (IKSID) jahon rassomlarining buyumlar muhitini takomillashtirish sohasidagi ko‘p qirrali faoliyatini muvofiqlashtirib turadi. Muntazam o‘tkazilayotgan amaliy seminarlar ham professiolnal jihatdan, ham ijtimoiy jihatdan juda katta ahamiyatga ega bo‘lyapti, ularga turli mamlakatlardan dizaynerlar to‘planishadi. Bu jarayon doimo bo‘lib turishi san’at, dizayn ijodida o‘zaro fikr almashishga va yangi ijodlarni yaratilishiga olib keladi.

Nazorat savollari:

1. Dizayn deganda nimani tushunasiz?
2. Diaynning asosiy tushunchalariga nimalar kiradi?

3. Dizayner D.Ponti dizayn haqida qanday fikrlarni bildirgan?
4. Dizayn qanday vujudga kela boshlagan?
5. Ommaviy sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda dizayn qanday o‘rin tutadi?
6. Hunarmandchilikning rivojlanishida dizayn qanday o‘ringa ega?
7. Germaniyada qanday tashkilot tashkil etildi va uning vazifasi nimalardan iborat?
8. Bugungi kunda dizaynga qanday etibor berilyapti?

3-mavzu. O‘zbek xalq amaliy bezak san’atining dastlabki boshlanish davri, turlari va rivojlanish jarayoni

Mavzu rejasi:

1. O‘zbek xalq amaliy bezak san’atining dastlabki boshlanish davri
2. Yog‘och o‘ymakorligi
3. Kulolchilik
4. Zardo‘zlik

Tayanch iboralar: amaliy bezak sanati, sanat asarlari, memorchilik sanati, ganchkorlik, naqqoshlik, kandakorlik, zargarlik, tasviriy sanat, yog‘och o‘ymakorligi, arxeolog, misgarlik, kulolchilik, zardo‘zlik.

1. O‘zbek xalq amaliy bezak san’atining dastlabki boshlanish davri

O‘zbek xalqining ko‘p asrlik tarixida xalq amaliy bezak san’ati turlariga boy, rang-barang madaniy merosimizning eng ajoyib va ommaviy qismini tashkil etadi. O‘zbek diyorida vujudga kelib gullab-yashnagan san’at turlari betakrorligi bilan dunyoga mashhur. Bunday kamolot va taraqqiyot bosqichlari haqida fikr yuritadigan bo‘lsak, O‘zbek amaliy bezak san’ati turlarining shox ildizlari insoniyatning bolaligi, ya’ni ibtidoiy jamiyatga borib taqalishining guvohi bo‘lamiz.

O‘lkamiz zaminidagi tarix qatlamlarini qazishlar natijasida topilgan yodgorliklarning guvohlik berishicha, inson jismga badiiy ishlov berish usulidan buyum yaratish faoliyati tosh asridayoq boshlangan bo‘lib, asrlarosha hozirgachauzluksiz davom etib kelmoqda.

Inson ongli faoliyatining ajralmas qismi bo‘lmish badiiy tafakkur va shunga muvofiq badiiy-ijodiy faoliyat insoniyatning tarixiy taraqqiyoti jarayonida juda katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Bunday faoliyat natijasida kelib chiqadigan estetik-badiiy idrok qobiliyati kishilarda olamni, undagi mavjudodlar, narsalar va voqeа-hodisalarни, atrof-muhitdagi shakllar va ranglarni turfa shakl-shamoilda qaytadan aks ettirishga xavas uyg‘otadi. SHakl va ranglarning real hamda stillashtirilgan tasvirlarini yaratish shu tariqa kelib chiqdi va u o‘z navbatida, odamlarning kundalik turmushlaridan o‘rin ola boshladi. Natijada badiiy bezaklarning xilma-xil shakllari va turlari paydo bo‘ldi. O‘zbekiston va umuman O‘rta Osiyo xalqlarining bizgacha etib kelgan san’at asarlari orasida naqshlar asosida yaratilgan badiiy asarlar alohida ko‘p sonni tashkil etadi. Boshqa san’atlarga nisbatan bunday naqshli bezaklar ko‘pligining va takomillashganligining muayyan tarixiy sabablari bor. Ma’lumki, Islom mamlakatlarida mavjudotlar tasvirini ishlash keng odat tusiga kirmagan, zero, mavjudodni yarata olish faqatgina qodir Tangriga xosdir, insonlar esa bunday ishni bajarishga ojizdirlar, inchunin, bordi-yu biror ishni takomil darajasida ijro etish imkonи yo‘qligi avvaldan ma’lum ekan. Boshqacha aytganda, hech bir tasvir unda ifodalangan mavjudod darajasiga ko‘tarila olmaydi, shu bois tasvir soxta bo‘ladi.

Tasviriy san’at bu qadar chuqur, falsafiy yondashish natijasida shartlilik, stillashtirish, ramziylikka asoslangan badiiy bezak asarlari yaratish kuchaygan. Ushbu tarixiy omil O‘zbek milliy san’atining gurkirab rivojlanishiga to‘rtki bo‘lganki, hozirda jahonga mashxur me’morchilik yodgorliklarimiz ulardagi ganchkorlik, qoshinkorlik, naqqoshlik, xattotlik, toshtaroshlik va boshqa turdagи san’atlarning ajoyib darajada mujassamligidan iboratdir.

Samarqand, Buxoro, Xiva, SHaxrisabz, Termiz, Toshkent, Qo‘qon va boshqa shaharlarda me’morchilik va xalq amaliy san’ati yodgorliklari o‘tmish avlodlarimiz yaratgan barkamol, takrorlanmas va tarixan bebaho san’at asrlarining namunalari bo‘lib,

xalqimizning va shu bilan birga jahon madaniyatining durdonalaridan bo‘lgan badiiy va madaniy merosni tashkil etadi. Xalq amaliy bezak san’ati kishilarning ma’naviy olamini boyitadi, badiiy didini shakllantiradi, ruhiyatini tarbiyalaydi. SHuning uchun ham O‘zbek xalq amaliy san’ati kishilarni badiiy, ahloqiy, umuminsoniy tarbiyalab, ularning ilmiy dunyoqarashlarini shakllantirishda hamda madaniy darajasini yuksaltirishda eng zarur manbalardan biri hisoblanadi.

Ma’lumki, mavjud barcha san’at turlari o‘z o‘quvchisiga, tinglovchisiga yoki tomoshabinga o‘tkazadigan badiiy, hissiy, ruhiy ta’siri orqali bilim beradi va tarbiyalaydi. SHu o‘rinda amaliy bezak san’ati turlarining fazilatlari juda ham o‘ziga xos bo‘lib, ularni boshqa hech narsa bilan almashtirib bulmaydi. YA’ni, bunday san’at asarlari ayni chog‘da ham badiiy, ham amaliy vazifalarni bajara olishi, ularning xalq orasida keng tarqalishiga sabab bo‘lgan.

YAqin o‘tmishda O‘zbek amaliy bezak san’atining eng rivojlangan ganchkorlik, naqqoshlik, yog‘och, tosh va suyak o‘ymakorligi, qandakorlik, pichoqchilik, zargarlik, kashtachilik, zardo‘zlik, gilamchilik, kigizchilik, savatchilik, buyrachilik (qamish materialidan to‘qiladigan buyumlar) kabi turlarining o‘ziga xos bajarish texnologiyalari, haqiqiy milliy nomlari, ularga xos atamalar, bu san’atlarga xos maktablar, uslublar hamda shu sohalarda nom qozongan ustalarning xizmatlari unutilib va yo‘qolib ketish xavfi ostida qolgan edi.

Bunday holat hozirgi kunda san’atkorlar, xalq ustalari, muallimlar va san’at xavaskorlari oldiga amaliy bezak san’atini saqlab qolish, ularni har tomonlama o‘rganish va rivojlantirish, yosh avlodga san’at sir-asrorlarini o‘rgatish orqali o‘ribbosarlar tayyorlash, san’at asarlarini keng targ‘ib qilish orqali jamoatchilikning estetik didini, madaniy darajasini yanada yuqori bosqichga ko‘tarilishiga erishish vazifalarini qo‘yadi.

Bu maqsadlar yo‘lida olib boriladigan ishlar xalq ustalari, san’atkorlar uchun eng qulay shart-sharoitlar yaratish, yoshlarning badiiy ta’lim oishlari, san’atlarini egallahlarini tashkil etish va to‘g‘ri ilmiy- uslubiy yo‘nalishda olib borish, san’atkor-pedagoglar tayyorlashni yo‘lga qo‘yish, tegishli ilmiy tadqiqotlarni olib borishdan iborat bo‘lishi kerak. Xalq amaliy san’ati va xalq ustalarini targ‘ib qilish o‘choqlari

sifatida maktablar, kollej-litseylar, madaniyat saroylari, uylari, o‘quvchilar saroylarida tashkil etiladigan to‘garaklar alohida ahamiyatga ega.

Keyingi yillarda mamlakatimizda qadimiyligi va boy tariximiz, milliy o‘zligimiz, betakror qadriyat va an’analalarimiz timsoli bo‘lgan xalq amaliy san’atini rivojlantirish, hunarmandlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ushbu yo‘nalishda xalqaro hamkorlikni kengaytirish va shu asosda O‘zbekistonning bu sohadagi ulkan salohiyat va imkoniyatlarini dunyoga namoyon etish borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Hozirgi vaqtida hunarmandchilik san’ati xalqimiz kundalik hayotidan tobora mustahkam o‘rin egallamoqda. Mamlakatimizda har yili mazkur yo‘nalishda yuzdan ziyod festival va yarmarkalar, savdo ko‘rgazmalari va boshqa tadbirlar o‘tkazilayotgani ham shundan dalolat beradi.

Jahon xalq amaliy san’atini, uning ajralmas qismi bo‘lgan o‘zbek milliy hunarmandchilagini asrab-avaylash va rivojlantirishga qaratilgan ana shunday ezgu ishlar ushbu bebahohi boylikni kelgusi avlodlarga bezavol etkazish, bu yo‘ldagi sa’y-harakat va imkoniyatlarimizni birlashtirishda muhim ahamiyatga ega ekanini ta’kidlash lozim.

Ana shu omillarning barchasini e’tiborga olib hamda mamlakatimizda xalq amaliy san’atini rivojlantirish, uning milliy qadriyatlarimiz davomiyligini saqlash, ularni keng targ‘ib etish, yosh avlodni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash borasidagi o‘rnini va ahamiyatini yanada oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2019 yil 3 oktyabrda “Xalqaro hunarmandchilik festivalini o‘tkazib borishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni qabul qilindi. Ushbu farmonda Farg‘ona viloyatining Qo‘qon shahrida har ikki yilda bir marta “Xalqaro hunarmandchilik” festivalini o‘tkazish hamda “Hunarmandchilik va xalq amaliy san’atini rivojlantirish istiqbollari” mavzusida ilmiy-amaliy konferensiyalar o‘tkazilishi ta’kidlab o‘tilgan.

Bu esa o‘zbek xalqining amaliy sa’natini rivojlantirish va uni dunyoga tanitishni amalga oshiradi.

Bundan kelib chiqib, ilk bor 2019 yil 10-15 sentyabr kunlari Qo‘qon shahrida I Xalqaro hunarmandchilik festivali bo‘lib o‘tdi va unda 80 dan ortiq mamlakat

hunarmandlari, hamda 1000 nafar mahalliy hunarmandlar ishtirok etdi.

2. *Yog‘och o‘ymakorligi*

Yog‘och o‘ymakorligi O‘zbek xalq amaliy bezak san’atining keng tarqalgan bir turi. Bunda biror naqsh yoki tasvir taxta yoki yog‘och buyumlarga chizib, kesib, o‘yib ishlanadi. Badiiy san’atning bu turi deyarli barcha xalqlarda bo‘lib, qadimgi SHarqda antik dunyo mamlakatlari arxitekturasida keng ishlatilgan. Asrlar davomida Evropa va Osiyo mamlakatlarida yog‘och o‘ymakorligining rivojlanib, o‘ziga xos badiiy uslublari kelib chiqqan. SHu singari O‘rta Osiyoda ham yog‘och o‘ymakorligi qadimdan rivojlanib, kishilarning uy-ro‘zg‘or buyumlarida va arxitekturasida juda keng qo‘llanilgan. Bu o‘ymakorlik qadimiylar arxitekturaning eshik, darvoza, ustunlar, har xil to‘sish, stol, xontaxta, quticha, ramka, qalamdon va boshqa buyumlarni bezashda ishlatilib kelingan. Arxeolog olimlarimizning izlanishlaridan O‘rta Osiyoda gorelefli, ya’ni juda bo‘rtik (1 mm dan 20 mm gacha) releflar bilan har xil narsalarni yog‘ochdan o‘yib ishlanganligi ma’lum bo‘ldi. Xalq yaratgan asarlar o‘zining nafosati, murakkabligi, tabiiylici bilan kishi aqlini lol qoldiradi. Afsuski, yog‘ochdan ishlangan ajoyib yog‘och o‘ymakorligiga har qancha sifatli ishlov berilishiga qaramay asrlar o‘tishi bilan ular namga dosh beraolmay deyarli ko‘pchiligi chirib, yo‘q bo‘lib ketgan. Bularni arxeologik qazilmalarda topilgan va topilayotgan namunalar isbotlab bermoqda.

V-VI asrlar yog‘och o‘ymakorligi namunalari Surxondaryo vohasidagi YUmaloq tepe tubidan topilgan. Olimlarimizning aniqlashicha bundan 1-1,5 ming yil muqaddam mazkur joyda naqsh o‘ymakorligi san’ati bo‘lib, u juda yaxshi rivojlanganligi isbotlangan. Bunday noyob topilmalar Samarqand, Buxoro, Xiva, SHaxrisabz va boshqa shaharlardagi arxeologik qazilmalardan topilmoqda.

VII asrning oxirigacha mahalliy O‘zbek xalqi ichida yog‘och o‘ymakorligi juda tez sur’atlar bilan rivojlangan edi.

IX-X asrlarda O‘rta Osiyoda, shuningdek yurtimiz hududida madaniyat o‘sashoshlaydi. IX asrda Samarqand mustaqil davlat bo‘lib qoldi. Xalq madaniyatida yangi burilish bo‘ldi. SHu asrlarda buyuk olimlar, faylasuflar, yozuvchilar etishib chiqdilar. Ular Abu Ali ibn Sino, Ro‘dakiy, Firdavsiy, Beruniy va boshqalardir. Ajoyib

arxitektura yodgorliklari yaratildi. Masalan, jahonga mashxur Ismoil Somoniy maqbarasidir. Madaniyatning rivojlanishi yog‘och o‘ymakorligining yanada rivojlanishiga olib keldi. YOg‘och o‘ymakorligi bilan eshiklar, binolar, ustun, ravok hamda har xil xontaxtalar bezatildi. O‘ymakor ustalar o‘zi yaratgan san’at asarlarida timsol va duo afsunlar, tasbix va tanosiblarning naqadar ko‘pligini ko‘rish mumkin. Har bir o‘yma naqsh zaminida qandaydir ramziy ma’no yashiringan bo‘ladi. Ular bu murakkab naqshlar orqali voqelikdagi eng go‘zal tilaklarni aks ettirib kelganlar.

X-XII asrlarda xalq amaliy san’ati yanada gurkirab rivojlandi. Murakkab naqsh turi bo‘lgan geometrik naqsh, ya’ni girix naqshi bezakda etakchi o‘rinni egalladi. Girix forscha so‘zdan olingan bo‘lib, “chigal”, “tugun” degan ma’nolarni anglatadi. U murakkab naqsh turiga kiradi. U geometrik naqshning muayyan taqsimlariga ega bo‘ladi va qat’iy qonuniyatga ega murakkab shakllar asosida tarqorланади.

Uning yordamida arxitektura, uy-ro‘zg‘or buyumlari yanada badiiy, nafis qilib bezatildi. Girix naqshi yanada rivojlandi. Masalan, XII asrga oid yog‘och o‘ymakorligi namunasi Samarqanddagi SHoxizinda devorining orasidan topilgan bo‘lib, u o‘zining badiiy nafis va tabiiy ishlanganligi bilan kishini lol qoldiradi.

XIII asrda Chingizzon bosqinchiligi tufayli madaniy hayot izdan chiqdi. 1219-1221 yillarda mo‘g‘ul hukmdorligi ostida O‘rta Osiyodagi Buxoro, Samarqand, Urganch, Balx, Mavr shaharlari ostin-ustun qilib tashlandi.

XIII asrning ikkinchi yarmida O‘rta Osiyo Temur boshchiligidida birlashtirildi. Temur va temuriylar davrida san’atning barcha turlari qatori xalq amaliy san’ati juda tez sur’atlar bilan rivojlandi. Ayniqsa yog‘och o‘ymakorligi ham yuqori cho‘qqiga ko‘tarildi. Amir Temur O‘rta Osiyo madaniyati va san’atini rivojlantirishda katta hissa qo‘shdi.

Amir Temur o‘z poytaxti (Samarqand)ning qurilish va obodonligi uchun harakat qilish bilan bir qatorda Xuroson (Afg‘oniston), Eron, Movaraunnahr singari o‘lkalardan eng mashxur hunarmandlarni, san’atkorlarni poytaxtga to‘pladi, nafis tasviriy san’atning naqqoshlik, me’morchilik, arxitektura, xattotlik kabi turlarini rivojlantirishda ulardan unumli foydalandi.

XIV-XV asrlarda Samarqandda to‘plangan mahalliy va xorijiy san’atkorlar,

hunarmandlar va muxandislar jome' masjidlari, madrasalar, xonakolar, saroylar hamda boshqa ulkan inshootlar qurilishida faol qatnashganlar, ular hozirgi kunlarda biz ko'rib, ko'zimiz va dilimiz quvnayotgan go'zal va nafis tarixiy madaniy obidalar, asori atiqalarning bunyod etilishida o'zlarining butun bilim, hunar, san'at va mahoratlarini sarf etganlar.

XIV-XV asrlarda yog'och o'ymakorligi tez ko'lamda rivojlandi, xattoki tirik mavjudotlar o'yib tasvirlangan ishlarni ham ko'rish mumkin edi. Samarqanddagi Ruxobod maqbarasining eshidiga o'yma naqsh bajarilgan bo'lib, baliqning stillashtirgan tasvirini ko'rish mumkin.

XVI-XVIII asrlardagi o'zaro ichki urushlar madaniyatimiz, shu qatori xalq amaliy san'atining rivojlanishiga salbiy ta'sir etdi.

XVIII asrning oxiri XIX asr boshlarida, Buxoro, Xiva, Qo'qon xonliklarida etuk adabiyot namoyandalari qatori xalq amaliy san'ati ustalari ham etishib chiqdi. Bu xonadonlarda kulolchilik, misgarlik, ganchkorlik, sirkorlik qatori yog'och o'ymakorligi ham gurkirab rivojlandi.

XX asrlarda yog'och o'ymakorligi, misgarlik, naqqoshlik va san'atning boshqa turlari rivojlanib, har bir shaharning o'ziga xos yog'och o'ymakorligi paydo bo'ldi. Qo'qondagi Xudoyorxon saroyi, Toshkentdag'i knyaz N.K.Romanovlarning saroyi va A.A.Polovsev uyi, Quvadagi Zayniddinboyning uyi, Marg'ilondagi Saidahmadxo'ja madrasasi, Buxorodagi Sitorai Mohixosa va boshqalarda ajoyib yog'och o'ymakorligi namunalari yaratildi. Bu esa O'zbek yog'och o'ymakorligi san'atining bebahosidir. O'zbek xalqining eng ko'zga tashlangan ustalaridan Olimjon Qosimjonov (1878-1952), Sulaymon Xujaev (1866-1946), Maqsud Qosimov va boshqalar ajoyib namunalarni yaratdilar. Ular o'ziga xos yog'och o'ymakorligi maktablari yaratib ajoyib shogirdlar etishtirdilar.

Respublikamiz mustaqillikka erishgach xalq amaliy san'atining boshqa turlari singari yog'och o'ymakorligi ham rivojana boshladi. YOg'och o'ymakorligi ustalari har xil buyumlar, xontaxta, eshik, shuningdek me'morchilik obidalari qurilishiga ham jalb etildi. Bularga Toshkentdag'i Xotira maydoni, Qatag'on qilinganlar xotira majmuasi, Muqimiyl, Navoiy, Milliy teatrлari, Temuriylar va O'zbekiston tarixi muzeyi,

Xastimom majmuasi, Istiqlol san'at saroyi, Toshkent shahar hokimiysi va ko'pgina jamoat tashkilotlarining binolari yog'och o'ymakorligining ajoyib namunalari bilan bezaganliklarini misol qilib keltirishimiz mumkin.

3. *Kulolchilik*

Kulolchilik qora loydan mo‘jizakor go‘zallik yaratgan SHarqning eng qadimiy hamda navqiron san'atidir. Bu qoraloy, saxovat, halollik, ezgulik timsolidir. Tuproq insonlarning barcha ehtiyojini o‘z zimmasiga olgan farovonlik, to‘kinlik, rizq-ro‘z, go‘zallikning eng oliy ko‘rinishi san’atining zaminidir. Kulolchilik bilan dunyodagi barcha xalqlar shug‘ullanadi. Ular o‘ziga xos tomonlari bilan bir-biridan farq qiladi. O‘zbek kulolchiligi uzoq tarixga, ajoyib an'analar, shakl, mazmun, ijodiy jarayon va o‘ziga xos uslubga ega. Sopol buyumlari sodda bo‘lsada, uning ko‘rinishi, qismlarining aniqligi, mutanosibligining saqlanishi, naqshlarining badiiy joylashishi, shakl va mazmunining birligi, uyg‘unligi o‘zbek kulollarini jahonga tanitib kelmoqda. Kulolchilik hunari loydan: piyola, kosa, tovoq, ko‘za, lagan, xurmacha, tog‘ora, xum, tandir, buyum, o‘yinchoqlar, qurilish materiallari va boshqalar tayyorlaydigan soha bo‘lib, u uzoq tarixga ega. Maxsus tuproqni qizdirganda toshsimon bo‘lib pishishini, undan har xil idishlar tayyorlashni odamlar juda qadimdan neolit davrining boshlaridayoq bilganlar. Ular avval loydan idish-tovoqlar yasab, gulkanda qizdirib pishirganlar. Tuproq jahonning hamma erlarida bo‘lgani uchun kulolchilik keng tarqalgan bo‘lib, dastlab bu hunar bilan ayollar shug‘ullanganlar.

Kulolchilik charxi miloddan avvalgi uch ming yillikning boshlarida ixtiro qilingandan keyin kulolchilik bilan erkaklar shug‘ullana boshlaganlar. Keyinchalik loydan yasalgan idish-tovoqlarni maxsus o‘choq hamda xumdonlarda pishirganlar. Neolit davrida idishlarni tagi uchli qilib tayyorlanib, erga sanchib qo‘yilgan. Enolit davrida esa SHarq mamlakatlarida hamda Qadimgi Gretsiyada nafis kulolchilik idishlari rivoj etgan va me’morchilikda sopoldan foydalana boshlangan.

XII-XIII asrlarda kulolchilik O‘rta Osiyoda yaxshi rivojlangan. Buni Afrosiyobda va O‘rta Osiyoning boshqa erlarida topilgan kulolchilik buyumlari isbotlab berdi. O‘sha

davrda O‘rta Osiyo madaniyati tez sur’atlar bilan rivojlandi. YAngi ko‘tarilish davri bo‘ldi. Ko‘pgina olim, yozuvchi va mutafakkirlar, ya’ni Abu Ali ibn Sino, Beruniy, Firdavsiy, Rudakiylar etishib chiqdi. Butun dunyoga mashxur bo‘lgan me’morchilik yodgorliklari bunyod etildi. Buxoroda Ismoil Somoniy maqbarasi qurildi. XIII asrda mo‘g‘ullar bosqinchiligi oqibatida Buxoro, Samarqand, Urganch, Mavr, Balx yong‘in ostida qoldi. Oqibatda kulolchilik san’ati rivojiga putur ketdi.

XIV asrdan boshlab O‘rta Osiyo hududida kulolchilik tez sur’atlar bilan rivojlandi. Kulolchilik amaliy san’atni rivojlantirishda juda katta xizmat qildi. Bosib olingan joylardan ustalarni olib kelib, ular uchun rastalar ochildi. Mashxur go‘zal, nafis binolar, qasrlar, saroylar qurdirildi. Amir Temur vafotidan so‘ng o‘zaro ichki janglar oqibatida Temuriylar xonligida markazlashgan xonlik kuchsizlanib ketdi. Natijada Buxoro, Xiva, Qo‘qon xonliklari paydo bo‘ldi. O‘rta Osiyoda bir necha feodal davlatning bunday ajralishi natijasida o‘zaro aloqa susayib ketishiga sabab bo‘ldi. SHuning uchun ham kulolchilik turli erlarda turlicha rivojlandi.

XVII asrga kelib kulolchilik mamlakatlari tashkil bo‘la boshladи. O‘rta Osiyoda suvga bo‘lgan ehtiyoj katta bo‘lgani uchun sopol idishlarni tez sur’atlar bilan ishlab chiqarishga ehtiyoj sezildi. Asrlar osha ularning shakli va bezagi nafislashib bordi. Ustalar turli tuman kulolchilik buyumlarini yasashdan tashqari ularni yuksak did bilan bezay boshladilar.

XIX asrda arzon baho chinni ishlab chiqarilishi va Rossiyadan chinni idishlarni ko‘plab olib keltirilishi O‘rta Osiyo hududida sopol buyumlar ishlashni birmuncha pasaytirib yubordi. Lekin arzon sopol idishlarni me’morchilikda keng foydalanilishi kulolchilikning rivojlanishiga to‘sqinlik qila olmadi. O‘rta Osiyoda tojik va o‘zbek xalqlari o‘rtasida kulolchilik juda keng rivojlanib G‘ijduvon, Panjikent, Samarqand, SHaxrisabz, Toshkent, Rishtonda kulolchilik markazlari paydo bo‘ldi. Ular sopol idishlarini sirlab bezatishning o‘ziga xos uslublarini vujudga keltirdilar. Ayniqsa, ishlab chiqarilayotgan kulolchilik mahsulotlarining sifatliligi, chiroylliligi, naqshlarining nafis va ta’sirchanligi bilan shuhrat qozondilar.

1930 yilda Toshkentda tajriba kulolchilik va Samarqand kulolchilik ustaxonalari ochildi. 1932 yilda Toshkentda o‘quv ishlab chiqarish ustaxonasi tashkil etilib, u er xalq

amaliy san'ati ustalari shu qatori kulollar tayyorlaydigan kurslar tashkil etildi (1943 yilda SHaxrisabzda o'quv ishlab chiqarish badiiy kombinati ishga tushdi). Kulolchilik sir-asrorlarini mashxur kulollar yoshlarga sidqidildan o'rgatdilar. Bular rishtonlik Uzoq SHermatov, Xolmat YUnusov, g'ijduvonlik Muhammad Siddiq, Usmon Umarov, toshkentlik Turob Miraliev, shaxrisabzlik Rustam Egamberdiev, Karim Xazratqulov va boshqalar edi.

Ko'pgina kulolchilik ustaxonalari, artellari tashkil etildi. 1940 yillarda Fijduvondagi «Namuna», Rishtonda «YAngi hayot» artellari faqat yurtimizda emas, balki butun dunyoga mashxur edi. Ayniqsa kulolchilikni tatbiq etishda O'zbekiston xalq rassomi, san'atshunoslik nomzodi Muhiddin Raximov samarali mehnat qildi. U o'ziga xos kulolchilik maktabini yaratib, xalq san'atiga oid bir qancha asarlar va ajoyib shogirdlar qoldirdi.

4. Zardo‘zlik

Zardo‘zlik — hunarmandchilikning qadimiyligi turlaridan biri zar ip bilan naqsh (kashta) tikish kasbi. U forscha zar (tilla), do‘zi (tikmoq) so‘zini anglatadi.

Zardo‘zlik san'ati uzoq tarixga ega. Zardo‘zlikning vatani Vavilon bo‘lib, u Rim imperiyasiga qarashli bo‘lgach, zar, ipak va jun ip qo‘sib tiqilgan rang-barang kashtachiligi bilan butun dunyoga mashxur bo‘lgan. Vizantiyada zardo‘zi kiyim-kechaklarni faqat imperator a’yonlari, aslzodalar kiyishgan. Vizantiya bilan muntazam madaniyat hamda siyosiy hamkorlik qilishi tufayli zardo‘zlik san'ati Eron podsholigi saroyida ham rivoj topgan. Eronda zardo‘zlik san'atining rivojlanganligiga XV-XVII asrda ishlangan zardo‘zlik namunalari misol bo‘la oladi. Vizantiyadan qadimgi Rusga ham zardo‘zlik san'ati kirib keldi.

O‘rta Osiyoda zardo‘zlik juda qadimdan rivojlanib kelayotgan xalq amaliy san'ati turlaridan biridir. Arxeologik topilmalar va tarixiy manbalardan ma'lumki, O‘rta Osiyo xalqlari orasida qadimdan I-II asrlarda zarbof kiyimlar, badiiy buyumlar keng tarqalgan. 1947 yili Toshkent viloyatining Vrevskiy qishlog‘ida o‘tkazilgan arxeologik topilmada ayol qabridan I-II asrlarga tegishli zarbof kiyimlar topilgan.

Abdurazzoq Samarqandiy «Hindiston safarnomasi» asarida 1442 yili SHoxrux

zamonida SHimoliy Hindiston bilan Xirot o‘rtasida turgan elchilarning sovg‘alari orasida zarbof kiyimlar bo‘lganligini aytib o‘tgan. 1465 yili «Ashratxona» maqbarasi haqidagi hujjatlarda zarbof kiyimlar haqida bayon etib o‘tgan. Xirotda yashab ijod etgan Vasfiy o‘zining risolalarida zarbof kiyimlar va zardo‘zlik kasbi to‘g‘risida bayon etgan.

XVII asrda yashagan samarqandlik shoir Fitratning asosiy kasbi zardo‘zlik bo‘lgan, u matolarga zardan ajoyib kashtalar tikkan. XIX-XX asr boshlarida zardo‘zlikning o‘ziga xos maktabi yaratilgan. O‘zbekistonda Buxoro, Samarqand, Farg‘ona va boshqa joylarda zardo‘zlik maktablari ochilgan. Qimmatbaho matodan tayyorlanadigan zardo‘zi kiyimlar mahalliy aholining turli tabaqalari o‘rtasida keng tarqalgan. Bu kiyim-kechaklar asosan amir saroyidagilar va shahar boylari uchun tiqilgan. YUzlab qo‘li gul ustalar amir saroyining ehtiyoji uchun ishlaganlar. Bu ustalarning ko‘pchiligi ota-bobosidan meros bo‘lgan kasbi saroy axllari uchun kamzul, chakmon, chalvor, poyafzal, belbog‘, salla, qulqoq va jul tikkanlar.

Ustalar bu kiyimlarni xon buyurtmasi asosida oilaviy tantana yoki bayram munosabati bilan tayyorlash buyurilardi. Hech kim, xatto eng katta amaldorlardan birortasi ham yuqorida keltirilgan kiyimlardan hech birini o‘ziga buyurtirishga haqi yo‘q edi, ular zarbof kiyimlarni amir sovg‘a qilgandagina kiyishlari mumkin edi.

XIX-XX asr boshlarida Buxoroda hukmronlik qilgan mang‘itlarning oxirgi sulolasiga taalluqli zarbof kiyimlar yagona yodgorliklari nusxasi hisoblanadi. 1800-1826 yillarda Haydarxon podsho zamonasida ishlangan zardo‘zi maxsi (1810 yilda ishlangan) saqlanib qolgan. 1827-1860 yillarda Amir Nasrulloxonidan juda ko‘p zarbof kiyimlar saqlanib qolgan. 1895 yildan 1911 yilgacha hukmronlik qilgan Abdulaxadxonga mansub juda ko‘p zardo‘zlik kiyimlar saqlanib, o‘sha davr zardo‘zlik san’ati gullab yashnagan davr hisoblanadi. O‘rta Osiyoda zardo‘zlar boshqa hunarmandchilik kabi maxsus tashkilotga uyushgan edi. O‘sha vaqtida Buxoroda 350 ga yaqin zardo‘z ustalar bo‘lgan. Ular ustidan nazorat qilib turadigan maxsus tashkilot bo‘lgan. Sex nizomi (ustavi)ga o‘xshash risolalari bo‘lib, u diniy rasm-rusumlarga hamda urf-odatlarga amal qilishni talab etar edi. Zardo‘zlarning ko‘pchiligi tevarak atrofdagi guzarlargaga yaqin joylarda yashar edilar. SHaharlarda bozorbop buyumlar

tayyorlaydigan ustaxonalarning katta qismi aynan guzarda joylashgan edi. Maxsus tashkil etilgan tashkilotga amirning saroy ustalaridan tashqari yollanib ishlaydigan xususiy ustalar – xalfalar ham kirar edi. Tashkilot uyushmasining boshlig‘i eng hurmatli va tajribali usta – oqsoqol yoki bobo bo‘lgan. U rasmiy ravishda saylanmay, bobo diniy ahloqiy masalalarni hamda ustalarning hatti-harakatlarini kuzatib borar edi.

Agarda bobo bo‘lman holda oqsoqol uning o‘rnini bosib turar edi. Oqsoqol Amir saroyi bilan amirlik ma’muriyati o‘rtasidagi tashkilotning rasmiy vakili hisoblangan. U yirik buyurtmalar olishda va taqsimlashda, usta, xalfa, shogird o‘rtasidagi nizolarni hal qilishda, bozordan chakana ustaxonlardan belbog‘, ayollar bezagi, ro‘mol va hokazolarni sotib olishda xizmat qilgan. Amirning bosh amaldori zarur buyumlar ro‘yxatini qushbegidan oqsoqolga bergen. Oqsoqol yakka holda ishlaydigan ustalardan buyum narxini kelishib olgan va buyurtma ro‘yxatidagi narsalarni olib qushbegiga ko‘rsatgan. Keyin esa oqsoqol ustalarni rozi qilgan.

Oqsoqol bundan tashqari, uyushma a’zolarining turmushi bilan chambarchas bog‘langan bo‘lgan. Oqsoqol uyushma a’zolarining oilasida chaqalok tug‘ilsa, to‘y va marosimlarda nechta odam aytish, nimalar kerak bo‘lishini, qancha to‘yna qilish va boshqalarni hamda mana shu marosimlarga boshidan oxirigacha bosh-qosh bo‘lgan.

Buxoro amirining shahardan tashqaridagi Sitorai Moxixosa hamda SHirbudun saroylarida har yili bozor sayli bo‘lib, unda xalq amaliy san’ati turlaridan kulolchilik, misgarlik, qandakorlik, pichoqchilik, do‘ppido‘zlik va boshqalar tashkil etilgan. SHirbudunda to‘rt-olti hafta, Sitorai Moxixosada ikki haftacha davom etadi. Bu sayl har yili xalqning an’anaviy bayrami hisoblanib, hukumat tomonidan qonunlashtirilgan edi. Narsalarni sotishga qulay bo‘lishi uchun vaqtinchalik rastalar qurilar, bularning hammasini uyuştirishga ustalarning oqsoqoli rahbarlik qilardi. Bunday sayllarning bo‘lib turishi xalq amaliy san’atining rivojlanishiga ancha qissa qo‘shtgan. Feodalizm davrida hamma hunarlar kabi zardo‘zlik muqaddas hisoblangan. CHunki har hunarga, kasbga bo‘lgan hurmat shunchalik bo‘lganki, ustalar har bir qilgan ishlarini dil vijdoni bilan bajargan. Ustalarning aytishicha eng birinchi usta zardo‘z, eng birinchi ustoz, g‘oyibona homiy hamda pir Hazrati YUsuf bo‘lgan deyishadi. SHu haqda kichkina risolacha bo‘lib, unda zardo‘zlik kasbining paydo bo‘lishi, uni o‘rganish qonun-


qidalar, ishdan oldin o‘qiladigan duolar orqali zardo‘zlik kasbining homiysi «Arvoxi pir»ga sig‘inish uzoq vaqtgacha davom etgan.

1885-1911 yillar Buxoroda zardo‘zlik san’ati gullab yashnagan davr bo‘lgan.

Turli davrlardagi ustaxonalar tayyorlagan mollari turlicha bo‘lgan Muzaffarxonning xonligida xususiy ustaxonalarga ancha erkinlik berilgan, podshoxlik ustaxonalarida nima tikilsa, o‘shalarni ham tikishga ruxsat berilgan. Axadxon davrida saroy a’yonlari hamda katta amaldorlar kiyadigan kiyimlarni tikish man etilgan. Ayrim yakka hol zardo‘zlar buyumlarini bozorlarga olib chiqar, savdogarlarga sotib yuborar edilar.

Podshoxlik ustaxonalari bilan baravar miqdorda o‘z oilasi uchun naqd pul olish huquqiga ega bo‘lgan. Zardo‘zlar mayda chuyda ta’mirlash ishlarini ham qilganlar. Ular eskirgan do‘ppi va ayollar peshonabandi va boshqalarni qaytadan ta’mirlashgan. Eskirgan peshonabandning zardo‘zi guli avaylab kesib olinib ro‘molga ko‘chirib qo‘yilgan. Paydo bo‘lgan choklarni yo‘qotish maqsadida gullarning chekkasidan qo‘sishma ingichka yo‘l tikilgan. Zardo‘zi do‘ppilarini esa tez-tez tozalab turishga to‘g‘ri kelgan. Yaxshi ezilgan shirachni yumshoqlab do‘ppining kirlangan joyiga obdon aylantirib ishqalanib tozalangan. Usta zar suviga botirilgan yumshoq paxta bilan zar iplarni artgan. Erkaklar choponidan ayollar ko‘ylagi, xaltacha, bolalar to‘nchasi, do‘ppi, yostiq jilti, sallalardagi kashtalardan ro‘mol hamda peshonabandlarga gul tushurishda foydalanishgan. Ustalar bozorga ayrim hollarda olib sotarlarga ham sotganlar. CHala bitgan buyum, ya’ni abrani ham sotishgan. Olib sotarlar abradan kerakligicha olib yoki o‘z oilasining kuchi bilan yoki maxsus shu ish bilan shug‘ullanuvchi ayollarga berib, ishni nihoyasiga etkazganlar. Olib sotarlar o‘zi uchun qulay sharoitda ustalarni kerakli buyumlar bilan ta‘minlab turgan, ma’lum miqdorda foydasi bilan mol bergen. Ushbu yo‘l bilan olib sotarlar ancha muddatgacha ustalarni o‘z izmida saqlashga erishgan.


**QUYIDAGI RASMLARDA QADIMIY VA ZAMONAVIY DIZAYNERLIK
LOYIHALARIDAI NAMUNALAR KELTIRILGAN.**



3.1- rasm.


Ampir usulidagi o‘rindiq

Stul (klismos) (Qadimgi (kreslo) IX
asrning 1-choragi Gretsiya)



3.2- rasm.


XX asr boshlarida tayyorlangan stullar.



3.3- rasm.

Qadimgi Misrda yasalgan mebellar.

a) bosh uchun tayanch; b) kursi; v) kesishgan tayanchlardagi o'rindiq; g) fir'avn taxta.



3.4- rasm.

K.Rossi Mixaylov saroyidagi mebel (Rossiya, XIX asr boshlari)

O'ZBEK XALQ AMALIY SAN'ATI TURLARIDAN NAMUNALAR



3.5- rasm. O'ymakorlik san'ati



3.6- rasm. Idish-tavoqlarga naqsh solish san'ati



3.7- rasm. Laganlarni bezash san'ati



3.8- rasm. Kulolchilik san'ati

Nazorat savollari:

1. O'zbek xalqining bezak sanati o'z ichiga nimalarni oladi?
2. Bezak sanatining dastlabki boshlanishi qaysi davrlarni o'z ichiga oladi?
3. Yog'och o'ymakorligi o'zbek xalqi amaliy bezagida qanday o'rinn egallaydi?
4. Qaysi asrlarda yog'och o'ymakorligi rivojlangan?
5. Kulolchilik sanatining rivojlanishini tushuntirib bering?
6. Kulolchilik qadimdan yurtimizning qaysi hududlarida ko'proq rivojlangan?
7. Zardo'zlik sanati deganda nimani tushunasiz va uning rivojlanishini tushuntirib bering?

4-mavzu. Naqqoshlik, ganchkorlik

Mavzu rejasi:

1. Naqqoshlik
2. Ganchkorlik

Tayanch iboralar: *Naqsh, naqqoshlik, kashta do'zlik, gilam to'qish, to'qimachilik, panjara yasash, epegrafika uslubi, handasiy naqsh, kundal, ganchkorlik.*

1. Naqqoshlik

O'rta Osiyo naqqoshlik san'ati qadimdan dunyoga mashxur. O'tmishda otabobolarimiz ko'rgan muxtasham binolar hozirgi kungacha maftunkor jilvasini yo'qotmagan. Yuksak did bilan ishlangan naqshlar bizni hayratga solib kelmokda.

Milliy naqshlarimiz g'oyatda boy mazmunga ega. Oddiy qoshiq, lagan, quticha, sandiq, belanchak, cholg'u-asboblari, uy-ro'zg'or buyumlaridan tortib turar joy va jamoat binolarining devor hamda shiftlariga solingan naqshlar insonni hayratga soladi, uni o'yantiradi. Bu go'zal naqshlar ajoyib naqqoshlar tomonidan yaratilgan bo'lib, asrlar davomida bunyod topdi, rivojlandi, me'morchilik hamda tasviriy san'at rivoji bilan bog'langan holda takomillashib bordi.

Naqsh – arabcha "tasvir", "gul" degan ma'noni anglatadi. Qush, hayvon, o'simlik, geometrik va boshqa elementlarni ma'lum tartibda takrorlanishidan hosil qilingan bezakdir. Ganchkorlik, qandakorlik, kashtado'zlik, zardo'zlik, kulolchilik, zargarlik, gilam to'qish, to'qimachilik, panjaralar va hokazolarda har xil yo'llar bilan naqshlar ishlanadi. Masalan, o'yib, chizib, choc yordamida, zarb bilan qadab va boshqa usullarda naqsh solinadi. Naqqoshlik san'ati tarixi insoniyat madaniyati bilan bir qatorda qadimiyyidir. Madaniyatning rivojlanishi natijasida rassomlik va naqqoshlik ajralib chikdi hamda rivojlandi. Har xil arxeologik qazilmalar shuni ko'rsatadiki, naqqoshlik jahondagi barcha xalqlarda qadimdan mavjud ekanligi bizga ma'lum bo'ldi. Chunonchi, Xitoyda, Qadimiy Eronda, Hindistonda va boshqa joylarda naqshning har

xil turlarini ko‘rish mumkin. Naqqoshlik har bir davlatning o‘ziga xos muhitiga: geografik o‘rniga va o‘lkaning o‘simlik dunyosiga ko‘ra rivoj topdi. Masalan, arman va gruzinlarda uzum va uzum bargi, shimal xalqlarida archa va har xil hayvonlar, qirg‘iz va qozoqlarda mol shoxi, tojiklar va o‘zbek xalqlarining naqshlariga qarasak anor, bodom, gullar, kalampir va boshqalarni ramziy naqsh tarikasida ishlatilganligini ko‘rasiz. Evropada barokko, gotika, roman, klassitsizm uslublari har xil davrlarda hukmron bo‘ldi. Bu esa o‘z-o‘zidan naqqoshlik san’atining rivojlanishiga ta’sir etdi.

O‘zbekiston hududidagi arxeologik **qazilmalardan** Xorazm, So‘g‘d, Baqtriya va boshqa viloyatlarda naqsh san’atining rivojlanganligi ma’lum. Olimlarimiz Surxondaryo viloyatidagi Fayoztepa (I-II asr), Dalvarzintepa (I asr) budda ibodatxonalar qazilmalaridan topilgan naqsh qoldiqlari orqali isbotlab bergenlar. Xorazmdagi Tuproqqa’ zallari monumental naqshlar bilan bezatilganligi bizga ma’lum. VI-VII asrlarda ibodatxonalar, qasrlar va boylarning uylari o‘yma naqshlar hamda tasvirlar bilan bezatilgan. Tantanali marosimlarga mo‘ljallangan xonalardagi dabdabali ajoyib naqshlarni ko‘rib hayron bo‘ladi kishi. Ularning birini qarasangiz devorlarda bazmi jamshid, ov, urush, manzaralari hamda diniy marosimlar tasvirlangan. Jonli maxluqlar qizil va ko‘k ranglar bilan tasvirlangan. VII asrning oxiri VIII asrning boshlarida O‘rta Osiyoni arablar bosib olishi natijasida qaror topgan islom dini o‘zidan oldingi madaniyatning ildiziga bolta urdi. Yangi din hamda yangi g‘oya O‘rta Osiyo tasviriy san’atiga ta’sirini o‘tkazdi. Jonli mavjudotlarni aks ettirish man etildi. Keyinchalik yuzaga kelgan diniy sharxlar va hodisalar ko‘proq murosasiz yo‘l tuta borib, qatiy ravishda shunday der edi: «Tangri yoki odamzod suvratini chizishdan tiyiling, faqatgina daraxtlar, gullar va jonsiz mavjudotlarning suvratini chizish, aks holda bu qoidani buzgan kishi gunohi azim qilgan bo‘ladi», deb qo‘rqitilgan. Jonli mavjudotlar su’ratini chizish man etilishining ma’nosi shundaki, xudodan boshqa hech kim biror narsa yaratish u yokda tursin, xatto Xudo yaratgan narsani qayta gavdalantirishi ham mumkin emas va bu uning qo‘lidan kelmaydi, aks holda musavvir Xudo bilan bas boylashib, uning irodasiga shak keltirgan bo‘ladi. Islom talablariga bo‘ysunish oqibatida jonivorlar, parrandalar va odamlarni tasvirlash yo‘qolib borib naqqoshlik rivoj topdi. Arab yozuvi o‘zlashtirildi. Natijada naqshlar bilan unvonli

yozuv (epigrafika) uslubi paydo bo‘ldi. Arab yozuvi naqshlar bilan birga chizildi. Arab yozuvi ham bezak, ham duo afsunlar vazifasini bajardi. Xullas gasviriy san’at rivojlanmadi. Buning hisobiga xalq amaliy bezak san’ati naqqoshlik hisobiga rivoj topdi. IX-X asrlarda O‘rta Osiyoda naqqoshlik san’ati avj olib rivojlandi. Arxitekturada g‘isht qadab naqsh solish yuksak darajada rivojlandi, binolarning ichki tomoniga ganch, yog‘och o‘ymakorligini qo‘llash yuksak rivoj topdi. Ayniqsa, maqbaralarning peshtoqlari devor va ravoklar ganchnaqshlar bilan juda nafis bezatiladi. Naqshlar murakkablashib bordi. Ularning yangi nusxalarida ramz, tasvirlar, timsol, duo, afsunlar, tasbex va boshqalar naqadar mo‘lligini ko‘ramiz. Ramziy naqshlar dunyoda sodir bo‘layotgan vogeliklar, tilaklarni aks ettirgan. Har bir chizilgan naqshda o‘ziga xos ma’no bo‘lgan. CHunonchi, o‘simpliksimon naqsh gulsafsarni olaylik, u osoyishtalik va umr uzoqlik timsoli, «pechak islimiy» naqshi boylik va farovonlikni, novda va yaproklar esa to‘kinchilik hamda bahor chog‘ida uyg‘onishni bildiradi. Musavvirning tasvirlari bu uning ona tabiatga bo‘lgan muhabbatini bildiradi. Uning ranglari o‘ziga xos ma’no va tavsifga ega. Naqsh o‘zbek madaniyatining hamma bosqichlarida hamrox bo‘lib kelgan. Eng oddiy prinsiplari bir-biriga mutanosiblik, uyg‘unlik, yo‘sin va usullarini ajoyib qayta-qayta takrorlashuvlidir. Xalq naqqoshlari naqshlarning har bir detaliga alohida e’tibor berib, uning tabiiyligini yo‘qotmaganlar, har bir element ustida puxta fikr yuritganlar har bir naqsh negizida ma’lum ramziy ma’no singdirilgan. XI-XII asrlarda O‘zbekiston hududida arxeologik topilmalar shuni ko‘rsatadiki, naqshlar ichida geometrik naqsh ko‘p ishlatilgan.

Handasiy naqsh – to‘rtburchak, uchburchak va boshqa elementlardan tashkil topgan geometrik murakkab naqsh turidir. Girix to‘g‘ri, egri va aralash chiziqlarga bo‘ysundirilgan bo‘lib, o‘ziga xos shartlilikka ega. Bu naqsh turining keng tarqalishi bezak san’atining rivojlanishiga yangidan-yangi imkoniyatlar ochib berdi. O‘zbek madaniyatining rivojlanishiga ulkan hissa qo‘shgan butun dunyoga mashxur olimlar - Abu Ali ibn Sino (Avitsenna), Beruniy, Firdavsiy va Ro‘dakiylar etishib chikdilar. O‘sha vaqtida butun dunyoga mashxur bo‘lgan (YUNESKO muhofazasidagi) Somoni maqbarasi qurildi. U 1127 yili me’mor Arslon Muhammadxon boshchiligidida pishirilgan oddiy g‘ishtni har xil kombinatsiyalashtirib qurilgan. G‘ishtlar yoz faslida eng toza

ganch bilan terilib ishlangan. Buni XIII asrda yuksaklikka ko‘tarilgan milliy madaniyatni mongol bosqinchilari izdan chiqardi. 1219-1221 yillarda Buxoro, Samarqand, Urganch, Balx, Marv bosib olinib tormor qilindi. Keyinchalik CHingizzon hukmronligida milliy san’at birmuncha izdan chiqsada, lekin butkul yo‘q qilinmadı. Temur va temuriylar davrida esa O‘zbek milliy xalq amaliy san’ati yuksak darajada rivojlandi.

XIV-XV asrlarda O‘rta Osiyo xalqlari tarixida taraqqiy etgan feodalizm iqtisodiy-ijtimoiy formatsiyasi davrida feudal ishlab chiqarishga asoslangan o‘ziga xos bir iqtisodiy madaniy ko‘tarinkilik ro‘y berdi. Bu davrni biz hozir Alisher Navoiy, Abduraxmon Jomiy, Kamoliddin Bexzodga o‘xshash juda ko‘p iste’dodli adiblar, olimlar, mutafakkirlar, san’atkorlar nomlari bilan bog‘liq bo‘lgan Uyg‘onish (Renessans) davri deb ataymiz. XIV-XV asrlarda Samarqandda tez sur’atlar bilan turlituman inshootlar qurila boshlagan. Bu qurilishlarda Hindiston, Eron, Iroq, Kavkazorti, xullas Amir Temur hukmronligi ostida bo‘lgan barcha o‘lkalardan kelgan me’morlar, hunarmandlar, ustalar, san’atkorlarni ko‘rish mumkin edi. Ular o‘zlari bunyod etayotgan inshootlarga butun bilimlari, hunarlari va san’atkorona mahoratlarini baxsh etganlar. O‘sha davrda Samarqand va Movarounnaxning boshqa joylarida bunyod etilgan juda ko‘p xashamatli tarixiy madaniy obidalarda O‘rta Osiyo xalqlaridan tashqari butun yaqin va O‘rta SHarq xalqlarining o‘ziga xos boy, sermazmun badiiy estetik merosining sintezi qorishib, uyg‘unlashib ketgan edi, desak mubolag‘a bo‘lmasa kerak.

Temuriylar xonligida hunarmandchilik yuksak darajada rivojlandi. U bosib olgan erlardagi hamma ustalarni Samarqandga yig‘di. U tikuvchi, toshtarosh, zargar, kulol, naqqosh va boshqa ustalarni olib kelib ishlatgan. SHu san’at turlari qatori naqqoshlik ham tez rivojlana boshladi. Temur hukmronligi ostida juda ko‘p bino, machit, madrasa va boshqalar qad ko‘tardi. Undagi bezaklar yanada badiiy lashtirildi. SHaharlar atrofi bog‘u-bo‘stonga aylantirildi. Xullas u o‘zbek milliy madaniyagini rivojlantirishda katta hissa qo‘shdi. Ayniqsa, tasviriy san’at qaytadan tiklanib, tez orada rivojlanib ketdi. Devorlarda osmon, sobit sayyoralar, tog‘lar, dengizlar, sahrolar, odamlar, hayvonlar va boshqalar aks ettirildi.

O'sha davrda tasviriy san'atning asosiy vazifasi hukmdorlarning kuch-qudratini, harbiy shavkatini ulug'lashdan iborat edi. Afsuski ko'pgina urushlar oqibatida qasrlardagi, turar joylardagi va jamoat binolaridagi tabiat rasmlari bizgacha etib kelmagan. Ayrim qoldiqlargina saqlanib qolgan. Ayniqsa, oppoq ganch ustidan chizilgan gullar, manzaralar, qushlar tasviri nihoyatda nafis ifodalangan.

XIV-XV asrlarda qoshinkorlik rivojlandi, qurilgan binolarni qoshin va parchinlar bilan bezatish avj oldi. Qoshin va parchinlardan ajoyib naqshlar hosil qilishga erishildi. CHunonchi, Samarqanddagi SHoxi Zinda majmuasi, Ashratxona, Oq saroy, Ko'xna Urganchdagi To'rabexonim maqbarasi va boshqalardir. XV asrda naqqoshlik san'ati yanada rivojlandi. Natijada naqqoshlikda kundal texnikasi paydo bo'lib rivoj topdi. Samarqandda Ashratxona, Oqsaroy maqbaralari va boshqa arxitektura yodgorliklarining ikki qismini kundal usulida bezaldi.

Kundal - arxitekturada devorga bo'rtib ishlangan bezak texnikasi me'morchilikda keng tarqalgan. Mo'yqalam bilan devorga surtilgan qizil kesak bo'rtma shakl oladi, ustidan bo'yoq va zarxal beriladi. Zamin zarxalga, asosiy bo'rtma naqsh elementlari turli-tuman ranglarga bo'yaldi yoki aksincha, bo'rtma naqsh zarxalga, zamin esa turli rangga bo'yaldi. XV asrdan boshlab Samarqanddagi Ashratxona maqbarasi, Buxorodagi Amir maqbarasi, Baland machitida jozibador namunalar saqlangan. O'rta erda kundal texnikasidagi bezaklar keng tarqalgan.

XVI-XVII asrga kelib syujetlar deyarli chizilmay, balki kundal usulida naqshlar bilan bezash rivoj topdi. Kundal usulida Buxorodagi xo'ja Zayniddin xonakosi (XVI asr), Baland machit (XVI asr), Abdulazizzon madrasasi (XVI), Samarqanddagi Tillakori madrasasi (XVII asr) va boshqalar bezaldi. Bu arxitektura binolarida bezalgan naqshlar o'zining badiyili, harakatchanligi, o'ziga xos originalligi bilan kishini hayratga soladi. Naqshlarning har biri bir katta asar bo'lib, voqelikni naqqosh tili bilan kuylayotgandek tuyuladi. Lekin XVII asrning oxiriga kelib, bir necha joyda takrorlanadigan naqshlar va mavzularning bir xilligi, tillaning haddan tashqari sarf etilganligi ko'zga tashlandi. Ayniqsa, bu sohada ijodiy izlanishlar kam bo'lganligi sezildi.

XVI-XVIII asrlar orasida o'zaro ichki urushlar va nizolar madaniyatning

rivojlanishiga salbiy ta'sir etdi. Bu esa milliy naqqoshlik san'atining rivojlanishiga ham ta'sir etdi. Buxoro, Xiva, Qo'qon xonliklari vujudga kelishi bilan san'atkorlar bu shaharlarga yig'ilal boshladi. SHu vaqtadan naqqoshlik xalq amaliy san'at turlari kabi gullab yashnay boshladi. Xivadagi Tosh hovli, Qo'qondagi Xudoyorxon o'rdasi Buxorodagi Sitorai Moxixosa singari yirik binolar ajoyib naqshlar bilan bezatildi.

XVII asrda hajmli-planli naqsh kompozitsiyalari paydo bo'ldi. Bu bezaklar nihoyatda nafisligi bilan ajralib turar edi. Naqsh san'atining rangbarang rivojlanishi, har bir shahar va vohaning o'ziga yarasha naqqoshlik maktabi paydo bo'ldi. CHunonchi, Farg'ona, Toshkent, Xorazm, Samarqand va boshqalar o'zining kompozitsiyalari, rangi jihatidan va boshqa tomonlari bilan farqlanadi.

XVIII va XX asr boshlarida turar joy binolari, mahalla machitlari, saroy va o'quv yurtlari binolari, choyxonalarning devor va shiftlari jimjimador naqshlar bilan bezatildi. Ayniqsa, devorlar sirtiga daraxtlar, guldastalar, guldonli guldastalar, gulli butoklar jonli chiziqlar bilan bezatildi. CHunonchi, Quvadagi Zayniddin boyning uyi, Toshkentdag'i knyaz N.K.Romanovlar saroyi, A.A.Polovsevning uyi, Marg'ilondagi Saidaxmadxo'ja madrasasi va boshqalar (Toshkentdag'i xalq amaliy san'ati muzeyining ayvon peshtoqiga ishlangan naqshlar).

O'zbek xalqining qarovsiz yotgan madaniyat durdonalari, tarixiy yodgorliklarini saqlash va madaniy merosini to'plashni davlatimiz o'z zimmasiga oldi. Madaniy yodgorliklarni saqlash jamiyati tuzildi. Naqqosh ustalar ham boshqa ustalar qatori machit, madrasa, turar joylarni, saroylarni ta'mirlashni boshlab yubordilar. O'tgan asrning 30 yillardan so'ng ko'pgina jamoat uylari, choyxonalar, madaniyat uylari, saroylari va boshqa joylarni yog'och naqsh va ganch bilan bezatila boshlandi. 1938 yili Moskvadagi xalq xo'jaligi yutuqlari ko'rgazmasidagi "O'zbekiston" restorani va o'z pavilonlarini bezashga naqqoshlar safarbar qilindi. U erda ajoyib namoyonlar, qandillar, o'yma eshiklar, o'yma ganchlar va naqshlar bilan bezatildi. 1939 yilda Samarqand va Buxoroning eng yaxshi ustalaridan 12 kishi Alisher Navoiy nomidagi Adabiyot muzeyi binosini ajoyib naqshlar bilan bezadilar. SHu yillari «Bahor» konsert zalini ham naqsh, ganch o'ymakorligi, yog'och o'ymakorligi bilan bezatildi. 40-yillarda qurilgan Muqimi, Navoiy teatri binolari ajoyib naqsh, ganch va yog'och o'ymakorliklari bilan

bezatildi. Naqqoshlik san'atini rivojlantirishda ajoyib xalq ustalari Farg'onalik Saidmaxmud Norqo'ziev, toshkentlik Toxir To'xtaxujaev, Olimjon Qosimjonov, YOqubjon Raufov, Jalil Hakimov, xivalik Abdulla Boltaev, S.Xudoyberganov, X.Raximov, Samarqandlik Jalol va Bolta Jalilovlar, usta Madaminjon Xusanov va boshqalar hamda ularning shogirdlari yaratgan asarlar hozir ham xalqka xizmat qilyapti. Ular avloddan-avlodga meros bo'lib kelayotgan naqqoshlik san'atiga katta hissa qo'shdilar. Ular o'zbek naqshlarining elementlariga yangicha elementlar (o'roq va bolg'a, kabutar, paxta, yulduz va boshqalar) yangicha g'oyalar kiritdilar. Lekin o'zimizning an'anaviy O'zbek xalqining o'ziga xos milliy san'atini saqlab qoldilar. Ular zamonaviy binolarga moslab O'zbek milliy naqsh elementlari bo'lmish nozik majnuntol nihollari, anor butog'i, gulli butalar va boshqa o'simliklarni tasvirladilar.

2. Ganchkorlik

Ganchkorlik qadimiyligi san'at turlaridan biri bo'lib, o'z aksi xusni-jamolini dunyo me'morchiligida, shu jumladan O'rta Osiyo, Eron, Turkiya, Arabiston, Afg'oniston va boshqa SHarq mamlakatlari me'morchiligida namoyon etib kelmoqda. Ayniqsa, O'rta Osiyoda yaratilgan asarlar o'ziga xos badiiyligi kompozitsiyasi va ishlanish uslubi bilan farq qiladi. Hozirgi kunda ganch serquyosh O'zbekistonimizda ardoqlanib, avaylab muhofaza qilinayotgan ko'pgina yodgorlik obidalariga ko'rkarlik, go'zallik baxsh etib turibdi. U Samarcand, Buxoro, Toshkent, Qo'qon, Marg'ilon, Xiva, SHaxrisabz va boshqa shaharlardagi tarixiy obidalarni ko'rish va bezatishda ishlatilgan.

Ganch qorishmasi yangiligida oson kesiladi, undan hohlagancha shakllarni o'yish, yasash mumkin, lekin u qotgandan so'ng qattiq toshga o'xshab qoladi. Ustalarimiz uning bu ajoyib xususiyatidan qadimdan foydalanib kelganlar. SHu tariqa hozirgacha bu hunar avloddan-avlodga o'tib, tarixiy an'ana sifatida rivojlanib boryapti. Ganchkorlik sanatimiz faxri, beqiyos va bebahoxazina. Hech shubhasiz, uni chuqur o'rganish ilmiy va amaliy ahamiyatga egadir.

Ganch o'ymakorligi san'ati asrlar davomida o'ziga xos uslub bilan rivojlanib keldi. Bu san'atning eng qadimgi, o'rta asrlardagi va XX asrdagi rivojlanishini ko'zdan

kechirib, o'rganib chiksak, bu davrlardagi ganch o'ymakorligi bir-biridan mutlaqo farq qiladi. Qadimgi ganch o'ymakorligi hajmiy bo'lib, realistik tasvirlar asosida ishlangan. Ularda ko'pincha odamlar, hayvonlar, qushlar tasviri ishlangan. Eramizning birinchi asrlaridayoq kishilar ganchni ajoyib xususiyatga ega ekanligini bilib, qal'alar, karvonsaroy va boshqa joylarni bezay boshlaganlar. Bo'lib o'tgan janglar oqibatida ular vayronaga aylanib, faqat qoldiqlari saqlanib qolgan. XI asrda Tuproqqal'aning serxasham saroy mehmonxonalar o'yma ganch bilan bezatilgan. Varaxsha shaharchasida juda katta ahamiyatga ega bo'lган va eramizdan avvalgi III-IV asrlarda ishlangan ganch o'ymakorligi namunasi topilgan. Unda o'simliksimon naqshlar, palmetta, geometrik shaklli naqshlar ganchdan ishlangan. Ayniqsa gorelefli ishlangan baliq tasvirida o'yilgan ganch namunasi diqqatga sazovor.

Varaxshadagi topilmalardan VII-VIII asrlardagi Buxoro saroyi qoldiqlaridan namunalar topilgan. Bu topilmalarda qushlar, hayvonlar, baliqlarni, o'simliksimon va geometrik shakllarning o'yma namunalarini ko'rish mumkin. O'rta Osiyoni arablar bosib olgandan keyin islom dini hukmron bo'lib qoldi, u tirik mavjudotni tasvirlashni ta'qiladi. Buni O'rta Osiyodagi arxitektura yodgorliklaridan ko'rish mumkin. Xususan VII-XVIII asrlardagi hukmdorlarning Varaxshadagi saroylarida bu san'atning xilma xil namunalari saqlangan.

Buxorodagi Ismoil Somoni maqbarasida ganch o'ymakorligi namunalarida to'lqinsimon ishlangan naqshlar topilgan. Unda o'simliksimon naqshning islimi turi ko'p ishlatilgan.

X-XI asrlarda naqqoshlik, yog'och, tosh va ganch o'ymakorligi yanada rivojlandi. Murakkab abstrakt tasvirmi aks ettiradigan naqshlar paydo bo'ldi. Ganch o'ymakorligi ishlari uyning ichki va namgarchilik tegmaydigan tashqi qismiga ham qo'llanilgan. Har xil geometrik shaklli qilib g'isht terish rivojlangan.

X-XI asrlarda ishlangan saroylarning qoldiqlari topilgan. Ayniqsa, izora (pachel) ganchi topilgan bo'lib, unda geometrik va o'simliksimon naqshning chuqur o'ymalari ishlatilgan. O'yma chuqurligi 2-3 sm.gacha borgan, naqsh qoramtil soya hisobiga aniq oppoq bo'lib ko'rinish turibdi. Ganch devorga qalin qilib suvalgan, naqsh tasviri devorning sirtiga tappa-to'g'ri chizilib o'yilgan. O'sha davr ustalari axtadan (ulgudan)

foydanmagalar. Binolarning tashqi qismiga esa qo'yma asosida ganch ishlari bajarilgan.

Termiz maqbaralaridagi ganch o'ymakorlik san'atini o'sha davrning yuqori cho'qqisi desa bo'ladi. XII asrda mukarnaslar (stalaktitar) hosil bo'ladi va ko'pgina binolarda qo'llanila boshlanadi. Mukarnaslar oddiy ganch o'ymakorligidan farq qilib, ancha murakkabdir. U taxmon va boshqa joylarda bezak sifatida qo'llanila boshlandi. Binolarning ichki qismlariga ishlangan mukarnaslar ayniqsa ajralib turadi.

XIII asrda ganchkorlik san'ati yanada yuksaldi. Bunga Afrosiyobda topilgan ajoyib ganch o'ymakorligi ishlari misol bo'la oladi. XIV-XVIII asrlarda ham binolarning ichki tomonlarini bezatishda ganchkorlik san'atidan foydalanilgan. Bu davrlarda yangi-yangi naqshlar yaratildi. Binolarda ganch o'ymakorligi, uzviy bog'langan qoshinlar va toshdan yasalgan bezaklar keng ishlatila boshlandi. Qoshin va toshdan o'yilgan bezaklardan foydalanish natijasida ganchkorlik asta-sekin minoralarning ichki qismida qo'llaniladigan bo'ldi. Uning tashqari qismida esa juda kam qo'llanildi. Ganch o'ymakorligida mashxur bo'lgan XVIII asr ustasi Usta Mulla Obid, uning farzandi Muhammad Muso otasining kasbini qunt bilan egallab, o'sha vaqtida xalqka tanilganlardan. Muhammad Muso o'g'illari Madusmon, Isoxon va YUsufalilar ganchkorlikda bir qancha vaqt ishlashgan, g'isht terishda ham obro'qozonishgan.

Ganchkorlikning gullab yashnagan davri XVIII asrning oxiri - XIX asrning boshlari bo'ldi. Uning uslublari, texnikasi ancha murakkablashdi. Ganch o'ymakorligining barcha turlari rivojlandi. Qurilgan binolarda xalq ustalari yorqin jilvali bo'yoqlar bilan ganchga jilo berdilar. Bezaklarning hamma turlariga xos aniq kompozitsion qonunlar ishlab chiqildi. Toshkent, Samarqand, Buxoro, Farg'ona vodiysi va Xivada o'ziga xos mustaqil maktablar vujudga keldi. Ganch o'ymakorligi texnikasi kishini qoyil qoldiradigan darajada o'sdi. Marg'ilonning guldar bezaklari yaxlit ko'rinishga ega, Toshkentniki esa qat'iy va aniq ritm asosida tuzilgan, Xivaning dinamik o'yma naqshlari o'ziga xos spiralsimonligi bilan farqlanadi, XIX asrning boshlarida buyuk ganch o'ymakorlaridan Abduraxim Hayotov, Usta Murod, Usta Fuzayl, Usta Nosir, Usta Hayot Nosirov, Usta Xoji Xofiz, Usta Nasrulloboy, Usta

Abdugalil, Usta Azim, Usta Omonullo, Usta G‘ofir, Usta Ibroxim, Usta Sari, Usta Abdufattox va boshqalar faoliyat ko‘rsatdilar. Asr boshlaridagi ishlarda esa o‘yma relefli juda mayin uslub texnikasi paydo bo‘ldi. Rangli ganchlar, busklar naqsh va tasvirlar qo‘llaniladigan bo‘ldi. Boylar, amaldorlar, xonlar o‘zlariga saroylar, bog‘lar va qasrlar qurdirib, ularni o‘yma ganch bilan bezattirdilar. XX asrning boshlarida diplomat amaldor A.Polovsev Toshkentda yashardi. U Turkiston arxeologiyasi xavaskorlari to‘garagiga a’zo bo‘lib, sharq madaniyatiga juda qiziqar edi. SHuning uchun u o‘ziga evropacha uy qurdirdi. Bino baland ayvon, mehmonxona, yotoqxona va boshqa xonalardan iborat edi. A.Polovsev O‘zbek xalqi san’atini yaxshi biladigan etnograf M.S.Andreevni bezak ishlariiga boshliq qilib tayinlaydi. U O‘zbek xalqi san’ati namunalarini yig‘ib, ularni o‘rganishga hayotini baxshida etgan ajoyib etnograf olim edi. Bu binoni bezashga Toshkentdan tashqari Qo‘qon, Buxoro, Farg‘ona va boshqa shaharlardan ganch o‘ymakorlar va yog‘och o‘ymakorlari, naqqoshlar taklif qilindi. M.S.Andreev ganchkorlik ishlarini ustalarga taqsimlab berdi, chunonchi Toshkent ustalariga ayvon, mehmonxonaning sharqiy va shimoliy devorlari, tokcha, G‘arbiy va Janubiy devorlarni bezatish Buxoro ustalariga topshirildi. Ayniqsa, Toshkent ganchkorlarining ishlari o‘ziga xos tavsifda bo‘lib, o‘yma naqsh kompozitsiyasida katta shoxbarg va tupbarglar yirik jimjimador qilib bezatilgan. Bu erda pardozning hamma turlari qo‘llanilgan. Devorlarga o‘yilgan o‘yma ganch namoyonlar vertikal hamda gorizontal joylashtirilgan, atrofi geometrik, mayda ensiz zanjira, islimi xoshiya naqshlar bilan bezatilgan. Namoyonlar xuddi yuqoriga qarab o‘sayotgan tabiat o‘simliklarini eslatadi. Pardoz turlari xonaga tushayotgan yorug‘lik hisobiga juda o‘rinli tanlangan. Derazadan tushgan yorug‘lik o‘ymani yanada badiiylashtirgan. Namoyonga nazar tashlab turgan kishi hoh uzoqdan, hoh yaqindan qaramasin, u o‘ziga xos jozibaga ega ekanligini ko‘radi. Albatta, ustalar bularni avvaldan hisobga olganlar. Namoyonlar xuddi go‘zal tabiat manzarasining nafis tasvirini eslatadi. O‘yma ganch zaminlari ajoyib ranglarda berilgan. Bu bino XX asrning boshlaridagi eng ko‘zga ko‘ringan arxitektura yodgorligi bo‘lib qoldi.

1913-1914 yillarda Buxoroda amir Akadxon tomonidan Sitorai Moxixosa qurildi. U ganch o‘ymakorligi bilan bezatildi. Ayniqsa oq uy (mehmonxona) o‘sha davrdagi

ganch o‘ymakorligining ajoyib namunasi desa bo‘ladi. Bunda oyna zaminida ganch o‘ymakorligi bajarilgan. U o‘zining nozikligi, jimjimador qilib bezatilishi bilan ajralib turadi. Mazkur saroyning bezak ishlarini Usta SHirin bajargan. U o‘sha davrda eng ko‘zga ko‘ringan ganchkor ustalardan edi.

Nazorat savollari:

1. Naqsh qanday so‘zdan olingan?
2. Naqqoshlik qanday yaratila boshlangan?
3. O‘rtalik Osiyoda naqqoshlik qanday rivojlana boshlagan?
4. Handasiy naqsh deganda nimani tushunasiz?
5. Kundal nima?
6. Ganchkorlik san’ati va uning rivojlanishini tushuntirib bering?

5-mavzu. Misgarlik va zargarlik san’ati

Mavzu rejasi:

1. Xizmat ko‘rsatish korxonalarida misgarlik san’ati va uning turlari
2. Mis buyumlarining turlari
3. Zargarlik san’ati

Tayanch iboralar: *Kashtachilik, misgarlik, ganchkorlik, yog‘och o‘ymakorligi, mis, “sirgit”, bronza, kandakor, lavxuri, dulava, qoshig‘lik, sarxum, o‘rdak oftoba, shabaka, ko‘za, dastshuy, ov do‘mbirasi, o‘smajo‘shak, surmadon, mankaldon, zargarlik san’ati.*

1. Xizmat ko‘rsatish korxonalarida misgarlik san’ati va uning turlari

O‘zbekiston kashtachilik, misgarlik, ganchkorlik, yog‘och o‘ymakorligi singari xalq amaliy san’ati bilan butun dunyoga mashxur. YOg‘ochga, misga, qog‘ozga,

matoga ganchga chizib, o'yib, tirnab, zarb bilan ishlangan naqsh nigoralar ularning go'zalligi, nafisligi va ta'sirchanligi kishini o'ziga maftun etadi. SHu san'at turlaridan biri misgarlik bo'lib, u qadim zamonlardan buyon davom etib kelayotgan san'atdir. Misgarlik deganda, misdan quollar, uy-ro'zg'or buyumlari va boshqa jihozlar yasash kasbini tushunamiz. Misgarlik hunarmandchilikning qadimiy va keng tarqalgan turidir. Misgarlikda ishlatiladigan asosiy material mis hisoblanadi. Mis nima? Mis nima uchun ishlatiladi, degan savol tug'iladi.



Mis – qadimdan insonga ma'lum bo'lgan metall. Mis va uning qorishmalari insonning moddiy madaniyatini o'stirishda katta ahamiyatga ega. Qadimda yunonlar mis rudasini birinchi bo'lib Kipr orollaridan qazib olganliklari uchun uning nomi lotincha – “sirgit” deb ataladi. U tabiatda tarkibida temir, kumush xattoki oltin bo'lgan ruda holida uchraydi.

Mis hayotiy fiziologik jarayonda qatnashadigan muhim element. U yumshoq, cho'ziluvchan, bolg'alanuvchan qizil yoki qizg'ish metall. Mis issiqlik va elektr tokini juda yaxshi o'tkazib, kumushdan keyin ikkinchi o'rinda turadi. U havoda tez oksidlanib qorayadi. Nam havoda mis gidroksikarbonat hosil qilgani uchun ko'karadi. Mis mis rudalarini qayta ishlashdan olinadi. Undan lagan, oftoba, jom, samovar va boshqalar, shuningdek sun'iy ipak olinadi. Qadimda misgarlar sof misni sovuqlayin ishlatganlar, shuning uchun ham mis buyumlar yumshoq hamda mo'rt bo'lgan. Keyinchalik mis va qalay qotishmasidan hosil qilingan bronzani ishlatganlar.

5.1-rasm. Misgarlik buyumlari

Bronzadan ishlangan buyumlar birmuncha pishiq bo'ladi. Ko'rama tog'larining janubiy-g'arbiy qismidan Qizilqum hamda Nurota tog'laridan topilgan topilmalar misning O'rta Osiyo hududida qadimdan rivojlanganligini isbotladi. Buxoro qadimdan naqshinkor mis idishlar ishlash markazi bo'lib kelgan. Strabon hamda Gerodot asarlarida O'rta Osiyoda misgarlik mashg'uloti haqidagi ma'lumotlar yozilgan. X asr

arab geografi hamda sayyohi Makdisiyning yozib qoldirgan manbalari asosida shular ma'lum bo'ldiki, Arab mamlakatlariga Samarcanddan o'sha davrda katta mis qozonlar, juda chiroylar mis qadahlari, Buxorodan esa mis chiroqlari keltirilgan. XI-XII asrda Termiz misgarlari butun dunyoga mashxur bo'lgan. XII-XIII asrlarda O'rta Osiyoda mis buyumlari yasashga juda katta e'tibor berilgan. XVIII-XIX asrlarda Buxoro, Samarcand hamda Qo'qon, Xiva kabi shaharlarda a'lo darajali bronza va misdan idishlar yasash keng tarqalgan edi. Misgarlik san'atining o'ziga xos maktablari bo'lib, ular Qo'qon, Toshkent, Samarcand, Xiva va boshqa shaharlarda bo'lgan. Mis idishlar ikki yo'l bilan: birinchisi misni eritib quyib, ikkinchisi bolg'alab yasalgan. Bolg'alab yasashda sangdondan foydalanilgan. Buyumni yasashda metall tez-tez qizdirib turiladi. Agar murakkab idishlar yasaladigan bo'lsa, mis bir qancha bo'laklari quyilib, keyin qalaylangan qolipdan chiqarilgan va mis idish yaxshilab tozalangan. Idish bitgandan so'ng naqsh o'yuvchi *kandakorga* beriladi. Kandakor forscha so'zdan olingan bo'lib, "o'yilgan ish", "kavlangan ish" degan ma'noni bildiradi. Kandakor bu – metalga o'yib, chizib naqsh ishlovchi usta, hunarmand.

2. Mis buyumlarining turlari

Metalldan ishlangan idishlarning umumiy shakli ma'lum proporsiya hamda siluetga ega. Suv solinadigan hamda choy damlab ichiladigan idishlarning shakli xilmashil bo'ladi. Bu idishlar sharsimon, yumaloq, agar yapaloqsimon bo'lsa satranji, shakli qovurg'ali, piltali, qirrali, raxli bo'lgan. SHunday idishlar borki, ularning qorin qismi bir xil bo'lib, dastasi va tumshug'i bilan farq qilgan.

Mis laganlar ko'pincha doirasimon, ba'zi birlarigina ovalsimon yoki to'rtburchak bo'ladi. Bularni buxorolik hamda samarcandliklar *chorkunj* deb yuritadilar. Mis laganlarini lavxuri, dulava va qoshig'lik turlari bor.

Lavxuri – ovalsimon yoki to'rtburchak mis laganlarning lablari yon tomonga qayrilgan bo'ladi. Bu laganlar o'simliksimon, geometrik va ramziy naqshlar bilan juda nafis qilib bezatilgan.

Dulava – tuxumsimon yoki to'rtburchak shakldagi mis laganlarning yon tomonga

qayrilib yana davom etib pastga qayrilgan. Bu laganlar ham juda chiroyli qilib ishlangan.

Qoshig'lik – qoshiqli, tuxumsimon yoki to‘rtburchak mis laganlarning yon tomonga qayrilib yana davom etib pastga qayrilgan, lablari kungurali bo‘ladi.

Yuz qo‘l yuvishda dastsho‘y va oftobalar ishlatiladi. Suv keltirish uchun satil (chelak), suv olish uchun sarxum, non isitish uchun nondon va boshqa ro‘zg‘or buyumlar shaklining o‘ziga xosligi har bir vohalarda o‘ziga xos tuzilishga ega.

Sarxum – katta xumlardan suv olishda ishlatiladigan mis idish shakli krujkaga o‘xhash, lekin uning hajmi katta, bandi esa juda chiroyli bo‘ladi. Sarxumni quyib yoki yasama usulda yasaladi va bezaladi. O‘zbekiston kandakorligi idishlari Hindiston, SHarqiy Turkiston, Eron, Kavkaz hamda Turkiya xalqlariga yaqin va o‘xhashdir, chunki O‘rta Osiyo xalqlari qo‘shni xalqlar bilan qo‘shnichilik aloqalarida bo‘lgan. O‘rta Osiyo hududida o‘rdak ko‘rinishidagi oftobalar ham qo‘llanilgan.

O‘rdak oftoba - qopqog‘i o‘rdaksimon, kafti, dastasi, jumrak o‘rniga o‘rdak tumshug‘ining shakli o‘rnatilgan idish. O‘rdak oftoba Qo‘qon shaxrida inqilobgacha keng tarqalgan bo‘lib, unda choy damlab ichilsa ham bo‘ladi. Olimlarning aytishicha, SHarq mamlakatlaridan keltirilgan bo‘lishi ham mumkin. Bu idishlar O‘rta Osiyoda faqat kulolchilikda tayyorlangandir. YUrtimizda tarqalgan ba’zi bir shakllar Kavkaz hamda Eron xalqlarining idishlari o‘rtasida uchraydi. Oftobalar panjarasimon «shabaka» qilib ham ishlangan.

SHabaka – miss idishlarga mayda qilib teshib ishlangan panjara. Toshkentda «Sumbarno» deb yuritiladi. SHabaka bu misgarlikda texnikaviy uslub hisoblanadi.

Xorazmda suv uchun kumg‘on degan idish ishlatiladi, lekin bu idish hech bir viloyatda qo‘llanilmaydi. Asilligi shundaki, ushlaydigan dastasi yo‘q. Boshqa viloyatlarda oftoba deb yuritiladi. Keyingi vaqtarda fabrika va zavodlarda har xil metall va chinni idishlarning ko‘plab ishlab chikarilishi misgarlik hunarmandchiligining rivojiga salbiy ta’sir qildi. Lekin shunga qaramay, ko‘plab mis idishlar yasalib kelinmoqda.

Suv keltirish, suv saqlash va choy damlash uchun mis choynak, mis ko‘za, choydish (choyjush), kashkil O‘zbek xalqi orasida eng ko‘p tarqalgan mis idishlardan

biridir. Choydishda suv tashiladi yoki choy kaynatiladi. Uning bo‘yi 25-30 sm, qorni esa balandligiga yaqin kattalikda bo‘ladi. Ular har xil ko‘rinishga ega bo‘lib, tagida chambaragi bo‘ladi. Uning dastasi quyilib idishning o‘rtasiga ikki mix bilan parchinlab mahkamlanadi. Choydishning qopqog‘i ko‘pincha «shabaka», ya’ni panjarali o‘yma qilib ishlanib dastasiga o‘rnatiladi. Dastalari yoy shaklida qayrilgan bo‘lib, pastki uchi tumorcha «madoxil» shaklida tugaydi. Ba’zi hollarda ilon boshiga o‘xshatib quyilib, ilonning og‘zi ochiq yoki yopiq holda tasvirlanadi. Qadimgi misgarlarning aytishicha, ilon boshining tasviri idishni jinlardan saqlaydi. Ko‘pincha idishlar dastasiga idishni ishlagan ustanning nomi, ayrim hollarda buyurtma berganning nomi badiiy qilib yozib qo‘yilgan. Choydislarning yumaloq, yapaloq qorinli «satranj» va ingichka bo‘g‘izli «isfaxon» lari bo‘lgan.

Ko‘za – ariq yoki quduq suvlarini tashishda ishlatiladigan kattaroq idish. Ko‘za ikki xil: qorni yumaloq, bo‘yin qismi yuqoriga kichrayib ketuvchi hamda konussimon qorinli bo‘ladi. Suv olib kelish uchun mis chelak «kashkil» ham ishlatilgan. Uning pastki qismi esa tekis bo‘ladi. XX asr boshlarida Evropada chelakka o‘xhash kashkillar ham ishlab chiqilgan. Xivada suv idishlari tun deb atalib, u yumaloq shaklda bo‘ladi, ba’zida qopqog‘i va dastasi ham bo‘ladi. Qo‘l yuvish uchun oftoba, obdasta, kumgon, dastshuy, selobcha, chilopchin, tufdon (tuflagich) va boshqalar ishlatilgan. Buxoroda oftoba deyilsa, Samarqand, Toshkent hamda Farg‘onada obdasta deb yuritiladi. Bir asr ilgari yasalgan oftobalar hozirgilaridan katta farq qilgan. Qadimgi oftobalar Afg‘on oftobalariga o‘xhash nafis, kurkam hamda sillik pardozlanar edi har bir vohada har xil oftobalar ishlatilar edi. Xivada oftobalar yasen, bo‘yin qismi uzun hamda ingichka bo‘lib dastasi bulmaydi. SHaxrisabz kandakorlari oftobalarga rangli oynachapar, rangli surgichlardan, ayrim hollarda esa sirli bo‘yoqlardan gullar solishgan. Buxoro oftobalari gul solingan, bo‘yi pastroq, katta va bo‘yin qismi ingichka bo‘lgan. Og‘zi kichkinagina qabariq bo‘lib, chetlari kungurapi qopqoqcha bilan berkitilgan bo‘ladi.

Dastshuy – qo‘l yuvish uchun ishlatiladigan mis idish, u yumaloq ko‘rinishga ega bo‘ladi. Dastshuyning usti panjara qopqoqli bo‘lib, qopqoq idishga burama holatda mahkamlangan. Suvni to‘kish yoki tozalashda undan ajratib olish mumkin. Dastshuy

ajoyib naqshlar bilan bezatiladi.

Ov do‘mbirasi – dovul, pul saqlanadigan g‘aladon, shamdon, mirkroz, bezaklar saqlanadigan quticha (sandiqa), qalam solinadigan mischilim, qirg‘ich, qoshiqchalar, mankal shu kabilar misdan yasalgan.

Xon va beklar ovga chiqqanlarida ov boshlanganidan darak berish va parranda, hayvonlarni cho‘chitish hamda haydash uchun do‘mbiralarini chalishgan. Bu do‘mbiralar dovullar deb yuritilgan. Ular ham ajoyib qilib bezatilardi. SHam paydo bo‘lgandan so‘ng shamdon, sham uchini tozalaydigan qaychi mikrozlarni ham kandakorlar ajoyib qilib bezaganlar.

O‘sماjо ‘shak – o‘sma ezish va qosh bo‘yash uchun hamda turli bezaklar tayyorlashda ishlatiladigan mis idishcha. Bu idishchani uchta oyog‘i hamda dastasi bo‘ladi. O‘sماjо‘shakni kandakor islimiy naqshlar bilan bezagan. O‘sماjо‘shak uzum bargi shaklida ham bo‘ladi.

Surmadon – og‘zi kichkina, ustki qismida esa burma teshikchasi bo‘lib, bu teshikcha temir naycha o‘tkazilgan po‘kak bilan mahkamlangan bo‘ladi. SHu naycha bilan O‘rta Osiyo, SHarq xotin-qizlari qosh hamda kipriklarini bo‘yaganlar. Bu surmadonlar naqshlar bilan bezatilgan bo‘ladi. Ayrim hollarda baliq shaklidagi surmadonlar ham bo‘lgan.

Mankaldon – pechka o‘rnida ishlatiladigan idish. U oyoqchalardan, devorchalardan iborat bo‘lib, yig‘ilganda qirrali katta to‘garak tashkil qiladi. Rixtagarlar mankaldonlarni har xil shaklda yasaydilar. Mankaldonlar yumaloq, to‘rt qirrali, olti qirrali, o‘n ikki qirrali ham bo‘ladi. YAsalgan mankaldonning qancha qirrasi ko‘p bo‘lsa, shuncha u og‘ir bo‘ladi. Uni ko‘tarib yurish uchun ikki tomonida qulog‘i bo‘ladi. Ba’zida choynak qo‘yish uchun chuqurcha ham o‘yib qo‘yiladi. Mankaldonni ayrim hollarda sandal ostiga qo‘yib, isitib o‘tirishgan.

3. Zargarlik san’ati

O‘zbek xalq amaliy san’ati turlari ichida zeb-ziynat san’ati bo‘lmish zargarlik alohida o‘rin egallaydi.

Musulmonlarda feruza, marvarid, zumrad va boshqa toshli zargarlik buyumlari nihoyatda qadrlangan. CHunki, ular inson uchun faqat bezak buyumlari bo‘lib qolmay, balki sog‘lik uchun, inson ruhiyati uchun ijobiy ta’sir etgan. Masalan, marvarid inson organizmini mustahkamlaydi, yurakdagi tushkunlik va iztirobni haydaydi, ko‘z qobiliyatini oshiradi, jinlardan saqlaydi, og‘izdagagi qo‘lansa hidlarni yo‘qotadi, oshqozondagi va jigardagi toshlarni maydalaydi, shamollash, bavosil va boshqalarni tuzatadi. Feruza esa uni qudratli tumor sifatida taqilgan, oshqozon hamda ko‘z kasalligiga shifobaxsh, ta’sir etgan, ilon chaqqanida eng yaxshi davo hisoblangan. SHuning uchun qadimda kelinlar kiyimiga feruza taqishgan. Sadaf SHarqda ham, Evropada ham yuqori baholangan. Undan to‘g‘nagich, baldoq, marjonlar, ilma tugmalar yasalgan. Uni qadimda oshiqlar mahbubasiga sovg‘a qilgan. U taqqan kishini ajin hamda seckillardan asragan, zexnni ravshan qilgan, kishini bardam, ruhiyatini ko‘targan.

Xalsedondan o‘tmishda marjonlar, uzuk, to‘g‘nagichlar, bilakuzuk va boshqalar yasalib, u guyo odamlarni qaxru-g‘azab, g‘amu-anduhdan asragan.

O‘zbek zargarligi juda qadimiy tarixga ega. Unga ibridoiy jamoa tuzumi davrida asos solingan. Arxeologik topilmalardan ma’lumki, zargarlik san’ati juda qadimiy san’at bo‘lgan. Eramizgacha bo‘lgan I asrdan boshlab eramizning VIII asrigacha Ayrитом, Afrosiyob, Dalvarzintepa, Holchayon, Bolaliktepada chiroyli haykallar, devor bezaklari orqali zargarlik san’ati rivojlanganligini ko‘rish mumkin.

Tosh asrining so‘nggi davri noeolitdayoq (eramizgacha IV-III ming yillikning oxirida) shildiroq, munchoqlar, har xil toshlar, chig‘anoq, hamda suyaklardan yasalgan bezaklar topilgan. Bu esa zargarlikni rivojlanganligidan dalolat beradi. Ikki daryo oralig‘iga joylashgan YUnionistonda ajoyib va qimmatbaho zargarlik buyumlari ishlangan. Mis davriga xos to‘g‘nagich, zirak, baldoq, bilakuzuk, shildiroq va boshqalar metalldan, hattoki oltindan ishlanadigan bo‘ldi.

Xorazmdagi Tuproqkal’a devorlardagi tasvirlardan o‘sha davrlardagi ayollar qulqlariga nafis zirak taqqanliklari ma’lum bo‘lgan. Bulardan tashqari bronzadan quyib ishlangan bir qancha osma taqinchoqlar ham topilgan. Bu osma taqinchoqlar I-IV asrga mansub bo‘lib, Xorazmning Ayozqal’a, Etti asar, Burgutqal’a va boshqa

joylaridan topilgan.

IV-V asrlarda zargarlik buyumlari kam ishlangan. Ular tosh, shisha, pastalardan qilingan. Masalan, Xorazmda shishadan qilingan sher va qurbaqa shaklidagi munchoqlar topilgan. Bolaliktepadagi topilmada V asr oxiri VI asr boshlarida ishlangan devoriy rasmda ayol kishining qulog‘i va barmog‘ida zargarlik taqinchoqlari tasvirlangan. Afrosiyobdagagi VI-VII asrga mansub devoriy rasmda erkak kishining qo‘lida sovg‘a taqinchoqlarni olib kelayotgani tasvirlangan. XV asrlarda zargarlik juda yaxshi rivojlangan bo‘lsada nimagadir bizgacha juda kam mikdorda saqlanib qolgan. Ba’zi bir yozma manbalarda ko‘rsatilishicha XIV asr oxiri XV asr boshlarida Tojiddin zargar Buxoro yaqinidagi Tavans shahrida yashagani, bulardan tashqari Xusaynning o‘g‘li Muhammad zargar, XV asrning ikkinchi yarmida yashagan usta Ali zargar, xo‘ja Sulton Xusayn zargar, xo‘ja Bobo Do‘sning o‘g‘li xo‘ja Xasan zargar nomlari bizga ma’lum.

XVI asrda ishlangan ko‘krak bezak zargarlik buyumlari faqat devoriy rasmlar orqali etib kelgan. XIV-XVII asrlarda zargarlik buyumlarining naqsh bezaklari judayam murakkablashib boradi.

XIII-XIV asrlargacha zargarlik buyumlarida ko‘pincha hayvonlar tasvirlangan bo‘lsa, keyinchalik esa arab yozuvlari kompozitsiyaga kirib o‘ziga xos ko‘rinish bergen. Bu yozuvlar bir tomondan naqsh bezagi va ikkinchi tomondan ma’no jihatdan farqlanar edi.

XVIII asrda O‘rtta Osiyodagi o‘zaro ichki urushlar zargarlik san’atining rivojlanishiga salbiy ta’sir etdi. Keyinchalik xonliklar paydo bo‘lishi bilan zargarlik yanada rivojlnana boshladi. XVIII asrda o‘g‘ul bosqinchilaridan so‘ng birinchi marta oltin tangalar ishlab chiqarila boshlandi.

XIX asr va XX asr boshlarida O‘rtta Osiyo xonliklari o‘rtasida badiiy hunarmandchilik rivojlandi, shular qatori zargarlik ham tez sur’atlar bilan rivojlandi. Ko‘pgina shaharlarda masalan, Xiva, Buxoro, Qo‘qon, Samarqand, Qarshi, SHaxrisabz, Toshkent, Andijon, Urganch, Nurota, Kitob, CHust, Asaka, Fijduvon, Marg‘ilon va boshqa joylarda usta zargarlar bo‘lib, ular maxsus mahalla-mahalla bo‘lib yashaganlar. SHuning uchun zargar (zargaron) mahalla deb yuritilgan.

1975 yilda xalq badiiy kasb hunari to‘g‘risida e’lon qilingan qaror juda katta ahamiyat kasb etdi. Bu qarordan so‘ng ko‘pgina zargarlik korxonalar qaytadan ochildi. Ustaxonalar kengaytirildi. Hozirgi vaqtida xalq ommasining madaniy-maishiy ahvoli, farovonligi, zargarlik buyumlariga bo‘lgan ehtiyoji yanada ortdi.

Hozir yurtimizning Andijon, Toshkent, Samarcand, Xorazm, Farg‘ona, Buxoro va boshqa shaharlarida zargar ustalarimiz bugungi kunda yangi materiallar va shakllarni ishlatalish bilan birga, zargarlarning eng yaxshi qadimiy an‘analari va boy tajribalaridan samarali foydalanib kelmokdalar. Ular hozirgi avlod didiga mos nafis zargarlik buyumlarini ko‘plab ishlab chiqarib, xaridchlarni yanada xushnud etmoqdalar.

Odamlar iste’mol qiladigan meva sharbatlari hamda har xil ichimliklar uchun: mis kosa, sharbat kosa, mis qozonlari, non isitiladigan nondon, turli xil krujka hamda cho‘michlar, sarxum, kapkir va boshqalar ham ishlatalgan. Bu idishlar ham o‘ziga xos zargarlik shaklida ishlov berilib kelinmoqda.

Nazoorat savollari:

1. Misgarlik o‘z ichiga qanday amaliy san’atlarni oladi?
2. Mis o‘zi nima va unga qanday ishlov beriladi?
3. YUrtimizning qaysi hududlarida misgarlik san’atiga oid topilmalar mavjud?
4. Kandakor deganda nimani tushunasiz?
5. Mis buyumlarning qanday turlari mavjud?
6. Sarxum, o‘rdak oftoba va shabaka qanday yasaladi?
7. O‘tgan asrlarda ov do‘mibrasi qanday maqsadlar uchun qo‘llanilgan?
8. O‘zbek xalqi uchun zargarlik san’atining ahamiyati nimada?
9. Hozirgi vaqtida zargarlik san’ati orqali qanday buyumlar yasalib kelinmoqda?

6-mavzu. Dizayn, dizayner va badiiy konstruksiyalash

Mavzu rejasi:

1. Dizayn
2. Dizayner yoki rassom-konstruktor

3. Dizaynerlik (badiiy) konstruksiyalashning shakli va funksiyasi
4. Shakl va kompozitsiya
5. Funksiyali rang va bezak
6. Proporsiya, simmetriya va assimetriya
7. Ritm va kompozitsiya

Tayanch iboralar: *dizayn, dizayner, rassom-konstruktor, badiiy konstruksiyalash, eskiz, maket, dizayner talablari, kulan, dizaynerlikda shakl va funksiya, geometrik shakllar, shakl va kompozitsiya, frontal kompozitsiya, gorizontal kompozitsiya, vertikal kompozitsiya, diagonal kompozitsiya, uchburchak va piramidal kompozitsiya, funksiyali rang va bezak, proporsiya, modul, modul proporsiya, simmetriya, assimmetrik usul, metrik qator, ritm, ritmik qator, metroritmik birlik, kompozitsiya, ansambl.*

1. Dizayn

Dizayn (loyiha-fikr) – bu zamonaviy sanoat ishlab chiqarishida ijodiy faoliyatning yangi turi (ko‘rinishi) yoki asosiy maqsadi uyg‘unlashgan jismlar muhitini yaratish. SHuningdek, insonning moddiy va manaviy, estetik talablarini qondirishga qaratilgan ijodiy faoliyat turlaridan biri.

Dizaynning texnik shaklga bo‘lgan asosiy muammosi – bu foyda, qulaylik va joziba. SHuning uchun dizayn hayotimizni qulay, ko‘rinishini esa jozibador va chiroyli bo‘lishiga sababchi bo‘ladi.

Dizaynning maqsadi – inson haqida g‘amxo‘rlik, uning ehtiyojlarini, shu jumladan estetik ehtiyojlarini qondirishdan iborat. Dizayn mahsulotning istemolchilik xususiyatlarini (sifatlarini) oshirish ustida ishlashi lozim.

Dizaynni yaratishda milliy madaniyat, iqlim, qurilish materiallarining uyg‘unligi bo‘lishi lozim. Bundan tashqari, buyum madaniyati faqatgina shakldan iborat emas, balki maqsadga muvofiq bo‘lmog‘i, yani shakl va mazmunning birligidan iborat bo‘lishi lozim. Masalan, jamoat ovqatlanish korxonasi binosi yoki mehmonxonanining chiroyli shakli muhim, biroq ularda ishlab chiqarish yoki dam olish va yashash uchun shart-sharoitlarni yaratish bundan ham muhimroqdir. SHu bois dizayn nafaqat yaxshi,

chiroyli buyumlarni yaratadi, balki predmetlar olamini tartiblashtiradi, bizlarni keraksiz, ortiqcha buyum va detallardan xolos etadi. SHunday qilib, dizaynning vazifasi nafaqat yaxshi va qulay buyumlar shaklini yaratish, balki ijtimoiy talablarni qondirishdan iboratdir.

2. Dizayner yoki rassom-konstruktor

Dizayner yoki rassom-konstruktor – bu ishlab chiqarishdagi mutaxassis bo‘lib, u baravariga funksional va estetik talablarga mos keladigan sanoat buyumining shaklini loyihalashtiradi va konstruksiya qiladi.

Uning muhandis konstruktoridan farqli tomoni shundaki, u taklif etilgan texnik konstruksiya (masalan, stanok, fotoapparat, muzlatgich) ni bilimlari (malumotlari) asosida jozibaga ega buyumning tashqi shaklini ishlab chiqadi.

Dizayner yordamida muhandislik-konstruktorlik g‘oya (fikr) rassomning estetik hayoli va ijodkorlik fantaziyasi bilan boyitiladi. Demakki, foyda va joziba birlashib, yakdillikni hosil qiladi.

Texnik va rassomchilik elementlarining organiq yakdilligi dizaynerning ijodiy uslubida o‘z ifodasini topadi va bu *rassomchilik konstruksiyalash* deb ataladi.

Dizayner eskiz, maket, chizgilardan foydalanadi, buyumning rangi, ritmi va kompozitsiyasi (tuzilishi) haqida o‘ylaydi, bir so‘z bilan aytganda, kelgusidagi buyumning ijodiy (rassomchilik) loyihasini yaratadi.

Dizaynerlarga qo ‘yiladigan talablar:

- birinchidan, shakl konstruksiyasi, joziba va ifodalanishning ishonchli bo‘lishini taminlovchi predmetli hal etishni;
- ikkinchidan, alohida predmet, detal va elementlarni bog‘lash uchun zarur bo‘lgan kompleksli hal etishni ;
- uchinchidan, muhitning barcha komponentlari sintezini beruvchi yaxlit tarzlilikni hal etishni.

Har bir ishlab chiqarish korxonasi ishlab chiqariladigan buyumlarning turiga ko‘ra asosiy va ixtisoslashtirilgan konstruktorlik bo‘limlaridan iborat bo‘ladi.

Konstruktorlik tashkilotlari shugullanadigan loyihalash ob'ektiga loyiha topshirigini tuzishdan amaliy ishlarni bajarish uchun ishchi chizmalarini tayyorlashgacha bo'lgan ishlar majmuidan iborat bo'lib, juda murakkab va uzoq davom etadigan jarayon hisoblanadi. Konstruktorlik hujjatlariga grafika va tushuntirish matni shakpidagi hujjatlar kiradi. Ular alohida holda yoki birgalikda buyumning tarkibi va tuzilishini belgilaydi. Uni ishlab chiqish yoki tayyorlash, nazorat, qabul, ekspluatatsiya va ta'mirlash uchun zarur ma'lumotlarga ega bo'ladi.

Sanoat-texnik mahsulotlarning badiiy jihatdan maqsadga muvofiqligi, ularga estetik tus berish olimlar, muxandislar, ishlab chiqarish xodimlarining muhim vazifasidir. *Kulan* va chiroyli buyumlar yaratishga qaratilgan badiiy loyihalash dizaynning diqqat markazida hamisha odam, uning ijtimoiy va individual ehtiyojlari, iste'mol va ma'naviy talablari turadi. Har bir predmet qandaydir hayotiy muhim vazifaga (funksiyaga) egadir. Lekin, deyarli har bir ishda o'zini go'zal buyumlar bilan o'rab olish ehtiyoji bor. SHuning uchun ham buyumni qimmati ikki asosni – foyda va go'zallikni qamrab oladi. Har bir buyumda texnik va estetik asos mavjud bo'lib, u hamisha muhim bo'lmaydi va tarixan almashinib turadi.

Bizning asrimiz fan-texnika yutuqlarining mislsiz darajada taraqqiy etishi hamda bu taraqqiyot natijalarining oddiy insonlar hayotiga juda qisqa muddatlarda keng kirib kelayotganligi bilan tavsiflanadi. Mana shunday taraqqiy omillaridan biri bu shubxasiz yangi axborot texnologiyalaridir. Bugungi kunda hayotimizning hech bir sohasini, jumladan ta'lim tizimini ham yangi axborot texnologiyalari (YAAT) hamda uning asosi bo'lgan kompyuterlarsiz tasavvur etib bulmaydi.

Axborotlarni qabul qilish, qayta ishslash va yangi axborotni yaratish bilan shug'ullanuvchi texnologiyalarni kompyuterlar asosida joriy etish, ya'ni belgilangan faoliyat to'rini amalga oshiruvchi kompyuter va unda joriy etilgan dasturiy ta'minotni yuritish majmuasi yangi axborot texnologiyasi deb yuritiladi. Axborotlar davri hisoblangan bugungi kunda tarixda birinchi marotaba insoniyat faoliyatinnng ko'plab sohalari moddiy buyumlar bilan emas, balki axborotlarni qayta ishslash bilan bog'liq bo'lmosda. SHu sababli, bugungi kunda yoshlarni axborot davrida yashash va ishslashga o'rgatish, ularda axborotlarni yig'ish, tartib va tahlil qilish, uni uzatish

ko'nikmalarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bular o'z navbatida o'quvchilarning ko'plab qobiliyatlarini, shu jumladan, ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishda ham muhim asos vazifasini o'taydi, chunki har qanday yangi g'oyani taklif qilishda ilgari qaralayotgan sohani batafsil o'rganib chiqish, yangi axborotlarni topish va uni tavsiya etilayotgan echim bilan bog'lashni o'rganish lozim bo'ladi. Bu vazifalarni amalga oshirish uchun bo'lsa, albatta oddiy inson xotirasida saqlab bulmaydigan darajada katta hajmdagi axborotlarni qayta ishlash talab etiladi. YAAT imkoniyatlari ushbu muammoni avtomatlashgan o'quv-axborot tizimlari, bilimlar banki va ma'lumotlar banklari vositasida oson va samarali xal qilish imkoniyatlarini yaratadi.

SHu munosabat bilan keyingi paytda respublikamizda bu sohaga e'tibor kuchayib bormokda, keyingi besh yil mobaynida mavjud kompyuterlar parki bo'yicha vatanimiz jahon ko'rsatkichlariga yaqinlashib qoldi. Biroq, ta'lim jarayonida zamonaviy axborot texnikalari, jumladan shaxsiy kompyuterlarning qo'llanishi uchun zarur nazariy va amaliy, ilmiy-uslubiy asoslarning ishlab chiqilmaganligi, ayniqsa ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish bilan bog'liq qator muammolarni keltirib chikarmokda.

Texnik ijodkorlikni amalga oshirishda kompyuterlarni qo'llashning shakl va usullarini belgilashda, avvalo ular yordamida o'quvchilarning ijod qilishini emas, balki yangi texnik echimni yaratishga axborotlarga bo'lgan ehtiyojini qondirishi va uni amalga oshirishning samarali yo'llarini ishlab chiqishda foydalanishini e'tiborga olish lozim.

Respublikamizda ta'lim tizimini isloh qilish barobarida badiiy ijodiyot, dizayn yo'nalishlariga ham alohida ahamiyat berilyapti. CHunonchi respublika milliy rassomlik va dizayn instituti, qator o'rta maxsus kasb- hunar kollejlari ochildi. Turli ko'rgazmalar, tanlovlardan, ilmiy-amaliy tadbirlar o'tkazilmokda. Bularning hammasi albatta o'z samarasini ko'rsatmay qolmaydi. Ayniqsa libos, interer va eksterer dizayni bo'yicha ajoyib loyihalarini va ularning amaldagi tadbig'ining guvohi bo'lishimiz mumkin.

Xalqaro miqyosda texnika yo'nalishidagi g'oyat turli-tuman mukammal dizaynerlik san'atining namunalarini ko'rishimiz mumkin. Bu yo'nalishda ham

jazirama quyoshli O‘zbekistonda tavsiflar, mavzular, boshqa an’analar hukmron. Bu erdag‘i dizayn ham o‘zining mahalliy belgilari bilan farq qiladi.

Misol uchun, Toshkent traktor zavodining konstruktorlik byurosi o‘zining etakchi dizaynerlari kuchi bilan qishloq xo‘jalik traktorlarining bir nechta modellarini yaratdi. Bu juda progressiv dizaynerlik ishlanmasi bir qancha bloklar (yoki uzellar)dan foydalanishni ko‘zda tutardi. Ana shu bloklardan turli vazifalar uchun mo‘ljallangan traktorlarni yig‘ish mumkin.

Ammo bizga qiziqarli tomoni shundaki, dizaynerlar mashinaning tashqi shakliga juda o‘ziga xos qiyofa bera oldilar: unda mahalliy regional madaniyatga mansublik yaqqol aks etib turibdi, bunga sabab – bu mashina o‘zbek eposining qahramoni nomi bilan «Mansur» deb atashi ham bejiz emas. Traktor korpusi yig‘ilgan panellarni relefni unchalik baland emasligi, kabinaning yupqa bo‘laklarga bo‘linishi an’anaviy O‘rtal Osiyo naqshlari bilan uyg‘unlashib ketgan. Uning asrlar bo‘yicha qaror topgan plastikasi tavsifi ma’lum darajada saxiy janub quyoshining ta’siri ostida vujudga kelgan, u hatto unchalik baland bo‘lmagan relefda ham keskin va aniq yorug‘lik soyani talab qiladi. Masalan, dizaynerlardan YU.Masunov bilan A.Florov oqilonaga va o‘ziga xos muxandislik va badiiylik jihatlarining ajoyib uyg‘unligini topishga muvaffaq bo‘lishgan.

Buyumlarning doimo almashinib turishini rag‘batlantirishda va talabni sun’iy ravishda qiziqtirib turishda dizaynning roli muhim o‘rin egallaydi. U hamisha buyumlarga yangi shinamlik fazilatlarini bag‘ishlaydi yoki ularni ko‘zga tashlanadigan ramziy qiyofasini shunchaki o‘zgartirib yuboradi.

Bizning davrimizda dizaynda shubhasiz mavjud bo‘lgan ayrim umumiyl vazifalar turli mamlakatlardagi bu yangi san’atning ilg‘or, chinakam ijodkor arboblarini yaqinlashtirishga yordam beradi.

1957 yilda tashkil etilgan dizaynerlar xalqaro tashkiloti (IKSID) jahon rassomlarining buyumlar muhitini takomillashtirish sohasidagi butun ko‘p qirrali faoliyatini muvofiqlashtirib turadi.

Muntazam o‘tkazilayotgan amaliy seminarlar ham professional jihatdan ham, ijtimoiy jihatdan juda katta ahamiyatga ega bo‘lyapti, ularga turli mamlakatlardan

dizaynerlar to‘planishadi.

Yana shuni ta’kidlash joizki, dizaynerlik san’ati ovqatlanish korxonalarini loyihalashda va uni tashqi hamda ichki qismini bezatishda hozirgi paytning muhim ahamiyati hisoblanadi.

3. Dizaynerlik (badiiy) konstruksiyalashning shakli va funksiyasi

Biz har qanday buyumga qarar ekanmiz, birinchi navbatda, ko‘zimizga uning shakli tashlanadi. Biror maqsadda foydalaniladigan buyum tashqi shakli (forma) va rang bilan tavsiflanadi. Uning funksional qulay yoki noqulayligini ishlatib ko‘rgandagina bilamiz.

Endi buyum shaklini tahlil qilib ko‘ramiz, bunda uning har qanday amaliy va estetik mazmunini istisno qilamiz. Eng oddiy shakllar – bular bizga ma’lum bo‘lgan asosiy geometrik shakllar: parallelepiped, prizma, silindr, shar, konusdir.

Bu geometrik jismlarning birikmalari ularning turli kombinatsiyalardagi kesmasi va tutashuvi ham bo‘lishi mumkin. Ko‘pgina buyumlar yana ancha murakkab shaklga ega bo‘ladi, ya’ni ikki xil egri tasvirli, tashqi bo‘shliqning shu buyum doirasiga kirishi va shu kabilar. Buyumning shakli simmetrik va assimetrik bo‘lishi mumkin. Har bir buyum o‘zining ichki nisbatlari bilan ham tavsiflanadi. Biz buyumni ko‘rib chikar ekanmiz, uning ana shu hajmlari nisbatini idrok etamiz. Oddiy geometrik jismda (masalan, silindrda) diametr bilan balandlik nisbatini payqab olamiz. Odam qiyofasiga baho berganda, boshning o‘lchovlarini gavda tuzilishi o‘lchovlari bilan taqqoslasmiz. SHunda biz: «bu kishining boshi katta ekan», «bu odam baland buyli», «bunisi esa aksincha, kalta oyoqli odam» deymiz.

Buyumlar xilma-xil bo‘lib, ularni ta’riflash uchun «hajmli-fazoviy tuzilish» terminidan foydalaniladi. Odiiy ro‘zg‘or buyumlari: soat, taburetka, stakanni qiyoslab, bu tushunchani tushuntirib berishga harakat qilamiz. Soat – yopiq, hajmi, silindrik, kub yoki prizma hajmidan iborat. Biz bu hajmni osonlik bilan chizib chiqqa olamiz, uning tashqi fazoga nisbatan yopiqligini his etamiz.

Har qanday buyum ma’lum bir materialdan ishlanadi, ko‘p hollarda biz uning

qanday materialdan qilinganligini bilamiz. Faqat ayrim sintetik mahsulotlar va har xil almashinuvchi materiallar bizni qiyin ahvolga solib qo‘yishi mumkin: tashqi ko‘rinishi jihatidan bu materialning qandayligini va u qanday xossalarga ega ekanligini bilaolmaymiz. Har bir buyumning sirti qandaydir o‘ziga xos sifatlari bilan ajralib turadi, ya’ni u g‘adir-budur yoki silliq, yaltiroq yoki sirlangan bo‘ladi. Uning funksional qulay, noqulayligini ishlatib ko‘rgandagina bilib olamiz. Buyumlar bezagi diniy aqidalarga, an’analarga ko‘ra davr o‘tishi bilan o‘zgarib turgan. Lekin buyum qanday materialdan yasalgan bo‘lishiga qaramasdan uning shakli vazifasidan kelib chiqqan holda o‘zgarganligini ko‘rishimiz mumkin.

Ilk o‘rta asrlarda ishlangan buyumlar chiroyli shaklli, lekin ularning ayrimlarida funksiya jihatidan biroz noqulayliklar mavjud. Jumladan, VI asrga oid dastapi qadahni olib ko‘raylik. Uning shakli chiroyli. Idish devoridagi tuskli hayvon, tog‘ zchkisi bo‘lsa kerak, tasviri birdaniga ko‘p miqdorda quyilib ketishi ehtimoli bor. Qolaversa, suyuqlik solingan idish faqat ushlab turishga mo‘ljallangan, chunki pastki qismi tayanchsiz ishlangan. XII asrlarga oid qadahlarda bu kamchiliklar sezilmaydi. Jumladan, shisha qadahlar uzun, nafis dasta va doirasimon tayanchga ega. Qadimiy qadahlarni ayrim nuqsonlari VIII asrga doir o‘smajo‘shak tuzilishida ham seziladi.

Xo‘jalik buyumlarining ham shakli, tuzilishi ularning funksional qulayligidan kelib chiqqanligi yaqqol seziladi. Hoh metalldan, hoh sopoldan ishlangan buyumlar bo‘lsin, ularning tuzilishiga, dastasining joylanishi, jumragining formasiga alohida e’tibor bergenliklarini ko‘ramiz. Jumladan, og‘zi kichkina va chuqur idishlarda dasta pastroqqa o‘rnatilgan. Bu bilan idish ichidagi suyuqlikni quyish oson bo‘ladi. Katta hajmdagi uzun idishlarning dastasi yuqorida joylashadi. Bu idishlarni bir joydan ikkinchi joyga ko‘chirib qo‘yishga mo‘ljallangan. Idish ichidagi suyuqlikni boshqa idishga olishda bir qo‘l bilan dastadan ushlab, ikkinchi qo‘l bilan idish ostidan ko‘tarib qo‘yish mumkin, xolos. Vazasimon idishlarda dasta uzun bo‘lishi mumkin. Uzun dasta idishni ko‘tarishda ham, ichidagi suyuqlikni quyishda ham qo‘l keladi. CHunki, dasta yuqorisidan ushlab uni ko‘tarish, dasta pastrog‘idan ushlab undagi suyuqlikni quyish mumkin. Bunda XII asrga doir Konka shahri (Toshkent viloyati) harobalaridan topilgan idish guvohlik beradi. Mis ko‘zalarda ham shu tadbirlarga amal qilingan.

Dastasiz, grafinha o‘xshagan uzun bo‘yinli ko‘zalar ham topilgan. Ular ko‘tarishga yoki ichidagi suyuqlikni quyishga qulay bo‘lgan. IX-XI asrlarga oid shunday ko‘zalar Bunjikat harobalarida uchratilgan. SHunday tuzilishdagi ko‘zalar shishadan ham ishlangan.

Kosa, piyolalarning shakli ham asrlar davomida silliqlanib kelgan. Kosa va piyolalar labi tashqariga biroz egilgan holda ham uchraydi. Labi tashqariga egilgan piyola choy ichishga qulayrok, albatta. Undan tashqari bunday idishlar tilni kuydirmaydi. Kosa va piyolalarning pastki qismi, tayanchi qirqimda o‘yiqcha shaklida ichkari tomon yoysimon chiziqdan ko‘tarilgan. Bunday idishni ushlashda katta barmoq uning labiga, yoysimon tayanch qismi qolgan barmoklar ustiga qo‘ndirilgan. YOysimon tayanch qirrasi barmoq bo‘g‘iniga yaxshi o‘rnashgan. SHuningdek, kosa tayanchini yoysimon o‘yiqcha shaklida ishlash idish og‘irligini kamaytirish, qolaversa biroz bo‘lsa ham loyni tejash imkonini bergen.

Chilim tuzilishi uning funksional vazifasidan kelib chiqqan. Uning qovoqqa o‘xhashligi qadim zamonlarda chilim qovoqdan ishlanganligidan dalolat beradi. XIX asr va XX asr boshlarida ham chilim yasash uchun qovoq qobig‘i ishlatilgan. Uni qo‘l bilan ushlab chekishga qulay bo‘lishi uchun o‘rta qismi torroq ishlangan. Qolaversa, bu tutunning suv orqali tozalanib, aylanib kelishiga yordam beradi. CHilim chekilayotganda uning orqa qismidagi teshikcha barmoq bilan yopiladi. CHekayotgan odam naycha orqali nafas olganda chilim sarxonasidan tamaki tutuni idish ichidagi suv tagiga cho‘kadi. Barmoq teshikchadan olinganda toza havo o‘z bosimi bilan tutunni suvdan siqib chiqaradi.

Demak, xulosa qilib shuni aytish kerakki, barcha buyumlarga shakl berilayotganda uning funksiyasi hisobga olinishi zarur bo‘ladi.

4. Shakl va kompozitsiya

Biz har qanday buyumga – sun’iy yoki tabiiy buyumga xos bo‘lgan, uning estetik sifatlariga bog‘liq bo‘lmagan asosiy belgilari bilan tanishib chikdik. Mazkur belgililar bilan tanishish bizga – garmonik shakl nima, uning qanday belgilari bor va u qanday

yaratilishini bilib olish uchungina zarur bo‘ladi.

Buyumning rassom tomonidan topilgan garmonik shakli bir kancha sifatlarga ega bo‘ladi. U uzviy va yaxlit, qismlari proporsional va ritmlik bo‘lib, u butunlay odamga va atrofdagi buyumlarga mos, plastik bo‘ladi, rangi ko‘zni quvontiradi.

Garmonik shakl go‘zallik qonunlari asosida yaratiladi. Hammaga ma’lum bo‘lgan bu ta’rif qonunlariga o‘xshagan qonunlar yo‘q.

Garmonik asar yaratish jarayoni “kompozitsiya” nomiga ham egadir. *Kompozitsiya* lotincha “compositio” so‘zidan olingan bo‘lib, - tuzish, ijod qilish ma’nolarni anglatadi.

Kompozitsiya tushunchasi ijodning boshqa turlari – rangtasvir va haykaltaroshlik, adabiyot va musiqaga ham taalluqlidir.

Tasviriy san’atning barcha turlari kabi badiiy loyihalash ishlari ham kompozitsiyaning umumiyligi qonuniyatlaridan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. SHuning uchun ham bu ishlar dizayner rassomdan etarlicha bilim va malakalarini talab qilishi bilan birga, doimo kompozitsiya masalalarini diqqat markazida tutishni taqozo qiladi.

Badiiy loyihalash ishlarida kompozitsiyaning asosan uchta: tekis, hajmli, kenglik va chuqurlikka ega bo‘lgan turlari mavjud. Bularning barchasi u yoki bu g‘oyani amalga oshirishda qandaydir bir umumiyligi sifat va belgilarga ega bo‘ladi.

Frontal kompozitsiya – bu ikkita koordinatlar bo‘yicha frontal tasvirni tashkil etish demakdir. Frontal kompozitsiyaning tavsifli xususiyati unda hajmli elementlarni ishlatishning cheklanishi va shu bilan bir paytda, uning o‘lchovlarini kattalashtirish imkoniyatlari ortib borishidir. SHuning uchun ayrim rel’efsimon tasvirlar (masalan: kandakorlik, yog‘och hamda ganch o‘ymakorligi va hokazolar) plastika qonuniyatlarini asosida ko‘rilsa ham tekis yuza kompozitsiyalari turiga kiradi.

Ta’lim-tarbiya muassasalaridagi bezak ishlarining ko‘p qismi, masalan, ko‘rgazmali qurollar, devoriy gazetalar, mavzuli stendlar, taklifnama, tabriknoma, tematik albom va hokazolar frontal kompozitsiya asosida bajariladi.

Kompozitsiyaning qurilishi ma’lum ob’ektning vazifasi hamda mazmuniga, undan ko‘zlangan maqsadga bog‘liq bo‘ladi. Kompozitsiyalarning asosiy tuzilmalari

quyidagilardan iborat:

Gorizontal kompozitsiya – bunda kompozitsiya elementlari goizontal yuzaga joylashtiriladi. Masalan, dala, shahar panoramasi va boshqalar.

Vertikal kompozitsiya – aktiv (faol), dinamik kompozitsiya bo‘lib, yuqoriga o‘sish, parvoz tasavvurini hosil qiladi, uning detallari asosan tik chiziq bo‘yicha joylashadi.

Diagonal kompozitsiya – uning qurilishi dinamik va shiddatli sxemalarga asoslanadi.

Uchburchak va piramidal kompozitsiya – bunda turg‘un, osoyishta holatga tayaniladi.

Surat yuzasining pastki qismi piramidaning negizi hisoblanadi. Frontal kompozitsiya boshqa tur kompozitsiyalardan hajmni, masofa va kenglikni berishi bilan farqlanadi. Hajmli kompozitsiya turli ko‘rish nuqtalaridan idrok qilishga mo‘ljallangan uch o‘lchov shaklda bo‘ladi. Asarlarning mazmuni va vazifasiga muvofiq kompozitsiyaning biror xususiyati bo‘rttirilishi mumkin.

Kompozitsiya o‘z xususiyatlari bilan pirovard natijada badiiy bezash ishlarining yuksak badiiyligini ta’minlashga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kompozitsiyalarning garmonik yaxlitligida ranglar ham alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, rang asosiy o‘rin tutadigan mazoik panno, vitrajlarda kompozitsion garmoniyaga jiddiy qarash lozim. SHundagina asarning rang birligi estetik ta’sir etuvchi eng asosiy omillardan biri bo‘ladi. Kompozitsiya qonuniyatlarida asossiz chetlatish odatda badiiy bezash ishlari mazmunini ham estetik mohiyatini ham pasaytiradi.

Agar kompozitsiya elementlari tomonlarda bir-biriga nisbatan bir xil joylashsa, ular kompozitsion muvozanatda bo‘ladi.

Kompozitsiyaning asosiy masalalaridan biri kombinatsiyadir. Kombinatsiya asosida bir va bir necha elementlarning joyini o‘zgartirish orqali kompozitsiyaning yangidan-yangi ifodali variantlari tayyorlanadi.

Dinamik va turg‘un kompozitsiyalar ham o‘z qonuniyatlariga ega. Bular o‘rtasida qarama-qarshi ma’no kelib chiqishiga yo‘l ko‘ymaslik, ya’ni asosiy va ikkinchi darajali

elementlarning mantiqiy uyg‘unligiga erishish lozim.

Ritm qonuniyatlarini bilish ta’sirchan kompozitsiya tuzishda ritmik ko‘rinishning tavsifini to‘g‘ri tanlashga katta yordam beradi. Har bir janrning o‘ziga xos xususiyatlari bo‘ladi. Shuning uchun dizayndagi kompozitsiya ham o‘z metodikasi va terminalogiyasiga egadir. U avvalo asarning zarur sifatlariga yoki dizaynerlik xususiyatlarga tayanadi. Bu sifat va xususiyatlar idrok etish xususiyatlarga asoslanadi va kompozitsiya kategoriyalari deb ataladi. Biz ulardan eng asosiylarini: formaning uzviyligi va yaxlitligi, proporsionallik va ritm, masshtablilik, plastiklik, rang va ranglar uyg‘unligini aytib o‘tamiz. Biz bu kategoriyalarning har birini maqsad sifatida qarab chiqamiz, bu maqsadga qanday vositalar yordamida erishish mumkinligini bilib olamiz.

5. Funksiyali rang va bezak

Ota-bobolarimiz xona ichki kompozitsiyasini yaratishda har bir elementning bajaradigan vazifasining qulayligi, go‘zalligini birinchi yoki ikkinchi darajali ekanligini, ramziy ifodalarini ham e’tiborga olganlar. Misol uchun, Tuproqqal’ a saroyining askarlar zalini olib qaraylik. Devor atrofi bo‘ylab joylashtirilgan kuch qor shoxiga o‘xhash valyutalar mardlik ramzini ifodalagan. Valyutalarning katta hajmda ishlanishi askar uchun dovyuraklik xususiyati birinchi o‘rinda turishini bildirgan. Askarlar sarkardasiz yoki sarkarda askarsiz bulmaydi, degan ma’no yotadi. Ularning bir-biridan farqini bildirish uchun sarkarda haykallari oddiy askarlardan kattaroq qilib ishlangan.

Qadimiy Niso shahridagi kvadrat saroy va aylana ibodatxona intererlari kompozitsiyasida ko‘p masalalarni ijobiy echishga harakat qilingan. Ularning ikkalasida ham ikkinchi yarusda ritm bilan tokchalar ichida haykallar joylashtirilgan. SHu o‘rinda haykallar nega birinchi yarusda emas? degan savol tug‘iladi. Darhaqiqat, nega ikkinchi yarusda? Avvalo shuni aytish kerakki, haykallar o‘sha davrda xalqning diniy e’tiqodlariga binoan xudolarni ifodalagan. Ularni banda bilan bir xil balandlikda o‘rnatish mumkin emas. Qolaversa, birinchi yarusga o‘rnatilgan haykallarni xonaning hamma joyidan ko‘rib bo‘lmaydi. Ayniqsa, xonada odam ko‘p bo‘lganda haykallarning

ravoqli tokchaga olinishi ham o‘ziga xos ramziy ifodaga ega, ya’ni ravoq koinotdagi kamonni, ya’ni osmonni ifodalagan. Haykallarning tokchaga o‘rnatilishi, tokcha orqa devorining to‘q qizil rangga bo‘yalishi zamirida xudolarning zim-ziyo koinotda ham shu’la taratayotgan bo‘lib turishi kabi ma’nolar yotadi.

Miloddan avvalgi I acrga oid Xolchayon saroyidagi barelefda devor sathidan bo‘rttirib ishlangan haykallar shoh, uning oila a’zolari, a’yonlari, sarkardalariga bag‘ishlangan kompozitsiya ham xona uch devori (kirish eshigi qarshisidagi va ikki yon devori)ning yuqori qismi bo‘ylab yo‘nalgan gorizontal bo‘linmada joylashtirilgan. SHuning uchun ham saroya kirgan kishi diqqatini birinchi navbatda mavzuli barelef bo‘linmasi o‘ziga tortadi. Mazkur saroy intererida shoxga bag‘ishlangan haykallar majmuasi asosiy o‘rin tutadi, ular uchun xona devorining yuqori qismida gorizontap bo‘linma ajratilgan.

Xalq tafakkurida diniy aqidalar hamma vaqt alohida o‘rin egallagan. SHuning uchun ham hoh avvalgi dinlarga, hoh islom diniga mansub aqidalarini bajarishga mo‘ljallangan elementlar bo‘lsin, ular xona kompozitsiyasida asosiy element vazifasini o‘tagan. SHuning uchun uning tuzilishiga, bezagiga alohida e’tibor berilgan. Masjiddagi mexrob ham fikrimizning isboti bo‘la oladi. Mexroblar tarixda uch-besh qirrali qilib ishlangan. SHuningdek, mexrobning yuqori qismi ko‘p qirrali sharaflar bilan to‘ldirilgan. Bu tadbirlar nafaqat bezak vazifasini o‘tagan, shuningdek xonada aks-sadoni kuchaytirishga yordam bergen. Tovush mexrob siniq qirralariga urilib, xonakoxning hamma tomoniga jaranglab kaytgan.

Buxorodagi yozgi xonalar, Samarqand va boshqa shahar mehmonxonalarining hovli tomon devori derazalari pol sathidan biroz ko‘tarilgan. Derazalar bag‘dodi eshiklar bilan to‘silgan. Yozda deraza eshiklari ochilganda mehmonlar ko‘z oldida hovlidagi manzara paydo bo‘ladi. Mehmon o‘zini xuddi bog‘da o‘tirgandek his qiladi. Xona devorlaridagi tokchalar ham funksional vazifasidan tashqari o‘zining go‘zalligi bilan kishi e’tiborini tortadi. Katta-kichik oddiy tokchalar devor yuzasiga tik va yotiq holda joylashgan, jimjimador konturli, mayda naqshli, zamini nafis rangli ravoqchalar bilan qoplangan, bu hol ularga butunlay jozibali ko‘rinish bag‘ishlagan. Tokchaband devor va taxmonlar joylanishi, old, orqa va yon devorlarida o‘rin almashishi jihatidan

ommaviy tus olgan bir necha xil kompozitsiyani tashkil qilgan. YOn devorlardagi tokchalar pastdan 50-70 sm, turdag'i devorda asa 30-40 sm yuqoridan boshlangan, bu birinchidan, devorga suyanib o'tirishga sharoit yaratadi, ikkinchidan, tokchalarning yuqori tomon maydalashib borishiga qaramasdan, ular xonaning barcha burchagidan yaqqol ko'rinishini ta'minlaydi. SHuning uchun tokchalardagi buyumlarni bir qarashda anglab olish mumkin hamda pastdagilarini tik turgan holda, ko'p engashmasdan, yuqoridagilarini esa kursi qo'ymasdan olish mumkin.

Hozirgi qurilayotgan ovqatlanish korxonalarining bezagiga va rangiga ham dizaynerlik jihatidan alohida e'tibor berilib kelinmoqda. Masalan, "Karimbek", "Samarqand" restoranlarida rang va bezaklarga did bilan e'tibor berilgan. Bunda o'zimizning milliy urf-odatlarimizni saqlagan holda bezatilganligini ko'rishimiz mumkin.

Umuman olganda xonadagi har bir jihozning nafaqat funksiya jihatidan qulay bo'lishiga, balki o'sha jihoz kompozitsiyasining go'zal, serbezak bo'lishiga ham alohida e'tibor berilgan.

6. Proporsiya, simmetriya va assimetriya

Proporsiya arxitekturada ishlatalidigan asosiy kompozitsion vositalardan biri bo'lib, u binoning hamma qismlarini ko'rish uyg'unligi nisbatiga keltiradi. Arxitektura asoslari qismlar o'lchamlarini ma'lum nisbatda bir-biriga va butunlikka bog'liqligi hamda yagona birlikka olib keladigan vosita.

Arxitekturada amaliy jihatdan ma'lum ahamiyatga ega bo'lgan proporsional sistemalarning asosiylariga quyidagilarni misol qilib olish mumkin: *proporsianing modul sistemasi, oltin kesim* va boshqalar.

Modul proporsiya sistemasida bino yoki inshootning hamma o'lchamlari ma'lum bir qisqa o'lcham asosida qabul qilinadi, bu qisqa asosiy o'lcham *modul* deb ataladi. Hozirgi zamon arxitektura – loyihalash amaliyotida yagona modul sistemasi (M) qabul qilingan va u 100 mm ga teng qilib olingan.

Simmetriya deb, yuza yoki hajmning geometrik markazidan o'tadigan, bir xil elementlarning o'qqa yoki yuzaga nisbatan joylashuviga aytildi.

Kompozitsiyaning *assimmetrik usulida* uning alohida elementlari shunday joylashtiriladiki, simmetriya o'qi umuman yoki qisman yo'qoladi. Bunda o'lchami va shakli bo'yicha har xil bo'lgan qismlar shunday joylashtiriladiki, natijada kompozitsiyaning yaxlitligi saqlanib qolinadi.

7. Ritm va kompozitsiya

Metr va ritm. Arxitekturada metr va ritm elementlarning qonuniy ravishda takrorlanishi sifatida namoyon bo'ladi. Elementlarning takrorlanishi ikki ko'rinishda namoyon bo'ladi: *metrik* va *ritmik*. *Metrik qatorda*, bir xil o'lchamdag'i elementlar bir xil masofada takrorlanadi. *Ritmik qatorda* esa, elementlarning o'ichamlari, shakllari va orasidagi masofalar o'zgarib turadi. Metr va ritm arxitekturada ko'pincha birgalikda ishtirok etishi mumkin, bunga *metroritmik birlik* deyiladi.

Kompozitsiya lotincha «kompozitsio» so'zidan olingan bo'lib, *tuzish*, *bog'lanish*, *ulanish* ma'nolarini anglatadi. *Kompozitsiya* deb, mazmuni va vazifasi tomonidan qabul qilinishini aniqlab beruvchi badiiy asarning qurilishiga aytildi. Yoki boshqacha qilib aytganda kompozitsiya – badiiy asarning strukturaviy tuzilishi, qismlarining munosib uyg'unligi, ma'naviyligi, obrazliligi kabi sifatlarining yechimi. *Arxitekturaviy kompozitsiya* deb, tashqi va ichki elementlari aniq qonun-qoidalarga asosan joylashgan va bir-biriga bog'liq bo'lgan, uyg'un ma'qullangan binoning bir butunligiga aytildi. Tashqi muhit bilan bog'langan va bir necha binolarning ma'lum qonun-qoidalarga asosan joylashishi *murakkab kompozitsiyani – ansamblni* tashkil etadi.

Shunday qilib *kompozitsiya* deganda, keng ma'noda arxitektura asarining badiiy strukturasi, shaklining badiiy ko'rinish sistemasi tushuniladi. Kompozitsiya prinsiplarini bilmay turib, arxitektura asari g'oyalarini ochib berib bo'lmaydi.

Arxitekturaning vazifalarini aks ettiruvchi formula – quay, mustahkam, arzon va chiroylı qurish arxitekturaviy kompozitsiyaning asoslarini aniqlab bergen. Bu asos shakl va mazmunning birligidir. *Arxitekturaviy kompozitsiyaning maqsadi* shu birlikka

erishish, vazifasi esa qarama-qarshiliklarni murosaga keltirishdir. Kompozitsiya maqsadlarini va vazifalarini ro'yobga chiqarish uchun me'mor kompozitsiya qonuniyatlarini bilmasa, iqtidor va intuitsiya yordam berolmaydi.

Kompozitsiya nazariyasida o'rganiladigan qonuniyatlar *kompozitsiyaning kategoriyalari* va *elementlari* deb ataladi. Bu kategoriyalarga *hajm-samoviy struktura, tekonika, uyg'unlik vositalari* - *simmetriya va assimetriya, ritm, proporsiya, masshtabiylilik, kontras, nyuans* va boshqalar kiradi.

Bo'shliqni chegaralab turadigan material qobiq binoning hajmini tashkil etadi, ichki bo'shliq bilan birga esa hajm-samoviy strukturani, ya'ni kompozitsiyani tashkil etadi. Kompozitsiya faqatgina funksiyaga bog'liq bo'lib qolmay binoning joylashgan o'rniga, ya'ni shahar qurilish sharoitiga, atrof-muhitga, landshaftga, iqlimga, milliy an'analar va boshqa ko'pgina faktorlarga ham bog'liqdir. Nazariy jihatdan hajm-samoviy kompozitsiyaning uch xil turi mavjud: *frontal kompozitsiya, hajmiy kompozitsiya, chuqur-samoviy kompozitsiya*.

Nazorat savollari:

1. Dizayn deganda nimani tushunasiz?
2. Dizaynning asosiy maqsadi nimadan iborat?
3. Dizayner yoki rassom-konstruktor nima?
4. Rassomchilik konstruksiyalash deganda nima tushuniladi?
5. Dizaynerlarga qanday talablar qo'yiladi?
6. Dizaynerlikda yangi axborot texnologiyalarning qanday o'rni bor?
7. Dizaynerlik konstruksiyalashda shakl va funksiyaning vazifasi nimada?
8. Xo'jalik buyumlarini tayyorlashda shakl qanday o'ringa ega?
9. Kompozitsiya deganda nima tushuniladi?
10. Buyumlarni yasashda kompizitsiyaning qanday o'ringa ega?
11. Kompozitsiyaning qanday turlari mavjud?

12. Buyumlar yasalishida funksiyali rang va bezak qanday ahamiyatga ega?
13. Proporsiya nima?
14. Modul proporsiya deganda nimani tushunasiz?
15. Simmetriya nima?
16. Kompozitsyaning assimmetrik usuli nima?
17. Metrik va ritmik qator nima?
18. Metroritmik birlik deganda nimani tushunasiz?
19. Kompozitsiya nima?
20. Arxitekturaviy kompozitsiya deganda nimani tushunasiz?

3-Bob. Umumiyl ovqatlanish korxonalarini dizayni

7-mavzu. Ovqatlanish korxonalarini turlari, kategoriyalari va tavsifi

Mavzu rejasi:

1. Ovqatlanish korxonalarini turlari
2. Ovqatlanish korxonalarining kategoriyalari
3. Dizaynerlik (badiiy) konstruksiyalashning shakli va funksiyasi

Tayanch iboralar: restoran, kafe, oshxona; choyxona, tamaddixona, salon, folklor, ixtisoslashtirilgan, manzarali, inter'erli restoran, ixtisoslashtirilgan korxona, kafeteriy, kafe-shantan, artkafe, choyxona va chaynaya.

1. Ovqatlanish korxonalarini turlari

Sayyoohlarni joylashtirish vositalari turlarga va kategoriyalarga bo'linib qaralganidek, aholi va sayyoohlar ovqatlanish korxonalarini (vositalari) ham tur va kategoriyalarga bo'linadi.

Ishlab chiqaradigan mahsulotining assortimenti, xizmatlar turlari va ularning sifati bo‘yicha ovqatlanish korxonalari quyidagi turlarga bo‘linadi:

- restoran;
- bar;
- kafe;
- oshxona;
- choyxona;
- tamaddixona.

Xalqaro tajribada ovqatlanish korxonalari bezatilishi, dizayni, joylanishi hamda ishlab chiqarish mahsulotlari va istemolchilari turiga qarab xillarga bo‘linadi. O‘zlarining nihoyatda nafis inter’eri va dizayni, ovqatlanish stollarining taom istemol qilishda ishlatiladigan idishlar bilan o‘ta boy bezatilishi hamda tansiq taomlarni tayyorlashi bilan boshqalaridan ajralib turadigan restoranlarga *salon restorani*, ishlab chiqarish faoliyati qaysidir xalqning milliy taomlariga, turmush madaniyatiga asoslangan holda ularning korxona dizaynida, personal kiyimida va musiqaviy bezatishlarda o‘z aksini topgan restoranlarga *folklor* yoki *milliy taomlar restorani* deyiladi. Ishlab chiqarish faoliyati tayyorlanadigan taomlar va ichimliklar turlariga asoslangan restoranlarni *ixtisoslashtirilgan restoranlar* deb atash qabul qilingan. Tabiatning manzarali joylarida joylashgan restoranlarga *manzarali restoranlar* deyiladi. O‘ziga xos g‘alati bezatilgan restoranlarni *inter’erli restoranlar* deb atash qabul qilingan.

Sanatkorlarning chiqish qilishlari rejallashtirilgan restoranlar *konsertli*, musiqaning malum bir shakliga yoki turi bo‘yicha ixtisoslashgan konsertli restoranlar turlarini *musiqali restoranlar* deb atash qabul qilingan. Konsertli va musiqaviy restoranlar ishi asosan kechki dam olish vaqtlarida rejallashtiriladi.

YUqorida ko‘rsatilgan restoranlarning har biri iqtisodiy jihatdan katta imkoniyatlarga ega bo‘lgan o‘zining xizmat istemolchisiga ega. Faqat oddiy restoranlarga aholining barcha qatlami kirish imkoniyatiga ega.

Xalqaro tajribada barlar ham *oddiylarga* va *SNEK–barlarga* (ingl. “Snack” – oson tayyorlanadigan gazzak + “bar” - prilavok) tez va oson tayyorlanadigan gazaklarni ham

tayyorlab beradigan bar degan manoni bildiradi. SNEK–bar kafe-barning bir shakli hisoblanib, ular asosan yuqori razryadli mehmonxonalar tarkibida tashkil qilinadi.

Kafelar ham ishlab chiqaradigan ovqatlanish mahsulotlarining turiga va xizmat istemolchilarining kategoriyasiga qarab ixtisoslashadi. Masalan, sut mahsulotlari kafesi, hamirli qandolat mahsulotlari kafesi yoki bolalar kafesi, o‘smirlar kafesi va sh.o‘. Bazi bir kafelar barcha mahsulot turlaridan tez va oson tayyorlanadigan ovqatlanish mahsulotlarini hamda kafe va kakaoga o‘xshagan issiq ichimliklarni ishlab chiqaradi, ularning istemol qilinishini va sotilishini tashkil qiladi. Bunday kafelar ularning xizmatidan hamma foydalana oladigan *umumiyy tipdagi* kafelar deb ataladi.

Xalqaro tajribada kafelarning quyidagi xillari mavjud:

- umumiyy tipdagi kafelar;
- ixtisoslashgan kafelar;
- kafeteriyalar;
- kafe-shantanlar;
- kafe-barlar va boshqalar.

Kafeteriy (isp. “cafeteria”) – bu kafening bir xili bo‘lib, ularda odatda istemolchilar o‘z-o‘ziga xizmat qilishadi.

Kafe-shantan (fr. “café chantant” – ashula aytiladigan) kafe yoki restoranning bir xili bo‘lib, ularda har xil janrlarda ashulalar aytiladi va raqsga tushiladi.

Bazi bir kafelarda madaniyat sohasi arboblarining, masalan yozuvchilar, rassomlar va boshqalar uchrashuvlari tashkil qilinadi. Bunday kafelar *artkafe* nomi bilan yuritiladi.

Kafe-bar deganda bir vaqtning o‘zida kafe va bar vazifalarini bajaradigan ovqatlanib, dam olish vositasi tushuniladi.

Ba’zi olimlarning fikriga ko‘ra, qurilish san’atida bionikaning dastlabki qadamlari inson faoliyatining boshqa sohalariga qaraganda yorqinroqdir. Texnologiyada qonunlar va tirik tabiat shakllaridan foydalanish juda qonuniydir. Tirik organizmlar va sanoat mahsulotlarining evolyusiyasi shakllar va funksiyalarning o‘zaro ta’siri bilan belgilanadigan bir xil prinsiplarga asoslanadi. Dunyoda hamma narsa bir-biriga bog‘liqdir. Butun dunyoni bir butunga birlashtiradigan va vizual tarzda yaratilgan qonunlar va prinsiplar tizimlaridan tirik tabiat va uning shakllarini qurish uchun foydalanishning ob’ektiv imkoniyatini yaratadigan qonunlar mavjud. Biodizaynning qonuniyligi nafaqat insoniyat va atrofdagi dunyoning biologik va texnik birligi, shu bilan birga inson ongingin xususiyatlari bilan ham belgilanadi. Inson ongi ko‘proq darajada tabiatda yuz beradigan jarayonlarning ta’siri natijasida shakllanadi.

O‘zining ijodiy faoliyatida odam doimo ongli ravishda yoki intuitiv ravishda yordam uchun yovvoyi tabiatga murojaat qiladi. Biodizaynning butun tarixi tabiiy shakllarning sof tashqi konturlaridan sanoat mahsulotlarini ishlatish bilan tavsiflanadi.

Tabiiy shakllar texnikasini o‘zlashtirishning eng qiyin bosqichlari XVII asrga to‘g‘ri keladi. Uyg‘onish davrida boshlangan tabiashunoslikning jadal rivojlanishi jarayoni texnologiyaga bevosita bog‘liq edi. Kopernik dunyosining gelotsentrik tizimi Jordano Bruno tomonidan ijobiy baholangan va YOxannes Kepler va Galileo Galileyning asarlarida tasdiqlangan. Evangelista Torricelli atmosfera bosimi mavjudligini aniqladi. Blez Paskal uning ishini davom ettirdi va suyuqlik va gazdagibosimni o‘tkazish qonunini ochdi. XVII va XVIII asrlar oxirida Isaak Nyuton klassik mexaniqaning asosiy qonunlarini universal tortishish qonuniga asoslanib shakllantirgan.

O'sha paytda mexaniqa tabiiy fanning barcha paydo bo'lgan tarmoqlari orasida etakchi o'rinni egallagan. SHuning uchun tabiatning barcha sirlari aniq mexaniqa yordamida va uning asosida organilgan deb aytishimiz mumkin. Ratsionalistik falsafa, uning asoschisi Rene Dekart edi va shuning asosida texnik shakllanishga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Ratsionalistik faylasuflar Dekart, Lokk, La Mettri va boshqalar dunyoni zarralari ko'p vadoimo harakatda bo'lgan moddalardan tashkil topgan deb tan olishgan va bular mexaniq qonunlarga bo'ysunadi deb hisoblashgan. Ular mexaniqa qonunlari universal qonuniyatlar ekanligiga ishonishgan va ularni yovvoyi tabiatga tatbiq etishgan. Odamlar va hayvonlarda qon aylanishini kashf etgan shifokor Harvi kashfiyoti fanda katta rezonansga ega bo'ldi va bu mexaniqa qonunlari nuqtai nazaridan barchaga tushunarli edi. Ushbu g'oyaning izdoshlari tanadagi barcha jarayonlar mexaniq qonunlarga muvofiq sodir bo'lishiga va hayot maxsus issiqlik bilan ta'minlanishiga amin bo'lishdi.

Ba'zan mexanika sun'iy hayotni yaratish g'oyasini ilgari surdi. Qushlarning uchishini kuzatgan Leonardo da Vinchini, ko'rganlari asosida turli xil mexanizmlar yaratishga harakat qilgan. XVIII asrda analogiya mutlaqga keltiriladi, uning maqsadi sun'iy avtomatik hayvonni yaratishdan iborat edi. Boshlang'ich pozitsiyasi quyidagicha edi: tabiat hayvonlar olamida mukammal mexanizmlarni yaratdi; bular bir biri bilan mukammal shakllarda mujassamlangan. Tabiat tomonidan qushga qanotlari ko'rinishidagi go'zal uchadigan mashina berildi, shu bilan birga baliqlarni quyruq suzish moslamalari va qanotlari bilan ta'minladi. Avtomatlashtirishning dastlabki yutuqlari hayvonlearning shakllarini jalb qilish asosida mashina dizaynining paydo bo'lishiga olib keldi. Qush qanotlarining harakatlanish mexanizmi va havoda muallaq turishi kuzatildi va shu asosda samolyot yaratildi deb o'ylashimiz noto'g'ri. U davrda fan va texnikaning darajasi shunaqa ediki, bu g'oyani amalga oshirishning iloji bo'lmaydi.

Ilm-fan taraqqiyoti bilan, sun'iy ravishda yaratilgan texnik qurilmalarda tirik tabiat elementlarining jarayonlari va o'zaro aloqalarini ishlatish uchun ob'ektiv imkoniyat paydo bo'ladi. Hozirgi kunda - bu yangi yo'nalish chinakam ilmiy asosga ega.

Bugungi kunda bionikaga aloqador bo‘lmanan inson faoliyati sohasini topishi dargumon. Bu borada rassom-dizaynerning ijodiy faoliyati ham bundan mustasno emas. Ushbu bo‘limda biz bionikani sof utilitar deb hisoblaymiz, faqat rassom-dizaynerning ijodiy faoliyatidagi amaliy intizom sifatida va tegishli, o‘ziga xos muhandislik va dizayn maqsadiga ega bo‘lgan tirik organizmlar bilan taqqoslashga - bioformaning rassom-dizaynerning tasavvuriga, fantaziyasiga va tasavvuriga ta’sirini ko‘rsatishini o‘rganishga o‘tamiz. Dizaynerlarning yovvoyi tabiatni shakllantirish qonunlariga alohida e’tibor berishining sabablari shundaki, san’atning alohida turi sifatida badiiy dizayn material ishlab chiqarish bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, u har doim materialni tejash muammosiga duch keladi.bundan tashqari mahsulotni ommaviy ishlab chiqarishda vaqt va kuch, bir tomondan, boshqa tomondan - mahsulotning maqbul qulayliklari va estetik qiymatiga erishish hisoblanadi.

YOvvoyi tabiat rivojlanish jarayonida energiya, qurilish materiallari va vaqt ni har tomonlama tejashga intiladi. YOvvoyi tabiatdagi minimal qonunlar mavjudlikning organiq maqsadga muvofiqligi bilan bog‘liq. Bularning barchasi tirik tuzilishlarning shakllanish qonuniyatlarini faqat rasmiy izlanishlar uchun emas, balki konstruktiv usulda qo‘llash mumkinligi haqidagi g‘oyani keltirib chiqardi.

2. Xizmat ko‘rsatish karxonalarida biodizayndan foydalanish va dizayn bionikasining asosiy usullari

Bioolamdan foydalanish hozirgi kunda turli xizmat ko‘rsatish korxonalarining rang barangligini mujassam etadi. Bu esa turli xizmat ko‘rsatish korxonalarining dizaynida undan keng foydalanib kelinmoqda. Ayniqsa, insonlar ko‘proq ovqatlanish korxonalarida ko‘tarinki ruhda dam oladi, zavqlanadi va xoridq chiqaradi. Bunda ovqatlanish korxonadagi dizayn jihatidan bezatilishida biodizayn muhim o‘rin egallab kelmoqda.

Dizayner ishidagi eng muhim bosqich - bu yovvoyi tabiatni o‘rganish. Ushbu bosqichda muqarrar ravishda tabiatda nimani tanlash va qanday tanlash kerakligi haqida savol tug‘iladi. Birinchidan, sanoat mahsulotlarida tirik shakllarni qurish prinsiplarini

takrorlash imkoniyatlariga rioya qilish kerak. Biodizaynning asosiy usuli - bu funksional analogiya usuli yoki sanoat mahsulotlari va yovvoyi tabiatni shakllantirish prinsiplari va vositalarini taqqoslash. YOvvoyi tabiatning zarur va foydali funksiyalari va shakllarini tanlash zamonaviy texnologiyalarning muammolari va sanoat shakli haqidagi bilimlarni olishga yordam beradi (1, 2-rasm). Biodizayn jarayonida, hajmli modellar orqali dizaynga qiziqishning tabiiy shakllarini ko‘paytirish muqarrar. Bunday holda modellashtirish nafaqat tirik tabiatning morfogenez qonuniyatlarini bilish vositasi, balki dizayner bionikasi oldida turgan nazariy va amaliy muammolarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri hal qilish vositasi ham vazifasini bajaradi.



10.1-rasm. Biodizaynning ko‘rinishi.



10.2-rasm. Biodizaynni ovqatlanish korxonasida joylashtirish shakli.

Tabiiy analoglari bo‘lgan rassom-dizaynerning ishi oddiy taqqoslash emas, balki biologik jarayonlarni texnik modellashtirish usullari va usullarini izlashdir. Masalan, asalari uyalarini olib boring. Bu tabiatning standartlashtirish va birlashtirish sohasidagi ajoyib ijodlaridan biridir. Ular parallel qatorlarda joylashtirilgan o‘n minglab olti burchakli prizmalardir. Asalari hujayralarining har bir qatoriga g‘isht devori kabi po‘latdan yasalgan devor kabi “kiyinish” yotadi. Asalarilar izotropikdir - ularning kuchi barcha yo‘nalishlarda bir xil. Va bu ajablanarli emas, samolyosozlar birinchi bo‘lib samolyot va raketalarini yaratishda asalarilarning tajribasidan foydalanganlar.

Asalarilar qurishda ming yillik asalarilar tajribasi me’morlar va quruvchilar tomonidan liftlarni qurishda muvaffaqiyatli ishlatilgan, ularning sig‘imi oshgan va material iste’moli 30 foizga kamaygan va ishchi kuchi ikki baravar kamaytirilgan Loyihada ishlayotganda, dizayner "tirik" va sun’iy asbob-uskunalarining qiyosiy tahlilini o‘tkazadi, tirik ob’ektlar va inson qo‘li bilan yaratilgan asbob-uskunalarining texnik xususiyatlarini taqqoslaydi va keyinchalik texnologiyada sun’iy ravishda kiritilmagan biologik shakl va qurilmalardan foydalanish maqsadga muvofiqligi to‘g‘risida xulosa chiqaradi. Tabiiy shaklni tahlil qilar ekan, dizayner o‘zining tektonikasini tushunishga

intiladi, bu qanchalik murakkab bo‘lmasin, hajmlarning tasodifiy kombinatsiyasi sifatida ko‘rib chiqilmaydi. Uning uyg‘unligi qat’iy belgilangan qonunlar va prinsiplarga muvofiq rivojlanadi. Uyg‘unlikni idrok qilish uchun tuzilish qonunlari, tabiiy shaklning tasavvurlari, ma’lum tayyorgarlik talab qilinadi. Tabiiy shaklda asosiy narsa elementlarning konstruktiv-kompozitsion guruhlanishi, ularning ritmi. Bu tarkibiy ta’kidlangan qalinlashuv masalasidir - butun organizm tarkibidagi alohida guruhlar, sanoat mahsulotlarini loyihalashda siz boshlappingiz mumkin bo‘lgan kompozitsion tuzilishning turli xil urg‘ulariga etarlicha misollar mavjud. Har bir tabiiy shakl o‘ziga xos xususiyatlarga ega.

Ko‘pgina sanoat mahsulotlarining fazoviy dizayni tabiatning strukturaviy shakllari: tuxum, qobiq, yong‘oq chig‘anoqlari, makkajo‘xori boshoqlari va boshqalar mantig‘ini empirik o‘rganish natijasidir. Agar biz o‘rganishning ob’ekti sifatida, tabiiy tavsifga, hajmga va tuzilishga, oddiy oddiy shaklga ega bo‘lgan tabiiy analogni olsak, biz haqiqatan ham uning yaxlitligini darhol baholashga qodirmiz, bu esa texnik shaklning tasvirini va plastik ifodasini tezroq va kamroq vaqt bilan olishga yordam beradi. Agar tabiiy analogning shakli ko‘plab murakkab uyushgan elementlardan iborat bo‘lsa, unda uni idrok etish paytida olingan assotsiativ signal darhol aniq belgi bo‘lmasligi mumkin. Ammo sinchkovlik bilan tahlil qilish, tanlash, taqqoslash jarayonida shakl paydo bo‘ladi va to‘liq ovozga etadi. Badiiy dizayndagi bionika - bu ham fan, ham san’at, bu tahlil va sintez, asl nusxani, yangisini izlash. YOvvoyi tabiat shakllarini o‘rganish rassom-dizaynerlarning tasavvo‘rini uyg‘unlashtiradi, material beradi va funksional va estetik prinsiplarning uyg‘unligi muammosini hal qilishga yordam beradi, eng ifodali nisbatlar, ritm, simmetriya, assimetriya va boshqalarni qidirishda rasmiy uyg‘unlashtirish vositalarini boyitadi. Rassom barcha tabiiy namunalar, masalan, "saraton" ning bat afsil eskizlarini tuzadi, so‘ngra chiziqlar, eksenel va ajratuvchi chiziqlar yordamida tabiiy shaklni tahlil qiladi va texnik naqshni ishlab chiqadi. "Saraton" ga asoslangan shishiriladigan va mexaniq o‘ynchoqlarning kompozitsion variantlari strukturaning alohida qismlarining kontrasti asosida qurilgan. Agar ikkinchi rejaning tafsilotlari bir xil gorizontal va vertikallarga, tabiiy analogga xos bo‘lgan bir xil qiyaliklarga emas, balki boshqa fazoviy panjara asosida qurilmagan

bo'lsa, unda bu tabiiy analogiyaning kompozitsion yaxlitligini, tavsifini va tasvirini buzadi.

Fazoviy tuzilishning yana bir muhim muntazamligi bizga tabiiy o'xshashlik bilan taqqoslanadi: bu uning tuzilishining birligi, umumiyl tavsifga qarab hisoblash, strukturaning asosiy elementlari tarkibini kichik, xususiy elementlar tizimida rivojlantirish. YOvvoyi tabiat uchun umumiyl maqsadga muvofiqlik xosdir.

Ko'rib chiqilayotgan o'yinchoqlarning asosiy elementlari qanday mos kelishini ko'rib chiqing. Raqamlar konto'rning alohida bo'limlarida asosiy shakllantiruvchi chiziqlarni ularning tarkibidagi ahamiyatliligi tartibida ko'rsatadi. Ularning tasodifiy emas, balki shaklda individual xususiyatlarini ta'kidlab, tabiiy ravishda o'zlarining o'zaro munosabatlarini ko'rish oson. Ushbu shakllantiruvchi chiziqlar kompozitsiyani boshlash, mustahkamlash uchun muhim rol o'ynaydi va shakl yaxlitligi nuqtai nazaridan juda muhimdir.

Hajm va makonning o'zaro bog'liqligi tabiatida bir-biridan farq qiladigan bir nechta variantni ko'rib chiqing. "Saraton" tabiiy analogining tuzilishi yopiq sxemaga ega emas - u kosmosga, ochiq ishlarga ochiq va "mushuk", "timsoh", "makkajo'xori" kabi analoglarning tuzilishi yaxlit bo'lib, bu erda bo'sh joy cheklangan. Ko'pgina texnik tuzilmalar birinchi yoki ikkinchi prinsip bo'yicha tuzilgan. Birinchi turdagি struktura yopiq pastadirli tuzilishga qaraganda fazoviy faolroq. Ushbu misollar yordamida strukturaning tektonik tovushining gradatsiyalarini his qilish juda oson.

Tabiiy shakllarning mukammalligini o'rganish sanoat mahsulotlarini takomillashtirish va fazoviy tuzilishning yuqori darajada tashkil etilishi uchun zarur shartdir. Ba'zi hollarda dizayn barcha estetik yuklarni o'z zimmasiga olishi mumkinUmuman olganda, sanoat mahsulotlari shakllarining estetikasi utilitar asoslar bilan chambarchas bog'liq va tabiatda funksiya va shaklning yaqin aloqasi tirik tabiatning maxsus estetik mulki sifatida qabul qilinadi.

YOvvoyi tabiatdan olingan qarz dizaynlari bilan bir qatorda, bizda ma'lum estetik tuyg'ularni uyg'otadigan tabiiy shakllarni olamiz. Tabiiy shakllar mahsulotga o'ziga xos belgi beradi.

Arxitektura va texnologiyada o‘z qo‘llanilishini topgan tirik shakllarning aniqligi ushbu tuzilmalar va mahsulotlarni boshqalardan ajratib turadi. Haddan tashqari ishonchlilik, rentabellik va o‘z-o‘zini sozlash qobiliyati ularni inson qo‘li tomonidan yaratilgan sun’iy analoglardan ajratib turadi.

Yaponiya kemasozlari kitning shaklini aniq nusxa qiladigan kemani yaratdilar. Bu xuddi shunday siljish va quvvat mexanizmlariga ega kema tezligini 25 foizga oshirishga imkon berdi.

Tabiiy analoglar bilan ishslashda insonning badiiy ma’lumotlari va uning sezgi xususiyatlari alohida o‘rin tutadi. Intuisiya rassom-dizaynerga har doim faqat oqilona, qat’iy ilmiy uslublarga asoslangan holda harakat qilish sharti bilan o‘z vazifasini tezroq bajarishga yordam beradi. To‘g‘ri, sezgi tomonidan taklif qilingan echimlar puxta ilmiy tekshiruvga muhtoj, ammo ularning qiymati juda katta

Rassom-dizayner uchun biologik shakllarni o‘rganish zarurligi, ular mutanosib ravishda mukammal, mutanosib ravishda mukammal, tuzilmaviy va funksional jihatdan aniqlanganligi bilan ajralib turadi. Tabiatdagi go‘zallik va maqsadlilik uyg‘unligi me’morchilik va san’at durdonalarini yaratuvchilar doimo murojaat qilib kelgan uyg‘unlashtirish shaklining chindan ham tugamas manbaidir. Vitruvius, Leon Alberti, Palladio, Le Korbusier, I.V.Joltovskiy, A.V.SHchev tabiat qonunlaridan kelib chiqadigan chiroyli shaklning tuzilish qonunlarini tinimsiz izlagan. Arxitektorlarni "katlanmiş tuzilmalar" deb ataladigan g‘aroyib barglarning ajoyib tuzilishini esga olish mumkin emas. Biz barglar qovurg‘ali va fan shakliga ega bo‘lgan narsalar haqida gapiramiz. Ushbu tuzilmalarda tabiatning eng qiziqarli qonunlaridan biri, uning shakliga qarab tuzilishning "qarshilik" o‘zining eng ajoyib timsolini topdi.

Yog‘och taxta qurilishiga taqlid qilib, italiyalik muhandis Per Luiji Nervi To‘rin ko‘rgazmasi zalining shiftini loyihalashtirdi. Qalinligi atigi 4 sm bo‘lgan sementdan yasalgan engil konstruksiya 100 metrlik masofani tayanchlarsiz to‘sib qo‘ydi. Barcha qavat barg tomirlari bilan bir xil bo‘lgan armatura bilan teshilgan.

Sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishda biologik shakllarga tayanib, yangi texnologiyalar va yangi materiallarni e’tiborsiz qoldirib bo‘lmaydi.

Ko‘pincha, sanoat mahsulotida ishlataladigan tabiiy shakl texnologiya va materiallar qonunlariga muvofiq o‘zgartiriladi, ammo tan olinmasligi kerak.

Ammo tabiatning shakllanish prinsiplari va umumiyligini qonuniyatlarini bilmay turib, biron bir shaklni yoki boshqasini tushunib bo‘lmaydi.

Bizni o‘rab turgan ob’ektiv dunyoga bir qarashda, bionika inson qo‘li yaratilishida bevosita namoyon bo‘lganday tuyulishi mumkin, ammo aslida uning ob’ektiv dunyoga va umuman texnologiyaga ta’siri chuqur va barqarordir. SHuning uchun sanoat mahsulotlarini loyihalash bilan shug‘ullanadigan har bir kishi u bilan hisoblashishi va tabiiy shakllarni jiddiy tahlil qilishi kerak.

Badiiy dizayn jarayonida bionikadan foydalanish tasavvurni rivojlantiradi, ijodiy fikrni uyg‘otadi, sizni o‘ylashga, izlashga, tabiat qonunlarini bilishga majbur qiladi.

Binobarin, sanoat mahsulotlari o‘z uslublarini ifoda etishda nafaqat texnologiyaning umumiyligini darajasi, dizayn texnikasi, materiallar, texnologik imkoniyatlar bilan bog‘liq bo‘lgan mafko‘raviy va ishlab chiqarish sharoitlari ta’siri ostida shakllanadi, balki bionika ta’sirida katta darajada.

Biologik prinsiplarni ishlab chiqarish va amaliy faoliyatda qo‘llagan holda, rassom-dizayner tabiiy analogiyada qonunlarning maxsus texnik va estetik qonuniyatlarini ochishga harakat qilmoqda. Ushbu muammolarning echimi badiiy dizayn bilan bog‘liq. Tabiiy shakllardan foydalanishga ijodiy yondashish kerak, aks holda kerakli natijalarini olish mumkin bo‘lmaydi.

Tabiiy ob’ektni o‘rganishdan oldin, siz tabiatda nimani tanlashni aniq bilishingiz kerak. Tirik shakllarni loyihalash tamoyillarini takrorlashda bezatish va texnik imkoniyatlarga bo‘lgan ehtiyoj e’tiborga olinishi kerak. Zamonaviy dizayndagi muammolarni va zamonaviy plastik shaklni bilish bizga hayvonot dunyosining zarur va foydali funksiyalari va shakllarini tanlashimizga yordam beradi. Dizayndagi muammolarni bilish tabiatdagi biologik kashfiyotlar uchun etarli emas, va organizm va atrof-muhitning birligini hisobga olgan holda, ularning rivojlanishining barcha qaramaqarshi belgilarida yovvoyi tabiat, naqsh va shakllanish tamoyillarini bilish kerak. SHuni hisobga olish kerakki, ob’ektiv dunyo ham dunyoning bir qismi, biosferaning bir qismi va u, avvalambor, ijtimoiy rivojlanish qonunlariga bo‘ysunadi.

Ob'ektiv dunyoda tirik tabiat shakllari rivojlanishining zamonaviy bosqichining o'ziga xos xususiyati shundaki, hozir tirik tabiatning nafaqat rasmiy jihatlari o'zlashtirilibgina qolmay, balki tirik tabiatning rivojlanish qonuniyatları va ob'ektiv dunyo o'rtasida chuqur aloqalar o'rnatilgan. Hozirgi bosqichda dizaynerlar tirik tabiatning tashqi shakllaridan foydalanmaydilar, faqat mahsulotning funksional va utilitar tomonlariga o'xshash organizm funksiyalarini aks ettiradigan shaklning xususiyatlari va xususiyatlaridan foydalanadilar. Funksiyadan tortib to shakllanish qonunlarigacha - bu dizayner bionikaning asosiy usuli. Tirik tabiatning shakllanish qonuniyatlarini o'zlashtirishning ijodiy jarayoni natijasida olingen sanoat shakllari endi tabiatning shakllari emas, bu tabiiy shakllar sintezi va dizaynerlar va konstruktorlar foydalanishi mumkin bo'lgan fan va texnika taraqqiyoti vositasi. Tabiiy shakllar qonuniyatları to'g'risida aniq, ilmiy asoslangan bilimlarning to'planishi, ularning qonunlarini sharhlash mahsulot, buyum shakli bo'yicha tobora ko'proq oqilona va birlashtirilgan echimlarni topish imkonini beradi.

Nazorat savollari:

1. Bionika qanday tushunchaga ega?
2. YOvvoyi tabiatning biodizayndagi o'rni.
3. Biodizayndagi tabiiy shakllarning rivojlanish bosqichlari.
4. Ilm-fan taraqqiyotida biodizayn qanday ahamiyatga ega?
5. Bioforma nima?
6. Xizmat ko'rsatish korxonalarida biodizayndan foydalanish xususiyatlari.
7. Biodizaynning asosiy usullari.
8. Biodizayn qanday krinislarga ega?
9. Rassom-dizayn qanday biologik shakllarni o'rganadi?
10. Badiiy dizayn jarayonida bionikadan qanday foydalilanadi?

4-Bob. Me'morchilik stillari va zamonaviy dizayn

11-mavzu. Tarixiy va zamonaviy me'morchilik stillari. Firma stili. Uning vazifasi va elementlari

Mavzu rejasi:

1. Memor qanday mutaxassis va arxitektura tushuncha
2. Firma stili to‘g‘risida tushuncha
3. Firma stilini tashkil qiluvchi elementlar

Tayanch iboralar: memorchilik, tarixiy memorchilik, still, memor, arxitektura, ellinizm, gotika, roman, uslub, uyg‘onish davri, klassisizm uslubi, Markaziy Osiyo, funksionalistlar, elektika, modern. Firma stili, firma binosi, “Turizm, Mehmondo‘stlik va servis: Lug‘at – Malumotnoma”, dizayner, reklama, atsidentlik elementlari, vizitka, dekoratsiya.

1. Memor qanday mutaxassis va arxitektura tushuncha

Memorchilik xalq arxitekturasida bino va inshootlarning qurilish sanatini ifodalovchi atamadir. Memorchilik bino va inshootlar qurishning o‘ziga xos texnikasini, sanatini, xalq tarixini, uning ijtimoiy-siyosiy qudratini, diniy va dunyoviy qarashlarini, madaniy-maishiy hayotini malum shaklda mujassam etadi.

Memor – binokor, usta, bino va inshootlarning loyihasini yaratuvchi va ularning qurilishini nazorat qilib boruvchi bosh mutaxassisidir.

Arxitektura (lot. *memorchilik*) *sanati* inson ijodiy faoliyatining qurilish bilan bog‘liq bo‘lgan alohida turidir, u memorchilik sanati tarixi, qonuniyatlari, nazariyasi, binolarning turi va uslubi, kompozitsiyasi kabi qator masalalarni o‘rganuvchi fandir. U jamiyatning ijtimoiy-maishiy va g‘oyaviy-badiiy ehtiyojlariga xizmat qiladi. Turlituman binolar, ularni loyihalash va qurish, inshootlar, shahar va qishloqlar keng manoda arxitektura nomi bilan yuritiladi.

Arxitektura kishilik jamiyati taraqqiyotining ilk bosqichlaridayoq paydo bo‘lgan. Ibtidoiy odam tabiat kuchlaridan o‘zini muhofaza qilish uchun hayotiy zarurat tufayli oddiy mag‘ora va chaylalar yasagan. Inshootning ko‘rkiga ham etibor berib, go‘zallik qonunlari asosida ijod eta boshlagan.

Arxitektura quldorlik jamiyati davrida tez taraqqiy topgan. Jamiyatning sinfiy talablariga munosib uy-joy va jamoat binolari yaratilgan. Qadimiy SHarqda piramida, zikko‘rat kabi ulkan diniy inshootlar kompleksi, murakkab rejali saroylar va boshqa inshootlar barpo etilgan. Fanning bazi nazariy va amaliy masalalari ishlab chiqilgan. Qadimgi YUnionistonda maktab, stadion, teatr, ibodatxona, amfiteatr kabi turlari paydo bo‘lgan.

Ellinizm davriga kelib order sistemasi arxitekturaning konstruktiv va badiiy asosiga aylangan. Qadimgi Rimda beton ishlatilishi davri ravoq va gumbazlar arxitekturasining rivojlanishiga olib kelgan. Forum, Zafar darvozasi kabi harbiy qudrat g‘oyalarini namoyish etuvchi yangi inshootlar paydo bo‘lgan. Binolar bezagiga etibor ortgan.

O‘rta asrlar arxitekturasida *roman* (X-XII asrlar) *uslubi*, keyinroq *gotika* (XII-XV asrlar) *uslubi* alohida o‘rin tutgan. Gotika arxitektura uslubiga xos bo‘lgan cho‘ziq ravoqlardan iborat konstruksiyali binolar ichida monumental ibodatxonalar diqqatga sazovor bo‘lgan.

Uyg‘onish davri – Renessans (XI asr oxiri - XII asr boshlari) *uslubi* negizini qadimgi klassik arxitektura prinsiplarining yangi davr talablari asosida rivojlantirishni tashkil etgan. Bu davrda keng ko‘lamdagi va murakkab ko‘rinishdagi inshootlar yaratilgan. XIII asr o‘rtalarida uslub o‘zgargan. Binolar haddan tashqari bezakdor (barokko uslubi) qurilgan.

XVII-XIX asrlarda bu serahasham echimdan voz kechishga intilish boshlangan. Klassik va Renessans arxiteturasining usul va prinsiplarini yangi zamonga tatbiq etish natijasida *klassisizm* *uslubi* paydo bo‘lgan.

Markaziy Osiyo arxitekturasi ham o‘ziga xos uyg‘onish davrini bosib o‘tgan. Arxitektura uslubida naqsh va rangga alohida etibor berilgan, binolarnig yangi turlari va kompozitsiyalari ijod qilingan. Budda dini tarqalgan yerdarda Budda haykallari bilan

bezatilgan ibodatxonalar bunyod etilgan. *Rus arxitekturasida* etuk inshootlar, ularning komplekslari va ansabllari qurilgan.

Kapitalistik jamiyatning paydo bo‘lishi va rivojlanishi XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning boshlarida yangi tipdagi inshootlarni bunyod etishga olib kelgan. Fabrika, zavod, elektrstansiya, vokzal, aerovokzal, garaj, elevator, birja, firma singari bino va inshootlar qurila boshlangan. Temirbeton, metall konstruksiyalari va boshqa qurilish materiallari (oyna, plastmassa va hokazo) arxitektura uslubida tubdan o‘zgarish yaratgan. YAngi texnika va uslublar yaratilgan. Bular hammasi ko‘p qavatli binolar va inshootlar barpo etish imkoniyatini yaratgan. Namunaviy echim va standartlar ishga tusha boshlagan. YAngi material, texnika, yangi tamoyil va talablar yangi arxitekturani yaratgan. Natijada fanda turli oqimlar paydo bo‘la boshlagan.

Funksionalistlar binoning go‘zalligi uning shakli va funksiyasining uzviyligi, konstruksiyaning nafis va materiallarning tabiiy bo‘lishiga bog‘liq deb takidlasalar, boshqa bir guruh arxitektorlar yangi arxitekturada bezatuvchilikka umuman o‘rin yuq deb aytganlar. Qurilish texnikasining yutuqlari va imkoniyatlariga asoslanib, faqat shakl bilan qiziqib, arxitekturaning g‘oyaviy-badiiy sifatlarini inkor etish natijasida *konstruktivizm oqimi* paydo bo‘lgan. *Elektika* va *modernga* qarshi chiqib, inshootlarning sodda, ehtiyojni qondiradigan, tejamli bo‘lishini talab qilganlar. Bu oqim namoyandalari zamonaviy qurilish materiallarining (temirbeton, oyna) badiyilagini ko‘rsatishga o‘ringanlar, bezaklardan voz kechganlar, devorlarda derazalarning behad keng bo‘lishiga ahamiyat bergenlar.

Keyingi davr arxitekturasi har bir xalqning milliy analarini, turmush sharoiti, madaniyati, tabiiy sharoiti va mavjud qurilish materiallariga qarab bino va inshootlarning o‘ziga xos shakl va turlarini yaratgan. Arxtektrada turar-joy, madaniy oqartuv binolari, teatr, muzey, maktab, stadion, mudofaa inshootlari, savdo rastalari, sanoat va transport inshootlari, diniy binolar va ko‘plab boshqa inshootlar, ko‘cha, maydon, bog‘ kabi sahnlar orqali o‘zaro bog‘lanib, mahalla, guzar, daha, tuman, shahar kabi komplekslarni tashkil etgan.

Arxitektura inshootlari jamiyatning moddiy ehtiyojlaridan tashqari, o‘sha davr ijtimoiy hayotidagi asosiy g‘oyalarni ham ifoda etgan. Masalan, ulug‘ bobomiz Amir

Temur ulkan arxitektura binolari va inshootlari orqali ham (masalan, SHahrисabzdagи Oqsaroy) o‘z qudratini namoyish etgan.

Amaliyotda arxitektor mavjud imkoniyatlar asosida bino barpo qiladi. Binoning o‘rni va mavqeiga qarab uning badiiy obrazini yaratadi. Buning uchun u fanning yutuqlarini chuqur o‘rgangan bo‘lishi, mahalliy va tabiiy sharoitlar, xalqning milliy va badiiy analalari, did va talablarini hisobga ola bilishi kerak. Ayni vaqtida O‘zbekiston milliy arxitekturasi jahon arxitekturasi yutuqlaridan foydalangan holda, zamonaviy qiyofaga kirib rivojlanmoqda, yuksaklikka intilmoqda.

2. Firma stili to‘g‘risida tushuncha

“Turizm, Mehmondo‘stlik va servis: Lug‘at – Malumotnoma”da berilgan tavsifga ko‘ra *firma* yoki bironta *korxona stili* yoki *uslubi* deganda tovar va xizmatlar tashqi ko‘rinishi va mohiyatining hamda firmadan chiqadigan barcha malumotlarning firma binosi tashqi va ichki tomonlari bezatilishining birligini taminlaydigan so‘zlar (gaplar) yoki yozuvlar, ranglar, chizmalar, rasmlar va dizaynerlik doimiy elementlar majmui tushuniladi.

Firma stili korxona tovari yoki xizmati xossalarni va uning faoliyatini istemolchilar (sotib oluvchilar) va hamkorlar tomonidan sezib qabul qila olish va ularni esda saqlab qolish darajasini oshirishga imkon beradi. Bundan tashqari firma stilining doimiy elementlari ushbu korxona ishlab chiqaradigan mahsulotining yoki ko‘rsatadigan xizmatining boshqa raqiblar mahsulotlari yoki xizmatlaridan ajralib turishini taminlaydi, chunki ushbu firma stilini tashkil qiladigan har bir dizaynerlik elementi boshqa korxonalarining xuddi shunday dizaynerlik elementlaridan o‘zining dizayni bilan ajralib turadi. Boshqacha qilib aytganda korxonalar stilini tashkil qiladigan doimiy elementlar o‘zlarining dizayni bo‘yicha bir-birlarini takrorlamasliklari kerak. Firma yoki korxona stili dizayni tovar va xizmatlarni sotuvchi yoki ishlab chiqaruvchi korxonalarining savdo markalarini sezalishda va esda saqlab qolishda katta ahamiyatga ega. SHu boisdan ham firma stilini yaratish unda ishtirok etadiga dizaynerlar malakasiga bog‘liq bo‘ladi. Firma stilini yaratish bo‘yicha dizaynerlik

ishlari psixologlar va reklama bo‘yicha mutaxassislar bilan hamkorlikda olib borilishi shart.

Servis sohasi korxonalarida dizaynerlar va reklama mutaxassislari nafaqat tovar belgilarini, binolarning joylashtirilishini, firmaga xos rang, blok, shrift, reklama formati, hujjatlarni, o‘rash materiallarini va atsidentlik elementlari (vizitkalar, blankalar, konvertlar, ruchkalar va shn.o‘.) ni ishlab chiqib qolmasdan, xonalar, idish-tovoqlar, maxsus ish kiyimlari va korxonaning stilini tashkil qiluvchi boshqa elementlarining dekoratsiyasini ishlab chiqishadi.

3. Firma stilini tashkil qiluvchi elementlar

Firma stilini tashkil qiluvchi elementlarga korxona (firma, kompaniya)ning nomi, savdo markasi, firmaning qisqartirilgan nomi, tovar timsoli, tovar belgisi (logotip), brending, sloganlar, firma bloki, binolar inter’eri va eksteryeri, ularning rangi, firma prospektlari, xodimlar maxsus ish kiyimlari, firma stillarini o‘zida ifodalovchi boshqa dizayn elementlari kiradi.

Korxona (firma yoki kompaniya) nomi uning o‘ziga xos stilini tashkil qiluvchi elementlarning eng asosiyalaridan biri hisoblanadi. SHuning uchun ham firma (korxona yoki kompaniya) nomi shunday tanlanishi (aniqlanishi) kerakki, birinchidan, uning nomidan korxona faoliyatining sohasi bilinib turadigan, ikkinchidan, uning nomi imiji uchun xizmat qiladigan, uchinchidan, barcha uchun tushunarli hamda esda qoladigan bo‘lishi kerak.

Savdo markasi. Bozorda boshqa raqiblardan ajralib turadigan malum bir tovarning, ishlab chiqaruvchining yoki distibyutering nomidir. Savdo markasi yuridik shaxslarga xos tovarlarni boshqa yuridik va jismoniy shaxslar tovarlar turlaridan ajratishga yordam beradi. Savdo markasini belgilashning to‘rtta tipi mavjud: *firma nomi, firma belgisi, tovar timsoli va tovar belgisi*.

Tovar timsoli deganda, istemolchilar ongida reklama va boshqa manbalarda berilgan malumotlar tasirida real mavjud yoki kelajakda ishlab chiqariladigan tovar haqida hosil bo‘lgan aniq bir tasavvur yoki tasvir tushuniladi.

Tovar timsoli ularni sotib oluvchilarda reklama qilinayotgan tovar yoki xizmat bilan bog‘liq malum bir assotsiatsia va tassavvurlarni hosil qilish uchun xizmat qiladi.

Tovar belgisi firma stilining asosiy elementlaridan biri bo‘lib, belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazilgan grafik, harf shakllaridagi va tovushli belgidir. Tovar belgisi o‘zining mahsulotini identifikasiya qilish uchun ishlataladi, yani bitta firma tovari yoki xizmatlarini boshqa firmalar tovarlari va xizmatlaridan ajratishda ishlataladi. SHuning uchun ham tovar belgisi original, manoli va tasirchan hamda tezlikda taniladigan bo‘lishi kerak.

Tovar belgisi “Qizil krest”, “YArim qizil oy”, “Qizil arslon”, “Qizil yulduz” va geografik nomlar bilan belgilanishi mumkin emas, chunki ular butun jamiyatga qarashli va shaxsiy mulk bo‘lishi mumkin emas.

Brend. Firma markasini ifodalash uchun ishlataladigan firma nomiga *brend* deyiladi. Brend yoki firma nomi juda ham oson esda qoladigan va talaffuz qilinadigan so‘zlar yoki harflar guruhlaridan iborat bo‘ladi. Brend – tovarni ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchining maxsus ro‘yxatdan o‘tkazilgan savdo markasi hisoblanadi. Bu qandaydir nom, simvol (belgi), dizayn yoki uning kombinatsiyasi bo‘lib, ushbu firma tovar va xizmatlarini boshqa firma tovar va xizmatlaridan ajratishda foydalilaniladi.

Brend tovar va xizmat turlarini o‘z ichiga olib, unda ularning boshqa tovar va xizmatlarga nisbatan afzallik tomonlarining tavsifi beriladi.

Brending – istemolchilar bozorida qandaydir savdo markasining tanilishi darajasini oshirish maqsadida olib boriladigan reklama.

Logotip. Firma markasini ifodalashda ishlataladigan firma belgisiga *logotip* deyiladi. Logotip – bu qandaydir simvol, rasm (surat) yoki boshqalardan ajralib turadigan rang yoki belgi. Firmaning (yoki ushbu firma tovarlar guruhining) to‘liq yoki qisqacha nomining original tasviri bo‘lib, maxsus ro‘yxatdan o‘tkaziladi va maxsus maqsatlarda ishlataladi. Logotip tovar belgisining klassik turi va firma stilining asosiy hamda doimiy elementlaridan biri bo‘lib, firmaning shifrlangan yozuvidir.

Logotip qandaydir firma yoki muassasa nomining qisqartirilgan bosh harflari bo‘lishi mumkin.

Slogen – mahsulot yoki xizmat sifatini yoki turfirma faoliyatini o‘zida ifodalaydigan qisqacha lozung yoki shior.

Nazorat savollar:

1. Memorchilik qanday atama?
2. Memor qanday mutaxassis?
3. Arxitektura qaysi so‘zdan olingan va uning manosi qanday?
4. Ellinizm davridagi o‘zgarishlar?
5. Roman va gotika uslubiga oid arxitektura?
6. Uyg‘onish davri arxitekturasi?
7. Klassisizm uslubiga oid arxitektura?
8. Markaziy Osiyo arxitekturasi?
9. Firma stiliga “Turizm, Mehmondo‘stlik va servis: Lug‘at – Malumotnoma”da berilgan tarif?
 10. Firma stili nimalarni amalga oshirishga imkon beradi?
 11. Servis sohasi korxonalarida dizaynerlar va reklama mutaxassislarining vazifalari nimalardan iborat?
 12. Firma stilini tashkil qiluvchi elementlarni sanab o‘ting?
 13. Korxona, firma yoki kompaniya nomi deganda nimani tushunasiz?
 14. Savdo markasi, tovar timsoli deganda nimani tushunasiz?
 15. Brend, brendingga tarif bering?
 16. Logotip, slogan nima?

5-Bob. Xizmat ko‘rsatish korxonalarining intereri va ekstereri tavsifi

12-mavzu. Inter’er va uning ahamiyati. Umumi ovqatlanish korxonalarining turlariga inter’erning bog‘liqligi

Mavzu rejasi:

1. Inter’er to‘g‘risida tushunchalar
2. Interyerning mijozlar kayfiyatiga tasiri
3. Mebel va jihozlarning korxonalar inter’erini shakllantirishdagi o‘rni

Tayanch iboralar: inter’er, gabarit, konfiguratsiya, konstruksiya, dekorativ elementlar, mikroiqlim, akustika, vestibyul, garmoniya, landshaft, proporsiya.

1. Inter’er to‘g‘risida tushunchalar

Inter’er iborasi fransuzcha “interiyent” so‘zidan olingan bo‘lib, tor manoda ichki yoki ichki tomonni bildiradi, keng manoda esa binolarning yoki bino ichidagi xonalarning ichki tomoni degan tushunchani beradi. Inter’er iborasining mazmunini yaxshi tushunish uchun siz o‘zingizni xonaning ichkarisida turibsiz deb faraz qiling. Bunda siz darrov sezishingiz mumkinki, siz turgan xona atrof-muhitdan, yani boshqa xona va karidorlardan o‘zining devorlari bilan to‘liq yoki qisman ajralib turadi. Siz xonaning ichkarisida turib uning gabarit va konfiguratsiyasini, ochiq turgan qurilish konstruksiyalarni, masalan, ustunlarni, ko‘ndalang qo‘yilgan qurilish konstruksiyalarini (balka), oyna va eshiklarini, oynalar o‘rtasidagi masofalarni, mebel va jihozlarni, dekorativ elementlarni – devorga solingan naqsh va gullarni, osib qo‘yilgan surat va rasmlarni, o‘rnatilgan haykallarni(skulptura), manzarali o‘simgiliklarni, xona poli, devorlari va shiftining, jihoz va mebellar tashqi yuzalarining bezak va ranglarini hamda

xonaning tabiiy va suniy manbalar orqali yoritilishini ko‘rasiz. Siz ko‘rib turgan narsalarning barchasi xonaning *umumiyo‘lari* yoki *inter’er* deyiladi.

YUqorida keltirilgan misoldan ko‘rinib turibdiki, *inter’er* – bu xonaning har qanday ichki tomoni emas, balki bugungi kun did va nafislik talablari darajasida arxitektura nuqtai-nazaridan va badiiy bezatilgan xonaning ichki tomoni tushuniladi.

Xonaning gabariti, konfiguratsiyasi, jihoz va mebellari, bezatilishi, yoritilishi, mikroiqlimi va akustikasi *inter’er elementlari* deyiladi.

Ko‘rsatilganlardan ko‘rinib turibdiki, *inter’er* kompleks tushuncha bo‘lib, arxitektura – konstruktiv elementlarini, xona yoki bino ichki tomonining devor, pol va shiplarining rangli bezatilishini, mebellar va jihozlarini, dekorativ gazlamalarini, sanat asarlarini, skulpturalarini, xonalarning yoritilishini va boshqalarni o‘z ichiga oladi.

Loyihalash davrida xonalarning ichki va tashqi tomonlarini bezatish, jihoz va mebellarni joylashtirish, arxitektura detallarini, devorlarning chiqib va ichkariga kirib turgan joylaridan foydalanish to‘g‘risida o‘ylash juda ham katta ahamiyatga ega, chunki busiz xonalarda o‘tkaziladigan texnologik va xizmat jarayonlarini taminlash juda qiyin.

Amalda xonalar inter’erlarini shakllantirishda qator *tamoyillar* asos qilinib olinadi. Ulardan eng asosiysi – servis sohasi korxonalari binolari xonalarining inter’erini shakllantirishda uning funksional mo‘ljallanishini hisobga olish kerak. Inter’erni shakllantirishda asosiy tamoyillardan yana biri shundan iboratki, inter’er asosiy elementlaridan biri bezagining rangi yoki jihoz va mebellarning joylanishi tayanch sifatida qabul qilinadi, qolgan elementlar esa tayanch rangga yoki joylanishga qarab tanlanadi. Masalan, agar jihoz va mebellarni o‘rnatish xonalarning mo‘ljallanishi, gabariti va yuzasi bilan bog‘liq bo‘lsa, yoritish esa jihoz va mebellarni joylashtirish bilan bog‘liq. Xonalar devorlari, shiplari va polarining rangiga mos holda mebellar rangi tanlanib, o‘rnatilishi lozim.

Servis sohasi korxonalarining inter’erini shakllantirishdagi asosiy tamoyillardan yana biri – inter’er alohida bitta xona uchun emas, bir-birlari bilan funksional va joylashtirilishi bo‘yicha bevosita bog‘langan xonalar guruhlari uchun loyihalanadi. Masalan, ovqatlanish korxonalarida funksional bog‘langan guruhlarga vestibyul, uning yuzasida joylashgan garderob, zinapoya, ovqat tarqatish xonasi va taom istemol qilish

zallari kiradi; mehmonxona xo‘jaligida bunday xonalar guruhiga vestibyul – qabul qilish xonalari guruhlari, lift maydonchalari, zinapoya va eskalatorlar kiradi; texnologik ishlov berish korxonalarida esa, tovarlarni tarqatish, rahbar xonalariga olib boradigan zinapoyalar kiradi. Ko‘rsatilgan xonalar guruhlari mijozlar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, ularning harakat qilish yo‘llarida binoga kirishdan boshlanadi. Bu xonalar guruhlari uchun bir xil inter’er shakllantirilishi lozim.

Inter’erni yaratishda yana bir shunday tamoyilga amal qilish kerakki, u ham bo‘lsa, korxona binosi va xonalarining yagona garmonik birligini tashkil qilishi lozim, yani binolar va xonalar inter’erlari binolarning tashqi ko‘rinishi bilan bevosita bog‘liq bo‘lishi kerak. Boshqacha qilib aytganda, binoning tashqi ko‘rinishi uning mo‘ljallanishi bilan yagona garmoniyada bo‘lishi lozim.

Tabiatning manzarali joylarida joylashgan servis korxonalarida mijozlar uchun mo‘ljallangan xonalar guruhlarining inter’erini shakllantirishda yuqorida ko‘rsatilgan tamoyillardan tashqari hovli landshafti bilan garmonik bog‘liqligini taminlash hisoblanadi, yani vestibyul – qabul qilish xonalari inter’eri elementlarida hovli landshafti elementlari o‘z aksini topishi lozim.

Xonalar va binolar inter’erini shakllantirishning tamoyillaridan yana biri shundan iboratki, u ham bo‘lsa, har qanday vaziyatda ham xonaning inter’eri uning kengligi, yaxshi yoritilganlik va qulaylik tuyg‘ularini tug‘dirishi lozim.

Inter’erni shakllantirishning yana bir tamoyili shundayki, uning barcha elementlari, ayniqsa texnologik jihozlar, mebellar, sanat asarlari bir xil o‘lchamli, qatiy ixcham shaklga ega bo‘lishlari kerak, chunki qatiy proporsiyalar har qanday narsaga (buyumga) ham nafislik bag‘ishlaydi.

Yuqori darajada shakllantirilgan inter’er – ijodiy sanat asari bo‘lib, undagi elementlar bir-birlariga mos kelishi lozim, yani inter’er yagona g‘oya asosida shakllanishi kerak.

Xonalarning estetik talablarga ko‘ra tashkil qilinganlik darjasи va ularning tozaligi xizmat ko‘rsatish sohasining asosiy mezoni hisoblanadi. Ularga qarab mahsulot va xizmat istemolchilarida: “Korxona (firma, kompaniya, tashkilot)da hammasi yaxshi, unga va uning xodimlariga ishonish mumkin”, - degan fikr shakllanadi.



12.1-rasm. Interyer ko'rinishi.

2. Interyerning mijozlar kayfiyatiga tasiri

Nafis bezatilgan, o'tirish va ishlash uchun qulay xonalar ushbu korxonada ishlab chiqarilayotgan mahsulot va ko'rsatilayotgan xizmatlarning sifati to'g'risida mijozlar fikrlarining shakllanishiga xizmat qiladi. Bezatilmagan, bezatilsa ham nafislik bilan bezatilmagan binolar va xonalar, yani estetik talablarga javob bermaydigan xonalar mahsulot va xizmat istemolchilar ruhiyatida salbiy taassurot qoldiradi, chiroyli qilib bezatilgan xonalar esa mahsulot va xizmat istemolchilarining kayfiyatini yaxshilaydi, ularda ko'tarinki ruh paydo qiladi. Bu esa o'z navbatida mahsulot va xizmatlarning kamchiligiga etiborini pasaytiradi. YUqori darajali inter'erli ovqatlanish korxonalarida taom yaxshi hazm bo'ladi. Xizmat istemolchilari kayfiyatining yaxshilanishi xizmat ko'rsatayotgan xodimlar bilan yaxshi muomala qilish tuyg'usini tug'diradi. Eng asosiysi shundan iboratki, xizmat va mahsulot istemolchilarida ushbu servis korxonasining mahsulotidan yoki xizmatidan yana foydalanish fikrini shakllantiradi.

Servis sohasi korxonalari xonalari inter'erining yana bir ahamiyati shundan iboratki, u istemolchilar estetik didining yanada takomillashishiga to'rtki bo'ladi.

Xonalarning bezatilishiga, yani inter’eriga etibor bermaydigan servis sohasi korxonalari nafaqat o‘zlarining iqtisodiy faoliyatiga, balki ishlab chiqarilayotgan mahsulotlaridan va ko‘rsatayotgan xizmatlaridan foydalanadigan kishilarning kayfiyatiga va sog‘ligiga ham salbiy tasir ko‘rsatadi. Masalan, xonalar devorlari, pollari va shiftlarining ranglari ko‘rsatilayotgan xizmat yoki ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri tasir ko‘rsatmasada, lekin istemolchilar organizmining holatiga katta tasir ko‘rsatadi. Agar ko‘rsatilgan elementlarning rangi tashrif buyuruvchilar va mijozlar g‘ashiga tegadigan bo‘lsa, ularning kayfiyatini cho‘ktirishgacha olib keladi. Bunday servis korxonasida ko‘rsatilgan har qanday sifatli xizmat yoki sifatli ishlab chiqarilgan mahsulot istemolchilarning buzilgan kayfiyatini tuzatish qobiliyatiga ega emas. Kayfiyati buzilgan mijozlar tomonidan sifatli mahsulot va xizmatlar ham yomon qabul qilinadi. YOritilish usuli va darajasi ham dizaynning asosiy elementlaridan biri hisoblanadi. Agar kechqurunlari yoritilish darajalari past yoki o‘ta yuqori bo‘lgan xonalarda xodim va istemolchilarning boshlari og‘rishi mumkin. Buning natijasida istemolchining xizmat ko‘rsatish yoki ishlab chiqarish korxonasidan norozi bo‘lib ketishi va bundan keyin ularning xizmatlaridan qayta foydalanmaslik fikri shakllanishi mumkin.

Inter’erning yuqorida ko‘rsatilgan funksiyalaridan tashqari u *korporativ madaniyatga* ham tasir qiladi, chunki go‘zal joyda xizmat qilish odamni va uning hatti-harakatining ham go‘zal bo‘lishiga undaydi. Har bir ishlab chiqarilayotgan mahsulot va ko‘rsatilayotgan xizmat, albatta inson uchun, uning baxt-saodati uchun hamda farovon turmush faoliyati uchun xizmat qilishi kerak.



12.2-rasm. Samarqand restoranining interyer ko‘rinishi.

3. Mebel va jihozlarning korxonalar inter'erini shakllantirishdagi o'rni

Umumiy ovqatlanish korxonalari va mehmonxona majmuasi (kompleksi) binolari xonalar asosiy yuzasidagi pol, shift va devorlar *inter'er uchun omil* hisoblanib, ko'zga ko'ringan barcha mebel va jihozlar ham shular jumlasiga kiradi. Ular xonalar *inter'erining asosiy elementlari* hisoblanib, shu bilan birga faqat mebel va jihozlarning qulay joylashtirilganligi bo'sh xonalarni oz yoki ko'p darajada komfort (qulay) sharoitlar yaratilgan holatga keltiradi hamda servis va texnologik jarayonlarni o'tkazish uchun qulaylik yaratadi. Boshqacha qilib aytganda mebel va jihozlar xonalarning nafaqat chiroyini ochadi, balki ularning funksional vazifasini ham ko'rsatib turadi.

Mehmonxona majmuasining yashash nomerlarida asosiy jihoz bo'lib mebellar (divan, krovat, shkaf, tumbalar, stol va stullar) hisoblanadi. Mebellar nomerlarni chiroyli, shinam qilish bilan birga mehmonlarning yashash sharoitlarini, dam olish, ishslash va uxlashlari uchun ham shinam shart-sharoitlar yaratilishiga katta xizmat qiladi.

Mebellar yashash xonalarini inter'erining asosiy elementi ekanligini hisobga olib, loyihalash jarayonida ularni joylashtirish masalasini ham albatta hisobga olish kerak. SHuning uchun nomerlarda mebellarning qaysi turlarini o'rnatish kerakligi to'g'risida boshdan bu masalani yechish kerak. SHundan kelib chiqqan holda razryadi va kategoriyasidan tashqari nomerlarda mebellarning quyidagi turlari hamma vaqt mavjud bo'lishi kerak:

- uxlash uchun mebel;
- dam olish uchun mebel;
- ishslash uchun mebel;
- ovqat istemol qilish uchun mebel;
- yuklarni saqlash uchun mebel.

Nomerlardagi uxlash o'rinlarining jihozlar bilan bog'liqligi quyidagicha:

- bir yoki ikki krovatdan (bir va ikki o'rinli);
- bitta krovat va divandan;

- ikki krovat va divandan;
- uchta va undan ko‘p krovatdan (ko‘p o‘rinli).

Bundan tashqari krovatlar bir kishilik yoki ikki kishilikka mo‘ljallangan bo‘lishi mumkin. Agar nomerlarda krovat divan bilan almashinilsa yotoq choyshablari uchun tumbalar o‘rnataladi.

Mehmonxona nomerlarida mebellarning quyidagi turlari o‘rnatalgan bo‘lishi mumkin:

- kombinatsiyalashtirilgan – bir pradmet ikki va undan ortiq funksiyalarni bajaradi;
- devorga taqab qurilgan - loyiha bo‘yicha mebelning quyidan o‘rnatalishi ko‘zda tutiladi;
- yig‘iladigan – kichik hajmdagi maydonlarni egallaydigan (kempinglar va pansionatlar uchun) va yig‘ishtirilib qo‘yiladigan;
- tuziladigan – qismlarga ajratiladigan - konstruksiyada turli xil forma va hajmda birikadigan, bir qancha o‘zaro almashinadigan elementlardan tashkil topgan;
- osma – metall mahkamlagichlar (kroshteynlar) yordamida devorga mahkamlanadigan.

Mebellarning bu turlari joyni tejashga imkon beradi.

Mebellarning turi va soni aniqlagandan keyin mebellar bilan jihozlash (meblirovka) rejasi tuziladi. Xona o‘ta ochiq, keng ko‘rinishi uchun katta va baland predmetlar rejada quyidan qo‘ysa, ularning hajmiy o‘lchamining kattaligi unchalik sezilarli bo‘lmaydi. Asosiy maydonga past va ko‘chma mebellar – divanlar, krovatlar, stollar va kreslolar joylashtiriladi.

Mebellarni joylashtirishda oldingi o‘ringa shkaf (qo‘zg‘almas, qurilgan yoki devorga mahkamlanib qurilgan) joylashtirilishi hisobga olish lozim. Agar oldingi o‘ringa shkaf o‘rnatalishi mo‘ljallanmagan bo‘lsa, u holda bosh kiyimlar va oyoq kiyimlar uchun tokchalari bo‘lgan kiyim ilgich qo‘yilishi ko‘zda tutiladi. Uning yonida oyna tirgagi bilan ham osib qo‘yilishi kerak.

Agar xonaning o'lchamlari kattaroq bo'lsa, u holda shkafni nomerga ham o'rnatish mumkin. Tunash xonasida uxlash garniturasi kompleksiga kiruvchi shkaf qo'yiladi.

Nomerlarda stollar devor yoniga yoki deraza yoniga o'rnatiladi. "Lyuks" va *oliy* kategoriyalı nomerlarda yozuv stolidan tashqari yana jurnallar uchun mo'ljallangan kichik o'lchamli stollar ham qo'yiladi.



12.3-rasm. Mebel va jihozlar interyer elementi sifatida.

Oliy kategoriyalı har bir nomerlarda dam olish uchun devan va kreslolar o'rnatilgan bo'lishi shart. Kategoriyasidan qatiy nazar har bir nomerda katta o'lchamdag'i yoki yetarlicha uzunlikka ega bo'lgan oynalar, sanuzellarda esa qo'l yuvish moslamasining yuqori qismida oyna yoki devoriy oyna bo'lishi kerak. Oynalar qaralishi oson bo'lgan va yaxshi ko'rindigan qilib ilinadi yoki o'rnatiladi. SHuni ham alohida takidlash kerakki, har bir krovat yonida turuvchi tumbochka bo'lishi shart.

"*Lyuks*" nomerlari bir necha xona va ikkita sanuzeldan iborat bo'ladi. Odatda ularda alohida buyurtma asosida tayyorlangan yuqori sifatli mebellar o'rnatilishi bilan birga albatta pianino ham joylashtiriladi.

Apartamentlar (ko'p xonali nomerlar) xonalarining birida albatta tushlik stoli va stuli bo'lishi ko'zda tutiladi va kichik oshxona jihozlari o'rnatiladi.

Mehmonxona vestibyulida maxsus vazifaga mo'ljallangan mebellar: mehmonlarni qabul qilish va dam oluvchilarning uchrashuvlari uchun mebellar qo'yiladi.

Holl (dahliz) jihozlari bir yoki bir necha mebellar guruhi (divanlar, kreslolar, jurnal stollari) dan va qavat bo'yicha navbatchi stolidan tashkil topgan bo'ladi.

Mehmonxona kompleksi ovqatlanish korxonalarida mebel va jihozlar ishlab chiqarish va servis faoliyatini olib borilishida, shu bilan birga maroq bilan ovqatlar tanavvul qilishda va dam olishda katta rol o‘ynaydi.

Ovqatlanish zallarida tushlik stoli va stuli yoki maxsus kreslolar, inventar va toza idish-tovoqlar uchun ofitsiant shkaflari, yordamchi stollardan mebellardan tashkil topgan mebellar hamda alkogolsiz ichimliklarni salqinlatish uchun kichik muzlatkichlar o‘rnataladi.

Ovqatlanish zallarining umumiy ko‘rinishi ko‘pincha ovqatlanish stollar ni va stullarining joylashtirish usuli bilan namoyon bo‘ladi. Umumiy zalda stollar qatorasiga (bir yoki bir necha qator) shaxmat tartibida diagonal bo‘yicha joylashtiriladi.

Idish-tovoqlar uchun mo‘ljallangan shkaflar, muzlatkichlar va telejkalar (ishdan keyin) quyiroqda, zaldagi ustunlar yonida, devorning ichkariga kirgan joylarida o‘rnataladiki, zalning yagona memoriy ansamblini tashkil qilib turishi ko‘zda tutiladi. YOrdamchi stollar ovqatlanish stollarining qatoriga yaqinroq joylashtiriladi.

Basket zallarida ovqatlanish stollar boshqa talablarga asosan joylashtiriladi. Ko‘pchilik holatlarda ulardagi stollar P shaklida yoki T, SH shaklida joylashtiriladi.

SHunday qilib, mebellarning zamon talablariga asosan, rivojlanish qonuniyatlariga mos ravishda vazifalariga qarab tanlanishi va joylashtirilishi mehmonlar uchun qulay sharoit yaratish bilan bir qatorda inter’erning bosh elementlari bo‘lib ham hisoblanadi.

Nazorat savollar:

1. Inter’er iborasi qaysi tildan olingan, uning tom manosi nima?
2. Inter’er elementlari nimalar?
3. Inter’er o‘z ichiga nimalarni qamrab oladi?
4. Inter’erning asosiy tamoyillarini sanab o‘ting?
5. Inter’erning funksional va joylashtirilishi bo‘yicha loyihalanishi?
6. Inter’erning garmonik birligi tamoyili?
7. Inter’erning mijozlar kayfiyatiga ijobiy tasiri?
8. Inter’erning mijozlar kayfiyatiga salbiy tasiri?
9. Inter’erning korparativ madaniyatga tasiri?

13-mavzu. Eksterer va unga qo‘yiladigan talablar

Mavzu rejasি:

1. Ekstteryer va unga qo‘yiladigan talablar
2. Shahar memorchiligi talablari, bino shakliga va uning elementlariga qo‘yiladigan talablar

Tayanch iboralar: ekstteryer, memorchilik, memorchilik elementlari, tabiiy-iqlim talablar, psixofiziologik talablar, antrometriya, ergonometriya, ansambl, buklet, vestibyul, kemping, pavilyon, simmetriya, kompozitsiya, assimmetriya, ritm.

1. Ekstteryer va unga qo‘yiladigan talablar

Ekstteryer – bu xohlagan binoning tashqi ko‘rinishi. U sayyoohlar uchun tunash joylarini tanlashda katta ahamiyatga ega. Bugungi kun memorchiligidagi binolarning tashqi ko‘rinishini belgilaydigan qator talablar shakllangan bo‘lib, ularga binoni loyihalashda qatiy rioya qilinishi kerak.

Ovqatlanish korxonalarini loyihalashda ham ekstteryer talablariga rioya qilgan holda amalga oshirish katta ahamiyatga ega. Uni loyihalashda tabiiy-iqlim va psixofiziologik talablarni hisobga olish muhim o‘rin egallaydi.



13.1-rasm. Samarkand restorani ekstteryeri.

Tabiiy-iqlim talablar. Iqlim sharoitining tasiri juda ham katta bo‘lib, u nafaqat binoning shaklini, uning memorchilik elementlarini tanlashga ham katta tasir ko‘rsatadi. Issiq iqlim sharoitli hududlarda binolar ochiq joylari juda ko‘p loyihalanadi: balkonlar,

lodjilar, galareyalar, kafe uchun ochiq maydonchalar, usti yopilgan ichki hovlichalar; qattiq sovuq bo‘ladigan hududlarda yopiq inshootlar ko‘p bo‘lishi kerak, binolar va ularning qismlari usti yopilgan o‘tish yo‘llari bilan birlashtiriladi.

Psixofiziologik talablar. Servis sohasi korxonalariga qo‘yiladigan psixofiziologik talablar shundan iboratki, xonalar balandliklari va ularda o‘rnatiladigan jihoz va mebellar o‘lchamlari odamning antropometrik va ergonometrik malumotlariga to‘g‘ri kelishi kerak. Bundan tashqari bazi bir xalqlar bazi bir ranglarni yoqtirmaydi, bazi bir ranglarni o‘ta yaxshi ko‘rishadi. Xuddi shuningdek memorchilik elementlarining shakllariga ham ranglarga o‘xshash o‘z munosabatlarini bildirishadi. SHu sababdan ham binolar tashqi ko‘rinishining bezagida milliy ananalar ham o‘z ifodasini topishi kerak, bino bezagida ishlatiladigan memorchilik elementlari shakllari, ranglari mahalliy xalq ruhiyatiga to‘g‘ri kelishi kerak.

2. Shahar memorchiligi talablari, bino shakliga va uning elementlariga qo‘yiladigan talablar

Har qanday xizmat ko‘rsatish sohasidagi korxonalarga o‘zining xususiyatidan kelib chiqib shahar me’morchiligi, binolar shakli hamda ularga qo‘yilayotgan talablar asosida barpo etiladi.

Umumiyl ovqatlanish korxonalarini ham qurishda va unga bezak berishda belgilangan talablar asosida amalga oshirish lozim.

Shahar memorchiligi talablari. SHahar va qishloq joylarida qurilish ishlari u yerning kelajakdagi rivojlanish rejasi asosida amalga oshiriladi.

Servis sohasi korxonalari juda ham tejamli va nafis bo‘lishi bilan birga u erdag'i mavjud binolar bilan birga yagona ansamblni tashkil qilishi lozim.

Reklama nuqtai-nazaridan servis sohasi korxonalarining tashqi ko‘rinishi juda ham katta ahamiyatga ega, chunki reklama bukletlarida binolarning tashqi ko‘rinishi va shuningdek vestibyul va ovqatlanish korxonalarining zallari o‘z aksini topadi. Ularga qarab kelajakda mijozlar qaysi servis korxonasi xizmati va mahsulotidan foydalanish bo‘yicha xulosa chiqarishadi. SHuning uchun ham servis sohasi korxonalarining

eksteryeri juda ham savlatli, estetik nafis bezatilgan va xotirada tez o‘tirib qoladigan bo‘lishi kerak.

Bino shakliga va uning elementlariga qo‘yiladigan talablar. Avvallari bazi servis sohasi korxonalarining binolari, masalan, mehmonxonalar va boshqa jamoat yoki yashash binolari bilan tutashgan holda qurilar edi. Hozirgi vaqtida nafaqat servis sohasi korxonalar alohida binolarda, ularning mehmonlarga tunash uchun joy berish binolari ham alohida, mijozlarga boshqa xizmat turlarini ko‘rsatadigan binolar ham alohida binolarda yoki xonalarda joylashtiriladi.

Bazi memorlar binolarni loyihalashda ularning shakllari boshqa mavjud binolardan o‘zining tashqi shakli bilan ajralib turishini taminlashga harakat qilishadi. SHu maqsadda servis korxonalari juda ham baland binolarda, g‘alati shakllarga ega bo‘lgan binolarda loyihalanadi.

Ovqatlanish korxonalarining binolari korxonaning joylanish joylariga va turiga bog‘liq bo‘ladi. Masalan, tabiatning manzarali joylarida joylashgan ovqatlanish korxonalar kam qavatli bo‘lishi lozim, chunki atrofdagi tabiat manzaralarining ahamiyatini pasaytirmasligi kerak.

Servis sohasi bazi korxonalarining binolari simmetrik kompozitsiyaga (tuzilishga), bazilari esa assimmetrik tuzilishga ega. Bu erda malum bir tartibda takrorlanadigan elementlarning va detallarning (bo‘rtib chiqqan joy, ustun, oyna, skulptura, devorlar yassiliklari) aniq bir mezonga ko‘ra taqsimlanishi katta ahamiyatga ega.

Elementlarning vertikal yo‘nalishda (yani balandga qarab) takrorlanishi *vertikal ritm*, gorizontal yo‘nalishda takrorlanishi esa *gorizontal ritm* deyiladi. Vertikal ritm servis sohasi korxonalari binolariga engillik va balandlikka qarab intilish tuyg‘usini tug‘dirsa, gorizontal ritm esa binoning past ekanlik tuyg‘usini tug‘diradi.

Korxonaning asosiy kirish eshigiga qo‘yiladigan talablar. Asosiy kirish eshigini memorchilik nuqtai-nazardan bezatish servis sohasi korxonalarining turiga bog‘liq bo‘ladi. Asosiy kirish eshigi monumental va hashamatlilikdan oddiy ko‘rinishgacha qilib bezatilishi mumkin eshikka kirish uncha balandlikni talab qilmaydi, asosan bir nechta zinadan iborat bo‘ladi. Kirish eshigining tepasida soyabon o‘rnatilgan bo‘lishi

hamda mehmonxona xo‘jaligining restoraniga alohida kirish eshigi bo‘lish kerak. SHu bilan bir qatorda mehmonxona hududi ko‘kalamzorlashtirilgan va obodonlashtirilgan bo‘lishi talab etiladi. Buning uchun har xil anvoyi gullar, manzarali daraxtlar hamda skulpturalar, favvoralar, basseynlar va sport qurilmalaridan foydalaniladi.

Servis sohasi korxonalarini qurishda har xil qurilish materiallari ishlataladi: temirbeton, oyna, alyuminli bezaklash konstruksiyalari, tosh, g‘isht.

Bazan qurilish materiallarini terish binoga nafis ko‘rinish beradi. Tashqi devorlar mozaik plita va panellar bilan qoplanishi mumkin yoki avval tekis qilib suvalgan, keyin esa bo‘yoqlarga bo‘yalgan bo‘lishi mumkin.

Nazorat savollar:

1. Eksterer nima?
2. Ekstererning sayyoohlar uchun ahamiyati?
3. Tabiiy-iqlim talablar?
4. Psixofiziologik talablar?
5. Shahar memorchiligi talablari?
6. Bino shakliga va uning elementlariga qo‘yiladigan talablar?
7. Vertikal va gorizontal ritm deb nimaga aytildi?

14-mavzu. Umumiy ovqatlanish korxonalarini yoritish va unga qo‘yiladigan talablar

Mavzu rejasi:

1. Yorug‘lik va uning xususiyatlari
2. Yoritish usullarining iste’molchilar va xodimlar kayfiyatiga ta’siri
3. Yoritgichlar. Lokal yoritgichlar

Tayanch iboralar: *yorug‘lik, yoritgich, yoritgich elementlari, lokal yoritgichlar aksent yorug‘liklar, ishchi yoritgichlar, fotonlar, yorug‘lik energiyasi, yorug‘likning nurlanish energiyasi.*

1. Yorug‘lik va uning xususiyatlari

Biz yorug‘lik yoritgan ranglar orqali mavjud hamma predmetlarni forma va hajmlarini ko‘ramiz. Misol uchun qorong‘i joyda ko‘z umuman hech narsani ko‘rmaganidek, rangli narsa ham ko‘rinmaydi. Atrofimizni o‘rab turgan hamma narsa ranglidir. Yorug‘lik esa elektromagnit nurlanishining bir bo‘lagidir. Ular *fotonlar* deb ataladi. Ular yoritilayotgan jismlarga issiqlik energiyasini eltadi. Bu energiya *yorug‘lik energiyasi* yoki *yorug‘likning nurlanish energiyasi* deb ataladi. Fotonlar modda molekulalari, atomlari va elektronlari bilan o‘zaro tasirlanadi. Bunday tasirlanish oqibatida jismlar elektrlanib, ular qiziydi. Qizish oqibatida ko‘pgina jismlar o‘z ranglarini yuqotadi.

Suniy yorug‘lik manbasi inson hayotida juda muhimdir. Suniy yorug‘likning sodir bo‘lishi nur tarqatayotgan jismga bog‘liq. Masalan, jism qattiq qizish oqibatida o‘zidan nur tarqatadi. (Metall changlari, maxsus gaz yong‘ichlari, elektr quvvatidan qizigan volfram simlar va hokazo). eng ko‘p tarqalgan suniy yorug‘lik tarqatuvchi lampalar qizuvchi lampalar va lyuminessent lampalaridir.

Insonning ijtimoiy faoliyatida ranglardan maqsadli foydalaniladi. CHunki ularning inson ruhiyatiga tasiri qonuniydir. Darvoqe, biz turmush tarzimizni ranglar ishtirokisiz tasavvur qila olaymiz. Rang va nurlarning to‘g‘ri tanlanishi xizmat istemolchilar va xodimlar kayfiyatining ko‘tarilishiga ijobiy tasir ko‘rsatadi.

2. Yoritish usullarining iste’molchilar va xodimlar kayfiyatiga ta’siri

Umumiyligi ovqatlanish korxonalarining ekster’er va inter’er bezatilishida yoritish usullari muhim o‘rin egallaydi. Korxonalarni loyihalashda va ularni bezatishda yorug‘likning tabiiy va sun’iy usullarini hisobga olish zarur.



14.1-rasm. Intererni yoritish usullarining qo'llanilishi.

Yorug'lik – arxitektor va dizaynerlar uchun, yog‘och, shisha, keramika kabi xomashyo hisoblanadi. Bu haqida eng qadimiy quruvchilar ham bilishgan – mohirona yorug‘lik bilan taminlangan Kritdagi Knoss saroyi va bino ichida rangli vitrajlarga ega bo‘lgan gotik ibodatxonalarini eslash etarli. Bugungi kunda buni zamonaviy dizaynerlar ham yaxshi tushunadilar. Yorug‘likdan to‘g‘ri foydalangan holda bir qancha plastik va badiiy masalalarni hal qilish mumkin: binoni turli funksional qismlarga ajratish, joyni modellashtirish, vizual aksentlarni joy-joyiga qo‘yish.



14.2-rasm. Ekstteryerni yoritish usullarining qo'llanilishi.

Yoritgichlar – intererning juda muhim elementi bo‘lib, eng asosiy dizayner uskunalaridan biri hisoblanadi. Uning yaqqol misoli sifatida “Goa” psixodelik klubini keltirish mumkin. Klubning devorlari to‘g‘ri va bir xil rangda o‘zida ideal ekranni mujassamlashtirgan, unga turli rasmlar yiriklashtirib tushirilgan, uning ortidan mijozlar kuzatiladi. Yorug‘lik kishini zeriktirmaydigan o‘zgaruvchan, harakatdagi bayram

intererini yaratadi. Rangli filtrli kuchli yoritgichlar (projektorlar) har lahzada bino ranglar gammasini o‘zgartirib turadi. Yoritgichlar yaratgan ko‘rkamlik, deyarli chegarasiz. Lekin ishning funksional tomonini esdan chiqarish kerak emas. YOrug‘lik muassasaning umumiy yo‘nalishiga bog‘liq holda yoritilishi lozim. Bir meyordagi yorqin va nурдан saqlovchi yorug‘lik fast-fuda restoranlarida uzoq o‘tiruvchilar va stol atrofida dam oluvchilar uchun mo‘ljallanmagan. Bu erda barcha narsa yagona biznes strategiyasiga bo‘ysunadi: xizmat ko‘rsatish tezligi, ovqatlanish tezligi, ish qobiliyatini va o‘tirganlar sonini oshirish. Uslubiy barlar va restoranlardagi xira va tarqoq nurlar aksincha, shinamlikni yanada saqlab turadi va qo‘srimcha buyurtmalarga ehtiyojni oshiradi. Tarqoqlik va xiralik – asosiy maqsad emas. Yorug‘lik iloji boricha mijoz taomnomani o‘qiy oladigan darajada muvofiq kelishi kerak (bu dizaynerning estktik ambitsiyasidan tashqarida). Stolga haridorlar uchun qo‘yilgan taom qanchalik muvaffaqiyatli tovlanishi haqida gap ham bo‘lishi mumkin emas. Hech qanday yorug‘likdan foydalanmaydigan dunyodagi yagona restoran Germaniya poytaxtidagi “Abendmahl” “Oqshom” restoranidir. Bu erda xافتада bir necha marta eng nufuzli mehmonlar uchun butunlay qorog‘u zalda taom beriladi, modomiki bunday xira-shirada ovqatlanish juda ommaviy qo‘llaniladi.

Elementar psixologiyani unutish juda yomon oqibatlarga olib kelishi mumkin. Ha, yorug‘lik inson psixologiyasiga bevosita tasir ko‘rsatadi. ekspertlar ajobiy qiziqarli detalni ko‘rsatadilar: svetni stol ustilariga shunday joylashtirish kerakki, unda u o‘z imkoniyatiga qarab mijozlarga munosabatda juda qulay bo‘lsin. Bu erda dizaynerlar kinochilar va tezevizorchilardan ko‘p narsani o‘rgansalar bo‘ladi. Bilimsizlik bilan yoqilgan svet suhbatdoshingiz qiyofasini yaxshi ko‘ra olmasligingiz darajasida bo‘ladi, tik tushayotgan nurlar esa yuzdagi har bir narsani (masalan, xusnbuzarlarni ham) juda katta qilib ko‘rsatadi. Bunday holatlar muassasaga kelgan mijozlarda noqulay xotira qoldiradi, xatto ular bunda o‘zlarining emas, svetning aybi borligini bilsalar ham.

3. Yoritgichlar. Lokal yoritgichlar

Vazifasi nuqtai nazaridan qaxvaxona, bar va restoranlardagi yoritgichlarni bir necha turlarga ajratish mumkin:

Umumiylar binoning yaxlit o‘ziga xos yoritish fonini yaratishga qaratilgan: xira yoki yorqin, teng o‘lchovli yoki bir xil bo‘lmagan, u asosan, dizayn g‘oyasiga bog‘liq.

Lokal yoritgichlar – stol atrofida o‘tirgan mijozlarga “xizmat qiladi”. “Mijoz” yorug‘ligining formulasi quyidagi so‘zlarda aks etadi “taomnomalar – yuz – ovqat”, aslida esa u o‘zida juda murakkab masalani qamrab oladi.

Aksent yorug‘liklar – intererning qandaydir malum detalini yoritadi va ajratib ko‘rsatadi. Ko‘pgina barlarda bunday obekt bar ustunsi hisoblanadi.

Ishchi yoritgichlar – ofitsiantlar, barmen va kassirlarning meyoriy ishlashini taminlaydi. Bazan, masalan, ovqat tayyorlash jarayonini haqiqiy teatrga aylantirib yuboradigan oshpazlarning samarali manpulyasiyasiga mijozlar etibori tortiladigan muassasalarda ish yoritgichlari juda yorug‘ bo‘lishi mumkin (cooking-show).

Interer ustida ishlashda dizaynerlar svet bo‘yicha mutaxassislarini jalb qiladilar. Bundan tashqari, kichik yoritgichlar (svetilniklar) ham o‘z-o‘zidan intererning uslubiy detali bo‘lib xazmat qilishi mumkin. Masalan, bar ustunsi ustidagi “quruq eshkak” kichik yoritgichlari eshkak shaklida tayyorlangan. Ko‘pgina ishlab chiqaruvchilar juda qiziqarli dizayndagi yoritish asboblarini taklif etadilar. TRE italiya konserni dizaynerlari deyarli sanat asari hisoblanadigan mashhur muran oynalaridan kichik yoritgichlarning bir necha modellarini yaratdilar. Dizaynerlarning biron bir nomdagagi yoritgichlari muassasa moqomidan darak beradi. Mualliflarning o‘z g‘ayri oddiy yo‘nalishlari va fakturalari bilan zavqlantiruvchi model ko‘pincha intererning asosiy detallari bo‘lib qoladi. Aytaylik, La Mo‘rinna lampalari butun intererga ton berishi mumkin: Tocada, Lara, Huelo va boshqa modellar.

Chiroq tuzilmasi intererga garmonik tarzda singib ketishi kerak. Texnik uslubdagi yoshlar barini modulli transformatsiya tizimi yordamida yoritish maqsadga muvofiq. Ko‘p italiyalik va germaniyalik ishlab chiqaruvchilar uning ko‘pgina variantlarini taklif etadilar (masalan, Meralasport va Staff). Bunday tizim integrashgan svet tasiri tufayli intererga “yonib turish” o‘zgarish, binoning yoritish ssenogarfiyasini almashtirish imkonini beradi.

Klassik inter’erlarga bizga sovet davridayoq yaxshi tanish bo‘lgan Kamenisci Senov va Preciosa-Lustry chexiya ishlab chiqaruvchilarining mashhur qandillari mos

keladi. Unchalik katta bo‘lmagan romantik muassasalarda past voltli galogen yoritgichlari tizimi yordamida stollarga qo‘yilgan lokal yorug‘lik - “dog”lar yaratish yo‘li bilan shinamlikni his qilish mumkin.

Nazorat savollari:

1. Yorug‘lik va uning xususiyatlari nimadan iborat?
2. Fotonlar deganda nimani tushunasiz?
3. Iste’molchilar kayfiyatiga yoritilganlik qanday ta’sir etadi?
4. Yoritgichlar dizaynerlikda qanday o‘ringa ega?
5. Lokal va aksent yoritgichlarni tushuntirib bering.
6. Ishchi yoritgichlar qanday maqsadlarda qo‘llaniladi?
7. Ovqatlanish korxonalarining inter’eri va ekster’erida yoritgichlar qanday ahamiyatga ega?

15-mavzu. Ranglarning inson ruhiyatiga ta’siri va tabiatdagi vazifalari

Mavzu rejasi:

1. Ranglarning turlari, ranglarning inson ruhiyatiga ruhiyatiga ijobiy va salbiy tasir ko‘rsatadigan ranglar
2. Ranglarning ranglar kompozitsiyasidagi o‘rni va ranglar uyg‘unligi
3. Xizmat ko‘rsatish korxonalarida tabiiy ranglardan foydalanish

Tayanch iboralar: *rang, ranglar jismi, etti xil rang, ranglar va yorug‘likning o‘zaro aloqadorligi, ranglarning optik tasiri, ranglar tasirida o‘zgarish, assotsiatsiya va taassurotlar, strukturasi va tavsifiga bog‘liqligi, aktiv va passiv ranglar, "YAqin va uzoq ko‘rinuvchi ranglar", "Baland – past" ranglar. "Quruq – ho‘l" ranglar, og‘ir va engil ranglar, statik va dinamik ranglar, rang echimlari.*

1. Ranglarning turlari, ranglarning inson ruhiyatiga ruhiyatiga ijobiy va salbiy tasir ko‘rsatadigan ranglar

Malumki, inson tashqi axborotning 90 % ni ko‘rish organi orqali qabul qiladi. Ko‘z esa inson hatti-harakatining amalga oshishida 70-90 % foiz rol o‘ynaydi. Demak, inson faoliyatida rangning ahamiyati juda ulkandir. SHuning uchun ham rang tanlash ilmiy asoslangan bo‘lishi hamda bu masalaga estetik nuqtai nazardan yondoshish lozim.

Oxirgi davrlarda xilma-xil fanlarning rivojlanishi jarayonida *rang tushunchasiga* va uning ilmiy asoslanishiga talabni ortishi aniq nazariy tizimni yaratilishiga olib kelgan. Rang haqidagi dastlabki talimotlar bilan tanishar ekanmiz rang muammolarining tarixiy rivoji avvalambor, insonning fiziologik xususiyatlari bilan naqadar bog‘liqligini, shuningdek insonning emotsiyal kayfiyatini o‘zgarishida rang, nur hodisalari muhim rol o‘ynashini ko‘rish mumkin.

Rang – jismning ko‘rinishi jihatdan xususiylik alomati. (Temir – kulrang, oltin – sariq, daraxt – yashil yoki qizil mato, ko‘k ko‘ylak va h.k.)

Ranglar jismlarga quyosh nuri yoki suniy yorug‘lik tushish oqibatida o‘z tavsifini namoyon qiladi. Quyosh nurida etti xil spektr ranglari mayjud. Bular – qizil, zarg‘aldoq, sariq, yashil, ko‘k, havorang, binafsharanglar. SHuningdek, inson tomonidan yaratilgan rang bo‘yoqlari turlari ham (sotuvda) 30 ga yaqin.

Rang muammolari bilan o‘z vaqtida falsafa fani, keyinchalik tabiiy va texnik fanlar shug‘ullana boshladi. Insoniyat antik davrdayoq ranglarning o‘zaro munosabatlari, yani ularning uyg‘unlashuvi haqida juda nozik didga ega bo‘lgan. Jumladan, qadimga Misr, YUnioniston, Rimning devoriy suratlari, har xil sopol idishlar, uy jihozlari qoldiqlari va sh.k. bundan dalolat beradi. Biz o‘tmishda ajdodlarimizning kiyim-kechaklaridagi rangli bezaklari, kosmetika sohasida rang tanlov ishlari yuksak darajada rivojlanganligini ko‘ramiz.

O‘rta Osiyodagi devoriy suratlar qoldiqlari, haykallar, uy-ro‘zg‘or sopol buyumlaridan naqqoshlik sanatining xil namunalarini bizning ajdodlarimiz ham rang sohasida nihoyatda yuqori saviyaga ega bo‘lganligini tasdiqlaydi. Tabiatning kuchli tabiiy hodisalari inson tasavvurida turli psixik taassurotlar, obrazlarni

shakllantirib kelgan. Ranglar, yorug‘lik bilan bog‘liq bo‘lgan turli nurlar odamlar ongida asta-sekin ramziy tavsifga ega bo‘la boshlagan (qorong‘i-qora, qora quzg‘un, sariq-zardadek, qirmizi loladek, moviy osmondek, oq farishtadek, tundek qora va hokazo). Uy ichi bezagi va yoshiga qarab kiyim rangini tanlash yoki turli marosimlar bilan bog‘liq kiyim-kechak ranglari kabilar xalqlar ijtimoiy hayotida juda qadimlardan o‘rin olib kelmoqda.

Ranglar va yorug‘likning o‘zaro aloqadorligi, ularning tabiat haqidagi dastlabki nazariy asarlar antik YUnionistonda yaratilgan. Tabiat qonuniyatları aniq o‘rganilmagan bir davrda rang tushunchalari yunon faylasuflarining dunyoviy talimotida umumiy tarzda o‘z ifodasini topgan. Qadimgi olimlar rang talimotida yorug‘lik va qorong‘ilikni, oq va qorani qarama-qarshi qo‘yib, ular o‘rtasida hamma ranglar mavjudligini payqaganlar. Ammo bu hodisalarning sabablarini ular aniq ayta olmaganlar. Xususan, Aristotel ko‘z va jism oralig‘idagi "shaffof" muhitning ahamiyati haqida gapirgan edi.

Demokrit jismlar va ularning obrazlarini ko‘zda shakllantiruvchi atomlar mavjudligi haqida ukdirgan edi.

Evklid esa ko‘zdan "ko‘rish nurlari" tarqalib, tashqi dunyo jismlarni qamrab olib, ular obrazini aks ettiradi deb tushuntirgan edi.

Nyuton birinchi marta optik prizma orqali hosil bo‘lgan rang yo‘laklarini yaratdi va uni ilmiy tarzda tushuntirib berdi. SHunday qilib Nyuton rang haqidaga noilmiy qarashlarga chek qo‘yib, uning ilmiy poydevorini yaratdi.

Nyuton quyoshning oppoq yorug‘ligi har xil sinuvchanlik kuchiga ega nurlar yig‘indisidan iborat bo‘ladi deb hisoblab, har bir yorug‘lik nuri o‘ziga xos rang chaqiruvchi xususiyatga ega deb takidlaydi. U shisha prizmalar orqali yuborilgan yorug‘lik rangli nurlarga aylanishini, agar o‘scha rangli nurlar yig‘uvchi linzalar orqali o‘tkazilsa, yana oq yorug‘lik paydo bo‘lishini, paydo bo‘lgan oq nur shisha prizmadan qayta o‘tkazilsa, u holda rangli nurlar paydo bo‘lmasligini, umuman yorug‘lik keyinchalik ajralmasligini aniqladi.

Ranglarning optik tasiri. Sariq rang tarkibida boshqa rang aralashmasi yuqqa o‘xshab ko‘rinadi, ammo uning fizikaviy xususiyatida yashil va qizil ranglar aralashmasi mavjud.

Shuningdek, purpur (qirmizi) rang ham xuddi shunday toza mustaqil ko‘rinsada, u aslida qizil va binafsha ranglaridan tashkil topgan. Ko‘k rang ham aralashmasiz mustaqil ko‘rinadi, zarg‘aldoq rang tarkibida esa har doim yashil tus, qizil tus ranglar mavjudligi ko‘rinib turadi. Binafsha rangida ham zarg‘aldoq rangi singari ko‘kish yoki qizg‘ish ranglari sezilarli darajada bo‘ladi. Ko‘kish - yashil, sarg‘ish-yashil ranglari tarkiblarida ham qo‘srimcha rang borligi bilinib turadi. Ularni mustaqil, bir tusli rang deb bo‘lmaydi. Garchi sariq va ko‘k ranglari aralashmasidan tuzilishi ham mumkin bo‘lsada, yashil rang optik jihatdan mustaqil, bir tusli rangdir.

Masofaviy ko‘rinishing ranglar tasirida o‘zgarishi. Bizga chiziqlar, tekisliklar shuningdek, perspektiv tasvirlar orqali optik "aldash" sodir bo‘lishi malum. Bunga oddiy misol teatr dekoratsiyasida ko‘cha, dala uzoqdagi shahar ko‘rinishining davomi kabilar.

Bunday optik o‘zgarish yoki illyuziya (haqiqiy masofaning uzoqlashib yoki yaqinlashib ko‘rinishi) ning hosil bo‘lishida ranglarning mohiyati juda kattadir. Sariq rang yuzani ko‘tarib hamda uni kattalashtirib ko‘rsatadi. Oq va sariq ranglar qo‘silishi oqibatida irradatsiya effekti sodir bo‘lishi mumkin. YAqindagi undan qoramirroq ranglarni optik jihatdan kichraytirib ko‘rinishiga olib kelishi mumkin. Qizil rang ham shu ranglarga yaqin bo‘lib, u ham shunday xususiyatga ega, lekin u shom, yarim qorong‘i paytida qorayib, ularga fondek bo‘lib ko‘rinadi. Ko‘k rangi bizdan uzoqlashib ko‘rinadi. Ammo yarim qorong‘ilikda esa u oldingi planga chiqadi.

Qora, qoramir ko‘k, binafsha ranglariga bo‘yalgan tekisliklar ko‘rinishidan kichiklashadi va pastga tortilgandek ko‘rinadi. YAshil rang ularning ichida eng turg‘un ko‘rinadi. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, ijtimoiy hayotimizning ko‘pgina sohalarida ranglar xususiyatlarini ko‘zda tutgan holda ulardan foydalanish mumkin.

Ranglar tasirida yuzaga keladigan assotsiatsiya va taassurotlar. Rang assotsiatsiya (kishi xotirasiga singib qolgan narsa, voqeani qayta eslatilishi) lari emotsiyonal kayfiyat tug‘diradi. CHunki bizda rang qabul qilishda ko‘plab tajriba va ko‘nikmalar hosil bo‘lgan. Ammo bu borada biror aniq qoidaga asoslanib bo‘lmasada, ranglar ham xilma-xil tovushlar kabi ongimizda malum assotsiativ ruhiyat chaqiradi.

Masalan, qizil-olov va qon rangi; quyosh - sariq; ko‘k-suv, ufq, osmon; yashil-keng dala, daraxtzorlar kabi assotsiatsiya uyg‘otishi mumkin.

Ranglar bizning ko‘rish organlarimizda turlarga ajratilganda ularning ko‘rinishlarida issiq va sovuqlik, ho‘l va quruq, uzoq va yaqinlik sezgilarini ham uyg‘otadi. Bazi olimlarning fikricha, ranglarning eshitish azolariga ham tasiri bo‘lishi mumkin. Masalan, rus olimi L.A.SHvarsning kuzatishi bo‘yicha ko‘zning yashil rangga ko‘nikishi (adaptatsiyasi)da eshitish qobiliyatining oshishi, qizil rang muhiti esa aksincha susaytirishi mumkin. Bundan tashqari ranglarning ko‘rinishi "og‘ir", "yengil" kabi sezgilar ham uyg‘otadi. Bazan ranglar "qichqiruvchi" deb ham aytildi. Albatta, bu so‘z obrazli atash bo‘lib, ranglarning o‘ta yorqinligini takidlaydi.

Ko‘k va qizil ranglar o‘zining maksimal yorqinligida kishi azolariga alohida tasir qiladi. Qizil rang asab tizimlarini qo‘zg‘atadi, nafas olishni va tomir urishini tezlashtiradi, muskullarning ishlash qobiliyatini oshiradi.

Ko‘k rang asab tizimi faoliyatini susaytiradi, nafas olish va tomir urishini sekinlatadi, og‘riq sezgisini kamaytiradi. Sariq, zarg‘aldoq ranglar ham qizil rangga yaqin xususiyatlarga ega. Albatta, ranglarning bunday tasirchanligi odamlarga bir xilda bo‘lmasligi ham mumkin. Bunday tasir kishining ruhiy holati, jo‘shqinligi, imotsionalligi kabi xislatlarga ham bog‘liqdir.

Jismlearning rang tasirchanligi, ularning yuzalari strukturasi va tavsifiga bog‘liqligi. Ranglarning tasirchanligi ularning shakliy (strukturaviy) tuzilishi, materialning turi va yorug‘lik manbaiga qarab qanday joylashishiga bog‘liq. Servis sohasi korxonalarining inter’erini shakllantirishda memor amalga oshirayotgan ishini yorug‘lik manbaini ham hisobga olgan holda amalga oshiradi. YUzalar tekis, silliq, g‘adir-budur, notekis egilgan va hokazo bo‘lishi mumkin. YUzalarning bunday xilmashilligi, rang jihatni va ularning jinsi ko‘zimizda turlicha rang tasirchanligiga sabab bo‘ladi. Masalan, ko‘rgazma (vitrina)ning orqa tomonini bir necha rangli chiziqlar bilan bo‘yaylik va ulardan birini shoyi tasma (lenta) bilan almashtiraylik. Biz shoyi tasma qo‘shilgandan keyin vitrinaning ko‘rinishi tamoman boshqa tusga kirganini ko‘ramiz.

YOki biror yuzani to‘rt katak (kvadrat)ga bo‘lamiz. Bo‘linmalarni to‘rt xilda fakturalab¹, ularni bir xil rangga bo‘yaymiz.

Natijada bir xil rang to‘rt xil effekt beradi. Ranglar tekis yuzadagiga qaraganda g‘adir-budur shaklda jonliroq ko‘rinish berishi mumkin. Xilma-xil materiallar: shoyi, baxmal, yog‘och, marmar o‘zining strukturaviy tuzilishiga qarab turlichasida tasirchanlikka ega.

Yog‘och ko‘rinishdan iliqroq, metallar sovuq, toshlar sovuq, matolar yengil iliq ko‘rinishda bo‘ladi. Servis sohasi korxonalarining inter’erini shakllantirishda uyg‘unlikka erishish uchun materialarning xususiyatlarini yaxshi bilishlik katta ahamiyat kasb etadi. Masalan, shoyi sariq yuzaga oq qog‘oz harflar yopishtirilsa, ularning tonlarini yaxshi tanlab olinsa, dekorativlikka, jozibador effektga erishilishi mumkin. Ana shunday sariq bo‘yalgan yuzaga oq harflarni bo‘yoqda yozilsa, u kerakli effekt bermaydi. Inter’erni shakllantirishda yog‘och eng qulay, jonli material bo‘lib unga istagan fakturada va istagan tonda ishlov berish mumkin. Metallardan imkonimiz boricha cho‘zinchoq formalardagi qurilmalar yasash va uni o‘zining haqiqiy rangida qoldirish, unga yaltirash darajasida ishlov berish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

SHisha o‘ziga xos fakturaga ega. U servis sohasi korxonalarining inter’erini shakllantirishda juda katta imkoniyatlar tug‘dirib, boshqa materiallar (yog‘och, plastik materiallar va h.k.) bilan uyg‘unlikda ishlatilsa kerakli effekt beradi.

2. Ranglarning ranglar kompozitsiyasidagi o‘rni va ranglar uyg‘unligi

Har qanday rang uchta xususiyatga ega: *rang toni*, *yorug‘langanligi* va *tozaligi* (to‘yimliliqi). Misol uchun, yashil rang quyidagicha tuslanishi mumkin: sariq rang yoki ko‘k rangga yaqinlashishi, ochroq yoki to‘qroq bo‘lishi, yorqin yoki bo‘g‘iq bo‘lishi mumkin. Ammo tabiatda jismlarni turli holatlardagi shakli yoki o‘ziga xos rang xususiyatlari

¹ Faktura – bu biror jismning sirti, yuzasini silliq yoki g‘adir-budurligi. Shuningdek, ranglar ham fakturali ko‘rinishga ega bo‘lishi mumkin. Masalan, issiq, yengil ranglar oldinga intiluvchi fakturali ranglarga kiradi, og‘ir va sovuq ranglar “fakturasiz” ko‘rinishga ega.

bo‘lishi ham mumkin. Quyidagilar rang jihatdan farqlanadilar: nomsiz spektr ranglari, qizish oqibatida yuzaga kelgan ranglar, metall ranglari, jismlar ranglari, atrofimizdagi hamma narsalar o‘z xususiy rangiga ega bo‘lib, cheksiz tuslanish va och to‘q bo‘lishi, ko‘pincha aniq nomsiz tusga ega bo‘lishi mumkin (misol uchun yer, har xil toshlar, bazi o‘simliklarning ranglari).

Servis sohasi korxonalarining inter’erini shakllantirishda ranglarning quyidagi *xususiyatlari* bilgan holda foydalanish katta ahamiyatga ega.

1. *Issiq-sovuq*. Sariq, zarg‘aldoq va qizil kabi ranglar hamma uchun issiq va sifatli ranglar sanaladi. Binafsha, ko‘k, yashil ranglar sovuq ranglar safiga kiradi. Bular rang doirasini ikki tarafida joylashadi. Ammo issiq-sovuq deganda, sovuq va issiq ranglar guruhlarida ham issiq-sovuqlik o‘zaro farqlanishi mumkin.

2. *Aktiv va passiv ranglar*. Qizil, zarg‘aldoq eng aktiv ranglar bo‘lib, uning qarama-qarshisida (yashil ranglar guruhi) passiv ranglar joylashgan. Bu holda ham ranglar o‘zaro nisbiylikda bo‘ladi. Masalan, g‘ira-shira yorug‘likda ko‘k rang qizildan aktivroqdir.

3. "*YAqin va uzoq ko‘rinuvchi ranglar*". Kunduzi barcha issiq ranglar yaqin, sovuqlari esa uzoq ko‘rinadi. Dastgohlik badiyatida issiq ranglardan oldingi planda va sovuqlaridan esa orqa planli tasvirlashda foydalaniladi. G‘ira-shira yorug‘likda uzun to‘lqinli qizil, sariq zarg‘aldoq ranglarga nisbatan ko‘k, yashil ranglar yorug‘roq ko‘rinadi.

4. "*Baland – past*" ranglar. eng issiq ranglar "baland", keskin tasir qiladi. YAshil, ko‘k ranglar tinch ohista past seziladi. Bunda ham ranglar o‘zaro nisbiylik qonuniyatiga amal qiladi.

5. "*Quruq – ho‘l*" ranglar. Hamma issiq ranglar quruq ko‘rinadi. Oxra ranglari ham quruq ko‘rinishda bo‘ladi. Ko‘kish yashil rang esa o‘ta ho‘l bo‘lib ko‘rinadi.

6. *Og‘ir va yengil ranglar*. Hamma yorug‘roq, och ranglar yengil va qoramtil va qora ranglar og‘ir ko‘rinishli bo‘ladi. Qizg‘ish ranglar ko‘kish ranglarga qaraganda og‘irroq ko‘rinadi. Bu yerda sariq rang g‘ira-shira yorug‘likda yengil yuqoriga intiluvchi bo‘lib, och ko‘k rang esa yengil, shabada tarqatuvchi kabi o‘ziga xos xususiyatlarga egadir.

7. Statik va dinamik ranglar. Statik ranglarga o‘zaro muvozanat saqlovchi binafsha, ko‘k, yashil va qirmizi (purpur) ranglari kiradi. Dinamik ranglarga qizil va ko‘k, zarg‘aldoq va yashil ranglar nisbati kiradi.

8. Qo‘zg‘atuvchi va xotirjamlik chaqiruvchi ranglar. YAshildan sariq tarafga, qizildan sariq tarafga ko‘chgan ranglar xotirjamlikka chaqiradi. Sariqdan yashil tarafga tinchlantiruvchi sariqdan qizil tarafga bo‘lgan ranglar qatori esa qo‘zg‘atuvchi xususiyatlariga egadir.

Servis sohasi korxonalarining inter’erini shakllantirishda quyidagi *rang echimlarini* etiborga olish zarur:

1. Xonalarning funksional ahamiyati, o‘lchami tabiiy yorug‘likka nisbatan holati, qavati kabilar rang echimida asosiy talablardan hisoblanadi. Inter’erning rang echimi faqat bir umumiy rang bilan bo‘yash bilangina emas, balki undagi jihozlar, pol, shift va devorlar echimi ham kompleks hal qilinadi.

2. Suniy yorug‘likning rang toniga tasiri katta. SHuning uchun loyihalash jarayonida qanday elektr chiroqlari bilan yoritishni mo‘ljallash, ranglarning bu chiroqlarda qanday o‘zgarishini oldindan bilish zarur. Oxraga o‘xhash sariq, yani to‘k sariq lyuminessent elektr lampasi yorug‘ligi tasirida sarg‘ish - yashil tusga, o‘rta yashil ko‘kish - yashil, ko‘kish ranglar binafsha tusda ko‘rinadi. CHo‘g‘lanma lampa yorug‘ligi tasirida ko‘kish, yashil, sarg‘ish yashil kabi ranglar o‘z tusini yuqotadi yoki ajratib bo‘lmas darajada o‘zgarishi mumkin. Ultramarin (to‘q ko‘k) asosida tayyorlangan havorangi ham bu lampa tasirida binafsha tusda ko‘rinadi.

3. Ranglar tekisliklar hajmiga qarab o‘zgarib ko‘rinadi. Masalan, eskizda berilgan rangning yorqinligi naturada maydonning hajmi kattalashganda uning yorqinligi yanada kuchayib ko‘rinadi. Bunday o‘zgarishlarni loyiha jarayonida ko‘zda tutish lozim.

4. Rang echimi memoriy inshootning masshtabidan, uning hajmi fazoviy - kompozitsiyaviy tuzilishidan kelib chiqib hal qilinadi. CHunki ranglar o‘zining "og‘ir", "yengil" och-to‘qlik va yorqinligi kabi tavsifistikasiga ega bo‘lib, ular memoriy qurilmaning obrazli echimiga jiddiy tasir qilishi mumkin.

3. Xizmat ko‘rsatish korxonalarida tabiiy ranglardan foydalanish

Tabiatda odam cheksiz xilma-xil rang uyg‘unliklari bilan uchrashadi, ular eng jasur xayolga erisha olmaydilar. SHimoliy chiroqlarning maftunkor rasmini yoki quyoshda o‘ynashni eslash kifoya do‘kon yoki kamalak - rang uyg‘unligining tabiiy standarti. Tabiat rasmlari va ranglarini idrok etishda go‘zal, rang uyg‘unligi, hissiy ta’sirchanlik manbalarini izlash kerak, uyg‘unlik prinsipi, avvalambor rang estetikasi bilan bog‘liq, badiiy tamoyilni o‘zida mujassam etgan va kompozitsiyaning majburiy va asosiy maqsadi hisoblanadi. Rang munosabatlarining go‘zalligi uyg‘unlik bilan sinonimdir Tabiatdagi rang-barang birikmalar organizmlar hayotida juda katta rol o‘ynaydi. Ba’zilar uchun bu yirtqich bilan uchrashmaslik yoki aksincha, hujum qilmaslik uchun atrofdagi tabiat bilan birlashish qobiliyatida namoyon bo‘ladi. Va boshqalar uchun yorqin kontrast rang ularning mumkin emasligi haqida signal va ogohlantiruvchi vazifani bajaradi.Qalmar va ahtapot qorayishi yoki yo‘qolishi deyarli mumkin. Hovuzning pastki qismidagi chayqaluvchi qora va oq rangdagi plitalardan alternativa jonli shaxmat taxtasiga aylanadi. Katta dog‘li jirafa Afrika o‘simgiklari orasida umuman yo‘q bo‘lib ketadi. Zaharli chivinli agarik deyarli har doim o‘rmonda topilgan qo‘ziqorinlardan birinchisidir.

Tirik organizmlarni rang berish tamoyillaridan foydalanish. Moslashuv qiymatiga qarab hayvonlarning rangini ikki katta guruhga bo‘lish mumkin: niqoblangan va sezilarli. Niqoblangan hayvonlar uchun ularning yashash joylari foniga mos keladigan ranglar kiradi. SHimol vakillari oq rangga ustunlik qilishadi. YAshil rang o‘tloqlar va o‘rmonlarning aholisi, shuningdek, yashil yosunlar muhitida yashaydigan dengiz organizmlari uchun xosdir, cho‘l aholisi rangida sariq va jigarrang ranglar ustunlik qiladi. Maskali hayvonlarga rang berish ularning tabiatda yashashi uchun muhim shart bo‘lgan turlar kiradi. Bu yovvoyi hayvonlar yoki o‘z o‘ljalarini kutayotgan yirtqichlar.Etiborga loyiqlari guruhiga rangi, huddi shu tarzda, yirtqichlarning hujum qilishiga to‘sinqilik qiladigan yoki ular diqqatini jalb qilish uchun foydali bo‘lgan organizmlar kiradi. Ammo hatto atrofdagi fonga mukammal o‘xshashlik ham uni

ko‘rinmas holga keltirmaydi. Ochiq havoda bo‘lgan har qanday hajmli ob’ektda yuqori sirt pastki qismdan ko‘ra yorqinroq yoritilgan. SHuning uchun soyada bo‘lgan predmetning pastki qismlari yuqori qismlarga qaraganda quyuqroq ko‘rinadi. YOrug‘likning bir xilligi notejisliklar taassurotini kuchaytiradi va mavzuning ko‘rinmasligini sezilarli darajada kamaytiradi. Tabiat bu vaziyatni hisobga oldi - niqoblangan hayvonlarda, qoida tariqasida, dorsal tomoni soyani optik ravishda zararsizlantiradigan yanada qizg‘in rangga ega. Ko‘pgina hayvonlar turlarining niqoblanishi disseksiyalashgan ranglardan foydalanishga asoslangan. Hayvonlarning tanasi qarama-qarshi naqshlar bilan qoplangan bo‘lib, ular diqqatni jalb qiladi va hayvonning o‘zini tanib olishiga to‘sinqilik qiladi. SHuning uchun rangning ba’zi qismlari hayvon joylashgan fonning shakli va rangiga mos keladigan bo‘lsa, ajratuvchi rangning samaradorligi sezilarli darajada oshadi. Bunday holda, tananing alohida qismlari butunlay optik ravishda yo‘qoladi, boshqalarning kontrasti ta’kidlangan. Ranglarni ta’kidlaydigan rasmlarning o‘zi juda jozibali. Ular to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘zlariga e’tiborni jalb qilish uchun yaratilgan. Disission rang berish konturlarni maskalash uchun ishlatiladi hayvonning tanasi.

Kontrastli naqshlar odatda ko‘rinadigan konto‘rning chetiga yoki chetiga kesiladi va unga hech qachon parallel bo‘lmaydi. Eslatuvchi ogohlantiruvchi va repellent bo‘yoq naqshlarining funksional ahamiyati ko‘plab hayvonlar uchun xosdir va ba’zi hollarda yalang‘och tananing eng xavfli qismlariga yirtqichni jalb qilish uchun yorqin, sezilarli rang kombinatsiyasi qo‘llaniladi. Italian olimi CHesnola quyidagi tajribalarni amalgalashdi: u kulrang yoki yashil rangga ega bo‘lgan katta tangalarni to‘pladi. Orqa fonda ko‘rinmas kulrang ular tutadigan quruq o‘tlar va yashil - yashil rangda. U har xil rangdagi turli xil mantislarni bir xil rangdagi o‘tlarga yoki boshqa rangdagi o‘tlarga bog‘ladi (yarim kulrangdan quruq o‘tgacha, yarmi yashilga, yarim yashil quritishga, yarmi yashil rangga). Aniqlanishicha, qushlar tergan mantiyalarning soni, ularni boshqa rangdagi o‘tlar bilan bog‘lab qo‘yish holatlarida ko‘proq bo‘lib, ular “o‘z joylarida” qolganlardan ko‘proq omon qolgan. Hasharotni atrofdagi fonga ko‘rinmas holga keltiradigan rang haloqatli deb nomlanadi. CHesnola tajribalari M.M.Belyaev tomonidan tasdiqlangan.

Ko‘pincha patronizatsiya nafaqat rang berish, balki tananing shakli, masalan, mantisda cho‘zilgan tana o‘t poyasiga o‘xshaydi. Himoya rangi va shakli tayoq hasharotlarida, tirtillarda, kuya ichida yanada aniqroq namoyon bo‘ladi, ularning tanasi ko‘pincha tugunga, quritilgan yoki yashil barglarga o‘xshaydi Ba’zida rang berish to‘g‘ridan-to‘g‘ri moslashuvchan qiymatga ega. Hasharotlarda kriptik rang deb ataladigan narsalar qiziqarli. Masalan, kapalakning qanotlaridagi hayoliy naqsh yirtqichning e’tiborini jalb qilmaydi, aksincha hasharotni ko‘rinmas holga keltiradi. SHunday qilib, katta tungi tovus ko‘zining qanotlaridagi ko‘zlar dog‘lar qanotlarini chiziqlar bilan po‘stloq sirtga o‘xshatadi - agar rasm uzoqdan qaralsa, sirt nosimmetrikliklar stereoskopik effekt yaratadi.

Bu hasharotning rangi, ataylab diqqatni jalb qilgandek bo‘ladi. Bunday hollarda, hasharot odatda yirtqichlardan yoqimsiz hid yoki ta’m, zaharli bezlar va boshqalar bilan ishonchli himoya qilinadi. YOrqin bo‘yalgan va zaharli buralgan jalomalar, shox-shabbalar, shamlardan iborat. Bunday yorqin rang oldingi deb nomlanadi. Darhaqiqat, qushlarning bunday himoyalangan hasharotlarga tegmaslikni o‘rganishganligi kuzatildi.

Biz rangning qisqacha tavsifi, uning sanoat estetikasi va tabiatdagi roli bilan tanishdik. Endi siz o‘zingizning ishingizda rang bilan osongina harakat qilishingiz uchun rangshunoslik asoslarini amalda qanday egallashni aniqlab olishingiz kerak.

Nazorat savollari:

1. Rang va rang tushunchasi haqida nimalarni bilasiz?
2. Xalq amaliy sanati turlarida ranglar qanday tarzda ishtirok etadi?
3. Ranglarning shartlilik tomonlari haqida nimalar deya olasiz?
4. Qadimgi yunon olimlari rang haqida qanday fikrlaganlar?
5. Isaak Nyuton ixtiro qilgan spektr ranglarining ketma-ketligini tariflab bering?
6. YOrug‘lik nima?
7. Elektromagnit nurlanish oqibatida sodir bo‘ladigan o‘zgarishlar haqida gapiring?
8. Ranglarning optik tasiri haqida misollar keltiring.
9. Ranglar tasirida sodir bo‘ladigan illyuziyalarga misol keltiring.
10. Ranglarning xotirada assotsiyativ to‘rtki uyg‘otishi haqida misol keltiring.

11. Jismlar ranglarining yuzalar strukturasi va tavsifiga bog‘liqligi to‘g‘risida nimalarni bilasiz?
12. YOrug‘lik intererda qanday rol o‘ynaydi?
13. Qanday yoritgichlar qo‘llaniladi?
14. Psixologik jihatlarga yorug‘lik qanday tasir ko‘rsatadi?
15. Ranglarning uch xususiyatini aytib bering?
16. Xizmat ko‘rsatish korxonalari inter’erini shakllantirishda rang xususiyatlarining o‘rni?
17. Xizmat ko‘rsatish korxonalari inter’erini shakllantirishda rang echimlarining ahamiyati?

16-mavzu. Umumiy ovqatlanish korxonalari interyerini shakllantirishda fitodizayndan foydalanish

Mavzu rejasi:

1. Gul va dekorativ yashil o'simliklardan foydalanish
2. Fitooranjirovka detallari. Gullar kompazitsiyasi
3. Xizmatlar sohasi korxonalari interyerlarini shakllantirishda, ovqatlanish stollarini bezatishda dizayn talablari

Tayanch iboralar: *gul, tabiat, rang-baranglik, gul shakllari, go'zallik, xizmat ko'rsatish korxonalarida gulning o'rni, Amir Temur bog'lari, fitodizayn, fitooranjirovka,. tirik gullar va suniy gullar, dekorativ fontanlar, floristika interer, fitorassom.*

1. Gul va dekorativ yashil o'simliklardan foydalanish

Inson paydo bo'libdiki, u tabiat nematlaridan, uning go'zalligidan bahramand bo'lib kelmoqda. Demak, inson va tabiat bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir.

Bahor kelishi bilan biz tabiat qo'yniga oshiqamiz, bir lahma bo'lsada, dunyo tashvishlarini unutib yam-yashil archazorlar, qip-qizil lolazorlar ichida dam olgimiz keladi. Albatta, tabiatning yam-yashil libosga o'ralishi-yu uning qo'ynida ochilib turgan rang-barang gulu-lolalar, barg shakllari, ulariing joylashishi, tana tuzilishlari bilan, asosan, gullarining rang-barangligi hamda xushbo'y hidlari bilan kishini o'ziga rom qilib, sehrlab, o'ziga tortadi. Hatto, endi tetapoya bo'layotgan murg'ak go'dak, gullab turgan o'simlikni ko'rsa bargini yulmaydi, novdasini sindirmaydi, albatta gulini uzib olishga harakat qiladi. Demak, gulga bo'lgan intilish, qiziqish insonga xos bo'lib, avlodlardan o'tib kelayotgan tabiatga bo'lgan tug'ma muhabbat belgisidir.



16.1-rasm. Restoranlarda fitodizayn.

Xizmat ko‘rsatish sohasi korxonalari inter’erini shakllantirishda gul va dekorativ yashil o‘simliklaridan foydalanish inson kayfiyatini ko‘taradi, ruhan tetik qiladi va estetik zavq bag‘ishlaydi. Qolaversa, bu go‘zalliklardan zavqlana bilish, uni chuqurroq yurakdan his etish va unga to‘g‘ri munosabatni o‘zida shakllantirish, insonning madaniyati hamda estetik mezonidir. Turli marosimlar, tantanalar, ulug‘ mehmonlarni kutib olish, turli-tuman uchrashuvlar gulsiz o‘tmaydi. Demak, gullar kundalik hayotimizda, xursandchilik kunlarimizda bizga hamrohdir.

Gul to‘grisidagi muslimonlarning rivoyatlaridan birida shunday deyiladi: „Muhammad alayhis-a-salom jangga borishdan oldin xotinlariga qizil gul hadya qiladilar va men kelgunga qadar biror kishi bilan aloqa qilmaysanlar deb qasamyod qildiradilar. Ammo xotinlari Muhammad alayhis-a-salomning yuqligidan foydalanib, qasamyodni buzadilar, natijada Muhammad alayhis-a-salom buni bilish uchun kelib bergen qizil gullarini tiniq suvga tashlashni buyuradilar. Qizil gulni suvga tashlab qayta olganlarida, qizil gul o‘z rangini o‘zgartirib, sariq gulga aylanadi”.

SHu sababdan sarik gul ayrilik, judolik belgisi sifatida ataylab hadya qilinmaydi. SHundan ko‘rinib turibdiki, gulchilik va gulga bo‘lgan qiziqish, unga nisbatan rivoyatlar to‘qish azal-azaldan davom etib kelgan.

Sohibqiron Amir Temur davrida Samarqandda 15 ta katta-katta bog‘lar, yani Bog‘i SHamol, Bog‘i Behisht, Bog‘i Davlatobod, Bog‘i CHinor, Bog‘i Dilkusho, Bog‘i Bo‘ldu, Bog‘i Naqshi jahon, Bog‘i Baland, Bog‘i Nar, Bog‘i Jahonnamo, Bog‘i Amirzoda SHohrux, Bog‘i Maydon, Bog‘i Zag‘on, Qullar Bog‘i kabi bog‘lar barpo qilinib, bu bog‘lar gulu-gulzorlar bilan bezatilgan. SHundan ko‘rinib turibdiki,

O'zbekistonda, jumladan, Samarqandda 1378 yillarda gulchilik nihoyatda ezozlangan va dehqonchilik madaniyatida katta o'rinni egallagan. CHunki SHahanshoh va davlat arboblariga gulob, gulqand tayyorlashda nihoyatda ko'p va xilma-xil gullar ishlatalgan.

O'zbekistonda qadim-qadim zamonlardan boshlab bog'lar va bog'larda gulu-gulzorlarning tashkil etilganligi va bu bog'larda ustalik bilan ishlangan otma favvoralar alohida o'rin tutgan. Jumladan, Ispaniya elchisi Klavixo Bog'i Dilkushoda bo'lgan vaqtida bu haqda quyidagilarni yozgan: „Podshoh maxsus qo'yilgan baland o'rindiqda o'ltirar va uning oldida suvi tepaga otilib turgan favvora bo'lib, favvorda qizil olma qalqib turardi".

Malumki, ayrim manzarali o'simliklar gullarining chiroyliligi, ayrimlari xushbo'y hidlari va poyalarining o'sish xususiyatlari, ayrim o'simliklar esa barglarining o'ziga xos shakkarda, ranglarda bo'lishligi hamda poyada chiroyli joylashishlari sababli o'stirilib parvarish qilinadi.

Ko'pchilikni ayniqsa, gulchilarni ko'proq barglar mozaikasi o'ziga jalgan qiladi. Xo'sh, barglar mozaikasi nima? Bu barglarning quyosh nuridan foydalanishlari uchun bir-biriga nisbatan poyada malum tartibda joylashish natijasidir. Plyush, toshyorar o'simliklarda barglar mozaikasi o'ziga xos ko'rinish hosil qiladi.

2. Fitooranjirovka detallari. Gullar kompazitsiyasi

Gulchilikda gul gilamlar tashkil qilishda va gullardan har xil shakllar yasashda barglarning ranglari katta ahamiyagga ega. Bunday maqsadlar uchun alternanteralarni, gafalium hamda sedumlarning barglari o'ziga xos joziba hosil qiladi. Barglariing to'q-qizil, to'q sariq, kumushrang, havorang, kulrang, oq va boshqa ranglarda bo'lishi gulchilar uchun tirik gul asarlar hamda gul mozaikalari yaratishda juda qo'l keladi.

Fitodizayn – “Fito” va “dizayn” so'zidan tashkil topgan murakkab so'zdir. Fitodizayn so'zining o'zi xali lug'atda yuq, faqat uning qismlarigina bor: Fito (grekcha pheytion – o'simlik so'zidan olingan) murakkab so'zlarning bir qismi bo'lib, u o'simliklarga munosabatni yoki o'simliklar haqidagi fanni (botanika) bildiradi; dizayn – (inglizcha, desidn – g'oya, loyiha, chizma, rasm demakdir) buyumlarning funksional va

estetik sifatlarini shakllantirish maqsadiga qaratilgan loyihaviy faoliyatning turli ko‘rinishlarini aks ettiradi. Tor manoda “Dizayn” - badiiy konstruktorlashdir.

SHu tarzda *fitodizayn* – o‘simliklar bilan bog‘liq bo‘lgan loyiha foaliyati va o‘simliklar bilan bog‘liq badiiy konstruktorlashtirishdir. Bu ish bilan fitodizaynerlar shug‘ullanadilar, ular quyidagilarni amalga oshiradilar:

- to‘ylarni bezatish: kelin va kuyovni jonli gullar bilan bezatish (guldastalar, butonerk, diadema, boshqa aksessuarlar), tirik gullar yordamida bayram stolini, to‘y namoyish mashinasini bezatish;
- tug‘ilgan kunlar, katta va kichik bayramlarni: bayram guldastalari, kompozitsiyalar, savatlar, zal va bayram stollarini bezatish;
- inter’erlarni bezatish: tirik o‘simliklar va ularga o‘xhash suniy o‘simliklardan, jumladan, tuvakdagi o‘simliklar yordamida bezatish;
- deraza tokchalaridagi tuvakdagi o‘simliklar – bu ko‘p fotodizaynerlarning ananalaridir. Evropa va boshqa rivojlangan mamlakatlarda tuvakdagi gullar derazaning tashqi tomoniga qo‘yiladi, interer esa xuddi jamoat muassasalari kabi kesilgan gullar kompozitsiyalari yoki ularga aynan o‘xhash suniy gullar bilan bezatiladi.

SHaharning toshli changalzorida yashovchi zamonaviy shaharliklar uchun eng yaxshi dam olish “tabiat qo‘ynida dam olish” iborasida o‘z aksini topgan. Bu sog‘inchdan restoran egalari juda samarali foydalanishadi, ularning ayrimlari o‘z restoranlari intererlarida shunday muhit yaratishga harakat qiladilar.

Juda qadimiy, lekin amaldagi uslub – intererni har qanday davrda ham tabiiylik va soqlik ramzi sifatida qabul qilinadigan gullar bilan bezatishdir. Inter’erni jonli gullar, tuvakdagi o‘simliklar va ularning suniy kompozitsiyalari jonlantiradi.

3. Xizmatlar sohasi korxonalari interyerlarini shakllantirishda, ovqatlanish stollarini bezatishda dizayn talablari

Har qanday xizmat ko‘rsatish korxonalari, shuningdek ovqalanish korxonalarining inter’erini shakllantirish gullarning o‘rni o‘ziga xosdir. SHuningdek, ovqatlanish stollari ustida ham gullar bo‘lishi mijozlarning kayfiyatini ko‘tarishga

yordam beradi. SHu sababli korxonalarining ichki qismlarini, stollar ustini gul bilan bezatishda alohida e'tibor berish lozim. Inter'erni gullar bilan bezatishda ham talablar qo'yiladi.

Restoranlar uchun eng yaxshi gullar dispozitsiyasi quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

- har bir stoldagi guldonda kesilgan gullarning bo'lishi – muassasaning yuqori toifadaligi ko'rsatkichidir. Gullar ko'p bo'lishi kerak emas, bittasi ham etarli bo'lishi mumkin. Gul solingan gullar stol ustidan 20-25 sm balandlikda bo'lishi etarlidir;

- ovqatlanish zali bo'yicha bir tekisda qo'yilgan tuvakdagi o'simliklar stol ustida yoki har bir stol atrofida o'tirgan mijoz ko'z oldida yashil makon yaratadi. Ovqatlanish zali gul do'konlarini eslatmasligi uchun ular juda to'g'ri hisob-kitoblarga asoslanib o'rnatilishi lozim.

- devordagi va poldagi jonli va suniy gullardan yasalgan kompozitsiyalar intererda ko'zga ko'rinxaymaydigan, his qilinadigan tasirlarni yuzaga keltiradi;

- agar bu restoranning umumiyligini konsepsiyasidan ajralmagan holda yuz bersa va joy bemalol bo'lsa, unda yashil «oazis» yaratiladi, uning atrofida zalning boshqa barcha narsalari tashkil etiladi. «Jonli tabiat»ning bunday burchagi turli tirik gullar va suniy gullar, dekorativ fontanlar, toshlar va boshqalarni birlashtiruvchi murakkab qurilmadir.

- fitodizayn va floristika interer bezagiga muvofiq alohida soha bo'lib, unda dizayner arxitektorlar faqat o'z bilimlari va chiroyli hissiyotlariga tayana olmaydilar. Intererning to'g'ri fitoqarori va uning chidamliligini faqat malakali florist taklif qila olishi mumkin.

Restoran spetsifikasi fitorassom vazifasini murakkablashtiradi. Qorong'ulashtirilgan restoran zalida qorong'uga o'ta chidamli o'simliklar ham bir meyorda o'sa olmaydi. Ular uchun eng yaxshi holat yashab qolish va "tovar ko'rinishini" saqlashdan iborat bo'lib qoladi. Ozgina etibor talab o'simliklar bunday vaziyatda ikki oygina umr ko'radilar va so'liy boshlaydilar. SHunday muassasalar bo'ladiki, ularda bunday o'simliklarni almashtirish va qayta tiklash juda qimmatga tushadi. Bunday holatlarda mutaxassislar jonli o'simliklar bilan birgalikda suniylarini aralashtirib foydalanishni taklif etadilar. Bunday binolar uchun "konservalangan"

o'simlik va gullar juda qulaydir. Odatdagidek, bu maxsus tarkib bilan qayta ishlangan Gollandiya o'simlik xomashyosidir. Hosil bo'lgan "mahsulot" ko'rinishi jihatidan jonli o'simliklardan farq qilmaydi, kundalik hayot uchun chidamli, lekin juda qimmat turadi.

Intererning boshqa barcha detallari kabi *fitooranjirovka* ham restoranning umumiyligini konsepsiysi ostiga qurilishi lozim. SHunday qilib, ananaviy rus oshxonasiiga ega bo'lgan restoranga guldondagi kesilgan moychechaklar, bar ustunidagi bir bosh mevali cho'tir novda, devorlardagi kungaboqarlar ishtirok etgan gullar kompozitsiyasi va boshqalar juda mos keladi.

Fitodizaynga ixtisoslashgan ko'p kompaniyalar restoran egalariga binoni bezatish bo'yicha majmuali qarorlarni va murakkab tuzilmali o'simliklar "konstruksiyasi" uchun ahamiyatli bo'lgan 5-6 oy davomida kafolatli xizmat ko'rsatishni taklif etadilar.

Nazorat savollari:

1. Xizmat ko'rsatish sohasidagi korxonalar inter'erini shakllantirishda gul va dekorativ yashil o'simliklar qanday ahamiyatga ega?
2. Gul to'grisidagi musulmonlarda qanday rivoyatlar keltirilgan?
3. Sohibqiron Amir Temur davrida qanday bog'lar bo'lgan?
4. Fitodizayn nima?
5. Fitooranjirovkaning qanday detallari qo'llaniladi?
6. Fitodizaynerlarning vazifalari nimalardan iborat?
7. Ovqatlanish korxonalari inter'erini gullar bilan bezashda qanday talablar qo'yiladi?

17-mavzu. Umumiyligini ovqatlanish korxonalarining interyerini shakllantirishda tasviriy san'at janrlaridan foydalanish

Mavzu rejasi:

1. Tasviriy sanat to'g'risida tushuncha. Haykaltaroshlik, rassomlik san'ati asarlari
2. Tasviriy sanat monumental va dastgoh. Grafika sanati
3. Rang tasvir san'ati. Manzara janri
4. Tasviriy sanatda kompozitsiya

Tayanch iboralar: *dastgohli rangtasvir, grafika, haykaltaroshlik, dumaloq va qavariq (relf) haykallar, Gorelf va Barelf, keramik, monumental sanati, monumantal haykaltaroshlik, grafika sanati, kitob grafikasi, litografika, linogravyura, ksilografiya, ofort, arxegrafika, miniatyura, dekorativ rangtasvir, portret janri, natyumort, manzara janri, animal janri, kompozitsiya tuzish.*


1. Tasviriylanuvchi sanat to‘g‘risida tushuncha. Haykaltaroshlik, rassomlik san’ati asarlari

Tasviriylanuvchi sanatning turlari dastgohli rangtasvir, grafika, haykaltaroshlik, keramik, monumental sanati, miniatyura rangtasviri dizaynnning barcha turlari kabi bo‘lib, servis sohasi korxonalari binolari va xonalari inter’eri dizaynini shakllantirishda badiiy ijod tizimida musavvir yoki dizayner o‘z g‘oyaviy qarashlarini, his-tuyg‘ularini tasviriylanuvchi yo‘l bilan yani chiziqlar, ranglar, borliq shakllari orqali amalga oshiradi. SHuningdek, ishlab chiqarishdagi jihozlar, xilma-xil buyumlar, memoriy muhit yaratishda ham davr talablaridan kelib chiqilgan holda ijod qilinadi.

Haykaltaroshlik. Bu sanat ko‘rinishiga qarab, *dumaloq* va *qavariq* (relf) haykallar yaratish turiga bo‘linadi. Dumaloq haykallarni hamma tomondan ko‘rish mumkin. Agar bu sanatda inson obrazining bosh qismi yoki beligacha tasvirlansa bunday haykallar *byust* deb ataladi. *Relf* (qavariq) haykallar esa yuzaga bo‘rttirib ishlangani uchun faqat bir tomondan ko‘rishga mo‘ljallangan bo‘ladi. Relflar o‘z o‘rnida *Gorelf* va *Barelf* guruhiga bo‘linadi. *Gorelf* – yuzaga yopishgan holda nisbatan bo‘rtib ko‘rinadi. Goho biror-bir bo‘lagi dumaloq haykal darajasida ham bo‘ladi. *Barelf* yuzaga nisbatan kam bo‘rtib tasvirlanadi, bu o‘rinda tanga va taqinchoqlarni misol keltirish mumkin. Haykaltaroshlik sanati asosan qattiq jismlardan — tosh, yog‘och, marmar, granit, bronza, gips va boshqa shu kabi materiallardan tayyorlanadi.



17.1-rasm. Haykaltaroshlik ishlanmalari.



17.2-rasm. Devoriy haykaltaroshlik ishlanmalari.

Haykaltaroshlik sanatining qadimgi namunalari xalqlarimizning tarixini, etiqodlarini, estetik dunyoqarashlarini, turmush tarzini o‘zida aks ettirgani bilan qadrlidir. Qadimgi misrliklarning, yani firavn Tutanxomon, exaton hamda go‘zal va aqli malika Nefretetilar siymolari aks ettirilgan haykallari nafisligi, to‘laqonliligi bilan eng qadimgi haykallar ichida butun jahonga mashhurdir. Ayniqsa, malika Nefretetining byustida o‘ziga xos go‘zalligi, ichki manaviy olami, xotin-qizlarga xos nazokati birmuncha mukammal tasvirlangan. Bu portret-haykal o‘z zamonasining mashhur haykaltaroshi Tutmes tomonidan mahorat bilan yaratilgan. Nefreteti byustining qimmati rangli qimmatbaho toshlardan meyorida qo‘llanilganligi bilan ham izohlanadi. YUz tuzilishi, bosh kiyim, bo‘yindagi taqinchoqlar tasvirida rangli toshlar juda ustalik bilan ishlatilganki, haykaltaroshlik sanatida bu xildagi namunalar kam uchraydi. Nefreteti

byusti timsolida rangli haykaltaroshlikning o‘ta sanatkorona bajarilganini guvohi bo‘lamiz. Qadimgi yunonlarning va rimliklarning bu boradagi izlanishlari ham etiborga molik. CHunonchi, mashhur yunon haykaltaroshi Mironning «Disk otuvchi» asari har tomonlama mahorat bilan yaratilgan. YUnion asotirlarida keltirilishicha, Afrodita go‘zallik va muhabbat ramzidir. Buni Afroditaga bag‘ishlangai haykallarda ko‘ramiz. Ular nafisligi, go‘zalligi bilan kishini o‘ziga rom qiladi. Bu o‘rinda ayniqsa «Milos Afrositasi» haykali alohida diqqatga sazovor. eng qadim xalqlardan hindlar o‘zlarining diniy etiqodi bo‘lmish Buddaga oid minglab haykallar yaratishgan.

O‘lkamizning Surxondaryo viloyatidan qadim kushonlar davriga oid buddizmga xos haykaltaroshlik namunalarini ham ko‘plab uchratish mumkin. O‘zbekiston hududidagi qadim Samarqandning o‘rni – Afrosiyobdan bir qancha haykalchalar topilgan. Bu haykalchalarda go‘zallik, sadoqat, insoniylik va diniy etiqodlar aks ettirilgan.

2. Tasviriy sanat monumental va dastgoh. Grafika sanati.

Haykaltaroshlik sanati asarlari ham mazmuni va vazifasiga qarab *monumental*, *dekorativ* va *dastgoh* turlariga bo‘linadi. *Monumental haykaltaroshlik* malum bir muhit, memorlik binolari hamda tabiatga uyg‘unlashtirilib ishlangan bo‘ladi. Toshkent shahridagi O‘zbekiston mudofaa vazirligining binosi qarshisidagi «Jangchi soldat», shimoliy temir yo‘l vokzali yonida o‘rnatilgan Turkistonlik 14 komissarning granitdan ishlangan haykallari, sohibqiron Amir Temur, Alisher Navoiy haykallari shu turga mansub.

Mustaqil mazmunga ega bo‘lgan, vogelikni borligicha aks ettirgan hamda inson ichki ruhiy olamini o‘ziga xos tarzda oolib beradigan erkin ijodiy asarlar, shu jumladan, muzeylar, ko‘rgazma zallari, hatto xonardonlarga qo‘yishga mo‘ljallangan haykallar *dastgoh haykaltaroshligi* deb yuritiladi. Damir Ro‘ziboyev, eynulla Aliyev, Abdumo‘min Boymatov, Ulug‘bek Mardihev, Ilhom Jabborov kabi haykaltaroshlar shu sohada samarali ijod qilishmoqda.

Grafika sanati — tasviriylar sanatning eng keng tarqalgan hozirjavob va jangovar turidir. Grafika sanatida voqelik asosan chiziqlar, shakllar va oqqora ranglar orqali tasvirlanadi. Bu sanat turida har doim ham turli ranglar ishlatalavermaydi, ishlataliganida ham asar mazmunini ochib berishda asosiy vazifani o'tamaydi. Bo'yoqlar kishilarni jalb qilishi yoki chaqiriq vazifasini bajarishi mumkin. SHuning uchun ham, bu sohada ikki, uch xildan ortiq bo'yoq deyarli ishlatilmaydi. Grafika sanati o'z o'rnida quyidagi turlarga bo'linadi. Masalan: *dastgoh grafikasi* turiga ijodkorning mustaqil badiiy faoliyatini anglatish bilan birga yangi fikr va g'oyalarni ilgari suradigan asarlar kiradi. *Kitob grafikasi* sanatida esa kitobning turiga qarab muqova, titul muqova kabilalar hisobga olinadi. Kitob grafikasi shu kitobning mazmunini ochib berishga xizmat qiladi. Kitob, gazeta-jurnal grafikasi va bulardan tashqari, ana shu kitob grafikasining o'ziga xos bir turi *gravyura sanati* deyiladi. Gravyura ham o'z o'rnida quyidagi turlarga bo'linadi:

1. *Litografika* – asosan toshga o'yib ishlanadi.
2. *Linogravura* – linonumga o'yib ishlanadi.
3. *Ksilografiya* – yog'ochga o'yib ishlanadi.
4. *Ofort* – alyuminiy va boshqa metallarga o'yib ishlanadi.

Grafika sanatining yana bir turi *plakatlar yasashdir*. Siyosiy plakatlar, reklama (tijorat) afishalar, satira va humoristik asarlar shular jumlasidandir. Plakatlar malum bir mavzuga (tinchlik, ekologiya, paxta kabilalar) qaratilgan bo'ladi. *Sanoat grafikasiga* esa yorliq, ramz va boshqalar kiradi. *Arxegrafikada* loyiha, reja, uy sxemasi, manzil bo'yicha yo'naliш kabilalar tasvirlanadi.


Grafika sanatining mashhur ustalari Sulton Ali Mashhadiy, Kamoliddin Behzod, Leonardo da Vinci, Alberxt Dyurer o'z zamonasida samarali ijod qilishgan. O'zbekistonning XX asr grafikachi rassomlaridan Iskandar Ikromov, Qutlug' Basharov, Telman Muhammedov, Nikolay Ten, Nemat Hakimov va boshqalar ijodi etiborga molik.

3. Rang tasvir san'ati. Manzara janri.

Rangtasvir — asosan bo'yoqlar vositasida matoga, devorga shuningdek, tekislik va yuzalarga ishlanadigan sanat turi.

Tasvir mazmuni, tavsifi va shunga o‘xshash barcha xususiyatlari bo‘yoqlar orqali ifodalab berilsa *rangtasvir sanati* deb ataladi. Tasviriy sanatning bu turida ijodkorning ichki kechinmalari ranglarni bir-biriga meyorida qo‘shib ishlatish natijasida namoyon bo‘ladi. Masalan. qizil va qora bo‘yoqlar qo‘shib ishlatilishi fojiaviylikni aks ettirsa, och moviy va yashil ranglarni o‘ziga xos bog‘lashlar natijasida tinch va osoyishtalik holatlari tasvirlanishi mumkin. Rangtasvir sanati jozibali va qiziqarliligi bilan nafaqat o‘zlashtirishda, hatto uni idrok qila bilishda ham o‘quvchidan muayyan tayyorgarlikni talab etadi.

Tasviriy sanatning o‘ziga xos nafis bu turi insoniyat tafakko‘rining noyob namunasi sifatida kishilarni necha asrlardan beri o‘ziga rom qilib kelmoqda. O‘zbekiston hududida ham qadimdan rangtasvir sanati taraqqiy etganligini Afrosiyobdagagi devoriy rasmlar, Varaxsha va Bolaliktepa tasviriy namunalaridan bilish mumkin. Bu o‘tmish rangtasvir sanati ajdodlarimizning go‘zallik borasida erishgan yutuqlarini hikoya qilibgina qolmasdan tarix sirlarini olib beruvchi ko‘zgu vazifasini bajara oladi. Rangtasvir sanatining mashhur vakillaridan Leonardo da Vinci, Rafael Santi, Rembrand, Karl Bryulov, Anri Matiss, XX asr o‘zbek rangtasvir sanati ustalaridan O‘rol Tansiqboyev, Abdulhaq Abdullayev, Rahim Ahmedov, Malik Nabiiev, Javlon Umarbekov, Bahodir Jalolov, Alisher Mirzayev, Akmal Ikromjonovlar ijodi diqqat etiborga molik. Rangtasvir sanati o‘z o‘rnida *monumental, dastgoh, dekorativ bezak* ko‘rinishlarga ajraladi. *Monumentallik* ko‘rinishida ijtimoiy hayot voqealari aks ettiriladi va tasvir uzoq masofadan ko‘rishga mo‘ljallanadi. *Monumental ko‘rinishdagi* rangtasvir sanati — to‘g‘ri devor yuzasiga ishslash (freska), turli rangli toshlar, shishalar, sirli sopollarning devorda ishlatilishi (mozaika), maxsus to‘rtburchak va ramkalar ichida tasvirlash (panno) yo‘nalishlarini ham o‘z ichiga qamrab oladi.



17.3-rasm. Rang tasvir – manzara janridagi san’at asari.

Dekorativ rangtasvir sanati esa bezash vazifasini o’taydi. Teatr kino va boshqa shunga o‘xshash sohalarda dekorativ rangtasvir sanati qo’llaniladi.

Servis sohasi korxonalarini xonalarining inter’erini shakllantirishda tasviriy sanat janrlari (portret janri, natyumort janri, manzara janri, tarixiy janrlardagi asarlar, animal janri)dan foydalanish katta ahamiyat kasb etadi.

Portret janri. Inson qiyofasini ichki psixologik olami bilan bog‘langan holda aniq bir obrazda yaratilishi *portret sanati* deb yuritiladi. Portretda insonning to‘la gavdasi, yarmi yoki yuz qiyofasining faqat o‘zi ham bo‘lishi mumkin. Portret yaratish o‘ziga xos murakkab jarayon bo‘lib, insonning anatomik tuzilishidan tortib ichki ruhiy, manaviy, shuningdek, tashqi ko‘rinishidagi barcha jihatlarini aks ettirishi bilan sanat darajasidagi asar bo‘lishi mumkin. Darhaqiqat, har bir insonning ichki dunyosi, go‘zalligi, tabiat ato etgan andazasi mavjud.

Tasviriy sanatning portret janri insonning manaviy qiyofasini o‘zida ifodalashi bilan sanatning boshqa sohalaridan birmuncha farq qiladi. Portret sanatini yaratishda bebaho yutuqlarni qo‘lga kiritgan buyuk rassomlardan Kamoliddin Behzod, Leonarda da Vinchi, Rembrand, shuningdek, o‘zbek rassomlaridan Abdulhaq Abdullayev, Rahim Ahmedov, Chingiz Ahmarov va boshqa bir qancha rassomlarni misol keltirish mumkin.

Natyumort – fransuzcha *jonsiz tabiat* degan manoni beradi. Odamlar hayotida ishlatiladigan buyum- narsalar, sabzavot va mevalar, asbob-uskuna kabilarga o‘xshash namunalarning tasviri muayyan shaklda chizilishi mazkur janrga xos. Buyumlar va narsalar shaklini, formasini, tavsiyini o‘zlashtirish sanatning boshqa jihatlarini va

turlarini o‘rganishdagi dastlabki saboqlardan bo‘lib, natyurmortning sanat darajasida yaratilishi o‘ziga xos murakkab va katta maktabni talab qiladi. Tasviriy sanat tarihida Vilyam Klass Xeda, Jan-Batist-Simon Marden, Frans Snayders, YAnvan Geysum, Rahim Ahmedov, Akmal Ikromjonovlarning o‘z o‘rni bor.

Manzara janri – tabiatning turli ko‘rinishlarini tasviriy sanatda aks ettirilishidir. Tog‘, o‘rmon, dengiz, shahar va qishloq manzaralarining ko‘rinishlari aniq bir mazmunni angatsa bunday asarlar manzara janriga tegishlidir. Gap manzara janri haqida ketar ekan, manzaraning mohir ustalari Klod Loren, SHishkin, Levitan, Karaxan, Isfandiyor Haydarov va boshqa mashhur rassomlar ijodini bu borada misol keltirish mumkin.

Tarixiy janrdagi asarlarda tarixiy voqealar, tarixiy obrazlar aks ettirilsa, *batal janrida* tarixiy jang voqealarini, harbiy obrazlar tasvirlanadi.

Animal janri — majoziy obrazlarni aks ettiruvchi tasviriy sanat asarlaridir. Bunda asosan turli hayvonlar, qushlar, ularning harakatlari, qiyofalari va shu obrazlar orqali hayot voqealarini aks ettiriladi.

4. Tasviriy sanatda kompozitsiya

Har bir tasviriy sanat asari kompozitsiyasining o‘ziga xos tuzilishi va mazmuni bilan bog‘liq jihatlari mavjuddir, Ana shuning uchun ham tasviriy sanat asari kompozitsiyaning umumiyligini qonuniyatlariga amal qilgan holda yaratiladi.

Kompozitsiya tuzish joylashtirish, ijod qilish natijasida sanatning alohida qismlarini mantiqan bir butunlikka keltirish ekanligini anglatadi. Tasviriy sanatda kompozitsiya juda keng manoga, o‘ziga xos alohida muhim jihatlarga egadir. Yana shu narsa diqqatga sazovorki, tasviriy sanatning har bir turi yoki janrida kompozitsion tuzilish malum darajada farqlanishni talab qiladi. Tasviriy sanat asarida kompozitsiyaning oddiy qonunlaridan tortib asar mazmunini ochib berishgacha bo‘lgan ijodiy izlanishlarida ham o‘ziga xos kompozitsiya sirlari bo‘ladi. Asarning badiiy mazmuni, qiymati, sanat darajasida yaratilishi servis sohasi korxonalari inter’erini shakllantirishda katta ahamiyat kasb etib, tashrif buyuruvchilar xotirasida ijobjiy taassurot qoldiradi. Kompozitsiya ana shunday murakkab sanatning mantiqiy tuzilishini tashkil qiluvchi sohasidir.

Nazorat savollari:

1. Tasviriy san'at deganda nimani tushunasiz?
2. Tasviriy sa'natning qanday turlari bor?
3. Ovqatlanish korxonalarining inte'erida haykaltaroshlikning o'rni nimada?
4. *Gorelf va Bareflar qanday tasviriy san'at hisoblanadi?*
5. Monumental va dastgoh san'at turlarining ahamiyati nimada?
6. Grafika sa'nati turlari va ovqatlanish korxonalarida qanday maqsadda qo'llaneiladi?
7. Gravyura sa'nati nima?
8. Rangtasvir sanxatini tushunririb bering.
9. Portret janri inson psixologiyasida qanday o'rin egallaydi?
10. *Natyumort va manzara janrilarini tushuntirib bering.*
11. Tasviriy sanatda kompozitsiya qanday ahamiyatga ega?

II-BO'LIM. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARIDA REKLAMA VA UNING O'RNI

6-Bob. “Reklama va reklama faoliyatining mohiyati, ahamiyati va funksiyalari

18-mavzu. Reklama va reklama faoliyati to'g'risida tushuncha.

Reklama tarixi bo'yicha qisqacha ma'lumot

Mavzu rejasi:

1. Reklama va reklama faoliyati to'g'risida tushuncha. Reklama tarixi bo'yicha qisqacha ma'lumot
2. Reklama funksiyalari
3. Servis sohasi korxonalari, firmalarining imiji va uni shakllantirishda reklamaning ahamiyati

Tayanch iboralar: *qirol, podshoh va boshqa hukmdor kishilar, atama va tushunchalar, ma'lumotnomma tuzuvchilari, F. Kotler, M.D.Valovaya, U.Arene, K.Bove, A. Lasker, O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, “Reklama to'g'risida”gi Qonun, “butun bir oltin tanga”, er. avv. 3000-yillar, XI-XVI asrlar, XVI-XVII asrlar, XIX-XX asr boshi, XX asrning ikkinchi yarmi, bog'lovchi bo'g'in, fuksiya, marketing funksiyasi, kommunikativ funksiya, iqtisodiy funksiya, ma'rifiy funksiyasi, haqqoniy reklama, odobli reklama, qiyosiy reklama, rag'batlantiruvchi reklama, stabillashtiruvchi reklama, imij, imjni shakllantiruvchi reklama, komputerlashtirilgan reklama.*

1. Reklama va reklama faoliyati to'g'risida tushuncha. Reklama tarixi bo'yicha qisqacha ma'lumot

Reklamaning vujudga kelishi va rivojlanishi bozorning rivojlanishi bilan bevosita bog'liq bo'lib, bugungi kunda jamiyatda ilg'or o'rinni egallaydi. U bozorni rivojlantirishning asosiy elementlaridan biri bo'lib, iste'molchilarni tanlash ma'lumotlari bilan ta'minlaydi, ishlab chiqaruvchi va xizmat ko'rsatuvchi yuridik va jismoniy shaxslarning raqobat qilishlari uchun qulay sharoitlarni yaratadi.

“Reklama” tushunchasi lotincha so'zdan olingan bo'lib, “reklamare”, ya'ni “dodlash”, tom ma'noda “jar solmoq”, “qichqirmoq” yoki “baqirmoq” degan ma'noni bildiradi, chunki reklama tarixidan ma'lumki, qadimda gazeta, jurnal va bosma nashrlarning, radio hamda televideniyega o'xshagan reklama vositalarining bo'limganligi sababli qirol, podshoh va boshqa hukmdor kishilarning farmonlarini va mahsulot to'g'risidagi hamda boshqa ma'lumotlarni aholiga maxsus jarchilar orqali yetkazishgan. Ular baland ovoz bilan ma'lumotlarni tarqatishgan. Shu sababli ham “jar solish”, “qichqirish” yoki “baqirish” so'zlari reklamaning asosini tashkil qiladi. Reklama bilan bo'g'liq atama va tushunchalar juda ham ko'p. Ulardan eng asosiysi “reklama” tushunchasining o'zi hisoblanadi.

Bugungi kunda reklamaga berilgan ta'riflar soni juda ham ko'p. Shulardan asosiylarini ko'rib chiqadigan bo'lsak, “Turizm, gostepriimstvo, servis: Slovar-spravochnik” ma'lumotnomasi tuzuvchilaridan bir bo'lgan A.P.Voronkova va

boshqalarning fikriga ko'ra reklama deganda keng ma'noda tadbirkorlik va tijorat nuqtai-nazaridan firma yoki uning mahsuloti to'g'risida sotish hajmini ko'paytirish hamda xizmatining obro'sini oshirish maqsadida ma'lumotlarning potensial iste'molchilar va xalq o'rtaida tarqatilishi tushuniladi.

"Reklama, teoriya i praktika" degan mashhur darslik mualliflari reklamaga tovarlar va xizmatlar sifatini, xuddi shuningdek g'oyalarni ehtiyojlar va talablar tiliga o'tkazishga urinayotgan kommunikatsiya shakli sifatida qarash mumkin deyishgan.

Marketing bo'yicha dunyoda eng mashhur darslik muallifi F. Kotler reklamaning ta'rifiga boshqa nuqtai-nazardan yondoshadi. Uning fikri bo'yicha reklama ma'lumotlarni tarqatishning pulli vositalari yordamida amalga oshiradigan kommunikatsiyaning shaxssiz shakli hisoblanadi.

M.D.Valovaya reklamani ma'lumot berishning turli vositalarida pulli joylashtiriladigan e'lon deb ta'riflagan.

U.Arene, K.Bove bergen ta'rifga ko'ra reklama deganda firma yoki realizatsiya qilinayotgan tovarga xaridorlarning diqqatini tortadigan har qanday tadbir yoki tadbirlar tizimini tushunish mumkin.

AQShdagi mashhur firmalar uchun reklama kompaniyalarini ishlab chiqish bilan shug'ullanadigan "Malpan Ericsson Ink" reklama agentligining ta'kidlashicha, reklama – bu yaxshi so'zlab berilgan haqiqat.

Zamonaviy reklama otasi deb tan olingan Albert Lasker: "Reklama – bu bosma ko'rinishdagi savdo", – deb aytadi.

Bugungi kunda reklamaning mohiyati to'g'risida turli qarashlar mavjud bo'lib, u tovarlarni o'tkazishni tashkil qilish, jamiyat bilan aloqani ta'minlaydigan iqtisodiy-ijtimoiy jarayon yoki axborot jarayoni deb ta'riflanadi.

Bir paytning o'zida reklama axborot yetkazishning shaxssiz va pullik turidir. Reklamada mahsulot va xizmatlar haqida ishontirish xarakteri ham mayjud.

Yuqorida keltirilgan olimlarning fikrlaridan ko'rinib turibdiki, reklama tushunchasining yagona ta'rifi yo'q: har kim har qaysi nuqtai-nazardan yondashgan, lekin ularning hammasi reklamaning mohiyatini ochib beradi.

O'zbekistonda reklama masalalari bilan shug'ullanadigan mutaxassislar, albatta reklamaga rasmiy manbalarda unga berilgan ta'riflardan foydalanib yondashadi. Masalan, O'zbekiston milliy ensiklopediyasida reklama quyidagicha ta'riflangan: "Reklama (lot. Reclamo – qichqirmoq) – tovarlarning sifati, ularni sotib olishdan ko'rildigan naf haqidagi axborot; bevosita yoki bilvosita foyda (daromad) olish maqsadida yuridik va jismoniy shaxslar yoki mahsulot to'g'risida tarqatiladigan maxsus axborot. Reklama marketingning tarkibiy qismi hisoblanib, talab va iste'molchilar didining shakllanishiga xizmat ko'rsatadi. Reklama korxona imijini yaratish (qisqa davrli ta'sir ko'rsatish), xaridorlarga nima sotib olishni va uni nima uchun sotib olish zarurligini hal qilishda yordamlashishi va boshqa maqsadlarda olib boriladi".

1998-yil dekabr oyida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi "Reklama to'g'risida"gi Qonunning 4-moddasiga binoan "Reklama – bevosita yoki bilvosita foyda (daromad) olish maqsadida yuridik va jismoniy shaxslar yoki mahsulot to'g'risida tarqatiladigan maxsus axborot". Bu qonunda ko'rsatilganidek, reklama aniq, haqiqiy va qonunlarga zid bo'lmasligi kerak. Shuningdek foydalanilayotgan reklama shakl va vositalari iste'molchilarga ma'naviy va moddiy zarar keltirmasligi talab etiladi.

Har qanday narsaning o'ziga yarasha tarixi bo'ladi. Reklamaning ham o'ziga yarasha tarixi mavjud. U qadim zamonlarga borib taqaladi. Masalan, Qadimiylar Yunonistonning Fiva shahrida arxeologlar tomonidan er. avv. 1000-yil davriga taalluqli yozuv topilgan. Unda qandaydir quldorning qochib ketgan qulni ushlash uchun "butun bir oltin tanga" va'da bergenligi yozib qoldirilgan. Ushbu yozma e'lon hozirgi zamon reklamasining elementar shakllaridan biri hisoblanadi. Bundan tashqari, Qadimiylar Rimda og'zaki va yozma reklama, hatto tovar belgisi quyib tamg'alash yo'li bilan tovarlar reklama qilinganligi haqida tarixiy ma'lumotlar mavjud.

L.I. Karimova tomonidan keltirilgan ma'lumotlarga² ko'ra reklama bo'yicha tadqiqotchi olimlar uning rivojlanish jarayonini shartli ravishda quyidagi bosqichlarga bo'ladi:

² L.I.Karimova. Социальная психология и реклама: Учебное пособие для вузов (Под ред. Б.М.Каримовой – Т.: Издательско-полиграфический творческий дом им. Г.Гуляма, 2004. – с.-9

- eramizgacha bo’lgan 3000-yillar – eramizning V asri reklama tarixining boshlanishi(qadimiy zamon, antik dunyo va antik dunyodan keyingi davr);
- VI-XV asrlar – o’rta asrlar reklamasi (feodalizm davri, sanoatning sexlar usulida shakllanish davri);
- XVI-XVII asrlar – uyg’onish davri (renesseans) va o’ziga kelish davri;
- XIX-XX asr boshlanishi – industrial ishlab chiqarish va kapitalizm iqtisodiyoti rivojlanish davri reklamasi;
- XX asrning ikkinchi yarmi – reklamaning hozirgi zamon tarixi.

2. Reklama funksiyalari

Reklamaning jamiyatda tutgan o’rni juda katta. Bu mahsulotlarni ishlab chiqaruvchilar va xizmat ko’rsatuvchilar, ommaviy axborot vositalarini bog’lovchi asosiy bo’g’in hisoblanadi va jamiyatning rivojlanishiga muhim hissa qo’shadi. Reklama yangi va sifati takomillashtirilgan mahsulot va xizmatlar to’g’risida ma’lumotlar beribgina qolmasdan ulardan foydalanish tartib va qoidalarini jamiyat a’zolariga yetkazib beradi.

Faqat reklama orqali aholi farovon hayot tarzi bilan tanishadi va unga erishishga intiladi. Nihoyat, reklama moda va dizayn yo’nalishlarining ko’zgusi hisoblanib, ular bo’yicha ilg’or tajribani o’zida aks ettiradi. Reklama ma’lumotlarida farovon hayot tarzi bilan uyg’unlashtirilgan estetik talablar asosida shakllantirilgan dizayn ob’yektlari to’g’risida ma’lumotlar berilib borilishi sababli reklama aholini go’zallikka intilishga undaydi. Reklamaning ko’rsatadigan ahamiyati jamiyatda unga yuklatilgan funksiyalar bilan bevosita bog’liq.

Reklamaning jamiyatda bajaradigan funksiyalari quyidagilardan iborat:

- marketing funksiyasi;
- kommunikativ funksiyasi;
- iqtisodiy funksiyasi;
- ijtimoiy funksiyasi;
- ma’rifiy funksiyasi.

Bozor iqtisodiyoti davrida marketingning ahamiyati juda ham katta. Uning yordamida quyidagi masalalar hal etiladi:

- iste'molchilar va raqiblar hatti-harakatlarini va sohada sodir bo'layotgan o'zgarishlar dinamikasini o'rganish;
- bozorning muayyan segmentidagi iste'molchilar ehtiyojini qondiradigan mahsulot va xizmatlarni yaratish hamda ularni ishlab chiqarish;
- mahsulot va xizmatlarga baho belgilash usullarini o'rganish;
- mahsulot va xizmatlarni bozorga kiritish va ularni sotishni rag'batlantirish.

Marketing kombinatsiyasi (“Marketing-miks”) mutaxassislarga keng tanish bo'lган to'rt (4) “P” bo'lib, quyidagi inglizcha so'zlarning birinchi harflaridan olingan: mahsulot (product), baho (price), taqsimlash kanali-joyi yoki sotuv joyi(place) va siljitish(promotion).

Reklama marketing kombinatsiyasining “siljitish” kategoriyasiga tegishli bo'lib, shaxsan sotishlarni, sotishni rag'batlantirish va jamiyat bilan aloqalarini o'z ichiga oladi.

Reklamaning kommunikativ funksiyasi u orqali jamiyat a'zolariga qandaydir xabar (axborot)larni berishdan iborat. Yuqorida ta'kidlanganidek Qadimgi Yunoniston va Qadimgi Rim savdogarlari tomonidan foydalanilgan reklamaning ilk shakllari odamlarga faqat mahsulot, xizmat yoki yangilik to'g'risida sof ma'lumotlar berish bilan cheklangan bo'lsa, hozirgi zamon reklamasi esa mahsulot, xizmatlar to'g'risida sof ma'lumot beribgina qolmasdan potensial iste'molchilarni reklamada berilgan ma'lumotlarga ishontirish uchun ham harakat qiladi.

Reklamaning asosiy iqtisodiy funksiyasi ishlab chiqaruvchi va boshqa servis xizmatini ko'rsatuvchi korxonalarining mahsulotlarini va xizmatlarini realizatsiya qilish samaradorligini oshirish masalalarini hal etishga yordam berishdan hamda mahsulotlarni sotib olish va servis xizmatlaridan foydalanish bo'yicha potensial iste'molchilar tomonidan qabul qilinadigan iqtisodiy qarorlarga ham ta'sir ko'rsatrishdan iborat. Shu sababli ham reklama mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqaruvchilarga hamda ularni iste'mol qiluvchilarga xizmat qiladi. Uning iqtisodiy funksiyalaridan biri shundan iboratki, u orqali mahsulotlar, xizmatlar assortimenti va

ularning eng muhim hossalari (sifati, foydalanish davri va sh.o'.) to'g'risida ma'lumotlar beribgina qolmasdan, shu ma'lumotlar aholi o'rtasida keng tarqatiladi, ya'ni ommalashtiriladi. Uning natijasida aholining mahsulot va xizmatlarga bo'lgan ehtiyoji oshadi va tovar aylanishi tezlashadi. Bu esa o'z navbatida reklama ishtirokchilarining ko'proq foyda olishini va aholi turmush darajasining yaxshilanishini ta'minlaydi. Erkin tadbirkorlikning imkoniyatlarini aholi o'rtasida keng targ'ibot qilish orqali barcha ishchi-xodimlarning mehnat unumdorligini oshirishga va yuqori farovon hayot tarziga erishishga undaydi, chunki reklama hayotning negativ tomonlariga e'tibor bermasdan uning yaxshi va go'zal tomonlarini targ'ibot qiladi.

Reklamaning ijtimoiy funksiyasi birinchi navbatda jamiyat a'zolariga ishlab chiqarilayotgan yoki chetdan keltirilayotgan mahsulotlar, servis korxonalari va ularning xizmatlari to'g'risida ma'lumotlar berishdan iborat, chunki bugungi kunda reklama eng keng tarqalgan ma'lumotnomha va kommunikatsiya turi hisoblanadi. Bugungi kunning ilg'or reklamachisi Jak Segem fikri bo'yicha 3000-yil bo'sag'asida iste'molchilar jamiyatlari ma'lumotlar iste'mol qilish jamiyatlariga aylanib bormoqda va kerakli ma'lumotlar asosiy valyutaga aylanib boradi. Reklama ijtimoiy ahamiyatining yana biri shundan iboratki, o'zida beriladigan ma'lumotlar orqali mehnatni rag'batlantiradi, chunki reklama odamlar faoliyatini ishonchli dalillar keltirib quvvatlaydi. Bundan tashqari reklama ijtimoiy boyliklarni omma ichida tarqatadi va uning natijasida hayot tarzini shakllantirishga imkon beradi, qolaversa reklama jamiyatdagi tarixiy va madaniy an'analarni o'zida ifodalaydi.

Reklamaning ma'rifiy funksiyasi shundan iboratki, ilmiy-tadqiqot, ilg'or texnologiya va amaliyot natijalarini o'zida aks ettiradigan yangi va sifati takomillashtirilgan mahsulot va xizmatlarni reklama qilish orqali aholini fan yutuqlari va ilg'or texnologiya hamda tajriba bo'yicha yangi bilimlar bilan qurollantiradi. Bundan tashqari jamiyat a'zolari reklama orqali har xil vaziyatlarda o'zini tutish, yurish-turish va munosabat qilish qoida va me'yorlarini o'rganadi, ya'ni etika bo'yicha yangi bilimlarga ega bo'ladi, reklama orqali tovarlar, kiyim modalari va dizayn yutuqlari targ'ibot qilinadi.

3. Servis sohasi korxonalari, firmalarining imiji va uni shakllantirishda reklamaning ahamiyati

O’zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga zid kelmaydigan *haqqoniy, qiyosiy* va *odobli* reklamalar ma’lumotlarining maqsadi va vazifasiga qarab quyidagi turlarga bo’linadi: *tovarlarni realizatsiya qilishni rag’batlantiruvchi* (ko’paytiruvchi); *iste’molchilarни stabillashtiruvchi*, ya’ni ularning sonini kamaytirmasdan ko’paytirishga harakat qiluvchi va yuridik hamda *jismoniy shaxslarning imijini shakllantiruvchi*. Har bir reklama turining o’ziga yarasha maqsadi va vazifasi bo’ladi. Masalan, *tovarlarni realizatsiya qilishni rag’batlantiruvchi* reklamaning maqsadi aniq bir tovar bo’yicha iste’molchilarda tasavvurni shakllantirish, iste’molchini aynan ushbu tovar uchun shu firmaga murojaat qilishga undash va tovarni aynan shu firmadan sotib olish istagini shakllantirish, tovarlarni sotishni rag’batlantirish va tovar aylanishini tezlashtirishdan iborat. Ko’pincha “reklama tovarni sotadi” degan uncha to’g’ri bo’lmagan xulosaga kelinadi. Chunki reklama tovarni sotmaydi, balki potensial xaridorlarni topib, talabni rag’batlantiradi. Masalan, xaridor do’konga kirib axtargan tovarni topdi, lekin tovarning sifati, assortimenti yoki bahosi uni qoniqtirmaganligi sababli tovarni sotib olmasdan do’kondan chiqib ketdi. Bu yerda xaridorga reklama ta’sir ko’rsatdimi? – degan savol tug’iladi. Bu savolga “ha” deb ijobiy javob berish mumkin. Reklama uchun eng asosiy vazifa – bu potensial xaridorni tovar sotilayotgan joyga keltirishdan iborat. Xaridorning do’konga kelib, tovar sotib olmasdan chiqib ketmasligi uchun reklama tovar siljitchining boshqa uslublari bilan birga qo’llanilishi maqsadga muvofiqdir. Eng asosiysi esa tovar sifati va estetik xususiyati bo’yicha xaridor didiga mos bo’lishi kerak. Shu sababli reklamaning samaradorligini sotilgan tovarlar hajmi bilan emas, balki potensial xaridorlarning necha marta tashrifi va necha marta telefon orqali murojaat qilganligi kabi ko’rsatkichlar asosida baholash to’g’ri hisoblanadi. *Iste’molchilarни stabillashtiruvchi* reklamaning maqsadi iste’molchilarda aynan shu firmaga murojaat qilish istagini shakllantirish orqali ushbu iste’molchini shu firmaning doimiy mijoziga aylantirishga intilish va hamkor sifatida boshqa firmalarning obro’sini shakllantirishdan iborat.

Boshqa faktorlar qatori servis sohasi korxonalarining muvafaqqiyati imijiga bog'liqdir. "Imij" ingliz tilidan tarjima qilinganda "timsol", "qiyofa", "tasavvur", "o'xshash" ma'nolarini anglatadi. *Imij* – bu maqsadli yaratilgan yoki o'zidan o'zi kelib chiqqan odamlar hayolidagi ob'yeckning shakli, ya'ni uyg'unlashtirilgan jamiyat idroki. Imij – juda keng tushuncha bo'lib, u o'z ichiga nufuzli reklamani, ro'yxatga olingan tovar belgisini, ya'ni grafik timsolini faqat shu shaklga xos, mijozlar haqidagi doimiy g'amxo'rlikni, xizmatlarning yuqori sifatini oladi. *Imij reklamasining* maqsadi ushbu firma timsolini, shu tovarga bo'lgan iste'molchi ehtiyojini va boshqa ishonchli hamkorlarning imijini shakllantirishdan iborat. *Imij reklamasi* oddiy reklamaga qaraganda boshqacha shakllarga ega. U o'z ichiga mashhur odamlar bilan hayriya tadbirlarini, mashhur odamlar taklif qilingan reklamali turlarni, atrof-muhitni himoya qilish bo'yicha homiylik tadbirlarni o'z ichiga oladi. Bu kabi reklama firmaning timsolini yagona uslub, yagona reklama g'oyasi va yagona so'z formulasi asosida yaratishga yordam beradi.

Tovarlarni realizatsiya qiluvchi reklama o'z navbatida quyidagi turlarga bo'linadi: *eslatuvchi, ma'lumot beruvchi* va *ishontiruvchi*.

Eslatuvchi – bu potensial bo'lajak iste'molchilarga mahsulot yoki xizmat to'g'risida eslatib o'tadigan reklama. Masalan, "Siz o'zingiz uchun yozgi mavsumli oyoq kiyim xarid qildingizmi?" yoki "Bizning restoranimizning xizmatidan foydalandingizmi?"

Ma'lumot beruvchi reklama deganda, iste'molchilarga yangi mahsulot yoki xizmatlarga bo'lgan birlamchi talablarni aniqlashga qaratilgan reklama tushuniladi.

Ishontiruvchi reklama deganda, ma'lum bir mahsulot yoki xizmatga bo'lgan talablarni aniqlash maqsadida ularning sifatlariga ishontirishga undaydigan reklamaning turi tushuniladi. Masalan, "Dunyoda eng yuqori sifatli changyutgich" yoki "Agar bizning do'konimizdan changyutgichni xarid qilsangiz, pulingiz o'zingizda qoladi" va hokazo.

Ma'lumki, bugungi kunda har qanday servis sohasi korxonalarining imijini rivojlantirishda *komputerlashtirilgan reklama* ham reklama vositalari sifatida katta ahamiyatga ega. Xorijiy ekspertlarning fikriga ko'ra, yaqin kelajakda

komputerlashtirilgan reklamaning boshqa reklamalardan o'zib ketishi kuzatiladi. Bu reklamaning asl mohiyati shundan iboratki, reklama beruvchi korxona muayyan to'lov evaziga komputerlashtirilgan reklama axborotining manbalariga, ya'ni ixtisoslashtirilgan komputer tizimlarining ma'lumotlar bazasiga o'z korxonalarini va tovarlari to'g'risidagi ma'lumotlarni kiritadilar.

Muxtasar qilib aytganda, Respublikamizda bozor munosobatlarining shakllanishi va rivojlanishi sharoitida reklama sohasidagi tajribalarni sinchkovlik bilan o'rganib, ijodiy yondashib, ulardan oqilona foydalanish har bir servis sohasi korxonalarining barqarorligini ta'minlashda va imijini rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi.

Nazorat savollari:

1. Reklama tushunchasi qaysi tildan olingan va tom ma'noda nimani bildiradi?
2. Nima uchun reklamaning mazmuniga asos qilib "jar solmoq", "qichqirmoq" va "baqirmoq" so'zlari olingan?
3. "Turizm, gostepriimstvo, servis: Slovar–spravochnik" ma'lumotnomasida reklamaga qanday ta'rif berilgan?
4. "Reklama, teoriya i praktika" darsligi mualliflarining reklama to'g'risidagi fikrlarini bilasizmi?
5. F.Kotler; M.D.Valovaya; U.Arene, K.Bove; "Malpan Ericsson Ink" reklama agentligi; A.Laskerlar reklama to'g'risida qanday fikr bildirishgan?
6. O'zbekiston milliy ensiklopediyasida va "Reklama to'g'risida"gi Qonunda reklamaga qanday ta'rif berilgan?
7. Reklamaning qadimiyligi shakli bo'yicha qanday ma'lumotga egasiz?
8. Reklamaning rivojlanish jarayonining bosqichlarini bilasizmi?
9. Reklama jamiyatda qanday ahamiyatga ega?
10. Marketing qanday vazifalarni bajaradi?
11. Marketing kombinatsiyasi qaysi elementlardan iborat?
12. Reklama marketing kombinatsiyaining qaysi kategoriyasiga tegishli va qanday masalalarni o'z ichiga oladi?
13. Reklamaning kommunikativ funksiyasi nimadan iborat?
14. Reklamaning iqtisodiy funksiyasi deganda nimani tushunasiz?

15. Reklamaning ijtimoiy funksiyasi deganda nimani tushunasiz?
16. Reklamaning ma'rifiy funksiyasi deganda nimani tushunasiz?
17. Respublikada qonun hujjatlariga zid kelmaydigan reklama qaysi turlarga bo'linadi?
18. Tovarlarni realizatsiya qilishni rag'batlantiruvchi (ko'paytiruvchi) reklamaning mohiyati nimadan iborat?
19. Iste'molchilarни stabillashtiruvchi reklama – bu qanday reklama?
20. Imij so'zi qanday ma'nolarni anglatadi?
21. Yuridik va jismoniy shaxslarning imijini shakllantiruvchi reklama to'g'risida gapirib bera olasizmi?
22. Eslatuvchi reklama deganda siz qaysi reklamani tushunasiz?
23. Ma'lumot beruvchi reklamaning mohiyati nimadan iborat?
24. Komputerlashtirilgan reklamaning mohiyati nimadan iborat?

19-mavzu. Bozor iqtisodiyoti sharoitida reklamaning iqtisodiy roli

Mavzu rejasi:

1. Mamlakatimizda bozor va raqobat muhitining rivojlanishi
2. Bozor iqtisodiyoti sharoitida reklamaning o‘rni va roli
3. Reklamaning ijobjiy va salbiy tomonlari

Tayanch iboralar: bozor, raqobat, tovar, narx, iste’molchilar, dizayn, konfedensial.

1. Mamlakatimizda bozor va raqobat muhitining rivojlanishi

Ma’lumki, bozor va raqobat bir-birini uyg‘unlashtirivchi, rivojlantiruvchi mexanizmdir. Bozorning rivojlangan darajaga etishishida roqobatning ahamiyati juda kattadir. Chunki, raqobat orqali barcha ishlab chiqaruvchilar, xizmat ko‘rsatuvchilar iqtisodiy ko‘rash olib boradi. SHuning natijasida tovar va xizmatlar sifati hamda boshqa ko‘rsatkichlari yaxshilanib iste’molchi talabini qoniqtiradi. Iste’molchining talabini qondirilib borishi bozorning rivojlanishini bildiradi. Hozirgi kunda iste’molchilar ko‘pincha mahsulotning bahosini emas balki uning foydali fazilatlariga ahamiyat beradilar. U fazilatlar ma’qul kelsa tovar uchun ko‘proq pul to‘lashga ham tayyor bo‘ladilar.

Marketing izlanishlari shuni ko‘rsatadiki, rivojlangan mamlakatlarda haridor tovar harid qilayotganda birinchi navbatda uning xususiyatlarini, tashqi ko‘rinishlariga, dizayniga ahamiyat beradi. SHundan keyin tovarning texnik ko‘rsatkichlarga e’tibor beradilar. SHunday ko‘rsatkichlar ichida narx-navo 6-7 o‘rinlarda turadi. Lekin, bu holat aholisi boy, turmush darajasi yuqori bo‘lgan davlatlarga xos bo‘lgan xususiyatdir. Vaxolanki, bizning O‘zbekiston kabi mamlakatlarda tovarning boxosi hozircha haridor uchun eng asosiy ko‘rsatkichlardan biri bo‘lib hisoblanadi.

Raqobat firmalar uchun hayot mamot masalasi bo‘lgani uchun, ular ayrim xollarda raqobat ko‘rashishda gayri qonuniy usullardan foydalanadilar. Bunda ular davlat tomonidan raqobat ko‘rashini tartibga soluvchi turli qonun va qoidalarga xilof ravishda ish ko‘radilar. G‘ayri qonuniy usullarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- baholar bo‘yicha bir nechta firmalarning uzaro kelishib olishlari;
- raqobatchilar to‘g‘rsida noto‘g‘ri axborot yoki to‘g‘ri bo‘lsa ham ularning obro‘sini ziyon etkazadigan ma’lumotlar tarqatish;
- reklamada tovarlarning nojuya solishtirish, axborot berish;
- raqobatchilarga nisbatan, reket, shantaj va hokazolar yordamida zuravonlik qilish;
- raqobatchining tijorat sirlarini pinxona bilib olish, konfedensial va maxfiy ma’lumotlarni ovoza qilish;
- tovar sifati xususiyatlari kabi masalada haridorlarga noto‘g‘ri axborot berish.

Eng oddiy xollarda tovar yoki xizmatga bo‘lgan talab ma’lum bir joyda ma’lum bir vaqtida savdo hajmiga teng bo‘ladi. Avvalo talabning ikki darajasi – butun bozordagi jami talab va firmaning mahsulotiga talabni aniqlash hisoblanadi. Savdo hajmining biror biror firma foydasiga salgina ortishi muqarrar ravishda uning bozordagi ulushi ham ortishini anglatadi.

Bozor salohiyatining mohiyatini ifodalovchi asosiy ko‘rsatkichlar xususida to‘xtalib o‘tamiz. Mahsulotga buning umumiyligi talab xususiyati talabning o‘zgarishi va talab hajmining o‘zgarishi singari, bozorning kengligi va undagi haridorlar miqdori tebranib turadi. U holda bozor salohiyati yalpi talab miqdorini aks ettiradigan ko‘rsatkich bo‘lib hisoblanadi. Bozorda doimiy faoliyat ko‘rsatayotgan firmalar o‘zlariga xos keluvchi talab miqdoriga ega. Firma mahsulotiga bo‘lgan talab miqdori yalpi talabning funksiyasi sifatida bozorda muayyan firmaning mumkin bo‘lgan va amaldagi umumiysini ifodalaydi. U holda firma o‘z mahsulotlariga talab funksiyasi va firmaning ishtiyоqlari funksiyasi sifatida yalpi talab ham o‘zgarib boradi.

Marketing bozor munosabatlari va raqobat bir-biriga o‘zaro ta’sir ko‘rsatib dialektik bog‘liqlikda harakatlanib boradi. Firmanın yangi texnologik jarayonlarını, yangi mahsulotlar ishlаб chiqarishga faqat bozordagi o‘zgarishlar, bozor munosabatlari

sabab bo‘ladi. Firma uchun ideal bo‘lish ushbu vaziyatning firma bozorida o‘ta yuqori mavqeiga ega bo‘ladi. Hayotiy vakillikka uchraydigan aniq bozor vaziyatlari esa ushbu ikki holatning oralig‘ida joylashadi va raqobatli kuchlarning o‘zaro ta’siri gox u gox bu vaziyatga tomon yaqinlashib boradi.

2. Bozor iqtisodiyoti sharoitida reklamaning o‘rni va roli

Bozor iqtisodiyoti sharoitida rivojlanayotgan mamlakatlar uchun reklamaning o‘rni muhim hisoblanadi. CHunki, bunday holatni iqtisodiy tizimda rivojlanib taraqqiy etgan mamlakatlarda ko‘rish va bilish mumkin. Hozirgi kunda bozor iqtisodiyoti sharoitida tovar ishlab chiqarishning rivojlanishi va uning natijasida raqobat muhitining kengayishi iste’molchilar bilan muntazam bog‘lanib turishni va uning asosiy quroli sifatida reklamadan foydalanishni talab etadi.

Reklama faoliyati Respublikamizda mustaqillik sharofati bilan bozor iqtisodiyotiga o‘tgandan keyiingga qo‘llanila boshladi va tez suratlarda rivojlanishga harakatlandi. Buning asosiy sababi:

1. Respublikamizning mustaqil davlat sifatida bozor iqtisodiyotiga o‘tishi.
2. Xususiy lashtirishning yo‘lga quyilishi.
3. Ishlab chiqrishning ko‘payishi.

Lekin shuni ta’kidlash lozimki, reklama har qaysi mamlakatda turlicha ko‘rinishda o‘zining shart-sharoitlari, urf-odatlari, dini va e’tiqodidan kelib chiqqan holoda rivojlanadi.

Reklama bizning mamlakatimizda esa o‘zimizning sharqona va kuchli tarixiy urf-odatlarimizga moslashgan holda ma’lum bir me’yorda harakatlanib rivojlanmoqda. Demak reklamaning asosiy xususiyatlaridan biri bu mamlakatimizning milliy urf-odatlarini, sharqonaviyligini ko‘rsata olishidir. Tovar va xizmatlar reklamasida ushbu milliylikni har bir suzda, tasavvurda ham bir vaqtning o‘zida ko‘rsatish hamda iste’molchilar ongiga singdira olish lozim.

Respublikamizdagи reklamaning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganishimiz uning boshqa davlatlar reklamasidan qanday va nimasi bilan farq qilishini yoritib beradi.

Reklamaning xususiyati har bir so‘zda va uning tayyorlanishida, bezatilishida va boshqa ko‘rinishlarida namoyon bo‘ladi.

Har bir reklama vositasi afzalliklarga ham, kamchiliklarga ham ega. Boshqa tomondan ularning harakatlari har xil va istemolchilarga ta’sir etish kuchi bir xil emas. Demak, reklama vositalarini tanlashda kutilgan omillarni ularni uzaro aloqasi va provar natijasiga ta’sir darajasini hisobga olishga to‘g‘ri keladi. Ular orasida eng muhim bo‘lib maqsadi auditoriyaning muayyan ommaviy axborot vositalariga moyilligi tovarning tabiati, murojaatlarning turlari, tarqatish vositalarining qiymati va hokazolar hisoblanadi.

Reklama murojatini yaratish san’ati iloji boricha qattiqroq miqiyoslarda maqsadli bozorning e’tiborini jalb qilish va ularning qiziqishini uyg‘otishdan iborat. Murojat uslubi hayot tarzi. Fantaziya elementlari, musiqa, simvolik personal ilmiy dalillar va boshqalar shaklida bo‘lishi mumkin.

3. Reklamaning ijobiy va salbiy tomonlari

Har bir reklamaning ijobiy tomoni bilan birga salbiy tomonlari ham mavjuddir. Reklamaning ijobiy tomonlariga quyidagilarni kiritish mumkin reklama kiska vaqt ichida ommaning e’tiborini uziga tortib mahsulot haqida haridorlar tulik ma’lumotga ega bo‘ladi. Ayniqsa ijtimoiy sohadagi reklamalar juda samarali hisoblanadi. Bir necha soniya ichida reklama mahsulotni kursatib balki haridor kayfiyatini kutarib unga ijobiy ta’sir kursatadi. Reklama hudud mintalitetiga, uning diniga to‘g‘ri kelishi kerak. Radio reklamaning ijobiy tomoni shundaki, u nisbatan arzon va uni har erda eshitish mumkin. Bundan tashqari reklamaning yana bir ijobiy tomonlaridan biri bu tovarlar sotilishini tezlashtiradi.

SHular bilan birga uning salbiy tomonlari ham yo‘q emas. Ularga misol qilib quyidagilarni keltirish mumkin. Televideniyada reklamani har xil qiziqarli ko‘rsatuvlar orasida tez-tez va uzoq vaqt davomida qo‘yilib borilishi tomoshabinlarda salbiy holatni o‘yg‘otadi va to‘g‘ridan-to‘g‘ri reklamaga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bundan tashqari reklamaning hududiy mintalitetiga to‘g‘ri kelmasligi ya’ni har xil chet el

reklamalarining kursatilishi. CHunki, bizlaning mintalitet bilan Evropa, AQSH mintaliteti to‘g‘ri kelmasligidir. Yo‘llardagi vitrina va shitlardagi reklamaning bir joyda xaddan ziyod ko‘p bo‘lganligi va unda juda ko‘p ranglar ishlatalishi xaydovchilar diqqatini o‘ziga tortib har xil noxush oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Nazorat savollari:

1. Bozor va uning turlari?
2. Raqobat tushunchasi va uning ishlab chiqarishga ta’siri?
3. Raqobatning qanday turlari mavjud?
4. Respublikamizda reklamaning rivojlanishi?
5. Reklamaning ijobiy va salbiy tomonlari?

20-mavzu. Reklamaga qo‘yilgan asosiy talablar, reklama turlari va darajalari

Mavzu rejasi:

1. Reklamaning asosiy maqsadi va tamoyillari
2. Reklamaning asosiy turlari
3. Reklama darajalari
4. Reklamaga qo‘yiladigan etik talablar va reklamatsiya
5. Aksilreklama, kodeks tushunchalari

Tayanch iboralar: *reklama maqsadi, haqqoniylik va ishonchlilik, adreslilik, axloq-odob qoidalari, asosiy vazifasi, haqqoniy reklama, nohaqqoniy reklama, soxta reklama, insofsiz reklama, qiyosiy reklama, ishonchsiz reklama, yashirin reklama, xalqaro reklama, umummiliy va mintaqaviy reklama, joylardagi reklama, axloqiy qoidalari, odobli reklama, beodoblarcha reklama, reklamatsiya, xaridor, iste’molchi, sotuvchi, qonun hujjatlari, Reklama Kodeksi, milliy reklama Kodeksi, reklama beruvchi, reklama tayyorlovchi, reklama tarqatuvchi, reklamadan foydalanuvchi, reklama vositalari, mahsulot.*

1. Reklamaning asosiy maqsadi va tamoyillari

Reklama korxona imijini yaratish, joriy sotish hajmini ko‘paytirish, haridorlarga nima sotib olishni va uni nima uchun sotib olish zarurligini hal qilishda yordamlashish va boshqa maqsadlarda olib boriladi. *Reklamaning asosiy maqsadi* haridirlarni qiziqtirish, mijoz haridirlarni yo‘qotmaslik va ularning safini kengaytirishga qaratilgan bo‘ladi.

Reklama unga yuklatilgan funksiya va vazifalarni bajarish uchun qator tamoyillarga asoslanib ishlab chiqarilishi kerak. Ularni tuzish yoki amal qilmaslik har qanday reklamani ham samarasiz bo‘lishiga olib keladi. Uning *asosiy tamoyillari* quyidagilar hisoblanadi:

- haqqoniylik tamoyili;
- ishonchlilik tamoyili;
- adreslilik tamoyili;
- axloq-odob qoidalariga mos kelish tamoyili.

Har qanday reklama ham *haqqoniy* bo‘lishi kerak. Nohaqqoniy reklamadan uning iste’molchisi ishonib bir marta foydalansa ham ikkinchi marta undan foydalanmaslikka harakat qiladi. Biznesda «Bajara olmaydigan narsangga va’da berma» degan «oltin» qoida bor. Lekin bugungi kunda aksariyat reklama beruvchilar iste’molchilarni ko‘proq jalg qilib, qisqa vaqt ichida ko‘p daromad olish maqsadida har qanday nayranglarga borishadi: tovar va xizmatlarini bo‘rtirib ko‘rsatishga, taniqli firmalar markalaridan foydalanishga va bajaraolmaydigan va’dalarni berishga harakat qilishadi.

Beriladigan har qanday reklama haqqoniy va undagi ma’lumotlarga odamlar *ishonadigan* bo‘lishi kerak. Bu esa amalda tovarlardan va xizmatlardan foydalanish jarayonida tasdiqlanadi.

Asosiy reklama tamoyili – bu reklamaning *adresliligidir*. Reklamaning adresliliqi deganda reklama shaklini tanlashda, uning mazmunini aniqlashda, reklamaning kim uchun mo‘ljallanganligi, mo‘ljallangan potensial iste’molchilar guruhlarining qanday odatlari mavjudligi, ularning reklamani qabul qilishga tayyorligi va qaysi radio to‘lqinlarini eshitishini hamda qaysi teleeshittirishlarni va qaysi kanallarda ko‘rishini

hisobga olish tushuniladi. Bundan tashqari reklamaning adresliligi ma'lumotlar berish vositalarini va vaqtini aniq belgilashni talab qiladi, chunki reklamani mo'ljallangan shaxslar guruhlariga ular o'qimaydigan va ko'rmaydigan vositalarda va vaqtarda berish uning samaradorligini pasaytirib yuboradi. S.R.Safayeva ma'lumotlariga qaraganda mo'ljallangan odamlar guruhlariga xos xususiyatlarni hisobga olib berilgan reklama odamlar diqqatini o'ziga 3-5 marta ko'p tortadi va reklama ma'lumotlari ularning xotirasida 2-3 marta chuqurroq qoladi va 1,5 - 2,0 marta potensial iste'molchilarini ko'p jalg qilishga imkon beradi.

Reklamaning *axloq-odob qoidalariga mos kelish tamoyili* deganda shu muayyan jamiyatda umume'tirof etilgan axloq-odob qoidalariga va amaldagi davlat qonunlariga mos kelishi tushuniladi.

Shuning uchun umume'tirof etilgan axloq-odob qoidalariga to'g'ri kelmaydigan va amaldagi davlat qonunlariga zid reklama berilmasligi kerak.

2. Reklamaning asosiy turlari

Reklama talab va iste'molchilar didining shakllanishiga ta'sir ko'rsatibgina qolmasdan korxona imijini shakllantirishga, joriy sotish hajmini ko'paytirish, haridorlarga nima sotib olishni va nima uchun sotib olish zarurligini hal qilishda ularga yordamlashadi. Demak, *reklamaning asosiy vazifasi* xaridorni qiziqtirish hamda korxona imijini shakllantirish orqali xaridorlarning sonini ko'paytirishdan va stabillashtirishdan iborat. Lekin har qanday reklama ham bu vazifani bajarish qobiliyatiga ega emas. Bunday xususiyat faqat haqqoniy reklamaga xos.

Reklamalarni, ularda tarqatiladigan ma'lumotlarning haqqoniy va nohaqqoniy bo'lishiga qarab, *haqqoniy* (to'g'ri reklama) va *nohaqqoniylarga* (noto'g'ri reklama) bo'lish mumkin.

Haqqoniy yoki *to'g'ri reklama* deganda amaldagi qonunlar oldida javobgarlikni sezgan holda ishlab chiqarilgan va tijorat faoliyatida qabul qilingan raqobat tamoyillariga amal qiladigan, ushbu jamiyatda qabul qilingan axloqiy me'yor va qoidalarga zid keladigan ma'lumot va tasvirlarni bermaydigan, iste'molchilarning

ishonchini, tajribasizligini yoki to‘liq ma’lumotlarga ega emasligini suiste’mol qilmaydigan, isbotlanmagan sabablarga ko‘ra iste’molchining vahima bosishni sezish xususiyatidan foydalanmaydigan hamda zulm o‘tkazishni keltirib chiqaruvchi ma’lumotlarni, raqiblarni, boshqalarni va ularning mahsulotlarini kamsitishga qaratulgan elementlarni o‘z ichiga olmaydigan, tovarlarning harakteristikasi, tarkibi, ishlab chiqarish uslubi va sanasi, qo‘llash diapazoni, miqdori, ishlab chiqargan kompaniya yoki mamlakat, narxi, to‘lov shakllari, kafolat shartlari va boshqa ma’lumotlar bo‘yicha iste’molchilarni chalg‘itishga olib keladigan ma’lumotlari va tasvirlari bo‘lmasligi reklama tushuniladi.

Nohaqqoniy yoki *noto‘g‘ri reklama* noaniqligi, ikki xil ma’noni anglatish, bo‘rttirib yuborish, yashirib ketishi oqibatida reklamani tarqatish vaqtin, joyi va usuliga nisbatan qo‘yilgan talablarni va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa talablarni buzishi natijasida reklamadan foydalanuvchilarni chalg‘ituvchi yoki chalg‘itishi mumkin bo‘lgan, shaxslarga, shuningdek, davlatga zarar va ma’naviy zarar yetkazuvchi reklama noto‘g‘ri (insofsiz, bila turib yolg‘on) reklama hisoblanadi. Noto‘g‘ri yoki nohaqqoniy reklamaning barcha turlarini tarqatish O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga ko‘ra man etiladi. Reklamani noto‘g‘ri deb topish huquqi vakolatli maxsus organlarga beriladi.

Nohaqqoniy reklama o‘z navbatida *soxta, insofsiz* (vijdonsiz), *ishonchsiz* va *yashirin* reklamalarga bo‘linadi.

Soxta reklama deganda reklama iste’molchilarini bila turib (ataylab) chalg‘itishga qaratilgan reklama tushuniladi. Soxta reklamani tarqatuvchilar qonun oldida javobgar hisoblanadi.

Insofsiz yoki *vijdonsiz reklama* deganda reklama qilinayotgan tovarlardan foydalanmaydigan yuridik va jismoniy shaxslarga nisbatan past nazar bilan qarashga qaratilgan reklama tushuniladi.

Mahsulotning moddiy, muhim, ishonchli xossalari, korxona interyeri va eksteryeri boshqa yuridik va jismoniy shaxslarning mahsuloti, interyeri hamda eksteryeri bilan noxolisona va noinsoflik bilan taqqoslangan reklama, undan foydalanuvchini chalg‘itib qo‘yish mumkin bo‘lgan, reklama beruvchi va raqobatchining shaxsi va reklama

beruvchining va raqobatchining tovar belgilari (xizmat ko‘rsatish belgilari), firma nomi, mahsuloti aralashib ketgan hamda raqobatchining ishchanlik obro‘sini yoki uning tovar belgisini (xizmat ko‘rsatish belgisini), firma nomini, mahsulot yoki faoliyatini badnom qiladigan qiyoslash reklama ham insofsiz reklama hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjalari ko‘ra insofsiz qiyosiy reklamani tarqatishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Qiyosiy reklama – bu raqobatchiga yoki uning tomonidan taqdim etilayotgan muayyan bir turdag'i mahsulotga bevosita yoki bilvosita aynanlashtiradigan reklama. Agar reklamada mahsulotning moddiy, muhim ishonchli xossalari xolisona va insofli taqqoslangan bo‘lsa, reklama undan foydalanuvchini chalg‘itib qo‘ymasa va chalg‘itib qo‘yishi ham mumkin bo‘lmasa, reklama beruvchi bilan raqobatchining shaxsi yoki reklama beruvchi va raqobatchining tovar belgilari (xizmat ko‘rsatish belgilari), firma nomi, mahsuloti aralashib ketmagan bo‘lsa hamda raqobatchining ishchanlik obro‘sini yoki tovar belgisini (xizmat ko‘rsatish belgisini), firma nomini, mahsulot yoki faoliyatini badnom qilmaydigan qiyosiy reklamani O‘zbekiston Respublikasi «Reklama to‘g‘risida»gi qonunining 15-moddasiga ko‘ra respublika hududida tarqatishga ruxsat beriladi.

Ishonchsiz yoki shubhali reklama deganda tovarlarning tarkibi, ishlab chiqarish sanasi va uslubi, mo‘ljallanishi, iste’mol xossalari va shularga o‘xshash ko‘rsatkichlari bo‘yicha haqiqatga to‘g‘ri kelmaydigan ma’lumotlarni o‘z ichiga oladigan reklama tushuniladi.

Yashirin reklama iste’molchining idrokiga uning o‘zi anglamagan holda ta’sir o‘tkazadigan, shu jumladan maxsus videoilovalardan (qo‘sh ovozli yozuvdan) foydalanish yo‘li bilan hamda boshqa usullar bilan ta’sir o‘tkazadigan reklamadir. Yashirin reklamadan radio-, tele-, video-, audio- va kino mahsulotlarida, shuningdek, boshqa mahsulotda foydalanishga va uni o‘zga usullar bilan tarqatishga yo‘l qo‘yilmaydi («Reklama to‘g‘risida»gi qonunning 14-moddasi).

3. Reklama darajalari

Ma'lumotlarning tarqatilish hududiga qarab reklama quyidagi turlarga bo'linadi: *xalqaro reklama, umummilliy reklama, mintaqaviy reklama va joylardagi reklama.*

Xalqaro reklama deganda boshqa mamlakatlarning bozoriga qaratilgan reklama tushuniladi. Bu reklama turiga sayyohlik tashkilot o'zining faoliyati sferasida kirish turizmi departamentiga ega bo'lsa va boshqa mamlakatlardagi mijozlarga mo'ljallangan bo'lsa murojaat qiladi.

Umummilliy reklama mamlakatning bir necha hududidagi sheriklarga mo'ljallangan bo'ladi. Umummilliy reklamani moliyaviy qo'llab-quvvatlaydigan tashkilotlar, ya'ni reklama beruvchi shaxslar umummilliy reklama beruvchilar hisoblanadi. Telekompaniyalar kanallarida va gazetalarda namoyish etib boriladigan reklamalar umummilliy reklamadir. Bu turdagি reklama murojat qiladigan sayyohlik firmalari ko'p hollarda yirik turoperatorlar bo'lib, bu kabi reklama orqali ular regional sayyohlik agentlariga o'zlarining dasturlari haqida ma'lumot beradilar.

Mintaqaviy reklama agentliklari reklama o'rnini ham umummilliy reklamaga, ham mintaqaviy reklama sotadi. Bu yo'l bilan mamlakatning ma'lum bir hududida faoliyat ko'rsatadigan sayyohlik firmasi, hududiy nashriyotda joy olishi yoki butun mamlakatga emas, balki ma'lum bir hudud televideniyesida reklama namoyishi vaqtini sotib olishi mumkin.

Joylardagi reklama asosan chakana savdo korxonalari tomonidan beriladi va xarajatlari qoplanadi. Joylardagi reklama ma'lumotlari u yerdagi reklama vositalari orqali beriladi. Agar umummilliy va mintaqaviy reklamalar tovarlarning muhim xossalari va boshqalardan ustunlik tomonlarini ommalashtirish (ko'z-ko'z) uchun mo'ljallangan bo'lsa, joylardagi reklamalar esa tovarlarni realizatsiya qiladigan va xizmat ko'rsatadigan korxonalarning manzillari to'g'risida ma'lumotlar beradi. Joylardagi reklamada birinchi navbatda narxlar, yo'llanmalar sotish bo'yicha menejerlarning manzili va boshqa o'ziga xos xususiyatlari ko'rsatilib o'tiladi.

4. Reklamaga qo‘yiladigan etik talablar va reklamatsiya

Yuqorida ko‘rsatilgan reklama turlaridan tashqari umume’tirof etilgan axloqiy qoidalar talablariga to‘g‘ri kelishiga qarab reklamani quyidagi turlarga bo‘lish mumkin: *odobli* va *beadablarcha reklama*.

Odobli reklama deganda unda beriladigan matnli, ovozli va vizual materiallarning, tasvir va belgilarning ushbu jamiyatda umume’tirof etilgan axloq-odob qoidalariga to‘g‘ri keladigan reklama tushuniladi. Odobli reklamada, masalan, yalang‘och kishilarning tasvirlari va axloqiy qoidalarga to‘g‘ri kelmaydigan ovozli eshittirishlar, tasvir va yozuvlar hamda roliklar berilmasligi kerak.

Beadablarcha reklamada jamiyatda umume’tirof etilgan qoidalarni buzadigan matnli, tasvirli, ovozli va boshqa shakllarga ega bo‘lgan, millatni, diniy, siyosiy va falsafiy dunyoqarashlarni, ijtimoiy guruhlarni, kasbini va birovlarning tovarlarini kamsitadigan ma’lumotlar berilishi mumkin.

Reklamatsiya lotincha so‘zdan olingan bo’lib, “reklamatio” – e’tiroz, ma’qullamaslik kabi ma’nolarni anglatadi:

1) yetkazilgan zararni qoplash talabnomasi, ya’ni o’zaro tuzilgan kelishuv shartnomasidagi shartlarning bir tomonlama bajarilmasligiga nisbatan ikkinchi tomonning arizasi;

2) xaridor yoki iste’molchining sotuvchi yoki yetkazib beruvchiga nisbatan kelishuv shartnomasidagi buzilgan shartlarning tafsiloti. Shunga ko‘ra yetkazilgan zararlarni qoplash, kelishuv narxlarini tuzilishi, kamchiliklarni tuzatish kabi e’tirozlar aks ettirilgan arizasi.

5. Aksilreklama, kodeks tushunchalari

Aksilreklama. *Aksilreklama* deganda “Reklama to‘g‘risida”gi Qonun hujjatlari buzilganligi aniqlagan vakolatli davlat organlari qaroriga binoan ular ko‘rsatgan muddatda qonun hujjatlari buzilganligi to‘g‘risida qonunbuzar tomonidan ixtiyoriy ravishda yoki sud qaroriga asosan beriladigan reklama tushuniladi. Mazmuni

qonunbuzarlik holatini aniqlagan va uni tuzatish to‘g‘risida qaror qabul qilgan davlat organlari bilan kelishilgan aksilreklama raddiya berilayotgan reklama e’lon qilingan ayni o‘sha axborot vositalarida, ayni o‘sha muddat, makon, joy va tartibdan foydalangan holda beriladi. Faqt ayrim vaqtarda bu organning qaroriga binoan aksilreklama beriladigan axborot vositasi muddati, joyi va tartibi o‘zgartirilishi mumkin. Amaldagi “Reklama to‘g‘risida”gi qonunga ko‘ra aksilreklama berishni amalga oshirish bilan bog‘liq harajatlar qonunbuzar tomonidan qoplanadi. Agar qonunbuzar tomonidan aksilreklama “Reklama to‘g‘risida”gi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshiruvchi organ belgilagan muddatda berilmasa, mazkur organ qonunbuzarning reklamasini, u aksilreklamani berguncha, to‘liq yoki qisman to‘xtatib qo‘yish haqida qaror qabul qilishga hamda “Reklama to‘g‘risida”gi qonun hujjatlarini buzgan shaxs bilan shartnama tuzgan taraflarni bundan xabardor qilish va ushbu qonunning 29-moddasiga ko‘ra jarima solish huquqiga ega.

Kodeks tushunchasi. Har bir mamlakatda reklama faoliyatini tartibga solib boshqaradigan hujjat bo‘ladi. Bunday hujjat *Reklama Kodeksi* nomi bilan yuritiladi. Reklama Kodeksi deganda tushunchalar, tavsiyalar va bajarish tartiblarini o‘z ichiga oladigan tizimlar majmuasi tushuniladi. Reklama Kodeksi har bir davlatning reklama kengashi tomonidan qabul qilinadi.

Reklama Kodeksining asosiy maqsadi – uning me’yorlariga reklama faoliyati sub’ektlari tomonidan o‘z xohishlariga ko‘ra rioya qilish orqali mamlakatda reklama faoliyatlarini tartibga solish va ularni samarali rivojlantirishdan iborat. Reklama Kodeksi madaniy reklama bozorini shakllantirishga, unda sog‘lom raqobatni rivojlantirishga va bozorda vijdonli reklamalarning paydo bo‘lishiga qaratilgan.

Davlatlarning milliy reklama Kodeksi Xalqaro Savdo Palatasining Xalqaro Reklama Kodeksi bazasi asosida shakllantiriladi va ushbu mamlakatda qabul qilingan etik me’yorlar va qoidalar bilan boyitiladi.

Kodeks reklamaning barcha qatnashchilarini (reklama beruvchilar, reklama ma’lumotlarini yetkazib beruvchi ommaviy axborot vositalari va boshqa reklama sub’ektlari) tomonidan itoat qilinishi lozim bo‘lgan etik me’yor va qoidalar standartlarini belgilaydi. Ushbu qoida va me’yorlar nafaqat reklama mazmuniga, balki

so‘z va raqamlarga (yoziladigan va og‘zaki aytiladigan so‘z va raqamlar), vizual tasvirlarga, musiqa, tovush effektlariga va boshqa reklama elementlariga tegishli.

Reklama sohasining boshqa atamalari. Ushbu bandda reklama sohasining boshqa atamalaridan «reklama beruvchi», «reklama tayyorlovchi», «reklama tarqatuvchi», «reklamadan foydalanuvchi», «reklama vositalari» va «mahsulot» tushunchalarining mazmuni olib beriladi.

Reklama beruvchi deganda reklamani tayyorlash yoki tarqatish uchun unga buyurtma beruvchi yuridik yoki jismoniy shaxs tushuniladi

Reklama tayyorlovchi – bu reklama tayyorlashni to‘liq yoki qisman amalga oshiruvchi yuridik yoki jismoniy shaxs hisoblanadi.

Reklamani tarqatuvchi deganda reklama vositalari orqali reklama tarqatishni amalga oshiruvchi yuridik yoki jismoniy shaxs tushuniladi.

Reklamadan foydalanuvchi – bu reklama yo‘naltirilgan shaxs yoki shaxslar guruhি.

Reklamani undan foydalanuvchilarga yetkazish uchun ishlataladigan vositalar *reklama vositalari* deb ataladi, masalan, radio, televizor, gazeta, jurnal va shularga o‘xshaganlar.

Mahsulot deganda tovarlar, ishlar va xizmatlar tushuniladi.

Nazorat savollari:

1. Reklamaning asosiy maqsadi nima?
2. Haqqoniylit va ishonchlilik tamoyillari nimani bildiradi?
3. Reklamaning adreslilik tamoyili deganda nimani tushunasiz va bu tamoyilga amal qilishning qanday ijobjiy tomonlarini bilasiz?
4. Axloq-odob qoidalariiga mos kelish tamoyilining mohiyatini olib bera olasizmi?
5. Reklamaning asosiy vazifasi nima?
6. Haqqoniy yoki to‘g‘ri reklama deganda qanday reklama tushuniladi?
7. Nohaqqoniy yoki noto‘g‘ri reklamani ta’riflab bering!
8. Soxta reklama deganda siz uni qanday tushunasiz?
9. Insofsiz yoki vijdonsiz reklama – bu qanday reklama?
10. Qiyosiy reklamani ta’riflab bering!
11. Ishonchsiz reklama deganda siz qanday reklamani tushunasiz?

12. Yashirin reklama deganda siz qanday reklamani tushunasiz?
13. Qaysi reklama turi xalqaro reklama deyiladi?
14. Umummilliy reklama – bu qanday reklama?
15. Mintaqaviy reklama deganda qanday reklamani tushunasiz?
16. Joylardagi reklama – bu qanday reklama va nima maqsadlarda beriladi?
17. Umume'tirof etilgan axloqiy qoidalarga ko'ra reklama qaysi turlarga bo'linadi?
 18. Odobli reklama deganda qaysi reklamani tushunasiz?
 19. Reklamatsiya deganda nimani tushunasiz?
 20. Aksilreklama deganda qanday reklama tushuniladi?
 21. Qaysi hujjat Reklama Kodeksi nomi bilan yuritiladi?
 22. Reklama Kodeksining asosiy maqsadi nimadan iborat?
 23. Davlatlarning milliy Reklama Kodeksi qaysi xalqaro hujjat asosida yaratiladi?
 24. Reklama Kodeksi qanday me'yor, qoida va tizimlarni o'z ichiga oladi?
 25. Reklama tayyorlovchi deganda kimlarni tassavur qilasiz?
 26. Qaysi shaxslar reklama tarqatuvchi deyiladi?
 27. Reklamadan foydalanuvchilarni kimlar tashkil qiladi?
 28. Reklama vositalari deganda nimani tushunasiz, mahsulot deganda-chi?

21-mavzu. Reklama vositalari va ulardan foydalanishni rejalashtirish

Mavzu rejasi:

1. Ma'lumotnomma va tijorat takliflari xati
2. Ma'lumot varaqlari
3. Bosma reklama va uning turlari
4. Buklet, prospekt, katalog, press-reliz
5. Reklama suvenirlari. Ko'chalarda o'rnatiladigan ma'lumotnomma vositalari

Tayanch iboralar: firma, turagentlar, ma'lumotnomma vositalari, ma'lumot xati, tijorat takliflari, ma'lumot varag'i, prays-varaq, reklama varag'i, bosma reklama, kitobdagi reklama, matbuotda beriladigan reklama, mutaxassislar fikri, buklet,

prospekt, katalog, press-reliz, reklama suveniri, afisha, bilbord, brandmauer, rotoafisha, sendvichmen.

1. Ma'lumotnoma va tijorat takliflari xati

Ma'lumotnoma reklama vositalari reklama ma'lumotlarini tarqatishning eng keng qo'llaniladigan vositalari hisoblanadi. Servis xizmatlarini ko'rsatadigan va turistlar uchun mahsulotlarni ishlab chiqaradigan yoki tarqatadigan firmalar (turoperatorlar firmalari) turagentliklar bilan birgalikda yoki o'zлari mustaqil ravishda o'ta chiroyli bezatilgan rasmlи risolalar, bukletlar, kataloglar va shunga o'xshagan boshqa ma'lumotnoma vositalarini ishlab chiqarishadi. Ularda qisqa, ta'sirchan va ma'noli yozilgan matnlar, turli tasviriylar usullar yordamida bo'lajak iste'molchilarga xizmat ko'rsatish imkoniyatlari to'g'risida ma'lumotlar beriladi. Bunday materiallarga odamlarda qiziqish uyg'otish uchun rangli fotosuratlar orqali korxona binolarining umumiyligi ko'rinishi, hovli landshaftlari, bino xonalarining interyerlari hamda tarixiy va madaniy ob'yektlarning rangli suratlari beriladi.

Adabiyotlardagi mavjud materiallarga ko'ra reklama faoliyatida ma'lumotnoma vositalarining quyidagi turlaridan keng foydalanishadi:

- ma'lumot xati;
- tijorat takliflari yoki xati;
- ma'lumotnoma varag'i;
- prays-varaq;
- reklama varag'i;
- prospekt;
- katalog;
- press-reliz;
- reklama suvenirlari;
- afisha;
- bilbord;

- brandmauer;
- rotoafisha;
- sendvichmen.

Ko‘rsatilgan ma’lumotnomalar vositalarining ba’zilari oddiy xat, varaq yoki rangli suratlari varaqlari shaklida bo‘lsa, afisha, bilbord, brandmauer, rotoafisha statsionar o‘rnatilgan taxtachalarda yoki devorlarda beriladi. Sendvichmen esa maxsus xodimlar ustiga osib yuradigan va bir-birlari bilan maxsus berkitilgan ikkita taxtachadan iborat bo‘ladi.

Ma’lumot xati – bu firma blankasida yozilgan xat shakliga ega bo‘lgan ma’lumotnomalar vositasi hisoblanadi, ma’lum bir mansabdor yoki jismoniy shaxslarga mo‘ljallangan bo‘lib, unda firma yoki uning faoliyati to‘g‘risida ma’lumotlar beriladi. Ma’lumot xati yangi tovar va xizmatlarning nomlari va filiallarni ochish kabi ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi. Ma’lumot xatining matnida uni yozish maqsadi o‘z ifodasini topishi lozim.

Umuman olganda, ma’lumot xati bo‘lajak mijozlar va hamkorlar bilan kontakt o‘rnatishning birlamchi shakli hisoblanadi.

Ma’lumot xatlari individual yozilgan va bir necha kishiga mo‘ljallanib yozilgan bo‘lishi mumkin. Ma’lumot xatiga quyidagi talablar qo‘yilgan: birinchidan, xatning matni katta bo‘lmasligi kerak; ikkinchidan, gaplar qisqa, ravon va aniq bo‘lishi shart; uchinchidan, xat erkin fikrlarda bayon etilishi lozim.

Tijorat takliflari deganda ma’lumot xatiga nisbatan reklama ma’lumotlari kam, lekin tijorat takliflari ko‘p hajmni egallaydigan xat tushuniladi. Tijorat taklifi uni yuborayotgan firmanın faoliyati bilan tanish bo‘lgan mijozlarga yuboriladi. Tijorat takliflari xati bir yoki bir necha aniq takliflarni o‘z ichiga oladi va bu takliflar har tomonlama asoslanib beriladi. Xatning bu turi ma’lumot xatiga nisbatan kattaroq hajmli bo‘ladi, chunki unda ilova shaklida keltirilgan fikrlarni tasdiqlovchi qo‘sishma materiallar qo‘yiladi. Tijorat takliflari xati katta hajmda bo‘lganligi sababli kitobcha shaklida rasmiylashtiriladi.

2. Ma'lumot varaqlari

Ma'lumot varag'i mazmuni bo'yicha ma'lumot xatiga o'xshash bo'lib, firma to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olmaydi va firma blankasida yozilmaydi. Bundan tashqari varaqning formatiga ham qat'iy talab qo'yilmaydi, ular uchun firma belgisi solingan va firmada qabul qilingan rangli qog'ozlar ishlataladi.

Ma'lumot varag'ida umumiylar va kasbiy murojaatlar (ishchan va boshqa kishilarga) ham berilishi mumkin. Ma'lumot varag'i uzoq muddatlarga mo'ljallangan bo'lib, ma'lum bir aniq kishiga yoki firmaga emas, mijozlar guruhlariga firma va ko'rgazmalariga keladiganlarga mo'ljallangan bo'ladi. Shuning uchun ham uning matni qisqa va oddiy tilda, mazmuni bo'yicha hamma uchun tushunarli va savollarning tug'ilishiga yo'l qo'yilmasligi kerak.

Prays-varaq bosma reklamaning maxsus turi hisoblanib, unda hech qanday illyustratsiyasiz servis korxonasi ko'rsatadigan xizmatlarining va realizatsiya qiladigan mahsulotlarining assortimenti va narxi ko'rsatiladi. Prays-varaq reklama ma'lumotlarini o'z ichiga olib qolmasdan psixologik ta'sir ham ko'rsatadi, erkin holda mahsulot va xizmatlar narxlarining yozib qo'yilishi mijozlarda ushbu firma yoki korxonaning ishonchli ekanligi to'g'risida fikr tug'diradi. Bundan tashqari hech kimga murojaat qilmasdan tovar va xizmatlarni mijozlar o'zlarining iqtisodiy imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda tanlash huquqiga ega bo'ladi.

Reklama varag'i. Unda aniq bir mahsulot yoki xizmat to'g'risida reklama ma'lumotlari beriladi, shuning uchun ham reklama varag'ining hajmi kichik bo'lib, uning matni va illyustratsiyalari bir varaqda beriladi. Reklama varaqlaridan reklama ma'lumotlarini tezkorlik bilan tayyorlash va tarqatish kerak bo'lganda foydalaniladi, chunki hajmi kam bo'lganligi sababli uni juda ham tez shakllantirish mumkin.

Potensial iste'molchilar uchun reklama varaqlari pochta orqali yuborilsa, qolgan kishilarga esa ko'rgazmalar, taqdimotlar, seminar va konferensiyalar hamda korxona xizmati yoki mahsulotidan foydalanish davrida tarqatiladi.

Reklama varag‘i juda ham ko‘zga tashlanadigan, shu sababli ham odamlarda uni olib ko‘rish va o‘qish tuyg‘usini tug‘diradigan bo‘lishi kerak. Shuning uchun ular rangli, chiroyli illyustratsiyalanadi.

3. Bosma reklama va uning turlari

Tipografiya usulida tayyorlanadigan barcha reklama turlariga umuman *bosma reklama* deyiladi. Bosma reklamaga kitoblarda, jurnallarda va gazetalarda beriladigan reklama e’lonlari, bukletlar, kataloglar, prospektlar, afishalar va shularga o’xshaganlar kiradi. Ushbu mavzuda faqat kitoblarda, gazeta va jurnallarda beriladigan reklama turlarini ko’rib chiqamiz.

Kitobdagi reklama deganda unda joylashtiriladigan reklama e’lonlari tushuniladi. Reklama e’lonlarini kitobda joylashtirishning asosiy shartlaridan biri shundan iboratki, reklama e’lon mazmuni kitob mazmuniga va bezagiga mos kelishi lozim. Kitobda beriladigan reklama e’lonlari odatda uning oxirida joylashtiriladi. Lekin kitobning o’rtasida ham joylashtirilishi mumkin, buning uchun u albatta alohida varaqda berilishi kerak.

Kitobda reklama beruvchilar yana shunga e’tibor berishlari kerakki, bunda asosan uzoq muddatlarga mo’ljallangan reklama e’lonlari joylashtiriladi. Bundan tashqari kitobdagi reklama e’lonlari reklama beruvchilar uchun juda ham qimmatga tushishi mumkin, chunki reklama beruvchi mablag‘i bilan uni bosib chiqarishda va tarqatishda ishtirok etadi. Shu boisdan ham kitoblarda reklama berish deyarli homiylik bilan teng hisoblanadi.

Bosma reklama turlari o’rtasida *matbuotda*, ya’ni *gazeta* va *jurnallarda* beriladigan reklama asosiyalaridan biri hisoblanadi. Hozirda ham tele- va internet reklamaning rivojlanib borishiga qaramasdan matbuotda beriladigan reklama asosiy bo’lib qoladi. Ayniqsa gazetalarda beriladigan reklama e’lonlari potensial xaridorlarni jalb qilishning samarali usullaridan biri hisoblanadi. Reklama bo'yicha mutaxassislar fikrlariga ko'ra 10 gazetxondan 6 tasi gazetani boshdan oxirigacha o'qib chiqadi, 10 tadan 9 tasi eng muhim yangiliklarni o'qiydi. Bundan tashqari 10 ta erkak gazetxondan 9 tasi

gazetalarning sportga bag'ishlangan sahifalarini, 10 ta ayol gazetxondan esa 8 tasi xursandchilik materiallarini, aristokratlar xronikasini, o'yin-kulgilar hamda sayltomoshalar to'g'risidagi sahifalarni o'qishadi.

Gazetani har kuni va juda ko'p shaxslar o'qishi sababli unda beriladigan reklama e'lolnari potensial iste'molchilarni reklama qilinayotgan mahsulot yoki firma bilan tanishtirishning asosiy vositalaridan biri hisoblanadi.

4. Buklet, prospekt, katalog, press-reliz

Buklet deganda ma'lum bir firma (korxona), uning mahsuloti yoki xizmatining reklamasiga bag'ishlab tarqatiladigan maxsus ma'lumotnama vositasi tushuniladi. Amaldagi reklama tajribasiga ko'ra bukletlarda reklama matnlaridan tashqari birinchi boshliqlarning rangli fotosuratlari, qisqacha avtobiografiyalari, homiylik va mehribonlik aksiyalari, xalqaro ko'rgazma va yarmarkalarda qatnashganligi va erishgan yutuqlari ham ko'rsatilishi mumkin.

Bukletlar ma'lumotnama vositalarining ichida eng nufuzlisi hisoblanadi va shuning uchun ham eng yuqori sifatli qalin oq qog'ozlarda tayyorланади. Amaldagi etiket qoidalariга ko'ra bukletlar firma yoki korxona tomonidan tashkil qilinib, o'tkaziladigan yarmarka, ko'rgazma va prezentatsiyalar qatnashchilariga va shartnomalar tuzishda tarqatiladi.

Bukletlar asosan A4 formatli qog'ozda shakllantirilib, garmoshka shaklida bukланади. Reklama matni buklangan qog'ozning ichki yuzasidan bir yoki bir necha ustun shaklida joylashtiriladi.

Prospekt o'zining rasmiylashtirilishi va bezatilishi bo'yicha bukletga juda ham yaqin, faqat o'zining hajmi, rangli fotosuratlari, diagrammalari bilan ajralib turadi. Bukletlar yuridik yoki jismoniy shaxslarning bukletlariga yoki yangi turmahsulotlariga bag'ishlanib tayyorlanishi mumkin. Prospekt ham xuddi bukletdek, ma'lumotnama vositalarining eng obro'lisi hisoblanadi. Lekin bukletga nisbatan ko'proq harajatni talab qiladi. Tajribada buklet va prospektlarga nisbatan quyidagicha fikr shakllangan «Ular eng yuqori sifatli bo'lishi, agar sifatsiz bo'lsa, umuman tayyorlanmasligi kerak», chunki

ular raqiblar buklet va prospektlaridan o‘zlarining sifati bo‘yicha past bo‘lsa, reklama beruvchiga foyda keltirish o‘rniga zarar keltirishi mumkin.

Katalog. Odatda u kichik kitobcha shaklida bo‘ladi va bosma nashrdan chiqariladi. Unda firma tomonidan taklif qilinayotgan barcha mahsulot va xizmatlar ro‘yxati va narxi ko‘rsatiladi. Bundan tashqari tovar va xizmatlarga qisqacha ta’rif beriladi. Kataloglar o‘zining rasmiylashtirilishi bo‘yicha har xil bo‘lishi mumkin: bosmaxona shrifti bilan terilgan va mahsulot yoki xizmat nomi, mo‘ljallanishi va tavsiflarini o‘z ichiga oladigan oddiy matndan boshlab, rangli illyustratsiyalangan bo‘lishi mumkin. Katalog firma tomonidan taklif qilinayotgan mahsulot yoki xizmatlarning assortimenti juda katta bo‘lganda shakllantiriladi.

Katalog turoperatorlar tomonidan ishlab chiqariladigan reklama ma’lumotnoma vositalaridan eng asosiysi hisoblanadi.

Press-reliz deganda u yoki bu aksiyalarni o‘tkazilganligi haqidagi hisobotning reklama sifatida berilgan ma’lumotnoma vositasi tushuniladi. Press-reliz ko‘rgazmalar, prezentatsiyalar, presskonferensiyalar va mehribonlik tadbirlarida ommaviy axborot vositalari xodimlariga tarqatilib, jurnalistlarni tanishtirishga qaratilgan firma va prestiji mahsulotlar va xizmatlar, firmaning kelajagi, uning rahbarlari va o‘tkazilgan mehribonlik hamda homiylik tadbirlari to‘g‘risida qisqacha ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi.

Press-reliz materiallari o‘tkazilgan tadbirlarning tematikasi va muhimligiga qarab hajmi bo‘yicha har xil bo‘lishi mumkin.

5. Reklama suvenirlari. Ko‘chalarda o‘rnataladigan ma’lumotnoma vositalari

Servis sohasi korxonalari mahsulotlari va xizmatlarini reklama qilishda *suvenirlarning* ahamiyati juda ham katta. Servis sohasi korxonalari suvenirlari odatda quyidagilar majmuidan tashkil topgan bo‘ladi: vizit belgisi, logotipi yoki firma markasi tushirilgan paket, sigareta yondirgichlar, gugurt, kuldon, avtoruchka, bokal, fotosurat, videoyozyuv, nishonlar, shapochkalar, mayka va shularga o‘xshaganlar.

Bunday suvenirlar sotish va boshqa tadbirlarni o‘tkazish joylarida topshiriladi. Bunday suvenirlar viktorina o‘yinlarida mukofot sifatida qo‘yilishi yoki faol mijozlarga topshirish uchun foydalanishi mumkin.

Ko‘chalarda o‘rnataladigan ma’lumotnoma vositalariga afisha, bilbord, brandmauer, rotoafishalarni kiritish mumkin.

Afisha – bu katta o‘lchamli ko‘p rangli ma’lumotnoma vositasi bo‘lib, juda ham ko‘p illyustratsiyalar beriladi. Afisha odatda ko‘chalarda o‘rnatalishi sababli uning yuzasi namlikni o‘tkazmaydigan parda bilan qoplanadi.

Bilbord – shchit reklamasi bo‘lib, qurilish maydonchalarini, avtomobilarni saqlash joylarini o‘rab turadigan devorlarda yoki maxsus yasalgan konstruksiyalarda o‘rnataladi.

Brandmauer – binoning butun devori bo‘lib, unga shchitli reklama osiladi yoki panno o‘rnataladi. Agar devor suvalgan bo‘lsa, uning ustidan har xil reklama tasvirlari tushiriladi.

Rotoafisha – statsionar o‘rnatalgan uchburchak, to‘rburchak shaklida oyna bilan qoplangan figuralar bo‘lib, oyna ustidan reklama ma’lumotlari yoziladi, ichidan esa tunlari elektr lampalari bilan yoritiladi.

Sendvichmen – ko‘chalarda o‘rnataladigan ma’lumotnoma vositalarining alohidagi turi bo‘lib, maxsus tayyorlangan reklama agentini bildiradi. Agent ikki tomonidan (oldi va orqa) yozuv va tasvirlari bo‘lgan shchit reklamasini kiyib yuradi. Sendvichmenlar marshrutlari odamlarning gavjum joylarida belgilanadi. Ular reklama shchitini «kiyib» yurishdan tashqari shu kiyimlarga qiziqadigan barcha kishilarga reklama varaqalarini ham tarqatishadi.

Nazorat savollari:

1. Ma’lumotnoma vositalarining qaysi turlarini bilasiz?
2. Ma’lumot xatiga qanday talablar qo‘yiladi?
3. Tijorat takliflari xatining mohiyati nimadan iborat va ma’lumot xatidan nima bilan farq qiladi?
4. Ma’lumot varag‘ida qanday ma’lumotlar beriladi va uni tayyorlash uchun qanday qog‘oz ishlataladi?
5. Prays-varaqda beriladigan ma’lumotlarni bilasizmi?

6. Reklama varag‘ida qanday ma’lumotlar beriladi?
7. Qaysi usul yordamida beriladigan reklamaga bosma reklama deyiladi?
8. Matbuotda beriladigan reklamaga bosma reklamaning qaysi turi kiradi?
9. Gazetada beriladigan reklama e’lonlari bo'yicha reklama mutaxassislarining fikrlari qanday?
10. Buklet deganda reklamaning qaysi vositasi tushuniladi?
11. Bukletda reklama matnidan tashqari yana qanday materiallar berilishi mumkin?
12. Prospekt bukletdan nima bilan farq qiladi?
13. Katalogda qanday ma’lumotlar beriladi va u qanday ko‘rinishda rasmiylashtiriladi?
14. Press-reliz deganda nimani tushunasiz?
15. Reklama suvenirining tarkibiga qanday buyumlar kiritilishi mumkin?
16. Afisha – bu nima?
17. Bilbord deganda nimani tushunasiz?
18. Rotoafisha deganda qaysi reklama vositasini tushunasiz?
19. Sendvichmenning mohiyatini tushuntirib bering?

22-mavzu. Umumi ovqatlanish korxonalari tashqi va ichki reklamalari

Mavzu rejasi:

1. Transport va metropolitenda joylashtiriladigan reklama
2. Tashqi va ichki reklama
3. Tashqi reklama va uning xususiyatlari

Tayanch iboralar: *transport va metropoliten, transport ustidagi reklama, o’rnatilish joyi, avtomashina va mikroavtobus kuzovlaridagi reklama, tashqi reklama, ichki reklama, o’rnatish, tarixiy va madaniy yodgorliklar, dov-daraxtlarni payxon qilish va tutash hududi, tabiatni muhofaza qilish ob’yektlari.*

1. Transport va metropolitenda joylashtiriladigan reklama

Transport va metropolitenda joylashtiriladigan reklama ularning egalari va mulkdorlari bilan kelishilgan holda hamda xavfsizlik talablari va yo‘l qoidalariga muvofiq joylashtirilishi mumkin. Jamoat transporti vositalarida, metropoliten bekatlarida, vokzallarda, portlarda va aeroportlarda yo‘lovchilarga xabar beruvchi ovozli tarmoqlar orqali reklamani tarqatish taqiqlanadi (21-modda). Faqat bundan ijtimoiy reklamali axborot istisno.

Transport ustidagi reklama. Avtomashina va mikroavtobus kuzovlaridagi reklamalar sanoat va oziq-ovqat mahsulotlarini tashish vaqtida, yani omborga, magazinga hamda mijozlar uylariga qatnash mobaynida har xil rasmlar, yozuvlar, telefon raqamlari, firma nomi va hokazolar to‘g‘risida shahar jamoat transportidagi yo‘lovchilar, piyodalar diqqatini o‘ziga jalb qiladi. Masalan, shaharlarimizdagi “SHirin dunyo mahsulotlari”, “Muzqaymoqlar”, “Bravo-sut”, “XT Baxt kolbasalari” kabi yozuvli mashinalarga ko‘proq ko‘zimiz tushadi.

Transport ustidagi reklamalar, yani avtomashina va mikroavtobus kuzovlaridagi reklamalarga qo‘yiladigan talablar xarakterli jihatdan plakatlardagi reklamaga o‘xshasada, reklamadagi chizmalar, rasmlar, matnlar aniq, tushunarli, qisqa va ixcham bo‘lishi kerak-ki, piyodalar, avtobus, tramvay, taksilardagi yo‘lovchilarga o‘qilishi, tushunilishiga qiyinchilik tug‘dirmasligi kerak.

Transportdagi reklama - arzon va samarali foydalanish. Transportdagi reklama zamonaviy sharoitda tashqi reklamaning istiqbolli yo‘nalishlaridan biridir. Bu taxtali va boshqa reklama turlari bilan raqobatlasha oladi deb ishoniladi. Yirik xalqaro va milliy kompaniyalar (Kodak, Merloni, Ariston, Indesit, Aeroflot), transport reklamasidan foydalangan birinchi tajribadan so‘ng, o‘z brendlari haqida xabardorlik 40 foizga oshganligini, shuningdek samaradorlik va narxning oqilona nisbati aniqlanganligini ta’kidlaydilar. Transportda reklama afzalliklari: nisbiy arzon narxlar - reklama taxtasidan 2-3 baravar arzon, maqsadli auditoriyani qamrab olish imkoniyatini sezilarli darajada kengaytirishi mumkin bo‘lgan harakatchanlik, shaharning markaziy yo‘nalishlari yoki maxsus tarmoqlar jalb qilingan taqdirda samaradorlik sezilarli

darajada oshadi. Transportda reklama yuqori darajadagi qamrovga, etarlicha yuqori chastotaga ega va sizga maqsadli guruhga uzoq vaqt ta'sir ko'rsatishga imkon beradi.



22.1-rasm. Transport vositasidagi reklama

Transport reklamasining xususiyatlari Reklama ommaviy axborot vositalari doimiy harakatda, shuning uchun ularning auditoriyasi, shubhasiz, statsionar nashrlarga qaraganda kengroq. Yo'l tirbandligidan zerikkan har bir kishi, hech bo'limganda, bu juda ijobjiy rol o'ynaydi: shoshilinch oqimda transportning tezligi kamdan-kam hollarda 30 km dan oshadi, shuning uchun zerikkan haydovchilar va yo'lovchilar shunchaki biron bir e'tiborni jalb qiladigan narsaga qarashga majbur bo'lishadi. Avtotransport vositalari, odatda, katta hajmga ega bo'lib, mos ravishda reklama uchun mos keladigan maydon ham katta. Avtoulovlarining zamонавиy dizayni rasmlar va yozuvlarni qo'llash uchun katta tekis yoki ozgina kavisli sirtlarni ta'minlaydi, shuning uchun reklama xabarining ko'rinishi deyarli buzilmaydi. Transportda reklama qilish iqtisodiy jihatdan samaralidir ushbu turdag'i reklama narxlarining sifatiga nisbati haqiqatan ham noyobdir. Agar siz transport va statsionar tashqi reklama uchun shunga o'xshash reklama xabarları uchun oylik joylashtirish narxini hisoblasangiz, olingan summalar nisbati shunchaki ajablantiradi (albatta transport reklamasi foydasiga). Agar reklama kompaniyangizning shaxsiy transportida joylashtirilgan bo'lsa, unda harajatlar faqat rasm va yozuvlarni tayyorlash va chizishda bo'ladi, keyin sizning transportingiz odatdagidek ishlaydi (lekin

ayni paytda muhim ma'lumotlarni olib boradi va yoqilg'i va amortizatsiya harajatlarini to'laydi).

2. Tashqi va ichki reklama

Reklama malumotlarini o'zida ifodalaydigan statsionar reklama vositalari o'rnatilish joyiga qarab, reklama – *tashqi* va *ichki* *reklamalarga* bo'linadi.

Tashqi reklamaga alohida maxsus konstruksiyalarda, taxta lavhalarida, ekranlarda, bino va inshootlarning tashqi tomonida, shahar avtotransportlarida, ko'chalarda va odamlarning gavjum to'planadigan joylarida joylashtiriladigan reklama turlari kiradi.

Tashqi reklamani joylashtirish tartibi mahalliy hokimiyatning davlat organlari tomonidan belgilanadi. Tashqi reklama ko'cha yoritgichlarining tayanchlarida, ko'cha va yo'llarning qatnov qismlarida (xavsizlik texnikasiga riosa qilingan, yo'l belgilarini, jamoat transport bekatlarini to'sib qo'ymaydigan holda) o'rnatilishi kerak. Yana shuni etiborga olish kerakki, reklama yo'l ko'rsatgich belgilari tasvirlarini takrorlamasligi shart.

Reklama to'g'risidagi qonunning 20-moddasiga ko'ra «Tashqi reklamani tarixiy va madaniy yodgorliklarida, shuningdek dov-daraxtlarni payxon qilish va tutash hududdagi obodonlashtirish vositalarini buzish yo'li bilan joylashtirish taqiqlanadi».

